Ekologik menejment tizimi korxonalarda resurslardan oqilona foydalanish, chiqindilarni kamaytirish, ekologik to‘lovlar va jarimalarni iqtisodiy rag‘batlantirish mexanizmlari orqali boshqarishni samarali tashkil etishga imkon beradi. Xalqaro tajribalar shuni ko‘rsatadiki, ekologik menejmentni korporativ strategiyaga kiritish korxonalar raqobatbardoshligini oshiradi va barqaror rivojlanishga hissa qo‘shadi. Shu nuqtayi nazardan, O‘zbekistonda sanoat korxonalarida ekologik menejment tizimining samaradorligini oshirish masalasi dolzarb bo‘lib, uni chuqur ilmiy asosda o‘rganish va amaliy takliflar ishlab chiqish zarurdir. Ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi ekologik menejment tizimi doirasida samaradorlikni oshirish yo‘llarini aniqlash, mavjud muammolarni bartaraf etish hamda xalqaro ilg‘or tajribalarni milliy amaliyotga tatbiq etishdan iboratdir.

Tadqiqotning metodologik asosini ekologik menejment tizimi doirasida sanoat korxonalarining faoliyat samaradorligini baholashga oid ilmiy yondashuvlar tashkil etadi. Tadqiqot obyekti sifatida O‘zbekiston sanoat korxonalari, predmeti sifatida esa ularning ekologik menejment tizimi orqali amalga oshirayotgan faoliyati tanlab olindi. Ma’lumot manbalari sifatida Davlat statistika qo‘mitasi, Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi ma’lumotlari, sanoat korxonalarining ichki hisobotlari hamda xalqaro tashkilotlarning statistik bazalari qo‘llanildi. Tadqiqotda ekologik menejment samaradorligini o‘lchash uchun chiqindilarni qayta ishlash darajasi, resurslardan foydalanish samaradorligi, ekologik xarajatlar va ishlab chiqarish natijalari o‘rtasidagi bog‘liqlik kabi ko‘rsatkichlardan foydalanildi[1, 2, 3, 4].

Tahlilda tizimli yondashuv asosida iqtisodiy-matematik modellashtirish, komparativ tahlil, trend tahlili va ekspert baholash usullari qo‘llanildi. Sanoat korxonalarining ekologik faoliyatini xalqaro tajribalar bilan taqqoslash orqali samaradorlikka ta’sir qiluvchi omillar aniqlanib, ulardan milliy sharoitda foydalanish imkoniyatlari baholandi. Metodologiya shuningdek, “yashil iqtisodiyot” tamoyillarini hisobga olgan holda ekologik menejment tizimining samaradorligini oshirishga qaratilgan mexanizmlarni ishlab chiqish va ularni amaliyotga tadbiq etish yo‘nalishlarini belgilashga xizmat qildi[5, 6, 7].

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, O‘zbekiston sanoat korxonalarida ekologik menejment tizimi asta-sekin joriy etilayotgan bo‘lsa-da, uning samaradorligi yetarli darajada yuqori emas. Korxonalar faoliyatida ekologik menejmentga oid tashkiliy hujjatlar mavjud bo‘lsa-da, ularning amaliy ijrosi ko‘p hollarda yuzaki tus olmoqda. Chiqindilarni qayta ishlash darajasi o‘tgan yillarda biroz oshgani kuzatildi, biroq umumiy chiqindilar hajmiga nisbatan bu ko‘rsatkich 25–30% atrofida qolmoqda[11]. Resurslardan foydalanish samaradorligi ham yetarli darajada emas, xususan, suv va energiya sarfi yuqoriligicha qolmoqda.

Shu bilan birga, ayrim yirik sanoat korxonalarida ekologik menejment tizimini jahon standartlariga mos ravishda joriy qilish natijasida ijobiy o‘zgarishlar kuzatildi. Jumladan, chiqindilarni qayta ishlash darajasi 40% dan oshgan, atmosfera chiqindilari kamaygan va ishlab

chiqarish jarayonlarida energiya tejamkor texnologiyalar qo‘llanilgan. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, ekologik menejmentga ajratilgan mablag‘lar nafaqat atrof-muhitga salbiy ta’sirni kamaytiradi, balki korxona samaradorligini oshirishga ham xizmat qiladi.

Xalqaro tajriba bilan taqqoslash esa shuni anglatadiki, rivojlangan mamlakatlarda ekologik menejment samaradorligi yuqori bo‘lishining asosiy omillari sifatida rag‘batlantiruvchi iqtisodiy mexanizmlar, ekologik audit tizimi va “yashil texnologiyalar”ni keng joriy etish mavjud. Milliy amaliyotda bu mexanizmlardan foydalanish cheklanganligi tufayli samaradorlik pastligicha qolmoqda. Shu bois ekologik menejment tizimini takomillashtirish, iqtisodiy va tashkiliy rag‘batlantirish mexanizmlarini kengaytirish natijasida sanoat korxonalarining samaradorligini sezilarli darajada oshirish mumkinligi aniqlandi.



Manba: O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi ma’lumotlari 2020-2024 yy.

Grafikdan ko‘rinib turibdiki, 2020–2024 yillar davomida sanoat korxonalarida ekologik menejment samaradorligiga oid ko‘rsatkichlarda izchil o‘sish kuzatilmoqda. Chiqindilar hajmi yildan-yilga oshib, 3200 ming tonnadan 3720 ming tonnaga yetgan. Shu bilan birga, chiqindilarni qayta ishlash darajasi ijobiy tendensiyani namoyon etib, 18% dan 30% gacha ko‘tarilgan. Bu chiqindilarni boshqarishda progress mavjudligini bildiradi. Atmosfera chiqindilari hajmi ham ko‘payib borgan — 1500 ming tonnadan 1740 ming tonnagacha, bu esa sanoat ishlab chiqarishi kengayishi bilan bog‘liq. Suv sarfi ko‘rsatkichlari ham ortib, 5400 mln m^3 dan 6000 mln m^3 gacha yetgan. Bu resurslardan foydalanish bosimi hali ham yuqori ekanini anglatadi. Shu bilan birga, energiya samaradorligi ko‘rsatkichining 65% dan 75% gacha oshgani ijobiy natija bo‘lib, sanoat korxonalarida energiya tejamkor texnologiyalarni qo‘llash jarayoni kuchayib borayotganini tasdiqlaydi[10].

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, O‘zbekiston sanoat korxonalarida ekologik menejment tizimi asta-sekin shakllanayotgan bo‘lsa-da, uning samaradorligi hali ham yetarli darajada yuqori emas. Chiqindilar hajmining o‘sib borishi va suv resurslaridan foydalanishning ortishi korxonalar faoliyatining atrof-muhitga bosimi davom etayotganini anglatadi. Shu bilan birga, chiqindilarni qayta ishlash darajasining 18% dan 30% gacha oshishi hamda energiya samaradorligi ko‘rsatkichining 65% dan 75% gacha ko‘tarilishi korxonalarda ekologik boshqaruv mexanizmlarining asta-sekin ijobiy natija bera boshlaganini tasdiqlaydi[8, 9, 12, 14]. Xalqaro tajribalarni tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, rivojlangan mamlakatlarda ekologik menejment samaradorligini oshirishning asosiy yo‘llari sifatida “yashil texnologiyalar”ni keng joriy etish, ekologik soliqlar va rag‘batlantirish mexanizmlarini

qo‘llash, shuningdek, ekologik audit tizimining samarali ishlashi muhim rol o‘ynaydi. Milliy amaliyotda bu mexanizmlarning to‘liq joriy qilinmagani samaradorlikning pastligiga sabab bo‘lmoqda. Shu sababli, O‘zbekistonda sanoat korxonalarining samaradorligini oshirish uchun, birinchidan, ekologik menejment tizimini xalqaro standartlar asosida joriy etish, ikkinchidan, chiqindilarni qayta ishlash va resurslardan samarali foydalanishga doir rag‘batlantiruvchi iqtisodiy mexanizmlarni kuchaytirish, uchinchidan, “yashil iqtisodiyot” tamoyillariga asoslangan texnologiyalarni kengaytirish zarur. Ushbu yondashuvlar sanoat korxonalarining barqaror rivojlanishini ta’minlash, ekologik xavfsizlikni mustahkamlash va iqtisodiy samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Abdukarimov, S. (2021). *Ekologik menejment tizimini rivojlantirish nazariy va amaliy asoslari*. Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti.
2. Karimova, N. & Tojiboev, O. (2020). ‘Sanoat korxonalarida ekologik samaradorlikni baholash metodlari’, *Iqtisodiyot va innovatsiyalar jurnali*, 3(2), pp. 44–53.
3. Rasulov, I. (2022). *Yashil texnologiyalar va ularning sanoatdagi qo‘llanilishi*. Samarqand: SamDU nashriyoti.
4. World Bank. (2021). *Sustainable Industrial Development and Environmental Management*. Washington: World Bank Publications.
5. OECD. (2020). *Green Growth Indicators 2020*. Paris: OECD Publishing.
6. UNDP. (2022). *Integrating Environmental Management Systems in Industry*. New York: UNDP Reports.
7. Porter, M.E. & Kramer, M.R. (2006). ‘Strategy and Society: The Link Between Competitive Advantage and Corporate Social Responsibility’, *Harvard Business Review*, 84(12), pp. 78–92.
8. Shrivastava, P. (1995). ‘Environmental Technologies and Competitive Advantage’, *Strategic Management Journal*, 16(S1), pp. 183–200.
9. UNEP. (2021). *Global Environment Outlook 6: Healthy Planet, Healthy People*. Nairobi: UNEP.
10. State Committee of Statistics of Uzbekistan. (2023). *Environmental Indicators of Industrial Enterprises in Uzbekistan*. Tashkent.
11. Ministry of Ecology of Uzbekistan. (2022). *Annual Report on Environmental Management in Industry*. Tashkent.
12. Daly, H.E. (1996). *Beyond Growth: The Economics of Sustainable Development*. Boston: Beacon Press.
13. Elkington, J. (1997). *Cannibals with Forks: The Triple Bottom Line of 21st Century Business*. Oxford: Capstone Publishing.
14. Pearce, D. (2002). ‘An Intellectual History of Environmental Economics’, *Annual Review of Energy and the Environment*, 27(1), pp. 57–81.
15. Stern, N. (2007). *The Economics of Climate Change: The Stern Review*. Cambridge: Cambridge University Press.

UDK: 331.08

PERSONAL IQTISODIYOTINING RIVOJLANISH NAZARIYASI

ТЕОРИЯ РАЗВИТИЯ ЭКОНОМИКИ ПЕРСОНАЛА

DEVELOPMENT THEORY OF PERSONNEL ECONOMICS

Zufarova G.A.
Andijon davlat texnika instituti “Iqtisodiyot” kafedrasi professori, i.f.n.

Annotatsiya

Ushbu maqolada personal iqtisodiyoti rivojlanishiga hissa qo‘shgan olimlarning nazariy qarashlari tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar. Personal, mehnat, inson kapitali, xafsizlik, ish haqi, personal iqtisodiyoti, rag‘batlantirish, lavozim, moslashish, ishlab chiqarish funksiyasi

В данной статье анализируются теоретические взгляды учёных, внесших вклад в развитие экономики персонала.

Ключевые слова. Персонал, труд, человеческий капитал, безопасность, заработная плата, экономика персонала, мотивация, должность, адаптация, производственная функция.

This article analyzes the theoretical views of scholars who have contributed to the development of personnel economics.

Keywords. Personnel, labor, human capital, safety, wages, personnel economics, motivation, position, adaptation, production function.

Xodimlarni mehnat faoliyatida samarali ishlatishning asosiy nazariyasi unumdorlikni oshirish, xodimlar qo‘nimsizligini qisqartirish, ma’naviyatni yaxshilash va yuqori sifatli iste’dodlarni jalb qilish va shu bilan korxonaning samaradorligini oshirishdan iborat. Xodimlar mehnat faoliyatini boshqarish uchun tabaqalashgan ish haqidan foydalanishi mumkin.

Ingliz klassik siyosiy iqtisodining asoschisi V.Petti tomonidan " insonning ishlab chiqarish sifatlarining pul qiymatida ko‘rinishida baholash" nazariyasiga asos qo‘yilgan, A.Smit inson kapitali g‘oyasi haqidagi nazariyaga, “Inson ko‘rinishidagi kapitalga ”J.Makkullok, J.B.Say, J.Mill, N.Seniorlarning, neoklassik nazariya asoschilaridan ta’limga investisiya bo‘yicha A.Marshallning, kadrlar iqtisodiyoti nazariyalari bo‘yicha, shu bilan birga Gibbonsning nazariy qarashlari tahlil qilingan. Xodimlar iqtisodini o‘rganishdan maqsad korxona darajasidagi inson resurslari amaliyotini tushunish va takomillashtirish uchun iqtisodiy tamoyillarni qo‘llash, kompensatsiya, yollash va jamoa tuzilmalarining ishchi motivatsiyasi va firma maqsadlariga qanday ta’sir qilishiga e’tibor qaratishdir.

Inson kapitalini rivojlantirish muammosi iqtisodiyot tarixida chuqur ildizlarga ega. Insonning ishlab chiqarish sifatlarining pul qiymatini baholashga birinchi urinish ingliz klassik siyosiy iqtisodining asoschisi V.Petti tomonidan amalga oshirildi. U jamiyat boyligi odamlarning kasbining xususiyatiga bog‘liqligini ta’kidlab, “odamlarning malakasini oshiruvchi va ularni u yoki bu faoliyat turiga yo‘naltiradigan, o‘z-o‘zidan katta ahamiyatga ega bo‘lgan foydasiz mashg‘ulotlar bilan foydali mashg‘ulotlar o‘rtasida farqlar unumdorlikka ta’sirini V.Petti nazariyasida asoslangan hamda xalq ta’limida katta foyda keltirdi.

Keyinchalik inson kapitali g‘oyasi A.Smitning «Xalqlar boyligining tabiati va sabablarini o‘rganish» (1776) asarida o‘z ifodasini topgan. U mehnatkashning ishlab chiqarish fazilatlarini iqtisodiy taraqqiyotning asosiy dvigateli deb hisobladi. A.Smit «Foydali mehnat unumdorligini oshirish, avvalo, ishchining epchilligi va mahoratining oshishiga, keyin esa u ishlagan mashina va asboblarning takomillashtirilishiga bog‘liq» deb yozgan edi.

19—20-asr oxirlarida J.Makkullok, J.B.Say, J.Mill, N.Senior kabi iqtisodchilar shaxs tomonidan kiritilgan mehnat qobiliyatlari uning “inson” ko‘rinishida kapital hisoblanishi kerak, deb hisoblaganlar. Shunday qilib, 1870-yildayoq J.R.Makkallok shaxsni kapital sifatida aniq belgilab bergan. Uning fikricha, kapitalni sanoat ishlab chiqarishining insonga xos bo‘lmagan, uni qo‘llab-quvvatlashi va ishlab chiqarishga hissa qo‘shishi uchun qo‘llashi mumkin bo‘lgan bir qismi sifatida tushunish o‘rniga, insonning o‘zini shunday deb hisoblash mumkin emasligi uchun asosli sabablar yo‘q dek tuyuladi va uni milliy boylikning tashkil etuvchi qismi deb hisoblash mumkin bo‘lgan ko‘plab sabablar mavjud. Ushbu muammoni tushunishga J. B. Say muhim hissa qo‘shdi. Uning ta’kidlashicha, xarajatlar orqali olingan kasbiy ko‘nikma va qobiliyatlar mehnat unumdorligini oshirishga olib keladi va shu nuqtai nazardan kapital deb hisoblanishi mumkin.

J. B. Say inson qobiliyatlarini jamlash mumkin deb hisoblab, ularni kapital deb atagan. Jon Styuart Mill shunday deb yozgan edi: "Insonning o‘zini мen boylik deb hisoblamayman. Lekin uning faqat vosita sifatida mavjud bo‘lgan va mehnat orqali hosil bo‘lgan orttirilgan qobiliyatlari, menimcha, bu toifaga, ya’ni kapitalga to‘g‘ri keladi". Va yana: “Mamlakat mehnatkashlarining mahorati, kuchi va matonati uning mashina va dastgohlarni ishlatishi uning boyligidir”. Iqtisodiyot nazariyasidagi neoklassik maktab asoschisi A.Marshall (1842-1924) o‘zining "Iqtisodiyot fanining asoslari" (1890) ilmiy asarida " insonni ta’limga investitsiyalar shaklida shaxsiy kapital to‘plashga undaydigan motivlar uni moddiy kapitalni to‘plashga undaydigan motivlarga o‘xshash"ligiga e'tibor qaratgan.

Bu sohani 1776 yilda ingliz iqtisodchisi Adam Smit mehnat bozori muvozanati doirasida ishchining ish haqi va pul bo‘lmagan mehnat sharoitlari o‘rtasida o‘zaro bog‘liqlik mavjud bo‘lishi mumkinligini taklif qilganida kuzatilishi mumkin[1]. Biroq, Xodimlar Iqtisodiyoti 1987 yilga qadar, «Journal of Labor Economics» jurnali ushbu sohaga oid 10 ta maqola chop etgunga qadar mashhurlikka erisha olmadi. 1990-yillarda Kadrlar iqtisodiyoti asta-sekin ko‘proq empirik asosga ega bo‘ldi, holbuki, ilgari bu soha yanada og‘irroq nazariy edi [2]. Xodimlar iqtisodiyoti endi mehnat iqtisodiyotining bir bo‘limi hisoblanadi. 1998 yilda Edvard Lazer buni "firmaning ichki ishini tushunish uchun iqtisoddan foydalanish" deb ta’riflagan. Yangi ma’lumotlarning mavjudligi bilan bu soha yanada amaliy foydalanish uchun rivojlandi. Ekonometrik metodlar sohaning rivojlanishida muhim rol o‘ynadi, ma’lumotlardan kadrlar ro‘yhati va boshqa inson resurslari ma’lumotlarini tahlil qilish uchun foydalaniladi. Bu «employees econometrics» deb nomlanadi [3].

Xodimlar iqtisodiyoti 1970-yillarda firmada sotiladigan tovarlar va xizmatlar narxlari qanday belgilanishi haqidagi savollarga javob berishga intilgan ko‘plab tadqiqotlar natijasida alohida soha sifatida paydo bo‘la boshladi[4].

1990-yillardan boshlab, nazariyaning empirik sinovlari yanada ko‘paydi, yirik kompaniyalarning kadrlar ma’lumotlari kengroq bo‘lishidan tadqiqotchilargacha ish haqi va unumdorlik o‘rtasidagi bog‘liqlikka qiziqish ortib bordi. O‘zaro bog‘liqlik umumiy darajada asosiy-ishchi kuchi muammosida ifodalanadi, uning yechimi firma mehnatni to‘g‘ri taqsimlash va ishlab chiqarish jamoasi va uning a’zolari faoliyatini monitoring qilish uchun shartnomalar amalga oshirish kerak [5]. Natijada firma yoki davlat korxonasida ish haqini belgilash va ish haqi va unumdorlik o‘rtasidagi bog‘liqlik haqida ko‘plab muammolarga yechim topa oladi.

Kadrlar tahlilining dolzarbligi va yangi aniqlangan qat'iyligi tufayli kadrlar iqtisodiyoti ta’lim o‘quv dasturining muhim qismiga aylanishi kerak bo‘ladi. Bu soha o‘sib bormoqda va talabalar va amaliyotchilarning katta potentsial auditoriyasi uchun dolzarb hisoblanadi. Gibbons fikricha (1987) ishning qiyinligini faqat ishchi biladi va uning haqiqiy harakatini faqat ishchi biladi deb ta’kidlagan.

Bundan xulosa qilish mumkinki, Gibbons shuni ta’kidlaydiki, agar firma mehnat jarayonining murakkabligini bilib turib, mehnatga haq to‘lashda uni hisobga olmasa, ishchilar ishlab chiqarishni kamaytiradi. Uning ta’kidlashicha, bu 19-asr oxirida keng qo‘llanilgan.

Aksariyat xodimlar uchun - sub'ektiv ko‘rsatkichlarga asoslangan turli xil rag‘batlantirishlar xam inobatga olingan. Ya’ni, ko‘pchilik xodimlarning ishlashi ba’zi rahbar(lar) tomonidan nazorat qilinadi, bu xodimning ishini qanchalik yaxshi bajarayotgani to‘g‘risida oqilona aniq, ma’lumot oladi. Keyinchalik yaxshi natijalarni turli mexanizmlar, jumladan, asosiy ish haqini oshirish, sub'ektiv

ravishda belgilangan bonus to‘lovlari yoki ko‘tarilishlar orqali mukofotlash mumkin. Beyker, Gibbons va Merfi (1994), Bull (1987) va MacLeod va Malkomson (1989) ish faoliyatini sub'ektiv baholashdan foydalanishni modellashtirishadi. Ular nomukammal ob'ektiv chora-tadbirlar va mukammal (lekin tekshirib bo‘lmaydigan) sub'ektiv choralar asosida rag‘batlantirishning optimal aralashmasini tahlil qiladilar. Ushbu modellar yaxshi ishlab chiqilgan sub'ektiv chora-tadbirlardan kuchli rag‘batlantirishlar o‘rtasidagi muvozanatni va xodimlarning har qanday tekshirib bo‘lmaydigan samaradorlik o‘lchovi bilan bog‘liq bo‘lgan yashirin shartnomalarni bajarishlari uchun firmalarga ishonishlari kerakligini ta’kidlaydi.

Prinsipal-agent muammosi ish beruvchi (direktor) va xodim (agent) o‘rtasidagi munosabatlarga asoslanadi. Bunday holda, ish beruvchi firmaning foydasini maksimal darajada oshirish uchun o‘z xodimlariga tayanadi. Amalda, rag‘batlantirishlar ba’zan direktor va agent o‘rtasida noto‘g‘ri taqsimlanadi. Bu ikkalasi o‘rtasidagi farqli maqsadlar tufayli yuzaga keladi, bu agentni yollashda direktorning noto‘g‘ri tanlanishiga olib kelishi mumkin, ular agentga nisbatan ko‘proq ma’lumot taqdim etilganda agentning malakasini va agent uchun ma’naviy xavfni to‘liq baholay olmaydi.

Jamoa ishlab chiqarish turli ko‘nikmalar to‘plamini talab qiladigan ko‘plab loyihalar uchun mos keladi va bu firmalarga iqtisodiy jihatdan samarali bo‘lgan holda yuqori sifatli ishlarni ishlab chiqarish imkonini beradi. Bundan tashqari, jamoaviy ish odamlarga bir-biridan o‘rganish va yangi ko‘nikmalarni rivojlantirish imkoniyatini beradi, bu esa ishdan qoniqish va ruhiy holatni yaxshilashga olib keladi.

Jamoaga asoslangan ish muhitiga ega bo‘lgan tashkilotlar ma’lum darajada maoshni kamaytirishni ko‘rib chiqishi mumkin. Bu yaqin taqqoslashda tenglikni yanada dolzarb qiladi[6], ma’naviy va ishchilarning samaradorligini oshiradi va noaniq natijalar paytida, masalan, yomon bozor sharoitlarida xodimlarni sug‘urta qiladi. Biroq, ish haqining siqilishi xodimlarni ma’naviy xavf muammolariga qarshi himoyasiz qoldiradi va ular o‘z ishlariga kamroq kuch sarflashlari mumkin.

Foydalangan adabiyotlar ro‘yhati:

1. Grund, Christian; Bryson, Alex; Dur, Robert; Harbring, Christine; Koch, Alexander K.; Lazear, Edward P. (16 January 2017). "Personnel economics: A research field comes of age". *German Journal of Human Resource Management: Zeitschrift für Personalforschung*. 31 (2): 101–107. doi:10.1177/2397002216684998. ISSN 2397-0022. S2CID 115407646
2. Lazear, Edward (1999). "Personnel Economics: Past Lessons and Future Directions Presidential Address to the Society of Labor Economists, San Francisco, May 1, 1998". *Journal of Labor Economics*. 17 (2): 199–236. doi:10.1086/209918. ISSN 0734-306X. S2CID 154386072.
3. *The handbook of organizational economics*. Gibbons, Robert, 1958-, Roberts, John, 1945 February 11-. Princeton, N.J.: Princeton University Press. 2013. pp. 263–312. ISBN 978-1-4008-4535-4. OCLC 892969634
4. Edward Lazear, 2008. "personnel economics," *The New Palgrave Dictionary of Economics*, 2nd Edition, v. 6, p. 381 [pp. 380–84]. Abstract.
5. Stephen A. Ross 1973. "The Economic Theory of Agency: The Principal's Problem," *American Economic Review*, 63(2), pp. 134–139. Eugene F. Fama, 1980. "Agency Problems and the Theory of the Firm," *Journal of Political Economy*, 88(2), pp. 288–307
6. Nber Working Paper Series. Personnel economics: The economist's view of human resources. national bureau of economic research 1050 Massachusetts Avenue Cambridge, MA 02138 November 2007.

УДК: 336.53

АҲОЛИ ДАРОМАДЛАРИ БЎЙИЧА ИЖТИМОИЙ ҲИМОЯГА МУҲТОЖ АҲОЛИ ГУРУҲЛАРИНИ АНИҚЛАШ УСЛУБИЁТИ

МЕТОДИКА ОПРЕДЕЛЕНИЯ ГРУПП НАСЕЛЕНИЯ НУЖДАЮЩИХСЯ В СОЦИАЛЬНОЙ ЗАЩИТЕ ПО ДОХОДАМ НАСЕЛЕНИЯ

METHOD OF DETERMINING POPULATION GROUPS IN NEED OF SOCIAL PROTECTION BASED ON POPULATION INCOME

Абдуллаева Шахноза Эркиновна PhD
ISFT институти доценти

Аннотация

Мақолада аҳолининг ижтимоий ҳимояга муҳтожлигининг моҳияти ва ижтимоий мухтож аҳолини аниқлаш услубиётлари таҳлил қилинган. Шунингдек, Европа иқтисодий комиссиясининг ижтимоий ҳимояга муҳтож аҳоли гуруҳларини аниқлаш услубиёти тавсифи ёритилган. Таҳлил натижалари бўйича илмий хулосалар олинган ва тавсиялар ишлаб чиқилган.

Калит сўзлар: ижтимоий ҳимоя, ижтимоий ҳимоя муҳтож аҳоли, яшаш минимуми, инсоннинг нормал яшаши, ҳаётий зарур хизматлар

В статье анализируется сущность потребности населения в социальной защите и методы выявления населения, нуждающегося в социальной защите. Также дается описание методологии Европейской экономической комиссии по определению групп населения, нуждающихся в социальной защите. По результатам анализа получены научные выводы и разработаны рекомендации.

Ключевые слова: социальная защита, население, нуждающееся в социальной защите, прожиточный минимум, нормальное жизнеобеспечение человека, жизненно важные услуги.

The article analyzes the nature of the population's need for social protection and the methods of identifying the population in need of social protection. Also, the description of the methodology of the European Economic Commission for determining population groups in need of social protection is covered. Based on the results of the analysis, scientific conclusions were obtained and recommendations were developed.

Key words: social protection, population in need of social protection, living minimum, normal living of a person, vital services

Ўзбекистон шароитида аҳолини ижтимоий ҳимоя қилиш тизимини молиялаштириш амалиёти борасида амалга оширилган ислоҳотларда “энг мураккаб даврда камбағалликка қарши кураш давлат сиёсати даражасига олиб чиқилиб, умуммиллий ҳаракатга айлантирилди. Шунингдек, Жаҳон банки ва БМТ институтлари билан ҳамкорликда халқаро тажриба асосида камбағалликнинг миллий мезонлари ишлаб чиқилди. Изчил ислоҳотлар туфайли 7,5 миллион аҳоли камбағалликдан чиқарилиб, камбағаллик даражаси 2024 йилда 8,9 фоизга туширилди ва ушбу кўрсаткич 2025 йил якунигача 6 фоизгача камайтириш мақсад қилинган” [1] ҳисобланади. Бундан кўриниб турибдики мамлакатда аҳолини ижтимоий ҳимоя қилиш тизимини молиялаштириш амалиётининг самарадорлиги аҳолининг ижтимоий жиҳатдан муҳтожлигини тўғри баҳолаш орқали таъминланади.

Иқтисодий фанда аҳолининг ижтимоий ҳимояга муҳтожлиги ҳолатини аниқлаш услубиётларини тадқиқ этиш жаражнида ижтимоий жиҳатдан муҳтожлик, камбағаллик ва кам

таъминланганлик каби категориялар бўйича баҳолаш услубиёти шаклланган ҳисобланади. Жумландан, маҳаллий иқтисодчилардан М.О. Мирзамаҳмудова фикрича, “камбағалликни аниқлашда қуйидаги босқичларга бўлиб ўрганилади:

1-босқич: камбағалликни аниқлаш, яъни унга таъриф бериш.

2-босқич: аҳолининг турмуш даражасини белгиловчи кўрсаткичларни аниқлаш, масалан, даромадлар; харажатлар ёки истеъмол даражаси ва ҳ.к.

3-босқич: камбағалликнинг қуйи даражасини, яъни камбағаллик чизиғини аниқлаш.

4-босқич: тегишли статистик маълумотларни тайёрлаш, жумладан, мамлакатдаги мавжуд камбағаллик даражасини таҳлил қилиш” [2].

Ижтимоий ҳимояга муҳтож аҳоли гуруҳларини камбағаллик даражасини баҳолаш жараёнини ташкил этиш босқичлари аниқлангаан бўлиб, унда ижтимоий ҳимояга муҳтожлик ҳолатини аниқлашнинг услубий асослари бўйича тегишли хулосалар шакллантирилмаган ҳисобланади. Тадқиқот жараёнид олинган илмий хулосада ижтимоий ҳимояга муҳтож аҳоли гуруҳларини аниқлашда ижтимоий кўрсаткичларга устуворлик қаратилган бўлиб, бунда иқтисодий ҳамият касб этувчи индикаторлар орқали муҳтожликни аниқлаш билан боғлиқ жараёнлар эътибордан четда қолган ҳисобланади. Шу билан биргаликда, аҳолини ижтимоий ҳимоя қилиш ижтимоий-иқтисодий муносабатлар тизимида маҳтожлик ҳолатини баҳолаш ва уни оширишга қаратилган дастурларни ишлаб чиқиш, ҳамда уларни амалиётга жорий этиш билан боғлиқ жараёнлар мураккаблиги билан характерланиб, олим томонидан олинган хулоса умумлаштирилган ҳолда камбағалликни аниқлаш босқичларини изоҳлаш билан чекланган, деган хулосага келинди.

Яна бир маҳаллий иқтисодчи олим Р.Ф. Джуманова ижтимоий ҳимояг муҳтож аҳолини камбағал аҳоли гуруҳлари сифатида баҳолаб, уни аниқлаш амлиёти бўйича қуйидаги фикрни илгари сурган ҳисобланди: “камбағаллик даражасини белгилашда ҳар бир мамлакат ўзига хос мақсадларни кўзда тутади, миллий иқтисодиётнинг ривожланганлик даражасидан келиб чиқиб, яшаш минимумини аниқлайди, ночор қатламларни ҳимоялаш, камбағаллик меъёрлари белгиланиши асосида ҳисобга олинади” [3]. Бундан кўриниб турибдики, ижтимоий ҳимояга муҳтож аҳоли гуруҳларини аниқлашда мамлакатнинг нафақат ижтимоий, балки иқтисодий ривожланиш кўрсаткичларига ҳам асосланиш талаб этилади.

Маҳаллий иқтисодчи олимлардан Б.Э. Тагаев томонидан ўтказилган тадқиқотларда ҳам ижтимоий жиҳтдан муҳтож аҳоли гуруҳларини аниқлашда рационал истеъмол нормаларига асосланш таклифи илгари сурилган ҳисобланади. Тадқиқот жараёнида олим “рационал истеъмол бюлдетиини шакллантиришда озиқ-овқат маҳсулотлари, ноозиқ-овқат товарлари ва хизматлар тўпламини ишлаб чиқишда ҳар бир тўплам кесимида тегишли тамойилларга (1-жадвал) асосланиш керак бўлиб, рационал истеъмол бюджетини ишлаб чиқиш ва уни амалда қўллаш ўрта синф қатламини шакллантиришга қаратилган чора-тадбирларни амалга ошириш имконини беради. Бунда ўрта синф қаторига тадбиркор ва фермерлардан ташқари ўртача даромадга эга бўлган иқтисодиётнинг бюджет сектори хизматчиларининг кириши мамлакатнинг кейинги иқтисодий ривожланиши ва ижтимоий барқарорлигининг муҳим шартига айланиши лозим” [4] деган хулосага келган.

Айрим глобал ташкилотлар томонидан ижтимоий жиҳатдан муҳтож аҳоли гуруҳларини аниқлаш борасидаги тадқиқотлари натижаларига эътиборни қаратишни лозим топдик. Шуни алоҳида таъкидлаш жоизки, глобал ташкилотлар томонидан ижтимоий жиҳатдан муҳтож аҳолигуруҳлааринии аниқлаш, жумладан, мамлакатларда аҳолини ижтимоий ҳимоя қилиш тизимининг амал қилиши, уни молиялаштириш амалиётини, аҳолини ижтимоий ҳимоя қилишга қаратилган давлат дастурлрини такомиллаштириш борсида ишлаб чиқилган илмий таклиф ва амалий тавсиялар тавсиявий харктерга эга бўлиб, улардан мамлакат амалиётида ижодий фойдаланиишда ишлаб чиқилган тавсияларни миллий хусусиятлардан келиб чиққан ҳолда амалиётга тадбиқ этиш керак бўлади.

Демак, ЕИК экспертлари томонидан Европа иттифоқи (ЕИ) мамлакатларида ижтимоий жиҳатдан муҳтож аҳоли гуруҳларини аниқлашдаа мамлакатларнинг ижтимоий-иқтисодий ривожланиши, жамиятнинг ижтимоий портрети, жумладан, мамлакатлардаги ижтимоий

муҳтожликни келиб чиқиш сабаблари, аҳолини ижтимоий ҳимоя қилиш тизимининг амал қилиши билан боғлиқ бўлган хусусиятлардан келиб чиқиб, бир ва кўп ўлчовли баҳолаш услубиётларидан фойдаланишни таклиф этишади (1-жадвал).

1-жадвал

Европа иқтисодий комиссиясининг ижтимоий ҳимояга муҳтож аҳоли гуруҳларини аниқлаш услубиёти [5]

<table>
<tr><td rowspan="15">Бир ўлчовли таҳлил</td><td rowspan="13">Пул кўрсаткичларини ҳисобга олган ҳолда</td><td rowspan="8">Даромад</td><td rowspan="4">Мутлақ қашшоқлик чегараси</td><td rowspan="2">Алоҳида мамлакатлар учун миллий валюта чегаравий даражаси</td><td>1.Асосий эҳтиёжлар учун ҳаражатлар</td></tr>
<tr><td>2.Яшаш минимуми</td></tr>
<tr><td rowspan="2">Халқаро миқёсда тақкосланадиган чегаравий даража</td><td>3.Харид қобилияти паритети 1,9 АҚШ долларидан паст бўлган камбағаллар</td></tr>
<tr><td>4.Харид қобилияти паритети 3,1 АҚШ долларидан паст бўлган камбағаллар</td></tr>
<tr><td rowspan="3">Нисбий қашшоқлик чегараси</td><td rowspan="3">Медиан (ўртача) даромад улуши</td><td>5.Нисбатан кам даромад (хар бир мамлакатда 50% ёки 60%дан камайтирилган эквиваленгдаги медиан даромад)</td></tr>
<tr><td>6.Нисбатан кам даромад билан боғлиқ берилган вақт</td></tr>
<tr><td>7.Нисбий кабағаллик чегараси</td></tr>
<tr><td rowspan="5">Харажат</td><td rowspan="2">Мутлақ қашшоқлик чегараси</td><td rowspan="2">Алоҳида мамлакатлар учун миллий валюта чегаравий даражаси</td><td>8. Асосий эҳтиёжларни қондириш учун харажатлар</td></tr>
<tr><td>9. Яшаш минимуми</td></tr>
<tr><td rowspan="2">Халқаро миқёсда тақкосланадиган чегаравий даража</td><td>10. Харид қобилияти паритети 1,9 АҚШ долларидан паст бўлган камбағаллар</td></tr>
<tr><td>11. Харид қобилияти паритети 3,1 АҚШ долларидан паст камбағаллар</td></tr>
<tr><td rowspan="3">Нисбий қашшоқлик чегараси</td><td rowspan="3">Медиан (ўртача) даромад улуши</td><td>12.Нисбатан кам даромад (хар бир мамлакатда 50% ёки 60%дан камайтирилган эквиваленгдаги медиан даромад)</td></tr>
<tr><td>13. Нисбатан кам даромад билан боғлиқ берилган вақт</td></tr>
<tr><td>14. Нисбий кабағаллик чегараси</td></tr>
<tr><td colspan="4">Калорияли истеъмол</td><td>15. Калорияли истеъмол бўйича миллий яшаш минимуми</td></tr>
<tr><td rowspan="4">Кўп ўлчовли</td><td colspan="4" rowspan="2">Депривация</td><td>16.Кўрсаткичлар тўплами</td></tr>
<tr><td>17.Моддий маҳрумликни ўз ичига олган бир нечта маҳрумлик индекси</td></tr>
<tr><td colspan="4">Халқаро миқёсда солиштириш мумкин бўлган кўп ўлчовли камбағалликни баҳолаш</td><td>18.Кўп ўлчовли қашшоқлик индекси (турли хусусиятлар учун қийматлар)</td></tr>
<tr><td colspan="4" rowspan="2">Қашшоқлик бўйича Оксфорд ташаббуси ва инсон тараққиёти методологияси бўйича олинган миллий баҳолар</td><td>19. Қашшоқ</td></tr>
<tr><td>20. Камбағал</td></tr>
</table>

Таҳлилларга кўра, аксарият Ғарбий Европа мамлакатлари Марказий ва Шарқий Европа мамлакатларига нисбатан юқори даражадаги ижтимоий-иқтисодий ривожланиш, жумладан, аҳоли турмуш фаровонлигининг нисбатан юқори даражасига эришганлиги сабабли, ушбу мамлакатлар амалиётида ижтимоий жиҳатдан муҳтож аҳоли гуруҳлрини аниқлашда кўп ўлчовли баҳолаш услубиётидан фойдаланилса, аксарият Марказий ва Шарқий Европа мамлакатларида бир ўлчовли баҳолаш услубиёти кенг қўлланилади. Ижтимоий ҳимояга муҳтож аҳоли гуруҳларини аниқлашнинг бир ва кўп ўлчовли баҳолаш услубиётлари қуйидаги тартибда изоҳланади:

ижтимоий жиҳатдан муҳтож аҳоли гуруҳларини аниқлашнинг бир ўлчовчи баҳолаш услубиёти аҳоли даромадлари ёки озиқ-овқат маҳсулотлари истеъмоли ҳисобига шаклланадиган ккал меъёрларига асосланган ҳисоблнади. ҳоли даромадлари асосида ижтимоий ҳимояга муҳтож аҳоли гуруҳларини аниқлашда мутлоқ ва нисбий кўрсаткичлар тизимидан фойдаланилади. Мутлоқ кўрсаткичлар асосида ижтимоий жиҳатдан муҳтож аҳолини аниқлашда уларнинг даромадлари ҳажми бўйича мамлакатда ўрнатилган минимал харажатлар, жумладан, яшаш минимуми, аҳоли турмуш кечириши учун зарур бўладигн асосий турдаги бирламчи маҳсулотларни истеъмол чилиш учун талаб этиладиган харажатлар ҳажмидан кам миқдорда даромадга эга бўлганларни аниқлаш талаб этилади.

Шу билан биргаликда, мазкур жараёнда глобал ташкилотлар томонидан ишлаб чиқилган халқаро даражадаги даромадларнинг харид қобилияти паритети ҳажми бўйича камбағаллик чегараларига асосланиш мумкин бўлади. Нисбий жиҳатдан ижтимоий ҳимояга муҳтж аҳоли гуруҳларини аниқлашда ўртач яшаш кўрсаткичлари, жумладан, мамлакат аҳолисининг ўрта дараждаги даромади ҳажмига нисбатан паст даромадга эга бўлган аҳоли гуруҳларини аниқлаш талаб этилади. Ўрганишлаарга кўра, даромад нуқтаи назаридан ижтимоий ҳимояга муҳтож аҳолини аниқлаш услубиёти 1-расмда келтирилган схемага асосланади.



1-расм. Аҳоли даромадлари бўйича ижтимоий ҳимояга муҳтож аҳоли гуруҳларини аниқлаш схемаси [6]

Яшаш минимумини ишлаб чиқишда инсоннинг физиологик жиҳатдан нормал ҳаёт кечириши ва саломатлигини тегишли даражада сақлаб туриш имконини берувчи озиқ-овқат маҳсулотларининг энергетик қиймати (ккал.да) ва асосий турдаги кийим кечакларни сотиб олиш нархларини қуйидаги тенглама асосида умумлаштирилади:

$$CBN = F + NF + S$$

Бу ерда:

CBN – яшаш минимуми (аҳоли жон бошига тўғри келадиган даромад)

F – тегишли килокалориядаги энергетик қувват берувчи озиқ-овқат маҳсулотлари учун харажат;

NF – инсоннинг нормал яшаши учун зарур бўлган ноозиқ-овқат маҳсулотлари учун харажат;

S – ҳаётий зарур хизматлар қиймати;

кўп ўлчовли кўрсаткичлар асосида аҳолининг ижтимоий ҳимояга муҳтожлиги ҳолатини баҳолашда бир нечта кўрсаткичлар тизимидан ташкил топган, жумладан, ижтимоий муҳтожлик, яъни камбағаллик ҳолатини миллий (мамлакат ҳудудлари кесимида) ва халқаро даражада қиёсий таққослаш имконини берувчи кенг қамровли кўрсаткичлардан фойдаланилиши билан характерланади.

Таҳлиллардан келиб чиқиб, аҳолининг ижтимоий жиҳатдан муҳтожлигини аниқлаш усуллари бўйича қуйидаги умумлаштирилган хулосаларни шакллантиришга эришилди:

биринчидан, аҳолини ижтимоий ҳимоя қилиш тизимини молиялаштириш самарадорлиги кўп жиҳатдан ижтимоий жиҳатдан муҳтожлик ҳолатини аниқлаш услубиётининг аниқлиги ва адолатли тартибда тузилганлигига боғлиқ бўлиб, умумий ҳолда, мамлакат миллий ижтимоий ҳимоя тизими самарали амал қилишини таъминлаш имкониятларини кенгайтиради;

иккинчидан, глобал даражада миллий иқтисодиётнинг турли тармоқлари, жумладан, аҳолини ижтимоий ҳимоя қилиш тизимида информацион технологиялар (ИТ) индустрияси маҳсулотларининг қўлланилиши автоматлаштирилган тизимларни шакллантириш имконини бермоқда. Сўнгги йилларда Ўзбекистонда рақамли ҳукуматни ривожлантириш борасида амалга оширилаётган ислоҳотлар доирасида мамлакат ижтимоий ҳимоя тизимини автоматлаштирилган тизимини шакллантириш бўйича тизимли чора-тадбирлар ишлаб чиқилаётгаанлиги ва уларни амалиётга кенг жорий этилаётганлигини инобатга олиб, кейинги йилларда мамлакатда ижтимоий жиҳатдан муҳтож аҳоли гуруҳларини аниқлашнинг автоматлаштирилган усулини босқичма босқич “MPI+AI/MT” комбинациясида ўтказиш мақсадга мувофиқ ҳисобланади. Бу орқли аҳолининг ижтимоий жиҳаатдан муҳтожлиги ҳолатини автоматлаштирилган тартибда комплекс баҳолашга эришилади;

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Ўзбекистонда йил якунигача камбағаллик даражаси 6 фриизгача камайтирилади. 17.09.2025 й. [Онлайн манба]. URL: https://kun.uz/kr/40625064
2. Мирзамахмудова М.О. Ижтимоий жиҳатдан муҳтож аҳоли қатламларини аниқлашнинг назарий асосларини такомиллаштириш. И.ф.ф.д. дисс. автореф. Тошкент – 2023. – 32 б.
3. Джуманова Р.Ф. Аҳоли турмуш даражаси: кўрсаткичлари ва уни ошириш йўллари. Иқтисод фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун тақдим этилган диссертация автореферати. – Т.: 2008, 27 бет.
4. Тагаев Б.Э. Ўзбекистонда рационал истеъмол нормаларини ишлаб чиқиш – аҳоли турмуш даражаси ва сифатини оширишнинг муҳим омили. Иқтисод ва молия, № 10, 2013. – 30-37 бетлар
5. Европейская экономическая комиссия Организация Объединонных Нации. Руководство по измерению бедности. Нью-Йорк и Женева, 2017 год. С-18-19 маълумотлар асосида тузилган
6. Муаллиф томонидан тузилган

UDK: 330.54

OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGINING ZAMONAVIY XUSUSIYATLARI

СОВРЕМЕННЫЕ ОСОБЕННОСТИ БЕЗОПАСНОСТИ ПИЩЕВЫХ ПРОДУКТОВ

MODERN FEATURES OF FOOD SAFETY

Olimjanova Sh.O. O‘zMU iqtisodiyot fakulteti
“Iqtisodiyot nazariyasi” kafedrasi dos

Annotatsiya

Maqolada mamlakatda oziq-ovqat xavfsizligiining ahamiyati, uning xususiyatining nazariy asoslari o‘rganilgan. Mamlakatda va rivojlangan davlatlarda oziq-ovqat maxsulotlarini yetishtirish holati, uning xavfsizligi holati tahlil qilingan. Tadqiqot natijalari bo‘yicha mamlakatda oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha ustuvor yo‘nalishlar aniqlangan.

Kalit so‘zlar: oziq-ovqat xavfsizligi, davlat siyosati, oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish, oziq-ovqat xavfsizligi, oziq-ovqat xavfsizligiga ta’sir ko‘rsatuvchi omillar, o‘zini o‘zi ta’minlash, oziq-ovqat bilan ta’minlash, oziq-ovqat iste'moli, agrosanoat majmuasi

В статье рассматривается значение продовольственной безопасности в стране, теоретические основы её сущности. Проанализировано состояние производства продовольствия в стране и в развитых странах, состояние его безопасности. По результатам исследования определены приоритетные направления обеспечения продовольственной безопасности страны.

Ключевые слова: продовольственная безопасность, государственная политика, производство продовольствия, безопасность пищевых продуктов, факторы, влияющие на безопасность пищевых продуктов, самообеспеченность, продовольственная безопасность, потребление продуктов питания, агропромышленный комплекс

The article studies the importance of food security in the country, the theoretical foundations of its nature. The state of food production in the country and in developed countries, the state of its safety are analyzed. According to the results of the study, priority areas for ensuring food security in the country are identified.

Keywords: food security, public policy, food production, food safety, factors affecting food safety, self-sufficiency, food security, food consumption, agro-industrial complex

XXI asrda jahon iqtisodiyoti jadal o‘zgarishlar va globallashuvning kuchayishi bilan ajralib turadi. So‘nggi o‘n yilliklarda globallashuvning jadal rivojlanishi mamlakatlarning yanada ochiq va o‘zaro bog‘liq bo‘lishiga olib keldi. Muayyan resurslarga ega bo‘lgan mamlakatlar mahsulot ishlab chiqaradi, ammo barcha turdagi tovarlar ishlab chiqariladigan yagona mamlakat yo‘q. Shuning uchun davlatlar savdo munosabatlariga kirishadilar.

Xalqaro savdo har bir davlat faoliyati uchun ham, tashqi savdo bilan bog‘liq kompaniya va tashkilotlar faoliyati uchun ham muhim shartdir. Xalqaro savdo turli mamlakatlarning tovar ishlab chiqaruvchilari o‘rtasidagi aloqa shakli bo‘lib, u xalqaro mehnat taqsimoti va ixtisoslashuvi asosida vujudga keladi va ularning o‘zaro iqtisodiy bog‘liqligini ifodalaydi.

Ishlab chiqarish uchun etarli resurslar bo‘lmasa yoki mablag‘ etishmasa, mamlakat aholisi oziq-ovqat ta’minoti muammosiga duch kelishi mumkin. Global oziq-ovqat muammosi insoniyatning eng qadimgi va eng muhim muammolaridan biridir. Ushbu muammoning eng jiddiy oqibati bo‘lgan ochlik bugungi kunda tobora "ijtimoiy" muammoga aylanib bormoqda. Odamlar nafaqat uchinchi dunyo mamlakatlarida, balki yalpi ichki mahsuloti yuqori va ijtimoiy farovon mamlakatlarda ham ochlikdan azob chekmoqda. Shuning uchun aytishimiz mumkinki, bu muammoning chegarasi va

milliyligi yo‘q - bu globaldir.

Oziq-ovqat muammosi - bu dunyoning eng kambag‘al guruhlari orasida to‘yib ovqatlanmaslik va ochlikka olib keladigan ko‘p sababli va tobora ortib borayotgan oziq-ovqat tanqisligi muammosi. Aksariyat tadqiqotchilarning fikricha, global ochlik muammosini faqat oziq-ovqat mahsulotlarini qayta taqsimlash orqali engib bo‘lmaydi.

Qishloq xo‘jaligi mahsulotlariga (o‘simlik va chorvachilik mahsulotlari) ortib borayotgan talab taklifning kamayishi bilan izohlanadi. Binobarin, oziq-ovqat ishlab chiqarish hajmini sezilarli darajada oshirmasdan, ilmiy tadqiqot va muhandislik ishlarini zarur darajada faollashtirmasdan turib, inqirozdan chiqish mumkin emas.

Shu bilan birga, jahon oziq-ovqat bozoridagi mavjud vaziyat yuqori darajada rivojlangan mamlakatlarning qishloq xo‘jaligi sektori uchun ajoyib imkoniyatdir, chunki global talabning o‘sishi oziq-ovqat mahsulotlari, shu jumladan ularning ichki bozorlarida sotishning ko‘payishiga yordam berishi mumkin.

Oziq-ovqat xavfsizligi bu iqtisodiyotning shunday holati bo‘lib, bunda jahon bozorlari tebranishlaridan qat'iy nazar bir tomondan, ilmiy asoslangan ko‘rsatkichlarga mos miqdorlarda, ikkinchi tomondan tibbiy me'yorlar darajasida iste'molni qondirish uchun shart-sharoit yaratilgan holda aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan barqaror ta’minlash kafolatlanadi [1].

Oziq-ovqat xavfsizligi — bu aholini ilmiy asoslangan ko‘rsatkichlar bo‘yicha belgilangan miqdor va sifatda oziq-ovqat bilan barqaror ta’minlashni kafolatlaydi. Bir tomondan, tibbiy normalar bo‘yicha va boshqa tomondan, oziq-ovqat mustaqilligiga erishish asosida aholining faol va sog‘lom turmush tarzini ta’minlash uchun zarur iste'molni qondirish sharoiti yaratiladi. Bunda mamlakatning asosiy oziq-ovqat mahsulotlari bilan o‘zini-o‘zi ta’minlashi, iqtisodiyotning barqaror rivojlanishining ichki manbalari va importni muvofiqlashtirish orqali, jahon bozoridagi o‘zgarishlar va boshqa har qanday shart-sharoitlardan qat'iy nazar, ta’minlanadi [2].

Oziq-ovqat xavfsizligi muammosi bugungi kunda jahon hamjamiyati uchun eng dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. U inson salomatligi, ijtimoiy barqarorlik va iqtisodiy taraqqiyotga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti (JSST) ta’rifiga ko‘ra, oziq-ovqat xavfsizligi — bu har bir inson jismoniy va iqtisodiy jihatdan to‘yintiruvchi, sog‘liqni saqlashga mos, xavfsiz va barqaror oziq-ovqatga doimiy ravishda ega bo‘lish holatidir.

FAO (Birlashgan Millatlar Tashkilotining Oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi tashkiloti) deklaratsiyasi kabi xalqaro hujjatlarda mustahkamlangan bu atama 2025-yilda ham asosiy global maqsadlardan biri bo‘lib qolmoqda.

Oziq-ovqat xavfsizligi — bu ishlab chiqarish, taqsimlash va barqarorlik o‘rtasidagi muvozanatni talab qiladigan murakkab vazifa. Demografik o‘sish, iqlim o‘zgarishi, iqtisodiy beqarorlik va ekologik muammolar misli ko‘rilmagan chaqiriqlarni yaratmoqda, ammo texnologiyalar va xalqaro hamkorlik ularni yengish yo‘llarini ochmoqda.

Qishloq xo‘jaligi texnologiyalari va logistika sohasidagi sezilarli yutuqlarga qaramay, dunyo oziq-ovqat xavfsizligi muammosini ko‘p qirrali qilib qo‘yadigan va kompleks yondashuvni talab qiladigan yangi muammolarga duch kelmoqda.

Biz bugungi kunda oziq-ovqat xavfsizligiga ta’sir etuvchi asosiy xususiyatlar va omillarni, jumladan, demografik o‘zgarishlar, iqlim muammolari, iqtisodiy va geosiyosiy omillar, texnologik taraqqiyot, oziq-ovqat sifati muammolari va barqarorlik masalalarini batafsil ko‘rib chiqamiz.

Oziq-ovqat xavfsizligi holatini belgilovchi asosiy omillardan biri bu aholining o‘sishidir.

BMT ma’lumotlariga ko‘ra, 2025 yilda dunyo aholisi taxminan 8,5 milliard kishiga etadi, 2050-yilga kelib esa 9,5 milliarddan oshishi kutilmoqda [3]. Bu o‘sishning katta qismi Afrika va Osiyodagi rivojlanayotgan mamlakatlarga to‘g‘ri keladi. Bundan tashqari, demografik o‘zgarishlar talab shakllariga ta’sir qiladi. Aholining ko‘payishi tez urbanizatsiya bilan birga keladi: aholining 60% dan ortig‘i shaharlarda yashaydi, bu esa mavjud qishloq xo‘jaligi erlarini qisqartiradi va oziq-ovqat importiga qaramlikni oshiradi.

Hindiston, Xitoy va Indoneziya kabi mamlakatlarda o‘sib borayotgan o‘rta sinf tobora ko‘proq o‘simlikka asoslangan ovqatlar o‘rniga go‘sht va sut mahsulotlariga ustuvorlik bermoqda.

Chorvachilik uchun ancha ko‘proq resurslar - suv, ozuqa, energiya talab qilinadi, bu esa ekotizimlar va oziq-ovqat tizimlariga yukni oshiradi. Masalan, bir kilogramm mol go‘shti etishtirish uchun o‘rtacha 15 ming [4] litr suv kerak bo‘lsa, bir kilogramm bug‘doy uchun taxminan 1500 litr suv kerak bo‘ladi [5]. Bu resurslardan foydalanish va iste'molchi odatlarini qayta ko‘rib chiqishda yanada samaraliroq yondashuvlarga ehtiyoj tug‘diradi. Bu raqamlar umumiy ko‘rsatkichlar bo‘lib, ular mintaqaga, iqlim sharoitlariga, qishloq xo‘jaligi amaliyotlariga va boshqa omillarga qarab o‘zgarishi mumkin.

Iqlim o‘zgarishi 2025 yilda oziq-ovqat xavfsizligi uchun eng katta muammolardan biridir. Iqlim o‘zgarishlari global xavf sifatida dunyo miqyosida jiddiy muammo hisoblanadi. Ular tabiatning muvozanatini buzib, ekstremal ob-havo hodisalarini, ekosistemalarning o‘zgarishini, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining hosildorligini kamayishini va odamlarning hayotiga bevosita tahdid solmoqda. Iqlim o‘zgarishlarining ta’siri nafaqat ekologik, balki iqtisodiy va ijtimoiy jihatlarga ham katta zarba bermoqda.

Sayyoradagi o‘rtacha haroratning oshishi, ekstrimal ob-havo hodisalarining (qurg‘oqlik, toshqinlar, bo‘ronlar) ko‘payishi va yog‘ingarchilikning o‘zgarishi bevosita qishloq xo‘jaligi ekinlarining hosildorligiga ta’sir ko‘rsatadi.

Iqlim o‘zgarishi bo‘yicha Iqlim o‘zgarishi bo‘yicha hukumatlararo panel (IPCC-Intergovernmental Panel on Climate Change) hisobotlariga ko‘ra, agar moslashuv choralarini ko‘rish uchun hech qanday harakatlar amalga oshirilmasa, 2030 yilga kelib tropik hududlarda don mahsulotlarini ishlab chiqarish 10-20% ga kamayishi mumkin. 2024 yilda Janubiy Osiyo va Sharqiy Afrikada anomal issiqlik va qurg‘oqlikning halokatli oqibatlari yuzaga keldi.

Masalan, Keniyada makkajo‘xori hosili, millionlab odamlar uchun asosiy oziq-ovqat manbai, 30% ga kamaydi, bu esa oziq-ovqat narxlarining oshishiga va ocharchilik holatining yomonlashishiga olib keldi.

Shu bilan birga, Yevropa va Shimoliy Amerikada toshqinlar bug‘doy va kartoshka ekinlariga zarar yetkazdi, bu esa eksport etkazib berishlarga ta’sir ko‘rsatdi. Ushbu misollar global oziq-ovqat zanjirlarining iqlim omillari oldida qanchalik zaif ekanligini ko‘rsatadi.

Bundan tashqari, dengiz sathining ko‘tarilishi qirg‘oq bo‘yidagi qishloq xo‘jaligi hududlariga tahdid solmoqda, ayniqsa Janubi-Sharqiy Osiyoda, bu yerda dunyodagi eng katta guruch maydonlari joylashgan. Ushbu chaqiriqlarga qarshi kurashish uchun iqlimga chidamli ekin turlari, sug‘orish tizimlari va tuproqning degradatsiyadan himoya qilinishi bo‘yicha sarmoyalar kerak.

Iqtisodiy va geopolitik omillar global tizimda muhim rol o‘ynaydi. Ular o‘zaro bog‘liq bo‘lib, bir-birini kuchaytirishi mumkin. Iqtisodiy va geopolitik omillar bir-birini kuchaytirib, global oziq-ovqat ta’minoti, migratsiya, va umumiy barqarorlikka jiddiy ta’sir o‘tkazishi mumkin. Iqtisodiy noaniqlik va geopolitik ziddiyatlar oziq-ovqatga bo‘lgan kirish imkoniyatiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi.

Geosiyosiy ziddiyatlar vaziyatni yanada og‘irlashtirmoqda. Masalan, Sharqiy Yevropadan don eksportiga qo‘yilgan cheklovlar, sanksiyalar va harbiy harakatlar natijasida Yaqin Sharq va Shimoliy Afrikada oziq-ovqat tanqisligi yuzaga keldi. Misr, an'anaviy ravishda bug‘doyning 60% dan ortig‘ini import qiladigan mamlakat, 2024 yilda non narxlarining ikki barobar oshishi bilan duch keldi, bu esa ijtimoiy tartibsizliklarga olib keldi. Shunga o‘xshash vaziyat Saharadan janubdagi Afrika mamlakatlarida ham kuzatilmoqda, bu yerda ishlab chiqaruvchilarga qarshi sanksiyalar sababli o‘g‘itlar yetkazib berishdagi uzilishlar mahalliy ishlab chiqarish hajmlarining kamayishiga olib keldi.

2020-yillarning boshidagi global iqtisodiy inqirozdan so‘ng, ko‘plab mamlakatlar inflyatsiyaning o‘sishi va aholi xarid qobiliyatining pasayishi bilan yuzma-yuz keldi. Bu holat ayniqsa kambag‘al mintaqalarda yaqqol ko‘rinadi, chunki bu yerlarda odamlar o‘z daromadlarining 70% gacha qismini oziq-ovqatga sarflaydilar. Bu esa odamlarning kundalik hayoti va iqtisodiy farovonligi uchun jiddiy xavf tug‘diradi.

Savdo to‘siqlari va protektsionizm ham vaziyatni murakkablashtirmoqda. Ba’zi mamlakatlar ichki oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash maqsadida eksportga cheklovlar qo‘yishadi, bu esa global ta’minot zanjirlarini buzadi. Bu holat xalqaro hamkorlikning va oziq-ovqat zaxiralari yaratishning zarurligini ta’kidlaydi.

Shuningdek, texnologik taraqqiyot oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash muammolarini hal qilish uchun yangi imkoniyatlarni ochadi. 2025 yilda rivojlangan mamlakatlarda innovatsiyalar, masalan, qurg‘oqlik va zararkunandalarga chidamli genetik jihatdan o‘zgartirilgan madaniyatlar (GMO) va shahar sharoitida mahsulot yetishtirish imkonini beruvchi vertikal qishloq xo‘jaligi faol joriy qilinmoqda. Masalan, Yaponiyada va Singapurda vertikal fermalar yangi sabzavotlar ehtiyojining 10% gacha bo‘lgan qismini ta’minlab, importga bo‘lgan bog‘liqlikni kamaytiradi.

Sun'iy intellekt (SI) ham muhim rol o‘ynaydi. SI algoritmlari ob-havo, tuproq holati va o‘simliklarning ehtiyojlari haqida ma’lumotlarni tahlil qilib, fermerlarga ekinlarni optimallashtirish va yo‘qotishlarni minimallashtirishda yordam beradi. AQSh va Kanadada dronlar va sun'iy yo‘ldosh tizimlari maydonlarni kuzatish va o‘g‘itlarni aniq qo‘llash uchun ishlatilmoqda, bu esa samaradorlikni 20-30% ga oshiradi.

Biroq, ushbu texnologiyalarga kirish rivojlanayotgan mamlakatlar uchun cheklangan bo‘lib qolmoqda. Jihozlarning yuqori narxi va infratuzilmaning yetishmasligi ularning keng tarqalishiga to‘sqinlik qilmoqda. Bu "texnologik tafovut"ni yuzaga keltirib, boy va kambag‘al mintaqalar o‘rtasida oziq-ovqat xavfsizligi bo‘yicha tengsizlikni kuchaytiradi.

Oziq-ovqat sifati va unga erishish mumkinligi bilan bog‘liq muammolar global miqyosda jiddiy ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy oziq-ovqat tizimining paradoksi shundaki, mahsulot ishlab chiqarishning o‘sishi ochlik va ozib ketish muammolarini hal qilmaydi. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti (JSST) ma’lumotlariga ko‘ra, 2024 yilda taxminan 800 million kishi doimiy ochlikdan azob chekishgan, shu bilan birga 2 milliarddan ortiq odam past sifatli oziq-ovqat, shakar, yog‘lar va ultraboshqarilgan mahsulotlar iste'moli sababli semirish yoki ortiqcha vazndan aziyat chekmoqda.

Rivojlanayotgan mamlakatlarda ochlik ko‘pincha kambag‘allik va oziq-ovqatni yetkazib berish uchun zarur infratuzilmaning yo‘qligi bilan bog‘liq. Afrikaning va Osiyaning qishloq hududlarida hosilning 30% gacha bo‘lgan qismi omborlar va transport vositalarining yetishmasligi sababli yo‘qoladi. Shu bilan birga, rivojlangan mamlakatlarda oziq-ovqatni ortiqcha ishlab chiqarish kuzatilmoqda, uning katta qismi esa chiqindilarga tashlanadi: AQSh va Yevropa Ittifoqida oziq-ovqatning taxminan 40% i axlatga tashlanadi.

Yevropa Ittifoqida 2021 yilda aholiga to‘g‘ri keladigan oziq-ovqat chiqindilari miqdori 132 kilogrammni tashkil etdi [6].

Barqaror usullarga o‘tish, masalan, organik qishloq xo‘jaligi, agroekologiya va regenerativ qishloq xo‘jaligi, ustuvor vazifaga aylangan. Masalan, Daniya va Yangi Zelandiya fermerlari tuproqni tiklash uchun navbatma-navbat ekin ekish va kimyoviy moddalardan voz kechish orqali samaradorlikni uzoq muddatli perspektivada oshirmoqdalar. Biroq, bunday yondashuvlar sezilarli sarmoya va iste'molchilarning odatlarini o‘zgartirishni talab qiladi, bu esa ularning global miqyosda joriy etilishini sekinlashtirmoqda.

Oziq-ovqat xavfsizligi faqat mahsulotlarga jismoniy egalik bilan cheklanmaydi

Madaniy afzalliklar va ijtimoiy me'yorlar ham muhim rol o‘ynaydi. Ba’zi mintaqalarda, mahalliy madaniyatlarga asoslangan an'anaviy dietalar g‘arbona oziqlanish modellari bilan almashtirilmoqda, bu esa oziq-ovqat suverenitetining yo‘qolishiga olib kelmoqda. Masalan, Meksikada import qilingan oziq-ovqat mahsulotlarini iste'mol qilishning o‘sishi makkajo‘xori va loviya kabi an'anaviy madaniyatlarning talabini kamaytirdi, bu mahsulotlar asrlar davomida mahalliy aholi uchun oziq-ovqat manbai bo‘lib kelgan. Vaziyatga ta’lim va xabardorlik darajasi xam ta’sir kursatadi. Aholini to‘g‘ri ovqatlanish va barqaror iste'mol qilish bo‘yicha o‘qitish dasturlari, masalan, FAOning Lotin Amerikasidagi tashabbuslari, xabardorlikni oshirish oziq-ovqat chiqindilarini kamaytirishi va salomatlikni yaxshilashi mumkinligini ko‘rsatmoqda.

O‘zbekistonda ham aholi sonining o‘sishi, shaharlashuvning kuchayishi va iqlim o‘zgarishi sharoitida oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashning barqaror modelini yaratish muhim hisoblanadi. Buning uchun quyidagi ustuvor yo‘nalishlarga e’tibor qaratish zarur:

-Mahalliy ishlab chiqarish salohiyatini rivojlantirish;

-Qishloq xo‘jaligi sohasida ta’lim va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish;

-Logistika va oziq-ovqat zanjirini modernizatsiya qilish;

-Qishloq xo‘jaligida investitsion muhitni yaxshilash;

- Ekologik barqarorlikni ta’minlash.

Hozirgi globallashgan dunyoda oziq-ovqat xavfsizligi nafaqat inson salomatligi, balki davlat mustaqilligi va milliy xavfsizlik masalasiga ham aylangan. Birorta ham mamlakat ushbu masalaga bee’tibor bo‘la olmaydi. Tahlillar shuni ko‘rsatmoqdaki, bugungi tahdidlar (iqlim o‘zgarishi, geosiyosiy vaziyat, transport tizimidagi muammolar, qashshoqlik) faqat kompleks yondashuv va hamkorlik orqali hal etilishi mumkin. O‘zbekistonda ham so‘nggi yillarda ko‘rilgan islohotlar samarasi sezilmoqda, biroq yanada chuqur va tizimli yondashuv talab etiladi.

Oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash uchun nafaqat ishlab chiqarishni oshirish, balki oziq-ovqat sifatini yaxshilash, tengsizlikni kamaytirish va barqaror amaliyotlarga o‘tish zarur. Oziq-ovqat tizimlarining kelajagi hukumatlar, biznes va jamiyatning birgalikdagi sa’y-harakatlaridan bog‘liq.

Oziq-ovqat xavfsizligi - bu barqaror rivojlanishning asosiy ustuni. Uni ta’minlash uchun;

-Ichki ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish;

-Qishloq xo‘jaligida raqamlashtirishni joriy etish;

-Ilmiy-amaliy tadqiqotlarni qo‘llab-quvvatlash;

- Kambag‘al aholi qatlami uchun oziq-ovqat mahsulotlariga yetib borish imkonini kengaytirish;

- Oziq-ovqat xatarlariga qarshi maxsus monitoring tizimini joriy etish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. www.icarda.org - Қурғокчилик ҳудудларда қишлоқ хўжалиги тадқиотлари бўйтчп халқаро маркази (ICARDA)нинг расмий сайти
2. Саидова Д.Н., Олимжонова Ш.О.//. Основные риски и факторы продовольственной безопасности в Узбекистане Alfraganus xalqaro ilmiy jurnal 1 (6) 2024
3. https://www.google.com/search?q
4. https://imrs.uz/publications/articles-andabstracts/suv_tanqisligining_qurg%E2%80%98oqchil_hududlardagi?utm_source=chatgpt.com
5. https://imrs.uz/publications/articles-andabstracts/suv_tanqisligining_qurg%E2%80%98oqchil_hududlardagi?utm_source=chatgpt.com

УДК: 330.4

ЎЗБЕКИСТОНДА ЯИМ НИ ЭКОНОМЕТРИК МОДЕЛЛАШТИРИШ ВА ПРОГНОЗИНИ ТАҲЛИЛ ҚИЛИШ

ЭКОНОМЕТРИЧЕСКОЕ МОДЕЛИРОВАНИЕ И АНАЛИЗ ПРОГНОЗА ВВП В УЗБЕКИСТАНЕ

ECONOMETRIC MODELING AND ANALYSIS OF GDP FORECAST IN UZBEKISTAN

Джаббаров Раҳимжон Абдуллаевич
Ўзбекистон Миллий университети“Иқтисодиёт” факультети,
“Эконометрика ва иқтисодий моделлаштириш” кафедраси PhD катта ўқитувчиси

Аннотация

Мақолада потенциал ЯИМнинг макроиқтисодий таҳлил ва прогнозлашдаги аҳамияти ҳамда ўзига хос муҳим ўрни тўғрисида фикр юритилган. Хусусан, потенциал ялпи ички маҳсулот (ЯИМ) мамлакат иқтисодиётида ялпи таклифни ифодалаб берувчи кўрсаткич бўлиб, у орқали иқтисодиётда реал ЯИМни потенциал даражасидан четланганлиги ёки потенциал даражасида эканлигини аниқлаш мумкин. Шу билан бирга потенциал ЯИМнинг эконометрик таҳлили амалга оширилган.

Калит сўзлар. потенциал ЯИМ, Кобб-Дуглас ишлаб чиқариш функцияси, эконометрик модел, модел параметрлари, прогноз

В статье рассматривается значение потенциального ВВП в макроэкономическом анализе и прогнозировании, а также его уникальная роль. В частности, потенциальный валовой внутренний продукт (ВВП) — это показатель, отражающий валовое предложение в экономике страны, с помощью которого можно определить, отклоняется ли реальный ВВП в экономике от потенциального уровня или находится на потенциальном уровне. При этом был проведен эконометрический анализ потенциального ВВП.

Ключевые слова. потенциальный ВВП, производственная функция Кобба-Дугласа, эконометрическая модель, параметры модели, прогноз

The article discusses the importance of potential GDP in macroeconomic analysis and forecasting and its unique role. In particular, the potential gross domestic product (GDP) is an indicator representing the gross supply in the country's economy, through which it is possible to determine whether the real GDP in the economy deviates from the potential level or is at the potential level. At the same time, an econometric analysis of potential GDP was carried out.

Keywords. potential GDP, Cobb-Douglas production function, econometric model, model parameters, forecast

Миллий иқтисодиётни жорий ҳолатини баҳолаш макроиқтисодий кўрсаткичларни кейинги даврдаги ҳолатини прогнозлашда муҳим ҳисобланади. Потенциал ялпи ички маҳсулот (ЯИМ) мамлакат иқтисодиётида ялпи таклифни ифодалаб берувчи кўрсаткич бўлиб, у орқали иқтисодиётда реал ЯИМни потенциал даражасидан четланганлиги ёки потенциал даражасида эканлигини аниқлаш мумкин. Потенциал ЯИМ назарий тамойил бўлиб, иқтисодиётни эришиш мумкин бўлган ишлаб чиқариш ҳажмини ифодалаб беради. Реал ЯИМ эса маълум даврда мамлакатда ишлаб чиқарилган товар ва хизматларни якуний қийматини аниқлаб беради.

Потенциал ЯИМ кузатиб бўлмайдиган ўзгарувчи бўлганлиги учун уни ягона таърифи ва баҳолаш усули мавжуд эмас. Потенциал ЯИМ ва уни баҳолаш усулларини назарий асослари потенциал ЯИМни ишлаб чиқариш омилларидан тўлиқ ёки натурал даражасида фойдаланилгандаги ЯИМ ҳажми сифатида тавсифланади[1]. Халқаро валюта жамғармаси, Жаҳон банки, Иқтисодий ҳамкорлик ва ривожланиш ташкилоти каби халқаро ташкилотлар ўз тадқиқотларида потенциал ЯИМни инфляцияга босим ўтказмайдиган ЯИМ сифатида таърифлайдилар[2]. Бунда асосан ишлаб чиқариш ресурсларидан фойдаланиш самарадорлиги ўзининг мувозанат ҳолатида деб тахмин қилинади.

Мувозанат нуқтада ишлаб чиқариш ресурсларидан фойдаланиш ресурслар бозорида ресурсларга бўлган талаб таклифга тенг бўлиши ва ресурслар маржинал самарадорлигининг юқорилиги тушунилади. АҚШ бюджет идораси потенциал ЯИМ деганда иқтисодиёт тўлиқ бандликка эришгандаги ёки иқтисодиёт ишлаб чиқариш ресурсларидан юқори даражада фойдалангандаги ишлаб чиқариш ҳажми сифатида тавсифлайди [3].

Потенциал ЯИМни эконометрик усулларда баҳолаш, ЯИМ узилишини инфляция ва ишсизликка таъсирини тадқиқ этиш масалалари De Massi[6], J. Cotis[7], R. Shackleton[8], Döpke J., Chagny O[9]., A. Guisinger A., Owyang M., Shell H[10], Fedderke J. W., илмий тадқиқот ишларида ўз аксини топган.

Ўзбекистон потенциал ЯИМини таркибий ёндашув усуллари билан прогнозлатиришда фойдаланиладиган моделнинг мустақил ўзгарувчиларни потенциал даражаси асосида прогнозлаштириш мумкин. Мустақил ўзгарувчиларни потенциал даражасини прогнозлаштиришда фойдаланиладиган мустақил ўзгарувчиларни потенциал даражаси уларнинг тренди эканлиги фараз қилинади. Потенциал ЯИМни ўрта муддатларга прогноз қийматларини аниқланиши учун йиллик маълумотлар асосида тузилган моделлардан фойдаланилади. Таркибий ёндашувлардан Кобб-Дуглас ишлаб чиқириш модели бўйича потенциал ЯИМни прогнозлаштириш учун дастлаб моделдаги мустақил ўзгарувчилар ялпи омиллар самарадорлиги (TFP), капитал (K) ва иқтисодий банд аҳоли (L) прогнозлаштирилади.

Ишлаб чиқариш омилларини прогноз қийматлари асосида потенциал ЯИМни инерцион, базавий ва мобилизацион прогноз вариантлари ишлаб чиқилди. Потенциал ЯИМни прогноз вариантларини ишлаб чиқишда ялпи омиллар самарадорлигини уч хил йўналишда ўзгариши фараз қилинди. Потенциал ЯИМни учта сценарий бўйича прогноз қийматлари амалга оширилганлиги сабабли ЯИМ инерцион, ЯИМ базавий ва ЯИМ мобилизацион сифатида ифодаланди. Прогноз сценарийларида фойдаланиладиган усулларнинг аҳамиятлилиги халқаро амалиётда потенциал ЯИМни прогнозлаштиришда фойдаланиладиган усуллар билан аниқланган потенциал ЯИМ қийматлари билан асосланди.

2025–2026-йилларда потенциал ЯИМни учта вариантдаги қиймати ҳам ўсиш тенденциясига эга бўлиб, уларнинг асосий фарқи ўсиш тенденциясидаги ўзгаришда эканлигини кўриш мумкин. Потенциал ЯИМ 2026 йилда 863,4 трлн. сўмни ташкил қилиб, 2021 йилдаги реал ЯИМдан нисбатан 1,13 баробарга ошиши аниқланди. Потенциал ЯИМни базавий прогнози 2026 йилда 1064,7 трлн. сўмни ташкил қилиши аниқланди. Бу эса 2021 йилга нисбатан потенциал ЯИМ 1,26 баробарга ошишини ифодалайди. Потенциал ЯИМ инерцион ва базавий прогноз қийматларига қараганда ўсиш тенденцияси юқори бўлиб, 2026 йилда 1173,2 трлн. сўмни ташкил қилиши аниқланди. Бу эса 2021 йилдаги потенциал даражасидан 1,4 ва реал қийматидан 1,6 баробарга ошишини ифодалайди (3.6-жадвал).



1-расм. Потенциал ЯИМни 2025–2026-йиллардаги прогноз қийматлари, млрд. сўмда

Потенциал ЯИМни вариантли прогноз қийматлари бўйича уларни иқтисодий ўсиш суръатлари ҳамда ишлаб чиқариш омилларини иқтисодий ўсишнинг суръатларига қўшган ҳиссасини аниқлаш потенциал иқтисодий ўсиш қайси омиллар асосида таъминланиши аниқланди. Ўзбекистон иқтисодиётида ишлаб чиқариш омилларини потенциал иқтисодий ўсишга қўшган ҳиссаси қуйида келтирилган (1) модель асосида аниқланди:

$$\Delta GDP_t = \Delta TFP_t + 0,52 \cdot \Delta K_t + 0,48 \cdot \Delta L_t \qquad (1)$$

Потенциал ЯИМни прогноз вариантлари фақат ялпи омиллар самарадорлигини

2025–2026-йилларда потенциал ЯИМни учта сценарий бўйича прогноз қийматларини халқаро амалиётда потенциал ЯИМни баҳолашда фойдаланиладиган усуллар бўйича аниқланган қийматлари билан солиштириш натижалари прогнозлаштирилган қийматлар Ўзбекистон иқтисодиётига мослиги ифодалади.

Потенциал ЯИМни учта сценарий бўйича прогноз натижаларига кўра Ўзбекистонда юқори иқтисодий ўсиш суръатлари ялпи омиллар самарадорлигини оширмасдан таъминлаш учун иқтисодиёт потенциал даражасидан ошишига олиб келиши мумкин. Бунда реал ЯИМни юқори ўсиш суръатларини капитал ва ишчи кучи асосида таъминланиши реал ЯИМни потенциал даражасидан ошган ҳар бир ф.п. учун ўртача инфляция 0,34 ф.п. га ошишига олиб келади. Шу сабабли, Ўзбекистон иқтисодиёти учун ялпи омиллар самарадорлигини янги трендини ҳосил қилиниши ва ялпи омиллар самарадорлигини фаоллаштириш орқали юқори иқтисодий ўсишни таъминлаш ўз навбатида иқтисодий ўсиш инфляцияга босимни келтириб чиқармайди.

1-жадвал

Ҳудудларида потенциал ЯИМни 2023–2026-йиллардаги прогноз қийматлари (млрд. сўмда, 2021 йил нархларида)

Йиллар	2025	2026
Қорақалпоғистон Республикаси	35768	38619
Андижон	63266	67982
Бухоро	51617	55111
Жиззах	32728	35263
Қашқадарё	57097	60428
Навоий	68091	71140
Наманган	46695	50201
Самарқанд	75758	81243
Сурхондарё	40372	43153
Сирдарё	19651	20837
Тошкент	102007	107861
Фарғона	59826	63291
Хоразм	35479	37794
Тошкент ш.	176946	194444

Потенциал ЯИМ ва иқтисодий ўсишни сценарий прогноз натижалари миллий иқтисодиётда юқори ўсиш суръатларини таъминлашда ялпи омиллар самарадорлигини фаоллаштириш зарурдир. Бугунги кунда Ўзбекистоннинг ўрта муддатларда иқтисодиётни ривожлантиришда қатор чора-тадбирлари амалга оширилмоқда.

Потенциал ЯИМнинг макроиқтисодий кўрсаткичлар билан ўзаро алоқадор бўлганлиги сабабли уни статистик баҳолаш бир қатор имкониятларни беради. Хусусан, иқтисодиёт инфляция даражаларини бошқаришда, давлат бюджетини прогнозлаштиришда ҳамда жорий ҳисоб балансининг прогнозларидан келиб чиқиб, таъсирчан макроиқтисодий чораларни кўришда фойдаланилиб, мамлакат макроиқтисодий сиёсатнинг асосий йўналишларини белгилаш имконини беради. Шу билан бирга, мамлакатда макроиқтисодий барқарорликни таъминлаган ҳолда талабни рағбатлантириш имкони мавжудлигини аниқлаш ҳамда қисқа ва ўрта муддатли макроиқтисодий дастурларни ишлаб чиқишда қулай восита бўлиб хизмат қилади.

Потенциал ЯИМни макроиқтисодий кўрсаткичлар билан ўзаро алоқадорлигини аниқлашда ЯИМ узилишидан фойдаланилади. ЯИМ узилишини мусбат бўлиши талаб таклифдан ошиб кетганлигини, манфий бўлиши ортиқча ишлаб чиқариш имконияти мавжудлигини ифодалайди. ЯИМ узилиши ҳақиқий ЯИМнинг потенциал қиймати атрофида вақтинчалик ҳаракатини баҳолайди.

Потенциал ялпи омиллар самарадорлигини фаоллаштирувчи омилларнинг прогноз қийматлари асосида ялпи омиллар самарадорлигини 2022-2026 йилларга прогнозлаштирилди. Прогноз қийматларига кўра, мамлакатимизда тизимли ислоҳотларни олиб борилиши ва илмий тадқиқот соҳасида тадқиқотчилар сонининг кўпайиши, чет эл инвестициялари ва кредитлари, ахборот ва алоқага киритилган инвестицияларни ошиши потенциал ялпи омиллар самарадорлигини 2022–2026-йилларда ўсиш тенденциясига эга бўлиши кутилмоқда. Хусусан, 2026 йилда ялпи омиллар самарадорлиги 4,6 ташкил қилиб, 2021 йилдаги потенциал даражасидан 1,1 ва реал даражасидан 1,25 баробарга ошиши прогноз қилинди.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Okun, A (1962) Potential GNP, its measurement and significance American Statistical Association, Proceedings of the Business and Economics Section, 98-103; Adams C., R Fenton P., Flemming L. I Potential Output in Major Industrial Countries //Staff Studies for the World Econ Outlook, August 1987. – International Monetary Fund, 1987; De Masi M. P. IMF estimates

of potential output: theory and practice. – International Monetary Fund, 1997.
2. De Masi M. P. IMF estimates of potential output: theory and practice. – International Monetary Fund, 1997; Epstein M. N. P., Macchiarelli C. Estimating Poland's potential output: a production function approach. – International Monetary Fund, 2010; Chalaux T., Guillemette Y. The OECD potential output estimation methodology. – 2019.
3. Congressional Budget Office. A summary of alternative methods for estimating potential GDP //Background Paper. – 2004.
4. www.worldbank.org Жаҳон банкининг расмий сайти
5. De Masi M. P. IMF estimates of potential output: theory and practice. – International Monetary Fund, 1997; Chalaux T., Guillemette Y. The OECD potential output estimation methodology. – 2019; Ladiray D., Mazzi G. L., Sartori F. Statistical methods for potential output estimation and cycle extraction //Office for Official Publications of the European Communities. – 2003. Shackleton R. Estimating and projecting potential output using CBO‘s forecasting growth model. – Congressional Budget Office, 2018.
6. De Masi M. P. IMF estimates of potential output: theory and practice. – International Monetary Fund, 1997;
7. Cotis J. P., Elmeskov J., Mourougane A. Estimates of potential output: benefits and pitfalls from a policy perspective //Published in Euro Area Business Cycle: Stylized Facts and Measurement Issues. – 2004. – C. 35-60;
8. Shackleton R. Estimating and projecting potential output using CBO‘s forecasting growth model. – Congressional Budget Office, 2018;
9. Döpke J., Chagny O. Measures of the output gap in the Euro-zone: An empirical assessment of selected methods. – Kiel Working Paper, 2001. – №. 1053;
10. Guisinger A., Owyang M., Shell H. Comparing measures of potential output // Federal Reserve Bank of St. Louis Review– 2018. – T. 100. – № 4. – C. 297-316;

UDK: 336.1

O‘ZBEKISTONDA DAVLAT BUDJETI DAROMAD VA XARAJATLARINING TARKIBI VA ULARNING STATISTIK TAHLILI

СОСТАВ ДОХОДОВ И РАСХОДОВ ГОСУДАРСТВЕННОГО БЮДЖЕТА РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН И ИХ СТАТИСТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ

COMPOSITION OF STATE BUDGET REVENUES AND EXPENDITURES IN UZBEKISTAN AND THEIR STATISTICAL ANALYSIS

Yo‘ldosheva Madina Farxod qizi
Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti
Matematik iqtisodiyot yo‘nalishi magistranti

Annotatsiya

Quyidagi maqolada O‘zbekistonda 2024-yilga mo‘ljallangan davlat budjeti daromadlari va xarajatlari tarkibi va statistikasi tahlil qilinib, daromad manbalari, jumladan, to‘g‘ridan-to‘g‘ri va bilvosita soliqlar, resurs to‘lovlari va soliqdan tashqari tushumlar o‘rganilib, budjet yig‘imlarining diversifikatsiyasi va ortib borayotgani ta’kidlangan. Xarajatlar tomonida, maqolada stipendiya va grantlarga ajratilayotgan mablag‘lar, ijtimoiy sohani qo‘llab quvvatlash, tovar va xizmatlarga yo‘naltirilgan xarajatlar, shuningdek subsidiyalarga katta investitsiyalar kiritilishi ta’kidlanadi.

Kalit so‘zlar: Budjet-soliq siyosati, daromadlar, xarajatlar, davlat, iqtisodiyot, rivojlanish, taqsimlash, ijtimoiy himoya ,subsidiya, konsolidatsiya.

В данной статье анализируются структура и статистика доходов и расходов государственного бюджета Узбекистана за 2024 год, рассматриваются источники доходов, включая прямые и косвенные налоги, ресурсные платежи и неналоговые поступления, а также отмечается диверсификация и рост бюджетных поступлений. В части расходов рассматриваются средства, выделяемые на стипендии и гранты, социальную поддержку, расходы на товары и услуги, а также крупные инвестиции в субсидии.

Ключевые слова: Бюджетно-налоговая политика, доходы, расходы, государство, экономика, развитие, распределение, социальная защита, субсидирование, консолидация

The following article analyzes the structure and statistics of state budget revenues and expenditures in Uzbekistan for 2024, examines the sources of revenue, including direct and indirect taxes, resource payments and non-tax revenues, and highlights the diversification and growth of budget collections. On the expenditure side, the article highlights the funds allocated for scholarships and grants, social support, spending on goods and services, as well as large investments in subsidies.

Keywords: Budget and tax policy, revenues, expenditures, state, economy, development, distribution, social protection, subsidy, consolidation.

Davlat budjeti har qanday davlatning iqtisodiy tuzilishida hal qiluvchi rol o‘ynaydi va davlat moliyasini boshqarishning asosiy vositasi bo‘lib xizmat qiladi. O‘zbekistonda davlat budjeti turli daromad manbalaridan, jumladan, soliqlar, soliq bo‘lmagan daromadlar va grantlardan iborat bo‘lib, ularning har biri davlat xizmatlari va rivojlantirish loyihalarini moliyalashtirishda muhim rol o‘ynaydi. Xarajatlar tomonida hukumat iqtisodiy o‘sishni va ijtimoiy farovonlikni oshirishga qaratilgan ta’lim, sog‘liqni saqlash, infratuzilma va mudofaa kabi turli sohalarga mablag‘ ajratadi.

Ushbu resurslarning taqsimlanishi va oqimiga iqtisodiy sharoitlar, inflyatsiya darajasi va hukumat islohotlari kabi ko‘plab omillar ta’sir ko‘rsatadi. So‘nggi yillarda O‘zbekistonda soliq islohotlari, daromad manbalarini diversifikatsiya qilish, fiskal markazlashtirishni kuchaytirish kabi muhim iqtisodiy o‘zgarishlar amalga oshirildi.

Ushbu o‘zgarishlar budjetning tarkibi va taqsimlanishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatdi, davlat moliyasini boshqarish uchun yangi vazifalar va imkoniyatlar yaratdi. Maqolada O‘zbekiston davlat budjetining asosiy tarkibiy qismlari ko‘rib chiqiladi, daromadlarni shakllantirish va xarajatlarni taqsimlash tendentsiyalari tahlil qilinadi hamda so‘nggi vaqtlarda amalga oshirilgan islohotlarning oqibatlari baholanadi.

Keng ko‘lamli adabiyotlarda O‘zbekistonda davlat budjeti daromadlari va xarajatlarining tarkibi va dinamikasi haqida qimmatli ma’lumotlar berilgan, bunda asosiy e’tibor fiskal islohotlar, daromadlarni shakllantirish va xarajatlarni boshqarish masalalariga qaratilgan.

O‘zbekistonda davlat xarajatlari tendentsiyalarini chuqur tahlil qilib, tarixiy naqshlarni va davlat xarajatlaridagi o‘zgaruvchan ustuvorliklarni aniqlab beradi. Tadqiqotda ta’lim va sog‘liqni saqlash kabi ijtimoiy sohalarga mablag‘larni qayta taqsimlash, bu xarajatlarning qashshoqlikni kamaytirish va ijtimoiy farovonlikka ta’siriga alohida e’tibor qaratilgan[1].

Sattarov, S., Ismoilov, M.[2] tadqiqot ishlarida O‘zbekistonda daromadlarni shakllantirishning murakkab tizimini, xususan, tabiiy resurslarga asoslangan daromadlarga bog‘liqlikdan ko‘proq diversifikatsiyalangan soliq tuzilmasiga o‘tishni ko‘rib chiqadilar. Ularning tadqiqotida daromadlar barqarorligini oshirishga qaratilgan qo‘shilgan qiymat solig‘i (QQS) va yuridik shaxslardan olinadigan daromad solig‘iga o‘zgartirishlar kiritilgan soliq islohotlarining o‘rni alohida ta’kidlangan.

Iqtisodiyot va Moliya Vazirligining rasmiy hisobotida [7] O‘zbekistonning soliq-budjet siyosati asoslari va budjetni rejalashtirish jarayonlari har tomonlama tahlil qilingan. Hujjatda davlat budjetining strategik vazifalari belgilab, asosiy e’tibor iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish, infratuzilmani rivojlantirish, ijtimoiy dasturlarga qaratilgan.

Xalilov va Rahimovlar [3] O‘zbekistonda davlat xarajatlari sxemasi va iqtisodiy o‘sish o‘rtasidagi bog‘liqlikni tahlil qiladi. Ularning tadqiqotlari budjet mablag‘laridagi o‘zgarishlar, xususan, infratuzilma, ta’lim va sog‘liqni saqlash kabi sohalarda - mamlakat iqtisodiy rivojlanishiga qanday ta’sir qilishini o‘rganadi.

Yuqoridagi tadqiqotlar birgalikda O‘zbekistondagi davlat budjetining ko‘p qirrali ko‘rinishini taqdim etadi, bunda daromadlarni shakllantirish, xarajatlarni boshqarish va fiskal islohotlar sohasidagi muammolar ham, muvaffaqiyatlar ham ko‘rib chiqiladi.

Metodologiyada asosiy e’tibor daromadlar va xarajatlar tarkibidagi o‘zgarishlarni tushunishga, ularning iqtisodiy rivojlanishga ta’sirini baholashga va so‘nggi vaqtlarda amalga oshirilgan fiskal islohotlarning oqibatlarini tahlil qilishga qaratilgan.

O‘zbekistonning 2024-yilgi davlat budjeti daromadlari to‘g‘risidagi ma’lumotlar tahlili turli choraklar bo‘yicha daromadlar tarkibi va dinamikasida sezilarli tendentsiyalarni ko‘rsatmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi davlat budjetining birinchi chorak (1-chorak), birinchi yarim yillik (1- yarim yillik) ,to‘qqiz oylik (9 oylik) va yillik umumiy daromad ko‘rsatkichlari daromadlarning turli toifalari bo‘yicha aniq o‘sishini ko‘rsatadi.

2024-yilning birinchi choragida O‘zbekiston Respublikasi davlat budjetining jami tushumlari 52 620,6 mlrd.so‘mni tashkil etdi. Keyingi olti oyda(1-yarimyillik) bu ko‘rsatkich sezilarli darajada oshdi va birinchi yarim yillikda 120 989,7 mlrd.so‘mni yetdi. Uchinchi chorak yakuniga ko‘ra jami daromadlar miqdorida o‘sish kuzatilmadi, yillik daromad esa 274 423 mlrd.so‘mni tashkil etdi.

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i , foyda solig‘i va korporativ soliqlarni o‘z ichiga olgan holda O‘zbekiston Respublikasida 2024-yilning 1-choragida bevosita soliqlar 18 770,7 mlrd.so‘mni, keyingi chorakda 40 314,3 mlrd.so‘mni, 3-chorakda(9 oylik) 64 099 mlrd.so‘m va yillik 90 833 mlrd.so‘mni tashkil etdi. Bevosita soliqlarning asosiy qismini foyda solig‘i tashkil etib, birinchi chorakda 10 431,5 million so‘mdan boshlanib, yil yakunida 52620 mlrd.so‘m miqdorga yetdi. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i esa 7 744,9 mlrd.so‘mdan yil yakunida 35 384 mlrd.so‘mga o‘sib bordi. Bevosita soliqlarning bir qismini tashkil etuvchi aylanmadan olinadigan soliqlar ham o‘sish suratini namoyon etib, 1-chorakda 594,3 mlrd.so‘m qayd etilgan bo‘lsa, yil yakuniga borib bu ko‘rsatkich 2 829 mlrd.so‘mni tashkil etdi.

O‘zbekiston Respublikasida bilvosita soliqlarning katta qismini QQS (qo‘shilgan qiymat solig‘i) tashkil etib, 2024-yil I choragida 12 267,0 mlrd.so‘m soliq undirilgan bo‘lsa, yil yakuniga borib ko‘rsatkich 59 280 mlrd.so‘mni qayd etdi. Aksiz va Bojxona soliqlari ham o‘z navbatida o‘sish holatini namoyon etib , 1-chorakda mos ravishda 3 729,8 mlrd.so‘m va 2 196,2 mlrd.so‘m miqdorda undirilgan bo‘lsa, yillik hisobda 19 060 mlrd.so‘m va 10 001mlrd.so‘mga o‘sdi.

Resurs to‘lovlari va mulk soliqlaridan kelgan daromad ham budjetning bir qismini tashkil etadi. O‘zbekiston Respublikasida 2024-yilning 1-chorakdagi resurs to‘lovlari va mulk soliqlaridan kelgan daromad holati 8 317,3 mlrd.so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, yillik hisobga ko‘ra bu ko‘rsatkich 36 363 mlrd.so‘mga yetdi. Resurslar va mulk solig‘ining qariyb 50 foizdan ziyodi yer uchun to‘lanadigan soliqlar tomonidan qoplangan. yer uchun to‘lanadigan soliqlar 2024-yil 1-choragida 4506,5 mlrd.so‘m va yil yakunida 20 170 mlrd.so‘mga yetdi.

O‘zbekistonda 2024-yilda soliq bo‘lmagan turli manbalarni o‘z ichiga olgan boshqa daromadlar uch davr mobaynida sezilarli o‘sishni kuzatdi. 1-chorakda 7339,6 mlrd.so‘mdan boshlangan boshqa daromadlar yil o‘rtalarida 23515,8 mlrd.so‘mga oshib, yil yakuniga ko‘ra 58 886 mlrd.so‘mga yetdi (1-jadval).

2024-yilgi O‘zbekiston Respublikasi davlat budjeti daromadlari to‘g‘risidagi ma’lumotlar barcha toifalar bo‘yicha barqaror o‘sish tendentsiyasini, to‘g‘ridan-to‘g‘ri va bilvosita soliqlarning sezilarli o‘sishini, shuningdek, mol-mulk va resurs soliqlarining oshishini ko‘rsatmoqda.

O‘zbekistonning 2024-yilgi davlat budjeti xarajatlari tahlili turli tarmoqlar bo‘yicha umumiy xarajatlarning tizimli ravishda o‘sishini ko‘rsatmoqda. Birinchi chorak (1-chorak), birinchi yarim yillik (1-yarim yillik), to‘qqiz oylik (9 oylik) va yillik umumiy xarajatlari quyidagicha bo‘ldi:

- Birinchi chorak (1-chorak): 70 340 mlrd.so‘m
- Birinchi yarim yillik (1 yillik): 149 769 mlrd.so‘m
- To‘qqiz oylik davr (9 oylik): 219 337 mlrd.so‘m
- Yillik xarajat: 310 926 mlrd.so‘m

1-jadval

O‘zbekiston Respublikasi davlat budjeti daromadlari [1] (million so‘m)[5]

	Ko‘rsatkichlar	2024-yil 1-chorak	2024-yil 1-yarim yillik	2024yil 9 oylik	2024-yil yillik
	I. Daromadlar	**52 620,6**	**120 989,7**		**274 423**
1.	**Bevosita soliqlar**	**18 770,7**	**40 314,3**	**64 099**	**90 833**
1.1	Foyda solig‘i	10 431,5	22 031,0	36 578	52 620
1.2	Aylanmadan olinadigan soliq	594,3	1 350,4	2 106	2 829
1.3	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	7 744,9	16 932,8	25 414	35 384
2.	**Bilvosita soliqlar**	**18 193,0**	**40 004,0**	**62 324**	**88 341**
2.1	Qo‘shilgan qiymat solig‘i	12 267,0	26 689,3	41 847	59 280
2.2	Aksiz solig‘i	3 729,8	8 613,9	13 517	19 060
2.3	Bojxona boji	2 196,2	4 700,7	6 960	10 001
3.	**Resurs to‘lovlari va mulk solig‘i**	**8 317,3**	**17 155,7**	**26 478**	**36 363**
3.1	Mol-mulk solig‘i	1 718,0	3 524,9	5 153	6 805
3.2	Yer solig‘i	1 853,4	4 022,1	6 016	8 216
3.3	Yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq	4 506,4	9 183,0	14 687	20 170
3.4	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	239,5	425,7	623	1 173
	Boshqa daromadlar	**7 339,6**	**23 515,8**	**40 745**	**58 886**

Ijtimoiy ehtiyojlarga ajratmalar/badallar uchun O‘zbekiston Respublikasi davlat byudjeti tomonidan 2024-yil chorak boshida 4 590 mlrd.so‘m ajratilgan bo‘lib , 1-yarimyillikda bu ko‘rsatkich qariyb 2,8 baravar, ya’ni 12 923mlrd.so‘mga, 3-chorakda(9 oylik) 16 757 mlrd.so‘m va yillik xarajatda esa 25 164 mlrd.so‘mga yetdi.

O‘zbekiston Respublikasida 2024-yil Stipendiyalar uchun ajratilgan mablag‘ miqdori esa 1-chorakda 405 mlrd.so‘m bo‘lgan bo‘lsa, yil yakuniga borib bu ko‘rsatkich 1 678 mlrd.so‘mga yetdi.

Tovar va xizmatlar bo‘yicha xarajatlar uchun O‘zbekiston Respublikasi davlat budjetidan 2024-yilning 1-choragida 4 645 mlrd.so‘m, 2-chorakda 11 486 mlrd.so‘m , 3-chorakda 17 997 mlrd.so‘m va yil yakuni hisobiga ko‘ra 24 842 mlrd.so‘m mablag‘ ajratildi. Grantlar (maqsadli jamg‘armalarga) O‘zbekiston Respublikasida 2024-yilning 1-choragida 6 764 mlrd.so‘m, 2-chorakda 14 650 mlrd.so‘m , 3-chorakda 23 437 mlrd.so‘m va yil yakuni hisobiga ko‘ra 34 762,0 mlrd.so‘m davlat budjetidan mablag‘ ajratildi. Ijtimoiy nafaqalar va ijtimoiy yordamning boshqa turlari uchun 1-chorakda 4 854 mlrd.so‘m, yarimyillikda 9 196 mlrd.so‘m , 3-chorakda 13 572 mlrd.so‘m va yil yakuni hisobiga ko‘ra 23 613 mlrd.so‘m mablag‘ ajratildi. O‘zbekiston Respublikasi davlat budjetidan 2024-yil Subsidiyalar uchun ajratilgan mablag‘lar, 1-chorakda 10 662 mlrd.so‘m, 1-yarimyillikda 15 351 mlrd.so‘m , 3-chorak(9 oylikda) 19 816 mlrd.so‘m va yillik 25 645 mlrd.so‘mga o‘sdi (2-jadval).

2-jadval

O‘zbekiston Respublikasi davlat budjeti xarajatlari [6]

№	Iqtisodiy tasnif bo‘yicha xarajatlar	2024-yil			
		1-chorak	6 oylik	9 oylik	yillik
	jami	**70 340**	**149 769**	**219 337**	**310 926**
shundan:					
1	Ish haqi	18 165	55 199	71 030	101 810
2	Stipendiyalar	405	819	1 177	1 678
3	Ijtimoiy ehtiyojlarga ajratmalar/badallar	4 590	12 923	16 757	25 164
4	Kapital qo‘yilmalar	1 932	5 414	9 429	14 512

5	**Tovar va xizmatlar bo‘yicha xarajatlar**	**4 645**	**11 486**	**17 997**	**24 842**
	shundan:				
5.1	Xizmat safarlari xarajatlari	50	129	193	267
5.2	Kommunal to‘lovlar, shundan:	1 891	4 672	6 838	8 583
	Elektroenergiya	1 481	4 068	6 098	7 358
	Tabiiy gaz	203	243	262	424
	Issiq suv va issiqlik energiyasi	128	194	222	438
5.3	Saqlash va joriy ta’mirlash	109	380	731	1 228
5.4	Moddiy aylanma vositalar zaxiralariga xarajatlar, shundan:	1 599	4 097	6 510	9 376
	Oziq-ovqat mahsulotlari	805	1 837	2 639	3 724
	Dori-darmonlar va tibbiyotda foydalaniladigan vositalar	410	1 062	1 907	3 639
	Yonilg‘i va YOMM	134	351	566	84
6	**Asosiy vositalar bo‘yicha xarajatlar**	**428**	**2 001**	**3 309**	**2 967**
	shu jumladan:				
	Asosiy vositalarni kapital ta’mirlash	66	384	578	884
	Asosiy vositalarni sotib olish	362	1 617	2 730	4 173
7	Foiz to‘lovlar	2 490	6 972	9 653	14 493
8	Subsidiyalar	10 662	15 351	19 816	25 645
9	Grantlar (maqsadli jamg‘armalarga)	6 764	14 650	23 437	34 762,0
10	Ijtimoiy nafaqalar va ijtimoiy yordamning boshqa turlari	4 854	9 196	13 572	23 613
11	Boshqa xarajatlar	15 404	15 759	33 160	39 350

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, O‘zbekistonning 2024-yilgi Davlat budjeti xarajatlarida ijtimoiy farovonlik, infratuzilma va uzoq muddatli iqtisodiy rivojlanishga yo‘naltirilgan salmoqli investitsiyalar, ham ijtimoiy, ham iqtisodiy sohalarda sezilarli o‘sishlar qayd etilgan. Hukumat barqaror o‘sishni ta’minlashga qaratilgan iqtisodiy rivojlanish va infratuzilma loyihalariga katta sarmoya kiritilishi bilan birga ta’lim, sog‘liqni saqlash va ijtimoiy yordam kabi ijtimoiy xizmatlarga e’tibor qaratayotgani yaqqol namoyon bo‘lmoqda. Ushbu tadqiqot O‘zbekistonning 2024-yilgi davlat budjeti daromadlari va xarajatlari tarkibi va dinamikasini har tomonlama tahlil qildi. Ma’lumotlar davlat daromadlari va xarajatlarining o‘sishning aniq tendentsiyasini, ijtimoiy tarmoqlar, infratuzilma va uzoq muddatli investitsiyalarga yo‘naltirilgan muhim investitsiyalarni ko‘rsatadi. Davlat byudjeti muvozanatini saqlash uchun budjet xarajatlarini optimallashtirish , budjet tizimini raqamlashtirish va avtomatlashtirish , shuningdek , soliq tizimini yanada takomillashtirish kabi amaliy chora tadbirlar ko‘rish muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. “Davlat byudjeti” : O‘quv qo‘llanma / J.R. Zaynalov, B.Sh. Xusanov, S.S. Aliyeva, Sh.M. Latipova; - T.: "Iqtisod-Moliya", 2021
2. Akhrorjon, A. “Uzbekistan and the World Trade Organization management system” // International scientific conference “Topical issues of the economy in modern.” – 2022. 3. Abdullaev, A., Odilova, M. “The role of WTO in improving the quality of education” // Yosh Tadqiqotchi Jurnali. – 2024.
3. Tursunboy o‘g‘li, N. J., Axadjon o‘g‘li, A. A. “O‘zbekistonning Jahon Savdo Tashkilotiga a’zo bo‘lish uchun uzoq yo‘li va Xitoy tajribasi” // Qo‘qon universiteti xabarnomasi. – 2023.
4. “Budjet tizimi”: Darslik / S.U.Mehmonov, Z.X.Karimova, A.S.Tursunov. –Toshkent- 2017y.
5. https://www.imv.uz/static/davlat-budjeti-xarajatlari-ijrosi-iqtisodiy-tasnif-2024
6. https://www.imv.uz/static/davlat-budjeti-daromadlari-2024-2
7. www.imv.uz – Iqtisodiyot va Moliya Vazirligi rasmiy veb sayti

UDK: 330.8

YANGI O‘ZBEKISTON SHAROITIDA MILLIY INNOVATSIYA TIZIMINI RIVOJLANISHI

РАЗВИТИЕ НАЦИОНАЛНОЙ ИННОВАЦИОННОЙ СИСТЕМЫ В УСЛОВИЯХ НОВОГО УЗБЕКИСТАНА

DEVELOPMENT OF THE NATIONAL INNOVATION SYSTEM IN THE CONDITIONS OF THE NEW UZBEKISTAN

Shakirova Farog‘at Boltayevna
Toshkent davlat transport universiteti “Transport iqtisodiyoti” professori

Annotatsiya

Maqolada milliy innovatsiya tizimi va uning elementlari, tashkiliy-huquqiy shakllari to‘g‘risida atroflicha yoritib berilgan. Shuningdek, innovatsiyalarning tijoratlashuvi, yangi texnologiyalarni ishlab chiqarish va amaliyotga joriy etishda xususiy sektorning, venchur biznesning ahamiyati o‘rganilgan. Yangi O‘zbekiston sharoitida milliy innovatsiya tizimitshtp rivojlanish jarayonlari tahlil qilingan hamda xulosa va takliflar ishlab chiqilgan.

Калит сўзлар: innovatsiya, milliy innovatsiya tizimi, texnopark, startap, innovatsion ekotizm, texnopolis, biznes inkubator, innovatsion rivojlanish, venchur biznesi

В статье рассмотрена национальная инновационная система и ее элементы, организационно-правовые формы. Также изучалось значение частного сектора, венчурного бизнеса в коммерциализации инноваций, разработке и внедрении новых технологий в практику. Проанализированы процессы развития национальной инновационной системы в условиях нового Узбекистана, разработаны выводы и предложения.

Ключевые слова: инновации, национальная инновационная система, технопарк, стартап, инновационная экосистема, технополис, бизнес-инкубатор, инновационное развитие, венчурный бизнес

The article provides comprehensive coverage of the national innovation system and its elements, organizational and legal forms. The importance of the private sector, venture business, has also been studied in the commercialization of innovation, the production and implementation of new technologies into practice. In the conditions of the new Uzbekistan national innovation system, the development processes of shttp were analyzed and conclusions and proposals were developed.

Keywords: innovation, national innovation system, technopark, startup, innovation ecosystem, technopolis, business incubator, innovative development, venture business

Jahon iqtisodiyotida ilmiy va texnologik taraqqiyot raqobatbardoshlikni belgilaydigan asosiy omilga aylanmoqda. Milliy innovatsiya tizimining rivojlanishi mamlakatning iqtisodiy o‘sishi va mustaqil taraqqiyoti uchun strategik ahamiyat kasb etmoqda. Oxirgi yillarda O‘zbekiston ilmiy-innovatsion faoliyatni rivojlantirishda sezilarli darajada ilgarilab ketdi. Bu jarayonning asosiy harakatlantiruvchi kuchlari mamlakat rahbariyatining eng yuqori darajadagi strategik qarashlari va siyosiy qo‘llab-quvvatlashi hisoblanadi. Yangi O‘zbekiston sharoitida barcha sohalarda innovatsiyaga katta e’tibor qaratilmoqda. Buning natijasida GIIning 2025-yildagi reytingida O‘zbekiston 139 ta mamlakat orasida 79-o‘rinni egalladi. O‘zbekiston quyi va o‘rta daromad guruhida Vyetnam, Marokash, Mo‘g‘uliston va boshqa 37 ta mamlakat o‘rtasida 7-o‘rin (2024-yilda 10-o‘rin) hamda Markaziy va Janubiy Osiyo mintaqasida 10 ta mamlakat ichida Hindiston va Erondan keyin 3-o‘rindan (2024-yilda 4-o‘rin) joy oldi. Reytingda innovatsiyalarga yo‘naltiriladigan

sarmoya va resurslar (innovation input) subindeksida 69-o‘rin va innovatsiyalarning natijadorligini (innovation output) subindeksida 92-o‘rinni egalladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 21 sentabrdagi PF-5544-sonli Farmoni bilan O‘zbekiston Respublikasining 2030 yilga kelib Global innovatsion indeks reytingi bo‘yicha jahonning 50 ta ilg‘or mamlakati qatoriga kirish bo‘yicha ulkan maqsad e’lon qilindi. Ushbu maqsadni amalga oshirishning asosi fan sohasini zamonaviy iqtisodiy sharoitlarga moslashtirish hisoblanadi, bu esa o‘z navbatida kuchli me’yoriy-huquqiy baza bilan tartibga solinadigan uni rivojlantirishning tuzilmaviy, tashkiliy, kadrlar, infratuzilma va moliyaviy ta’minotidagi tub o‘zgarishlarga olib kelishi kerak. Ushbu ishni amalga oshirish yo‘nalishida "Ilm-fan va ilmiy faoliyat to‘g‘risida" [1] gi Qonun va "Innovatsion faoliyat to‘g‘risida" [2] gi Qonun qabul qilindi. O‘zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi ushbu qonunlar bilan ilm-fan va ilmiy faoliyat sohasidagi vakolatli davlat organi etib belgilangan.

Innovasiyaning mazmuniga kengroq qaraydigan bo‘lsak, uning lug‘aviy ma’nosi inglizcha “innovation” so‘zidan olingan bo‘lib, yangilik kiritish, ixtiro so‘zlarini anglatadi [3]. O‘rganishlar natijasi shuni ko‘rsatmoqdaki, innovasiyaga rasmiy doirada ham ta’riflar berilgan. Ayniqsa, ularning ichida Oclo hukumatining innovasiyaga bergan ta’rifi alohida e’tirof etiladi. Unga ko‘ra: “Innovasiya - yangi g‘oyalarni yaratish asnosida bozordagi talabga qarab zamonaviy va sifatli tovarlar ishlab chiqarish orqali raqobatchilaridan o‘zib ketish” [4], -deya qayd etiladi.

“Innovasiya — insonning aql-zakovati, ishlab chiqarish tajribasi negizida yaratilgan, ishlab chiqarishga tatbiq etilgan, ayni vaqtda, iqtisodiy-ijtimoiy samara keltirayotgan intellektual mulk ko‘rinishidagi yangiliklar, ixtirolar, kashfiyotlar, g‘oyalar va yangicha yondashuvlar majmuasidir” degan mualliflik ta’rifi shakllantirilgan. Agar innovasiion g‘oya yaratilsada, ishlab chiqarishga tatbiq etilmasa, o‘zining iqtisodiy nafliligini isbotlamasa, innovasiya hisoblanmaydi. Bu o‘rinda muhim bir holatni alohida ta’kidlash kerakki, yaratilgan innovatsiyalar tijoratlashtirilib, amaliyotga tadbiq etilib, iqtisodiy-ijtimoiy samara bergandagina ularni innovatsiyalar deb, hisoblash mumkin.

Innovatsiya — zamonaviy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini ta’minlashda hal qiluvchi omillardan biri bo‘lib, uning samarali rivojlanishi uchun muvofiq institutlar, siyosatlar va tizimlar mavjud bo‘lishi talab etiladi. Bu tizim milliy innovatsiya tizimi (MIT) tushunchasida o‘z ifodasini topgan bo‘lib, uning ilmiy asoslari turli iqtisodchi olimlar tomonidan ishlab chiqilgan. Milliy innovatsiya tizimi (MIT) — bu faqatgina davlat yoki biror sektor faoliyati emas, balki turli institutsional sub’ektlarning o‘zaro hamkorligi orqali shakllanuvchi murakkab ekotizim hisoblanadi. Ushbu tizimning samarali ishlashi turli elementlar o‘rtasidagi muvofiqlashuvga va interaktiv hamkorlikka bog‘liq.

Xorijiy ilmiy adabiyotda “milliy innovatsiya tizimi” (angl. national innovation system) tushunchasi 1980-yillar oxirida paydo bo‘lib, ilk bor ingliz iqtisodchisi Kristofer Frimen tomonidan sistemalashtirilgan. Uning ta’rifiga ko‘ra: “Milliy innovatsiya tizimi — bu yangi texnologiyalarni yaratish, olib kirish, o‘zgartirish va tarqatish faoliyatlari va o‘zaro hamkorliklari orqali amalga oshiruvchi davlat va xususiy sektordagi muassasalar tarmog‘idir” [5]. Olimning ta’rifida innovatsiya jarayonining faqat laboratoriya yoki tadqiqot muassasalarida emas, balki iqtisodiyotning barcha jabhalaridagi hamkorlik, aloqalar va iqtisodiy siyosat asosida shakllanishi ta’kidlangan.

Mazkur tushunchaga qo‘shilgan holda, Bengt-Oke Lundvall milliy innovatsiya tizimini bilim yaratish va uni tarqatishdagi o‘zaro hamkorlik jarayoni sifatida ta’riflaydi: “Milliy innovatsiya tizimi — bu iqtisodiy jihatdan foydalanilishi mumkin bo‘lgan yangi bilimlarni ishlab chiqish, tarqatish va qo‘llash jarayonlarida o‘zaro ta’sir etuvchi elementlar va munosabatlar majmuasidir. Ularning aksariyati millat ichida joylashgan yoki unga bog‘langan bo‘ladi”[6]. Lundvall ta’rifi innovatsiya jarayonining ko‘proq *o‘rganish va o‘zaro ta’sirga* asoslangan ijtimoiy jarayon ekanini ko‘rsatadi. Uningcha, innovatsiya — faqat texnologik jarayon emas, balki ijtimoiy, ta’limiy va iqtisodiy munosabatlar samarasidir.

Shuningdek, amerikalik iqtisodchi Richard R. Nelson ham milliy innovatsiya tizimini iqtisodiyotning institutsional asoslariga bog‘liq holda ta’riflaydi: “Milliy innovatsiya tizimi — bu milliy kompaniyalarning innovatsion samaradorligini belgilab beruvchi o‘zaro hamkorlikdagi institutlar majmuasidir.” [7] Nelson ta’rifida e’tibor markazida milliy miqyosdagi korxonalarning

innovatsion salohiyati turibdi. Unga ko‘ra, davlat muassasalari, oliy ta’lim, tadqiqot institutlari, moliyaviy tizim va boshqa omillar o‘rtasidagi hamkorlik iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishini ta’minlaydi.

Umuman olganda, bu olimlarning ta’riflarini tahlil qilish natijasida, milliy innovatsiya tizimi — bu davlat ichidagi turli sub’ektlar (davlat, ilmiy muassasalar, biznes, ta’lim tizimi, fuqarolik jamiyati) o‘rtasidagi hamkorlikka asoslangan, yangi bilim va texnologiyalarni yaratish va joriy etishga qaratilgan murakkab institutsional tizimdir. Uning samaradorligi mamlakatning innovatsion salohiyati va iqtisodiy o‘sish sur’atlariga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Mazkur maqolada ilmiy-nazariy asos sifatida innovatsiyalar, milliy innovatsiya tizimi, innovatsion ekotizimga oid iqtisodiy adabiyotlar hamda ilmiy maqolalar, xorijiy va mahalliy iqtisodshi olimlarning iqtisodiyotni rivojlantirishda uning ahamiyatiga oid ilmiy asarlari o‘rganilgan. Mavzuni o‘rganish davomida adabiyotlar qiyosiy tahlili, mantiqiy va tarkibiy tahlil qilish, guruhlashtirish va qiyosiy taqqoslash usullaridan foydalanildi.

Innovatsion tizimning asosiy elementlariga davlat siyosati, ilm-fan, ta’lim muassasalari, xususiy sektor, investitsiyalar, startaplarni kiritish mumkin. Davlat milliy innovatsion tizimning markaziy elementlaridan biri bo‘lib, u huquqiy baza, moliyaviy rag‘bat, strategik rejalar orqali innovatsiya faoliyatini qo‘llab-quvvatlaydi. Davlatning roli haqida Lundvall [8] quyidagicha ta’kidlaydi: “Hukumat innovatsion tizimlarning shakllanishida muhim o‘rin tutadi, chunki ular institutlarni shakllantiradi va o‘zaro hamkorlik hamda o‘rganish uchun sharoit yaratadi.” Shuningdek, Innovatsiya jarayonining asosiy drayverlaridan biri — bu ilmiy tadqiqot faoliyatidir. Bu sohani ilmiy markazlar, universitetlar va R&D (Research and Development) laboratoriyalari ta’minlaydi. Nelson [9] bu haqda shunday deydi: “Tadqiqot sektori — innovatsiyalar yaratiladigan asosiy bilim bazasini shakllantiradi.”

Oliy ta’lim muassasalari nafaqat bilim berish, balki innovatsion kadrlar tayyorlash va startaplar uchun intellektual muhit yaratishda ham muhim o‘rin tutadi. Etzkowitz va Leydesdorff [10] o‘zlarining “Triple Helix” nazariyasida ta’limni innovatsiyaning asosiy ustuni sifatida qayd etadilar: “Universitetlar endi faqat bilim yaratuvchi emas, balki to‘g‘ridan-to‘g‘ri iqtisodiy taraqqiyotga hissa qo‘shuvchi asosiy ishtirokchilarga aylanmoqda.”

Innovatsiyalarning tijoratlashuvi, yangi texnologiyalarni ishlab chiqarish va amaliyotga joriy etish xususiy sektor ishtirokisiz amalga oshmaydi. SME (kichik va o‘rta biznes) sub’ektlari innovatsion tizimda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Freeman bu haqda ta’kidlaydi:“Korxonalar innovatsion tizimning asosiy harakatga keltiruvchi agentlari hisoblanadi; ular yangi mahsulot va xizmatlar yaratishda bilimni qo‘llaydilar.”

Innovatsion faoliyat ko‘pincha yuqori xavf va xarajatlarni talab qiladi. Shu boisdan, investitsiya va grantlar tizimining mavjudligi hal qiluvchi ahamiyatga ega. OECD [11] o‘z hisobotida shunday deyiladi: “Kuchli moliyaviy infratuzilma va venchur kapital — innovatsion tadbirkorlikni rivojlantirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega.”

Startaplar — innovatsiya jarayonining eng faol va ilg‘or ishtirokchilaridir. Ular yangi g‘oyalarni tezkor amalga oshirish, texnologiya yangiliklarini bozorga olib chiqishda muhim rol o‘ynaydi. Blank [12] ta’kidlaydi: “Startaplar yirik kompaniyalarning kichik talqini emas. Ular masshtablanuvchi va takrorlanuvchi biznes modelini izlayotgan vaqtinchalik tashkilotlardir.”

Quyidagi diagramma mamlakatimizning innovasion hududlaridagi muammolarning yechimiga qaratilgan startap loyihalar tanloviga taqdim etilgan loyihalarni ko‘rishimiz mumkin.

Yuqoridagi diagramma ko‘ra, O’zbekistonda ham startaplarni rivojlantirish borasida qator ishlar amalga oshirilmoqda.

Innovasion hududlarda startap madaniyatini shakllantirish va yangi ishchi o’rinlarini yaratish maqsadida 2021 yilning 5 aprelida “Innovasion hududlardagi muammolar yechimiga qaratilgan startap loyihalar” mavzusidagi tanlov e’lon qilingan. Tanlovga ko’ra, jami 131 ta startap loyihalar vazirlik tomonidan ko’rib chiqish va moliyalashtirish uchun taqdim etilga.

Innovatsion iqtisodiyotning asosiy belgilari, ya’ni mezonlari quyidagi 1-rasmda keltirilgan. Ushbu mezonlarga ko‘ra, O‘zbekistonda innovasion iqtisodiyotni shakllantirish masalasining qay holatda ekanligiga baho berish mumkin bo‘ladi. Innovasion iqtisodiyotning shakllanish va rivojlanishini aks ettiruvchi mezonlarning asosiylari sanoatning rivojlanganlik darajaci, yuqori texnologiyalar asosida ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi, YaIMda ITTKIga qilingan xarajatlar salmog‘i, YaIM tarkibida innovatsion mahsulotlar ulushi, mamlakatda qilingan va ro‘yxatga olingan ixtirolar, kashfiyotlar, patentlar soni va ularning tijoratlashuv darajasi hisoblanadi (1–rasm).



1- rasm. Iqtisodiyotning innovasion rivojlanish mezonlari [13]

Innovasion iqtisodiyotni barpo etishda davlat va xucuciy bo‘g‘inning katta miqdordagi moliyaviy mablag‘larini cafarbar etish va ularning iqtisodiy samaradorligini oshirish zarur bo‘ladi.

Innovasion iqtisodiyotning rivojlanish tarixidan ma’lumki, milliy iqtisodiyot raqobatdoshligini ta’minlash, uni innovasion rivojlanish modeliga o‘tkazish uchun quyidagi innovasion tizim asoslari yaratilgan bo‘lishi talab etiladi (2-rasm).



2-rasm. Innovasion tizim asoslari[14].

Respublikamizda iqtisodiy o‘sishning innovasion modeliga o‘tish, milliy iqtisodiyotni yanada jadal sur’atlar bilan rivojlantirishning barcha omillari, ya’ni zamonaviy o‘quv va ilmiy tadqiqot muassasalari hamda tashkilotlar, loyiha-konstruktorlik tashkilotlari, yuqori intellektual, arzon ishchi kuchi, tegishli mineral xom ashyo bazalari mavjud. Innovasion tizimning muhim uncurlaridan biri uning tashkiliy asoslari bo‘lib, O‘zbekictonda inson kapitalining sifati, darajasi g‘oyat yuksak, jismoniy tayyorgarligi tezkor malakali ixtisoslashuv xususiyatiga ega.

Texnologik park – muayyan hududda innovasiyalar yaratish, tijoratlashtirish maqsadida ilmiy tadqiqot tashkilotlari, oliy o‘quv yurti va korxonalarning birlashgan majmuasi. Bu majmuaning tarkibiy tuzilishi – fanlar, oliy o‘quv muassasalari, ishlab chiqarish va kapitaldan iborat bo‘lib, ular o‘zaro bog‘langan yagona organizm bo‘lib faoliyat yuritadi.

Texnoparklar – eng zamonaviy, raqobatdosh mahsulot turini ishlab chiqishga ixtisoslashgan maxsus hudud, markaz bo‘lib, u yerda tor ixtisoslashuvga asoslangan, yuqori ilmiy-texnik, texnologiyaga ega yagona biznes strukturaga kiruvchi sub’ektlar faoliyat ko‘rsatadi. Hozirgi zamonaviy iqtisodiyotda innovatsiyalar va texnologiyalar asosiy raqobatbardoshlik omillaridan biri bo‘lib, ularni jadal rivojlantirish uchun maxsus muhit va infratuzilmalar zarur.

Shunday muhit va infratuzilmalardan biri — texnologik parklar, biznes-inkubatorlar va startap ekotizimi.

1-jadval

O‘zbekistonda texnoparklarning asosiy faoliyat ko‘rsatkichlari

Ko‘rsatkichlar nomi/yil	**2019**	**2020**	**2021**	**2022**	**2023**
Umumiy soni, yil oxiriga	3	10	7	21	23
Tarkibidagi korxonalar soni, yil oxiriga	49	484	56	1077	1694
Ishlab chiqarilgan tovar va xizmatlar hajmi, mlrd. so‘m	202,9	252,2	494,5	427,2	910,4
Eksport qilingan tovar va xizmatlar hajmi, mlrd. so‘m	60,8	46,6	97,4	139,6	153,8
Asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi, mlrd. so‘m	9,1	67,7	17,5	156,4	681,0

Texnologik parklar, biznes-inkubatorlar va startap ekotizimi — milliy innovatsiya tizimidagi muhim bo‘g‘inlardir. Ular innovatsiya jarayonini tezlashtirish, yangi ish o‘rinlari yaratish va iqtisodiy o‘sishni ta’minlashda muhim ahamiyatga ega. O‘zbekistonda ushbu elementlarni samarali rivojlantirish orqali mamlakatning raqobatbardoshligi oshishi mumkin.

Innovasiyalar tug‘iladigan texnoparklar ilmiy-texnik markazlar, biznec inkubatorlarning tizimli ravishda milliy iqtisodiyotda tashkil etilmaganligi – hozirgi kunda o‘z yechimini kutayotgan dolzarb masalalardan biri hicoblanadi.

3-rasm. Joriy qilingan innovatsiyalar soni (birlikda) va ularning tarkibi (jamiga nisbatan %da) [2]

Quyidagi jadvalda O‘zbekistonda 2008-2023 yillar mobaynida Joriy qilingan innovatsiyalar soni (birlikda) va ularning tarkibi (jamiga nisbatan %da) [1] keltirilgan(3-rasm).

Respublikada samarali, barqaror iqtisodiy o‘sishga erishishdagi mavjud muammolar tahlili shuni ko‘rsatadiki, mustaqillik yillarida misli ko‘rilmagan natijalarni qo‘lga kiritish bilan bir qatorda bartaraf etilishi lozim bo‘lgan masalalar ham borligi anqlandi. Mazkur masalalarning hal etilishi o‘ylaymizki, iqtisodiy o‘sishning ichki imkoniyatlaridan yanada samarali foydalanishga, innovasion ishlab chiqarishni shakllantirishga va halqimizning farovonligini yuksaltirishda ijobiy ta’sir qiladi.

Respublikada fan va ta’limni rivojlantirish infratuzilmasi, zamonaviy kadrlar tayyorlash, loyiha-konstruktorlik mehnatini tashkil etish usullari, shakllari, ularning xavfsizligini ta’minlash masalalari ijobiy hal etilgan. Lekin, bu sohada dolzarb bir masala - O‘zbekiston arzon va sifatli ishchi kuchiga ega, ammo ulardan samarali foydalanish borasida muayyan kamchiliklar mavjud.

O‘zbekistonda innovasion iqtisodiyotga o‘tishga salbiy ta’sir ko‘rsatayotgan omillardan biri chet ellardan yuqori texnologiyali patentlar, litsenziyalarning kam xarid qilinayotgani va ular asosida zamonaviy sanoat ishlab chiqarishning tashkil etilmaganligidir. Milliy iqtisodiyotda zamonaviy texnik-texnologik ukladning talab darajasida shakllantirilmaganligi erkin iqtisodiy zonalar tashkil etishda kuzatilayotgan sustkashliklardir.

O‘zbekistonda innovasion rivojlanishga o‘tishning qonunchilik, tashkiliy, moddiy-iqtisodiy asoslari yaratilgan. Lekin, innovasion iqtisodiyotga o‘tishning yuqorida keltirilgan deyarli barcha omillari bo‘lishiga qaramasdan O‘zbekistonda bu sohada ayrim quyidagi muammolar saqlanib qolmoqda:

-innovasion iqtisodiyotga o‘tishda talab etiladigan infratuzilmaning hududlar kecimida nomutanocib, notekic rivojlanganligi. Eng samarali va ictiqbolli innovasion ishlab chiqarishning markaziy shaharlarda to‘planib qolganligi, mamlakatning boshqa hududlari asosan xom ashyo ishlab chiqaruvchi va yetkazib beruvchilarga aylanib qolganligi.

Mazkur holatlarning ijobiy tomonga o‘zgarishi milliy innovatsiya tiziminingyanada rivojlanishiga turtki bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasining 29.10.2019 yildagi "Ilm-fan va ilmiy faoliyat to‘g‘risida"gi O‘RQ-576-son Qonuni // https://lex.uz/ru/docs/4571492
2. O‘zbekiston Respublikasining 24.07.2020 yildagi O‘RQ-630-son "Innovatsion faoliyat to‘g‘risida"gi Qonuni // https://lex.uz/ru/docs/4910448
3. Gentry W. M., Hubbard G. R.“Success Taxes”, Entrepreneurial Entry, and Innovation // NBER Working Paper. 2004. No 10551.
4. Руководство Осло. Рекомендации по сбору и анализу данных по инновациями / перевод с англ. 3-изд. М.: 2006. (Oslo Manual Guidelines for Collection and Interpretation of Innovation Data. Third ed. A Joint publication of OECD and Eurostat. OECD/EC.2005.
5. Freeman, C. (1987). Technology Policy and Economic Performance: Lessons from Japan. London: Pinter Publishers.
6. Lundvall, B.-Å. (Ed.). (1992). National Systems of Innovation: Towards a Theory of Innovation and Interactive Learning. London: Pinter Publishers.
7. Nelson, R. R. (Ed.). (1993). National Innovation Systems: A Comparative Analysis. New York: Oxford University Press.
8. Lundvall, B.-Å. (1992). National Systems of Innovation: Towards a Theory of Innovation and Interactive Learning. London: Pinter Publishers.
9. Nelson, R. R. (1993). National Innovation Systems: A Comparative Analysis. Oxford University Press.
10. Etzkowitz, H., & Leydesdorff, L. (2000). The dynamics of innovation: From National Systems and “Mode 2” to a Triple Helix of university–industry–government relations. Research Policy, 29(2), 109–123.
11. OECD. (2005). Oslo Manual: Guidelines for Collecting and Interpreting Innovation Data (3rd ed.). OECD Publishing.
12. Blank, S. (2013). The Startup Owner’s Manual. K&S Ranch Press.
13. -14. Shakirova F.B.

УДК: 330.322

ИНВЕСТИЦИЯ ВА ИННОВАЦИЯНИ НАЗАРИЙ-УСЛУБИЙ РИВОЖЛАНИШИ ВА ИШЛАБ ЧИҚАРИШНИ ТАШКИЛ ЭТИШДАГИ ЎРНИ

РОЛЬ ИНВЕСТИЦИЙ И ИННОВАЦИЙ В НАУЧНО-МЕТОДОЛОГИЧЕСКОМ РАЗВИТИИ И ОРГАНИЗАЦИИ ПРОИЗВОДСТВА

THE ROLE OF INVESTMENT AND INNOVATION IN SCIENTIFIC AND METHODOLOGICAL DEVELOPMENT AND PRODUCTION ORGANISATION

Дусбоев Р.Р.
Тошкент иқтисодиёт ва педагогика университети илмий тадқиқотчиси

Аннотация

Мақолада инвестиция ва инновацион жараёнини назарий-услубий ривожланишини ишлаб чиқаришни ташкил этишдаги ўрни ўрганилган. Инвестиция турлари аниқланган. Инвестицион ва инновацион ривожланиш бўйича иқтисодчи олимлар назарияси ўрганилган.Инвестиция ва инновация бозор иқтисодиёти ишлаб чиқаришдаги жараёнини ривожлантиришни асосий иқтисодий категориялари эканлиги асослаб берилган.

Калитли сўзлар: инвестиция, инновация, инвестиция манбалари, ялпи инвестиция, ишлаб чиқариш, инвестициявий ишлаб чиқариш, иқтисодий нормативлар,инвестиция турлари, инсонни капиталлашуви, инвестиция категорияси, инновацион категория, инвестиция ва инновация модели.

В статье изучена роль теоретико-методологического развития инвестиционно-инновационного процесса в организации производства. Изучена теория ученых-экономистов об инвестиционном и инновационном развитии. Обосновано, что инвестиции и инновации являются основными экономическими категориями развития производственного процесса рыночной экономики.

Ключевые слова: инвестиции, инновации, источники инвестиций, валовые инвестиции, производство, инвестиционное производство, экономические нормативы, виды инвестиций, человеческая капитализация, категория инвестиций, инновационная категория, инвестиционная и инновационная модель.

The article examines the role of theoretical and methodological development of the investment and innovation process in the organisation of production. The theory of economists on investment and innovation development is studied. It is argued that investment and innovation are the main economic categories of the development of the production process in a market economy.

Keywords: investments, innovations, sources of investments, gross investments, production, investment production, economic standards, types of investments, human capitalisation, investment category, innovation category, investment and innovation model.

Ривожланган жаҳон мамлакатларида мамлакатлар ўзларининг иқтисодиётларини ривожланиб боришини таъминлаш мақсадида саноат ишлаб чиқариш тармоқларини инновацион тарзда ривожлантириш ва уларни рақобатбардошликларини ошириш мақсадида мақсадли илмий-техникавий ривожланишини таъминловчи илмий-техникавий тараққиёт дастурлари асосида зарур бўлган инвестиция маблағларини ажратиш, малакали кадрларни тайёрлаш асосида инновацион лойиҳаларни ишлаб чиқилган дастурлар асосида олиб бормоқдалар. Бу инновацион-технологик лойиҳалар саноат ишлаб чиқариш тармоқ корхоналарини қамраб олиши билан бирга Республикада ҳозирги замон бозор иқтисодиёти талабларига жавоб берадиган саноат маҳсулотларини ишлаб чиқарувчи корхоналар

ўзларининг ишлаб чиқараётган миллий маҳсулотларини жаҳон бозорида сифатий даражалари билан истеъмол қилиш учун зарур бўлган харид қилиб олиш нархлари билан рақобатбардош бўлиши керак.

Халқаро Ривожланиш Банки 2024 йилда кредит бериш рейтинги эмиссион заёмлар ҳисобига 53,0 млрд. АҚШ долларини ташкил этган. [1]

Хусусий ишлаб чиқариш секторини инвестициялаштириш асосий йўналишлардан бўлиб хусусий ишлаб чиқаришни капитал портфелини ташкил этишда инвестицияларни жалб қилиш асосий мақсади ички хусусий ишлаб чиқариш таъминлаш асосида асосий зарур бўлган ишлаб чиқариш жараёнини ривожлантиришни рақобатбардошлик даражасини ошириш билан боғлиқ бўлган инвестиция ва инновацион маблағларни жалб қилишни ўсиб боришига олиб келади.

2024 йилда Халқаро Ривожланиш Банки 100 миллион АҚШ долларида пластик чиқиндиларини қайта ишлаш инновацион икки пластикларни йиғиш ва қайта ишлаб чиқариш инновацион лойилари инвестициялаштирилган.

Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг 2022 йил 28 январдаги ПФ-60-сон “2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида”ги Фармони, 2020 йил 5 октябрдаги ПФ-6079-сон “Рақамли Ўзбекистон — 2030” стратегиясини тасдиқлаш ва уни самарали амалга ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Фармонларида белгиланган вазифаларни амалга оширишини мазкур бажарилишига хизмат қилади.

Инвестиция лотин сўзидан олинган бўлиб узоқ муддатларга ишлаб чиқариш корхоналарини ривожлантиришга сарф қилинган капитални ифода этади. Узоқ муддатли инвестиция маблағи маълум муддатлар ичида ишлаб чиқариш харажатлари тариқасида ишлаб чиқариш тармоқ йўналишларига қараб турли шаклда табиий ва моддий шаклларда асосий ишлаб чиқариш харажатларини ташкил этади. Инвестициялар ялпи ва қисман инвестиция мабағлари тариқасида қўлланилади.

Ялпи инвестиция маблағлари таркибий жиҳатдан амортизация узатмаларидан,банк кредитларидан ва корхана фойдалари ҳисобига инвестиция маблағларидан ташкил топади. Амортизацион узатмалар асосан ишлаб чиқариш жараёнида фойдаланилаётган техника ва технологиялардан фойдаланиш муддатларига қараб ҳар йили улардан фойдаланганлик учун белгиланган амортизация нормативлари асосида корхона амортизация фондида тўпланаётган амортизация маблағларидан ташкил топади. Ишлаб чиқариш жараёнини ривожлантириш учун ажратилган инвестиция маблағ соф инвестицияни ташкил этиб умумий ишлаб чиқариш учун белгиланган капитални ўсиб бориш манбаи ҳисобланади.

Ялпи инвестицион маблағ ишлаб чиқариш жараёнини ривожланишга йўналтирилган молиявий маблағ бўлиб амортизация маблағи уни бир қисми бўлиб белгиланган амортизация нормативларига асосланган ҳолда йил ичида техника ва технологиялардан фойдаланганлик учун норматив асосида амортизация фондида тўпланган молиявий маблағ ҳисобланади.

Агарда ишлаб чиқариш жараёнига йўналтирилган инвестиция маблағи ҳажми корхона амортизация фондида тўпланган амортизация маблағи билан қиймат миқдори жиҳатида тенг бўлса ишлаб чиқаришда иқтисодий ўсиш ҳолати юз бермасдан, у ўзгармаган қиймат ҳолатида бўлиб, ишлаб чиқариш ҳажмини камайиб боришига олиб келади.

Ишлаб чиқариш корхоналари ишлаб чиқариш жараёнини бозор истеъмол талабини қаноатлантириш учун инвестиция маблағлари этмаса, корхона қўшимча инвестиция маблағларини топиши ва уни жалб қилиши асосида ишлаб чиқариш жараёнини бозор истеъмол талаби ва таклифи асосида ишлаб чиқаришни ташкил этиш ишлаб чиқариш жараёнини самарали ва барқарор олиб боришни бозор талаби ва таклифи асосида олиб боришга эришиши мумкин.

Президентимиз Шавкат Мирзиёев фикрларига асосланган ҳолда миллий иқтисодиётни барқарор ва самарали ривожланиши миллий иқтисодиёт даражаси олинган қўшилган қўшимча қиймат мамлакат иқтисодиётини самарали ва барқарор равишда кенайтирилган такрор ишлаб чиқаришни талаб ва таклиф бозор қонуни талабларига жавоб бериши керак.

Бизга маълум ижтимоий даражада ёки ишлаб чиқариш корхоналари даражасида талаб ва таклифга жавоб берадиган ишлаб чиқариш учун зарур бўлган инвестиция капитали асосан икки иқтиосдий манбага, яъни давлат даражасида, корхона даражасида жамғармага яъни ишлаб чиқаришдан олинган фойдага ва корхоналарда жамғарилган амортизацион жамғармага асосланади.

Инвестициявий ишлаб чиқариш жараёнини ривожлантириш ишлаб чиқаришдан ишлаб чиқариш корхоналарини олган фойда ва инвестиция молиявий маблағларидан ташқари корхона жамғарма маблағларини бир тури уларнинг жамғарма тариқасидаги қимматли қоғозлар ва заёмлар ҳам ташкил этади. Инвестиция маблағлари сифатида республика фуқароларининг давлат, тижорат банкларидаги шахсий жамғагмалари ҳам инвестиция маблағлари тариқасида фойдаланилади. Банклардаги аҳоли жамғармалари тўғридан тўғри инвестиция манбалари бўлиб ҳисобланади. Хорижий давлатлар, хорижий фуқаролар маблағларини мамлакат иқтисодиётини ривожлантиришда инвестиция маблағлари манбаи бўлиши учун бу хориж маблағлари инвестиция манбаини ташкил этиши учун улар молиявий муассасалардан ўтиши тўғридан-тўғри ёки воситачилар тўғридан тўғри эмас балки ишлаб чиқариш жараёнини миллий иқтисод тармоқ корхоналарида ишлаб чиқаришни ташкил этиш учун харид қилиб олинган моддий ишлаб чиқариш хомашёлари, ишлаб чиқариш учун зарур бўлган ярим товар ва товар маҳсулотларини ҳам ишлаб чиқариш учун инвестиция маблағларини ташкил этишнинг бир йўналиши ҳисобланади.

Бозор иқтисодиёти қонунларига ва унинг иқтисодий нормативларига асосланган турли мулкчилик шаклларига асосланган ишлаб чиқариш ва иқтисодий бозор иқтисодиёти муносабатларига ва унинг инфратузилмаларини ва кредит тизимини ривожланишига, тижорат банкларида иқтисодий муносабатларни, инвестицион компания ва уни фондларини ривожланиб боришига боғлиқ.

Инвестиция маблағлари бир неча турларда бўлиши қуйидаги 1- чизмада келтирилган:



1-чизма. Инвестиция турлари ва манбалари

Манба: Муаллиф ишланмаси

Бозор иқтисодиёти шароитида миллий иқтисодиётни самарали ва барқарор ривожланишини таъминлаш жаҳон иқтисодиёти бозорида мамлакатларнинг қатнашувига, унинг даражасига ва ишлаб чиқарилган ички маҳсулот турларини олиб чиқиш даражасига ва уларнинг рақобатбардош бўлишига боғлиқ. Бу инновацион техник ва технологиялар фойдаланиш ва ишлаб чиқаришга тадбиқ этиш асосий масала бўлиб ҳисобланиши керак.

Демак миллий иқтисодиётни самарали ва барқарор ривожлантиришда унинг асосий ҳаракатга келтирувчи инсон омилини инвестициялаштириш муҳим омил ҳисобланади. Инсонни инвестициялаштириш бнлгиланган мақсад асосида инвестициялаштирилиши уни маълум соҳа йўналишида унинг илмий салоҳиятини ўсиб боришига олиб келиши туфайли инсонни капиталлашуви даражаси ўсиб боради. Инсон капитали ҳам товар бўлиб ўзида олган назарий ва амалий билимларини, ижобий меҳнат қилиш қобилиятини, жисмоний, маънавий-психологик, ижтимоий маънавий сифатларини, инсонни меҳнат қилиш қобилиятини ташкил этишга йўналтириши натижасида унинг назарий ва амалий жиҳатдан тадбиркорлик фаолият қобилиятини ошира бориши асосида олиниши лозим бўлган тадбиркорлик фаолиятини ошириш асосида фойда олиш даражасини ўсиб боришига олиб келади. Инсон капитали ишлаб чиқариш жараёнида қўлланиладиган ишлаб чиқаришнинг моддий омилларидан тубдан фарқланадиган омил ҳисобланади. Инсон капитали томонидан ишлаб чиқарилган маҳсулотлар товар-пул муносабатлари асосидагина уларнинг эгалик шакллари ўзгариши мумкин. Инсон капитали томонидан ишлаб чиқарилган товар маҳсулотларини эгаси ҳисобланади. Инсонни капиталлашув даражасини ўсиб боришига унга зарур бўлган моддий харажатларни ўзи кифоя қилмайди. Инсоннинг капиталлашуви даражасини ўсиб бориши илмий салоҳияти ўсиб боришини таъминловчи назарий ва амалий жиҳатдан инсонни капиталлашувини ўсиб боришига таъсир этувчи умумий илмий маълумотларни, ихтисослашган назарий ва амалий маълумотларни ўрганиш уни ўзлаштириш асосидагина инсон онги ва дунёвий қарашларини, касбий маҳоратларини ўсиб бориши асосида уни капиталлашув даражаси ўсиб боради. Инсон капиталини ўсиб бориши ва капиталлашуви инсонни қобилиятига боғлиқ бўлиб ундан бу қобилиятни олиб бўлмайди. Инсонни инновацион қобилиятини ривожланиши фақат унинг қобилиятини ўзи кифоя қилмайди, балки уни инновацион тарзда ривожланиши учун зарур бўлган билим олишни назарий ва амалий жиҳатдан ошириб боришга зарур бўлган шарт ва шароитларни яратиш учун инновацион инвестициялаштириш учун ажратиладиган инвестиция маблағлари даражасига боғлиқ. Инсонни капиталлашуви даражаси нафақат иқтисодий омилларга балки илмий технологик жиҳатдан олинадиган назарий ва амалий билим даражаларига ҳам боғлиқ. Шунинг учун ҳозирги бозор иқтисодиётининг талаб ва таклиф қонунига ва бошқа қонун ҳамда қонуниятларига асосланган ҳолда ишлаб чиқариш жараёнини ташкил этиш ва самарали олиб бориш корхона ишлаб чиқариш жараёнини комплекс ташкил этиш унинг таркибий тузилмаларни бозор талабларига асосланган ҳолда такомиллаштириб бориш инновацион тарзда риовжланиб боришини иложи боришга таъмирлаш ишларини тежамкорлигига фойда олишни ўсиб боришига асосланган ҳолда олиб бориш зарур. Ишлаб чиқариш жараёнини инвестициялаштириш асосида инновацион тразда ривожлантиришдан асосий мақсад меҳнатнинг унумдорлигини ошириш билан бир қаторда умумий ишлаб чиқариш харажати билан режалаштирилган фойда олиш оралиқ муддатини меҳнат унумдорлигини ошириш ҳисобига қисқартиришига олиб келади.

Инвестиция ва инновация категориялари иқтисодий категориялар бўлиб корхона ишлаб чиқариш жараёнини ташкил этишда режалаштирилган ишлаб чиқариш ҳажмидаги ишлаб чиқариш ташкил этиш ва уни самарадорлигини ўсиб боришини таъминлаш даражасида инвестициялаштирилади.

Инвестиция ва инновация категориялари назарий ва услубий жиҳатдан тарихий ривожланишида иқтисодчи олимлар ўртасида умумлашган ягона назарий ва амалий жиҳатдан таъриф йўқ дейиш мумкин.

Физиократлар мактабини вакили Франсуа Кэнэ [2] “Энциклопедия”нинг муаллифларидан бири бўлиб узининг “Давлатнинг деҳончилигини умумий иқтисодий сиёсати” (1758 йилда) асарида ўзининг илмий тадқиқоти ягона ишлаб чиқариш кучлари деб ҳисоблаган.

В.В. Иванова [3] Миллий инновацион тизмни назария ва амалияти асарида инновацион тизимни ривожлантириб бориш ва унинг инвестициявий манбаларини ўрганган. Инвестициянинг асосий манбайи ишлаб чиқариш корханаларида олинган фойдани ҳисоблайди.

Иқтисодчи А.Ю. Андрианова [4] ва бошқалар инвестиция монографиясида инвестициялаштириш маънбаларини ўрганганлар.

В.Н. Богачёв [5] ўзининг “Народнохозяйственная эффективность и затратный механизм” асарида самарадорликни ишлаб чиқаришда ошириш механизмлари кўрилган.

Иқтисодчи Шульц [6] инсон капиталини иқтисодий категория кенг маънода тушнган иқтисодчи олим Шульц қишлоқ ҳўжалиги ишлаб чиқаришини ўзгартириш тарафдори бўлган. Ойла иқтисодиётини ўрганган.Ойлавий иқтисодиётни урганган олим.

Йозеф Шумпетер [7] америкалик иқтисодчи рақобат самарадорлик назариясини, инновация самарадорлигини, у ишлаб чиқариш жараёнида ишлаб чиқариш технологиялари инновацион иқтисодий ривожланишга олиб келади деб ҳисоблаган.

Шумпетер ўзининг илмий тадқиқот ишларида тадбиркорлик фаолиятига эътибор бериб у иқтисодиётни ривожлантиришда янги ишлаб чиқаришларни омилларини кўрган. У рақобат назариясини яратган ва иқтисодиётни ҳаракатга келтирувчи институционал, тезнологик ва инновацион ривожланишга олиб келади деб ҳисоблаган. Ишлаб чиқаришни циклик ривожланишида кредитни ишлаб чиқаришни иқтисодиётга жалб қилишда қўшимча ресурс ва янгиликни киритиш деб ҳисоблаган.

Джон Мейнард Кейнс [8] ўзининг “Бандлик фоизи ва пулнинг умумий назарияси” асарида бозор иқтисодиётининг бошқарўвида давлатнинг аралашви асосида ишлаб чиқариш жараёнида ишлаб чиқариш кўчларидан самарали фойдаланишни ва ишлаб чиқаришни барқарор ўсишини асослаб берган олим ҳисобланади.молиявий муаммоларни ўрганишга қаратган молиявий ресурсларни жалб қилиш, мажбурий жамғаришни ривожлантириш тарафдори бўлган.

Иқтисодчи олим Р.Ф.Фатхулин [9] ўзининг “Инновационный менеджмент” ўқув дарслигида инновацион менежментни моҳияти уни ишлаб чиқариш жараёнини ташкил этишда ва ишлаб чиқариш жараёнини самарали

Н.С. Мазур [10] эса инновацион иқтисодиёт, инновацион тизимларни ташкил топишини ва инновацион мулк ва унинг шаклларини ўрганган.

Адам Смит [11] ишлаб чиқариш жараёнини ҳаракатга келтирувчи мақсадли мулк бўлиб, у эркин равишда амалга оширилади деб ҳисоблаган. У давлатни иқтисодни бошқарўвини инкор этмаган, лекин уни чеклаш тарафдори бўлган.

Иқтисодчи В.Х. Трибулин [12] ўзининг “Инновацинная инфраструктура как необходимость наукоёмкого предпринимательства” монографиясида инновацион - инфратаркибини ривожлантириш жараёнлари ўрганилган.

Иқтисодчи Н.В. Игашин [13] - инвестиция, бу пул ҳаражатлари бўлиб ишлаб чиқариш капиталини такрор ишлаб чиқаришга уни қўллашга ва кенгайтиришга сарфлан0ган моддий харажат деб ҳисоблайди. Умумлашган ҳолатда инвестиция бу шахсий пул маблағларини инвестиция тариқасида ишлаб чиқариш жараёнини молиялаштириш ва моддий бойликни таъминлашни ифодалайди. Инвестициялаштириш ҳар қандай иқтисодда амалга ошириладиган пул ресурсларини қайта тақсимлаш унга зарурияти бўлганларга тақсимланишидан ифодаланади” деб ҳисоблайди.

И.А.Буданов [14] ва бошқалар “Инновационно-инвестиционные процессы развития металлургического производства” илмий мақоласида инновацион ривожлантириш заҳираларини ўрганилган.

Е.Ю.Головчёнская [15] ва бошқалари томонидан “давлатнинг инвестицион сиёсати” ва унинг ижтимоий-иқтисодий йўналиши ўрганилган.

Иқтисодчилардан Г.М. Гукасьян [16] - инвестиция, бу давлат томонидан узоқ муддатга сарфланган турли ишлаб чиқаришга, яъни ички ва ташқи ишлаб чиқариш тармоқларидан мақсадли фойда олишга йўналтирилган инвестиция”, деб ҳисоблайди.

Иқтисодчи Ю.В.Перевалов [17] инновация ҳолатини тор маънода ихтисослашиш, ишлаб чиқариш харажатларини тезкор усулда қоплаш, доимий ривожланиш зарурлиги, молиявий харажатларни юқори даражада хавфлиги, янгиликларни ихтиро қилиш ва ишлаб чиқаришга

тадбиқ қилиш, ишлаб чиқариш ҳажмини ошириш, уларни фақат ҳужжатлар асосида тарқатиш мумкин эмаслигида ифода этади.

Иқтисодчи А.Ф. Шишкин [18] фикрича пул капитали ишлаб чиқариш воситалари ва ишчи кучини ва ходимларини харид қииб олади. Пул вазифаси фойда олиш учун тайёргарлик кўришни таъминлайди деб ҳисоблайди. Пул капитали махсус товарларни ишлаб чиқариш воситаларини, ишчи кучларини ва фойда олиш ходимлари асосида фойда олишни таъминлайди деб ҳисоблайди.

Иқтисодчи Ш.Н.Зайнутдинов [19] ўзининг инновацион менежмент дарслигида уни ривожлантириш зарурлиги ва моҳияти ўрганилган.

Ш.И. Отажонов [20] инновацион фаолият инфратузилмасини бошқарўвини ташкилий-иқтисодий механизмини самарадорлигини ошириш муаммолари билан шуғилланган.

Иқтисодчилардан Ш.Шодмоновва М.Рахматовлар [21] - инвестиция асосий ва айланма капитални қайташ тикланиши ва кўпайтиришга, ишлаб чиқариш қувватини кенгайтиришга қилинган сарфларнинг пул шаклидаги кўринишидир деб ҳисоблайдилар.

Ўзбекистонда ишлаб чиқариш жараёнини инвестициявий ва инновацион ривожлантиришнинг ташкилий ва иқтисодий механизмларини ривожлантиришда Р.М.Усмонова [22], М.И. Сайдкосимова фикрларига ишлаб чиқариш жараёнида тадбиркор қўлидаги асосий омил бу капитал бўлиб ишлаб чиқариш жараёнида умумлашган бойлик бўлиб ишлаб чиқариш жараёнида товарлар ишлаб чиқаради ва хизматлар кўрсатади деб ҳисоблайдилар. Капитал кўп аҳамиятга эга: бу пул, ишлаб чиқариш воситалари, инсон қобилияти, капитал товарлари инвестиция ресурслари корхоналар фаолиятида доиравий ҳаракатда пул қиймати инвестицион ресурслар бўлиб у ишлаб чиқариш айланмади” деб ҳисоблайдилар.

А.Қодиров [23] иқтисодиётни турли мулкчилик эгалигига асосланган ишлаб чиқариш жараёнини ташкил этиш ва самарали олиб бориш мураккаб лекин долзарб муаммо ҳисобланади.

Инвестициявий ва инновацион тарзда корхона ишлаб чиқаришини ташкил этиш биринчидан корхона ички ишлаб чиқариш тартибини ташкил этиш учун зарур бўлган ишлаб чиқариш жиҳозлари билан таъминлаш ишлаб чиқариш жараёни билан боғлиқ бўлган ишлаб чиқаришни ташкил этиш билан боғлиқ бўлган ўзаро муносабатларни талаб даражасида ташкил этиш етарли моддий хом ашёлар билан ва малакали меҳнат ресурслари билан таъминлаш лозим.

Корхона ишлаб чиқариш жараёнини ташкил этиш уни ишлаб чиқариш ташкил этиш билан боғлиқ инвестиция ресурслари билан ишлаб чиқариш ҳажми талабига жавоб берадиган даражада инвестициялаштириш зарурлигини кўрсатади.

Иқтисодчи жаҳон, МДҲ ва Ўзбекистон Республикаси иқтисодчи олимлари томонидан ишлаб чиқариш жараёнини инвестициялаштириш ва инновациялаштириш зарурлиги бўйича берган умумлашган хулосаларини ўрганиш асосида қуйидаги хулосага келдик.

Бозор иқтисодиёти ишлаб чиқариш муносабатлари асосида ишлаб чиқариш жараёнини инвестициялаштирии асосий иқтисодий категория бўлиб у ишлаб чиқариш жараёнини зарур бўлган ишлаб чиқариш учун моддий хом-ашёлар ишлаб чиқариш техника ва технологиялари билан ва уни инновацион ривожлантиришни ифода этувчи ишлаб чиқаришни инвестициялаштириш ва инновацион ривожлантириш иқтисодий категорияларини ўзаро боғлиқликда ифода этувчи иқтисодий категориялар мажмуасини ташкил этади,деб ҳисоблаш мумкин.

Миллий иқтисодиётни барқарор ва самарали ривожланиб бориши фирма ва корханалар ишлаб чиқариш жараёнида инвестициявий ва инновацион жараёнини ривожлантириш улар ўртасидаги иқтисодий нисбатларни давлатнинг миллий иқтисодиётни бошқарўвининг сиёсий ва иқтисодий сиёсати талабларига мос равишда бўлиши ишлаб чиқаришни самарали бўлишни таъминлайди.



2-чизма. Корхона ишлаб чиқариш моделини инвестициявий ва инновацион ташкил этиш модели.

Бу иқтисодий категориялар мустақил етакчи ва етаклананувчи категориялар бўлиб умумий ишлаб чиқариш жараёнини самарали ва барқарор ривожланиб боришини таъминлайди. Қуйида корхона ишлаб чиқариш жараёнини инвестицион ва инновацион ташкил этиш модели 2-чизмада таклиф қилинган.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1.Мазур Н.З. Инновационная экономика, инновационные системы. Инновационная собственность. Самара СНГ. РАН. 2001.
2. Фатхуллин Р.Ф.Инновационный менеджмент. Учебник. М. 2016г.
3. Буданов И.А. Инновационно-инвестиционные процессы развития металлургического производства России//Научные труды: института народно-хозяйственного прогнозирования. РАН. М. Прогресс. 2015 г. 324-347 стр.
4. Шишкин А.Ф. Экономическая теория 2. М.: ВЛАДОС. 1991. 57 б.
5. Зайнутдинов Ш.Н. Инновационный менежмент. Т.: Академия. 2006. с. 262.
6. Усмонова Р.М., Сайдкаримова М.И. Экономическая теория. Т: 2018 г. Издательства “Fan va texnologiya”. 116 с.

7. Отажонов Ш.И. Инновацион фаолияти инфратузилмасини бошқаришнинг ташкилий-иқтисодий механизмини самарадорлигини ошириш муаммолари. Диссертация иқтисод фанлари доктори. 2018 й.

УДК: 334.02

АСОСИЙ МАБЛАҒЛАР ИШЛАБ ЧИҚАРИШ ЖАРАЁНИНИ АСОСИЙ ОМИЛИГА НАЗАРИЙ ВА УСЛУБИЙ ҚАРАШЛАР

ТЕОРЕТИЧЕСКОЕ И ПРАКТИЧЕСКОЕ ВЗГЛЯДЫ НА ОСНОВНЫЕ СРЕДСТВА КАК ОСНОВНОЙ ФАКТОР ПРОИЗВОДСТВА

THEORETICAL AND PRACTICAL VIEWS ON FIXED ASSETS AS THE MAIN FACTOR OF PRODUCTION

Хайитов А.Б.
Чирчиқ иқтисодиёт ва педагогика университети илмий тадқиқотчиси

Аннотация

Мақолада ишлаб чиқариш жараёнини ташкил этишда асосий маблағлардан фойдаланишни назарий ва услубий жиҳатлари кўрилган. Иқтисодчи олимларнинг асосий маблағлар ишлаб чиқариш жараёнини асосий омил эканлиги бўйича берилган назарий ва услубий тарифларини ўрганиш муаллиф таърифи берилган.

Калит сўзлар: ишлаб чиқариш, асосий маблағлар, ишлаб чиқариш воситалари, асосий воситалар, бозор иқтисодиёти, маблағлардан самарали фойдаланиш, ишлаб чиқариш фондлар, айланма фондлар, доимий капитал, ўзгарувчан капитал, товар қиймати, амортизация, амортизация нормативи.

В статье рассматриваются вопросы использования основных средств производства её теоретические и методические особенности. Анализированы взгляды учёных по формированию основных средств как основной фактор производства основных средств производства.

Ключевые слова: производство, основные средства, производственные средства, рыночная экономика, эффективное использование средств, производственные фонды, основные фонды, оборотные фонды, амортизация, амортизационные нормы.

The article deals with the use of fixed assets of production its theoretical and methodological features. The views of scientists on the formation of fixed assets as the main factor of production of fixed assets of production are analysed.

Keywords: production, fixed assets, production means, market economy, efficient use of funds, production funds, fixed assets, current assets, depreciation, depreciation rates.

Ишлаб чиқариш жараёнини ташкил этишнинг ҳар қандай иқтисодий-ижтимоий-иқтисодий ишлаб чиқариш формацияларида ва эркин нофармацион бозор иқтисодий қонунларга эркин рақобат асосида ишлаб чиқариш жараёнини ташкил этишнинг асосий манба ва ишлаб чиқаришни ташкил этиш ҳамда фойдаланишни таъминлаш ишлаб чиқаришни ривожлантириш билан боғлиқ бўлган молиявий маблағларга боғлик. Ишлаб чиқариш учун ажратилган маблағ асосида ташкил топадиган ишлаб чиқаришни ташкил этувчи унинг субъектлари шундай моддий ишлаб чиқариш ҳаражатларнинг бир қисми корхона айланма маблағларини ташкил этса, асосий маблағлар тариқасида ишлаб чиқариш асосий воситалари корхона асосий маблағларини ташкил етади. Яни ишлаб чиқариш ҳаражатлари бу асосий

айланма ишлаб чиқаришнинг моддий ҳаражатларини ифода этувчи омилларини ташкил этади. Синфий капитализм вакиллари бўлган инглиз иқтисодий олимларидан А. Смит ва Д. Рикардолар ишлаб чиқариш жараёнини ташкил этувчи айланма ва асосий маблағларни умумлашган ҳолда умумий ишлаб чиқариш маблағлари тариқасида ишлаб чиқарилган маҳсулот бирлигига сарф қилинган ижтимоий ҳаражатлар тариқасида кўрганлар. Бу ишлаб чиқариш ҳаражатларни жамият ҳаражатлари деб қараганлар.

Ишлаб чиқариш жараёнини ташкил этиш учун ажратилган умумий маблағларнинг маълум бир қисми ишлаб чиқариш жараёнини ташкил этишнинг зарур бўлган воситалари ҳаражатларини ташкил этади.

Бозор иқтисодиёти қонунлари асосида ишлаб чиқариш жараёнини ташкил этишдан асосий мақсад фойда олишнинг ўсиб боришини таъминлаш бўлганлиги асосий маблағлардан самарали фойдаланишни таъминлаш учун ҳар бир ишлаб чиқариш субъекти ишлаб чиқариш асосий маблағларини ишлаб чиқариш фондларини ҳарид қилиб олиш ва уни инновацион ривожланиб боришини бозор талабларига асосан назорат қилиб борадилар.

Бозор иқтисодиётининг асосий талаби бу фойда олишдан иборат экан. Бунинг учун ҳар бир ишлаб чиқариш субъекти истеъмол бозорларида ўзининг рақобатдошлигини таъминлаб бориши лозим.

Асосий маблағлар ишлаб чиқариш корхоналарининг ишлаб чиқариш жараёнини ҳаракатга келтирувчи асосий моддий омилларини, яъни асосий ишлаб чиқариш фондини ташкил этади.

Асосий маблағларни, яъни асосий ишлаб чиқариш воситалари ишлаб чиқариш асосий фондлари тариқасида унинг асосий моддий-техника базасини ташкил этади.

Ҳулоса қилиб айтиш мумкинки, ишлаб чиқариш корхоналарнинг асосий маблағ ҳаражатларини ифода этувчи асосий ишлаб чиқариш фонди корхона ишлаб чиқариш умумҳаражатларнинг бир қисмини ифода этувчи ишлаб чиқариш кучларининг буюмлашган қисмини ташкил этади.

Бизнинг фикримизга асосий воситалар ишлаб чиқариш кучларининг самарадорлигини оширувчи омил бўлиб, узоқ йиллар давомида фойдаланилади.

Шунга асосланган ҳолда:

– биринчидан, ишлаб чиқариш субъектлари юқори унумдорликни таъминловчи ишлаб чиқариш воситаларини узоқ даврларда фойдаланишни эътиборга олган ҳолда ҳарид қилиб олиши керак;

– иккинчидан, асосий ишлаб чиқариш фондларидан бозор иқтисодиёти шароитида фойдаланиш муддатларини иложи борича қисқартиришни таъминлаш учун улардан фойдаланиш муддатларини ва янги унумдорлигини юқори ишлаб чиқариш воситалари билан янгилаб бориш асосида инновацион ва рақобатдош ишлаб чиқаришни ташкил этиши мумкин;

– учинчидан, юқори қийматга эга бўлган ишлаб чиқариш воситаларини ҳарид қилиб олиш учун зарур бўлган шароитларни яратиш зарур деб ҳисоблаймиз.

Асосий маблағларни ишлаб чиқариш асосий воситалари сифатида янгиланиб бориши илм-фан ва ишлаб чиқариш технологиялари ривожларини инновацион тарзда талаб ва таклиф ўртасидаги нисбатларнинг ўзгариб бориши ишлаб чиқариш кучларини инновацион техника ва технологиялари билан жонли меҳнат тежамкорлигини буюмлашган меҳнат сарф асосида таъминлаш умумий ижтимоий меҳнат сарфининг тежамкорлигини таъминлайди. Натижада ишлаб чиқариш ва истеъмол талабларининг ўзаро мувофиқлигини таъминлайди.

Иқтисодий олимлар томонидан асосий маблағларга турлича назарий ва амалий қарашлар мавжуд. Жумладан, Россия иқтисодчи олимларидан В.А. Пинко, Л.Н. Булавина [1] қишлоқ хўжалиги ишлаб чиқариш жараёнида асосий фондлар узоқ муддатларда ишлаб чиқаришда фойдаланиши унга бўлган талабни ўсиб боришини таъминлайди. Ишлаб чиқариш воситалари қишлоқ хўжалиги ишлаб чиқаришда буюмлашган ишлаб чиқариш кучларини ташкил этиб, у ер, сув ва моддий техника ресурсларини ташкил этади. Ишлаб чиқариш ресурсларининг бир қисмини ифода этувчи буюмлашган ишлаб чиқариш кучларининг бир қисмини ташкил этади деб ҳисоблайди. Шунга асосланган ҳолда моддий-техника ресурслари ишлаб чиқариш

ресурсларининг бир қисмини ифода этувчи буюмлашган ишлаб чиқариш кучларининг бир қисмини ташкил этади [2] деб ҳисоблайди.

Иқтисодчилар В.Я.Горфинкель, Е.М.Куприянов, В.П.Праскави фикрича, асосий ишлаб чиқариш фондлари доимий равишда янгиланиб бориши керак. Айниқса асосий фондларнинг ўсиши, мехнат қуролларини ўсиши, уларнинг сифат даражаларини янги техника ва илмий ютуқларга асосланган ҳолда бўлиши жонли меҳнатни техник жихатдан куроллантириш юқори даражада юқори сифатли маҳсулотларни кам меҳнат ҳаражатлар асосида унинг таннархининг пасайиб боришини таъминлайди деб ҳисоблайди.

Асосий ишлаб чиқариш жараёнида унинг бозор иқтисодиёти шароитида қайта такрор ишлаб чиқариш ундан фойдаланиш учун ва унинг техникавий ҳолатини билиш зарур. Бозор шароитида бўладиган рақобат ишлаб чиқариш воситаларини рақобатдошлик даражаларининг ўсиб боришига эътибор бериш зарур.

Умуман, асосий маблағлар ёки асосий ишлаб чиқариш фондлари иқтисодчи олимлар ўртасида турли равишдаги иқтисодий қарашлар мавжуд эканлигини кўриш мумкин. Е.С. Князева [3] фикрича, асосий ишлаб чиқариш фонди умумлашган ишлаб чиқариш фондларини ифодалайди деб ҳисоблайди. Улар ишлаб чиқариш жараёнида бир неча ишлаб чиқариш цикларида фойдаланади ва улар ўзларининг қийматларини ишлаб чиқарилаётган маҳсулотларга ўтказиб боради деб ҳисобласа, иқтисодчи А.Д.Аюшев [4] эса ишлаб чиқариш фондлари фақат ижтимоий маҳсулот ҳисобланадиган ишлаб чиқариш воситаларидан натурал шаклидаги ишлаб чиқариш воситаларидан иборат бўлган ишлаб чиқариш воситаларидан ташкил топади деб ҳисоблайди.

Иқтисодчи В.И.Титов эса корхона асосий ишлаб чиқариш фонди унинг хусусий мулкнинг актив қисмидан иборат бўлиб, ишлаб чиқариш жараёнида узоқ муддатларда ишлаб чиқаришда фойдаланиладиган деб ҳисоблайди. У асосан ишлаб чиқариш фондлари ишлаб чиқариш маҳсулотларига ўзининг қийматларини ишлаб чиқарилаётган маҳсулотларга ўтказиши натижасида ўз қийматини йўқотмайди деб ҳисоблайди. Яна иқтисодчи олимлардан А.А. Гарифуллина [5] ва А.А. Ефремовлар [6] бу муаммо билан шуғулланишлар иқтисодчи олимлар фикрига қўшилган ҳолда асосий воситалар бўлиб ишлаб чиқариш фондларига сарф қилинган пул маблағларини ифода этади деб ҳисоблайдилар. Шу билан улар асосий ишлаб чиқариш фондлари умумлашга ижтимоий меҳнат сарф асосида яратилган моддий қийматга эга бўлган қийматини йўқотиб боради деб ҳисоблайдилар.

Иқтисодчи Т.А. Еремеева асосий ишлаб чиқариш фондларини иқтисодий таҳлил килиш асосида қуйидаги ҳулосаларга келган:

– асосий ишлаб чиқариш фондлари ишлаб чиқариш жараёнда ўзларининг натурал шаклларни йўқотмайди;

– ишлаб чиқариш жараёнида уларнинг кўп маротаба фойдаланилади;

– уларнинг дастлабки ишлаш ҳолатларини таъминлаш молиявий ҳаражатларни уларни ишлаб чиқаришда ва модификациялаштириш билан боғлик маблағларни дастлабки ҳолатларини тиклаш учун деб ҳисоблайди.

Ишлаб чиқариш жараёнида асосий маблағларни ишлаб чиқариш воситалари(фондлари) тариқасида фойдаланишида корхонанинг умумий жами фондлари қиймати қатлашмайди.

Балки ишлаб чиқариш жараёни билан боғлик бўлган асосий ишлаб чиқариш фондлари қатнашади. Корхона умумий қийматга эга бўлган фондларининг маълум қисми ишлаб чиқариш жараёнида фойдаланилганлиги учун бу қисм асосий ишлаб чиқариш фонди тариқасида умумий фондлар актив қисмини ташкил этади.

Қолган қисми пассив фонди бўлиб у ишлаб чиқаришни ташкил этиш учун зарур бўлган ёрдамчи фонд қисмини ташкил этади.

Иқтисодчилардан А.В.Морозова [7], Т.В.Трубникова ва Н.А. Мартиновалар эса ўзларининг илмий мақолаларида асосий фондларни тоифалаштиришни ташкил этиш мақолаларига ишлаб чиқариш хўжаликларида асосий моддий хўжалик негизини асосий воситаларни техникавий даражаси ассортименти ва ишлаб чиқараётган маҳсулотларининг сифати ва миқдори, ҳизмат кўрсатиши ташкил этади деб ҳисоблайдилар.

Иқтисодчи олим В.В. Жидилева [8] ўзининг “Корхона иқтисодиёти” дарслигида асосий фондларни такрор ишлаб чиқариш жараёнида бир неча йилларда фойдаланиши натижасида уни ишлаб чиқаришда ишидан чиқиши оқибатида ишлаб чиқаришда қайта тикланиши унинг қийматида ўзгаришлар бўлишини дастлабки асосий ишлаб чиқариш фондини тиклаш қийматига, яъни уни тўлиқ тиклаш қийматига ва асосий фоизига бўлиб ўрганишни таклиф этади. Уни тиклаш учун амортизация нормативини зарур деб ҳисоблайди.

Биз муаллиф фикрига қўшилган ҳолда бозор иқтисодиёти шароитида бозор истеъмол талабларининг инновацион тарзда ўзгаришини эътиборга олган ҳолда асосий ишлаб чиқариш фондларидан самарали фойдаланиш муддатини таъминлаш учун бозорни инновацион талабларини истъемол талабларига бўлган ўзгаришларни эътиборга олган ҳолда улардан фойдаланиш муддатларини қисқартириш мақсадида амортизация нормативларини тезлаштирилган нормативлар асосида ташкил этиш мақсадида лойиқ бўлади. Иқтисодчи олим А.Ф. Шишкин [9] саноат капитали ишлаб чиқариш жараёнида ва муомалада ҳаракатда бўлади деб ҳисоблайди. Капитал айланма пул ва товар капиталини ўз ичига олади.

Саноат ишлаб чиқариш асосий капитали доимий ва ўзгарувчан капитал ҳаракатида бўлиб доимий капитал ишлаб чиқариш воситаларига ва меҳнат маҳсулотларига бўлади. Уларнинг айланиш ҳаракати бирдай бўлмас сабаби ишлаб чиқариш воситаларидан фойдаланиш муддатини узоқлигига ўзгарувчан капитал ҳаражати ишлаб чиқариш бир циклда ишлаб чиқарилган товар қийматига ўтказилиши билан ифодалайди.

Иқтисодчи олим Г.М. Гукасьян [10] асосий маблағни ва ишлаб чиқариш фондини асосий ишлаб чиқариш ҳаражатларида ифода этади. У ишлаб чиқариш ҳаражатлари бу ҳарид қилиб олинган ишлаб чиқариш омиллари деб ҳисоблайди.

Е.О. Егорова [11], Т.М. Рогуленко ўзининг илмий маколасида социалистик иқтисодиётдан “асосий капитал” тушунчаси чиқарилиб иқтисодий адабиётларда молиявий таҳлилини амалга оширишда ва бухгалтерия ҳисоботида «асосий воситалар» тушунчасидан фойдаланишга ўтилган деб ҳисоблайди.

А.Д. Шеремет, Л.М. Макаревич, Л.М. Литовских, Ф. Гарбузов муҳаррирлигида чоп этилган молия-кредит словарида асосий фондлар бу аҳамиятга эга бўлган пул маблағидир деб ҳисобланади. Шу билан бирга асосий фонд бу умумлашган ижтимоий меҳнат яратган моддий бойлик (пулда ифодаланган) узоқ муддатда ҳизмат қилувчи ўзининг қийматини қисмлар асосида йўқотувчидир деб ифодалайдилар [10].

Иқтисодчи проф. А. Кадиров “Иқтисодиёт назарияси” ўқув қўлланмасида «асосий маблағлар ишлаб чиқариш харажатлари тариқасида ишлаб чиқарилган товарларга кетган ишлаб чиқариш харажатларига айтилади. У иш ҳақи, ишлаб чиқаришни кўпайтиришга кетган ўзгарувчан харажатларнинг кўпайиши, қисқариши корхонанинг доимий ва ўзгарувчан харажатларининг йиғиндиси ялпи ҳаражатлар деб юритилади.

Иқтисодчилардан Р.М. Усманова ва М.М. Саидкаримова “Экономическая теория” ўқув қўлланмасида ишлаб чиқариш жараёни маълум иқтисодий ресурслар харажатлари билан боғлиқ маълум қийматларга эга бўлади.

Товар қиймати иқтисодий харажатларидан иқтисодий харажатларга, яъни зарур бўлган товар ва хизматлар қийматига боғлиқ бўлиб, ундан самарали, фойдали нархларда альтернатив ресурслардан фойдаланишга боғлиқ деб ҳисоблайдилар.

Мамлакат сиёсий мустақиллиги унинг иқтисодий мустакиллиги билан боғликдир. Миллий иқтисодиётни иқтисодий инкирозсиз ва барқарор ривожлантириш бозор иқтисодиётини турли мулкчилик эгалигига асосланган ишлаб чиқариш жароёнида миллий иқтисодиётни ривожлантириш ишлаб чиқариш жароёнини инвистициявий ва олиб бориш долзарб муаммо ҳисобланади. Бунинг асосий сиёсий ва иқтисодий сабаби миллий иқтисодиётни индустриал тарзда ишлаб чиқариш кучларининг малакавий даражаларини эгаллашлари билан боғлик бўлган мустақил тадбиркорлик фаолиятини ривожлантириш зарур.

Бунинг асосий сабаби эркин рақобатга асосланган мустақил ишлаб чиқариш субъектлари бозор эркин рақобатга асосланган муносабатларнинг ривожланиб бориши ишлаб чиқариш жараёнига таркибий ўзгаришларга олиб келади. Ишлаб чиқариш жараёнида бозор

иқтисодиётининг асосий иқтисодий қонун талаб ва таклиф асосида ривожланиб бориши жараёнида ишлаб чиқариш тармоқлари таркибида ишлаб чиқариш корхоналарнинг таркибий талаб ва таклиф қонун асосида ўзгариб боради.

Корхоналарда бўладиган ишлаб чиқариш жараёнларининг ўзгариб боришига асосий сабаб аҳолининг истеъмол талабларининг ўзгариб бориши аҳолини ижтимоий жиҳатдан талабларининг ўсиб бориши билан боғлик бўлади.

Бозор иқтисодиёти талабларига асослнган миллий иқтисодиёти ишлаб чиқариш субъектларини бўлган турли шакллардаги корхоналарда ишлаб чиқаришни ташкил этиш ва олиб боришдан асосий мақсад ахолини истемол талабларини сифатли ва арзон талабдир истеъмол маҳсулотлари билан кондириш билан бирга ишлаб чиқариш корхоналари фойда олиб ишлашлари зарур.

Ишлаб чиқариш субъектларини ишлаб чиқаришни ташкил этишдан асосий мақсад фойда олиш ҳисобланади.

Қаътий равишда тузилган хўжалик иқтисодий битимларини бажариб борилишига боғлиқ.

Ишлаб чиқариш учун зарур бўлган моддий ҳомашёларни сифатли бўлиши ишлаб чиқарилаётган товарлар сифатини юқори бўлиши таъминлайди. Ишлаб чиқарилаётган махсулотларни сифатий даражасини белгиловчи асосий кўрсаткичлардан бири уни ишлаб чиқариш жараёнини ташкил этишда қатъийлиги ҳисобланади.

Ишлаб чиқариш ҳомашёларини қатъийлиги ишлаб чиқарилаётган саноат махсулотларидан самарали фойдаланиш муддатини тезкорлигини оширишга олиб келади. Бу ўз навбатида инновацион тарздаги ишлаб чиқариш технологияларига эга бўлиш асосида уларни ҳарид нархларини арзонлашувига олиб келади.

Ишлаб чиқариш саноат тармоқларида асосий маблағларидан фойдаланишдан асосий мақсад эркинлашган бозор иқтисодиёти шароитида якка ва ижтимоий тартибда жаъмият ишлаб чиқариш субъектларини ва унинг аъзоларини истеъмол талабларини қондириш ғсиобланади. Истеъмол бозори талабларини бозор иқтисодиёти шароитида тез-тез ўзгариб боришини асосий сабаби бозор ва бозор рақобати бўлиб, ҳар бир ишлаб чиқариш субъекти рақобатдош бўлиши учун ишлаб чиқараётган истеъмол махсулотларини инновацион тарзда ишлаб чиқариш билан бирга улар ўз истеъмол товарларини ҳаридоргир истеъмол нархларида бўлишига олиб келади.

Жаҳон, Европа Иттифоқи, МДҲ ва Ўзбекистон иқтисодчи олимлари томонидан ишлаб чиқариш корхоналарида асосий маблағларидан фойдаланишни назарий ва услубий жиҳатдан ривожланиши бўйича берилган назарий ва услубий иқтисодий тахрифларни ривожланиш жараёнини ўрганиш асосида улар ўртасида ишлаб чиқариш жараёнини ташкил этишда асосий маблағлар бўйича ягона назарий ва услубий хулоса йўқ эканлигини аниқланди:

- ишлаб чиқариш жараёни эркинлаштирилган турли ишлаб чиқариш мулкчилик эгалигига асосланган ишлаб чиқариш жараёнини ташкил этиш учун сарфланаётган инвестиция маблағлари ишлаб чиқариш корхоналарининг асосий ишлаб чиқариш маблағларини ифодаловчи иқтисодий категория бўлиб, унинг бир қисми асосий ишлаб чиқариш фондларини иккинчи қисми эса айланма фондларини молия шаклида бошқарувни ташкил этувчи иқтисодий категориялар деб ҳисоблаш мумкин;
- корхона ишлаб чиқариш фондлари ишлаб чиқариш жараёнидаги ҳаракатида айланма фондни ташкил этувчи ишлаб чиқариш моддий харажатлари ишлаб чиқариш жараёнини бир циклида ўзларининг қийматларини ишлаб чиқарилган ва истеъмол бозорига чиқарилган товар махсулотларини харидорлар томонидан ҳарид қилиб олиш нархлари асосида тўлиқ қопланади.
- Асосий ишлаб чиқариш жараёнида улардан фойдаланиш учун белгиланган муддатлар ичида бу асосий маблағ харажатларини ифода этувчи асосий фондлар фойдаланиш муддатлари бўйича белгиланган нормативлар асосида товарлар қийматидан олинадиган норматив маблағлар амотизация фондини ташкил этади.

❖ амортизация фондидаги маблағлар эса жорий ва капитал даражасида асосий ишлаб чиқариш фондларини таъмирлашга ав асосий капитал харажатларина ўсиб боришига сарфланади деб ҳисоблаймиз.

❖ асосий маблағлар саноат ишлаб чиқариш корхоналарини асосий ишлаб чиқариш фондларини натурал ва қиймат шаклида ифода этувчи иқтисодий категориядир.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Пинко В.А., Булавин Н.Л. Бухгалтерский учёт и аудит внеобратимов акта, М: Финансқ и статистика 2016. 180 с.
2. Горфинкель В.Я., Куприянов У.М., Праскави В.П.,и др.Под редакцией Горфинкеля В.Я.,Куприянова У.М. -М.:Банки и биржи.ЮНИТИ, 216,376 стр.
3. Е.О.Князева Оценки особенностей и воспроизводства основнқх фондов в сельском хозяйстве Чувашской республики.\ Вестник АПК Верхневолжья. -2012-№12. стр.84-89.
4. А.Д.Аюшев.Финансы предприятий и организации: ч.1и 2-е изд. перераб. и доп..-Иркутск: Изд-во БГУЭП.2007.-стр..347
5. А.А.Гарифуллина. Различнқе подходқ к определениюпонятия «основнқе средства» их»оценки»и амортизация/Молодой учёнқй-2014.№7-стр.324-327.
6. А.А.Ефремов Роль основных фондов в хозяйственной деятельности предприятия/Символ науки-2015-№6-стр.115-117.
7. Морозова А.В. Моделирующие подходы для определения влияния структуры капитала на результаты деятельности предприятия. Материалы международной научно-практической конференции. Курский институт кооперации. 2016.стр113-118.
8. Жидилева В.В. Учебник. Экономика предприятий. 2016. М: Экономика. С.316
9. А.Ф.Шишкин.Экономическая теория. Учебник. М.Гуманитарнқй издательский центр. ВЛАДОС.1996. стр..66.
10. Гукасьян Г.М. Экономическая теорияю М: 2010. С.215.
11. Егорова Е.О.Рогуленко Т.М.Сущность основных средств как объект бухгалтерского учёта. /Вестник ГУУ №1-2017.

УДК: 334.02

ОЗИҚ-ОВҚАТ САНОАТИНИ РИВОЖЛАНИШИНИ ЖАҲОН АМАЛИЁТИДА ҚЎЛЛАБ ҚУВВАТЛАШНИНГ ҚИЁСИЙ ТАҲЛИЛИ

СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ ПОДДЕРЖКИ РАЗВИТИЯ ПРОДОВОЛЬСТВЕННОЙ ПРОМЫШЛЕННОЙ ОТРАСЛИ В МИРОВОЙ ПРАКТИКЕ

COMPARATIVE ANALYSIS OF SUPPORT FOR THE DEVELOPMENT OF THE FOOD INDUSTRY IN GLOBAL PRACTICE

Адилбеков А.А.
Тошкент иқтисодиёт ва педагогика университети ўқитувчиси

Аннотация

Мақолада жаҳон хўжалигида озиқ-овқат саноати тармоғининг ривожланиши, давлатларнинг иқтисодий хусусиятлари ва уларнинг иқтисодий ҳолатини ҳисобга олган ҳолда уни ривожлантириш зарурати кўриб чиқилган. Жаҳон иқтисодиёти мамлакатлари олимларининг асарларида ривожланган мамлакатларда уларнинг ривожланиши ва шаклланиш хусусиятлари кўрсатилган. Республикамиз олимлари ҳам табиий-иқтисодий ҳудудларни ҳисобга олган ҳолда озиқ-овқат маҳсулотлари ишлаб чиқаришнинг ривожланишини ушбу ҳудудларнинг ўзига хос хусусиятларини ҳисобга олган ҳолда ўрганмоқдалар. Саноат

маҳсулотлари ишлаб чиқаришнинг глобаллашуви шароитида кўриб чиқилган. Мақолада ушбу мамлакатларда озиқ-овқат саноати ишлаб чиқаришни ривожлантириш тажрибалари, Европа Иттифоқи мамлакатлари тажрибаларини қўллаш, озиқ-овқат маҳсулотлари ишлаб чиқаришни ривожлантиришда "CAP" сиёсати таклиф этилган. Истеъмол маҳсулотлари ишлаб чиқариш тармоғини ишлаб чиқаришни ривожлантиришнинг мақсадли сиёсати асосланган.

Калит сўзлар: озиқ-овқат хавфсизлигини таъминлаш, иқтисодий қўллаб-қувватлаш, қўллаб-қувватлаш дастури, озиқ-овқат саноатини ривожлантириш хусусиятлари, кластер асосида ишлаб чиқариш, маҳсулотларни экспорт йўналиши бўйича ишлаб чиқариш, давлат дастурлари грантларини қўллаш, “CAP” сиёсати асосида молиялаштириш, етакчи мамлакатларда қўллаб-қувватлаш сиёсати, Япония ва Хитой тажрибалари.

В статье рассматривается развитие продовольственной промышленной отрасли в мировом хозяйстве, необходимость её развития с учетом экономических особенностей государств и их экономического состояния. В трудах ученых мировой экономики стран показано развитие и особенности их формирования в развитых странах. Ученые республики также с учетом природно-экономических зон изучают развитие производства продовольствия с учетом спецификации данных зон. Рассмотрено в условиях глобализации производства промышленной продукции. Предложено в статье опыты развития производства продовольственной отрасли в этих странах, применение опытов в странах ЕС, политики “CAP” в развитие производства продовольственной продукции. Обоснована целевая политика развития производства отрасли производства потребительской продукции.

Ключевые слова: безопасность потребительской промышленной продукции, экономическая поддержка, программная поддержка, развитие продовольственной промышленности, их особенности, организация производства кластерным способом, направление экспорта продовольственной продукции, политика “CAP”, основа финансирования в ведущих странах, опыты поддержки развития продовольственной отрасли на примере Японии и Китая.

The article examines the development of the food industry sector in the world economy, the need for its development, taking into account the economic characteristics of states and their economic condition. In the works of world economic scientists, the development and features of their formation in developed countries are shown. Scientists of the republic are also studying the development of food production, taking into account the specifics of natural-economic zones. Considered in the context of the globalization of industrial production. The article proposes experiences in developing food industry production in these countries, applying EU countries' experiences, and the “CAP” policy in developing food production. A targeted policy for the development of consumer goods production has been substantiated.

Key words: consumer industry product safety, economic support, program support, food industry development, their features, cluster production organization, food export direction, "CAP" policy, funding basis in leading countries, experiences of supporting food industry development using Japan and China as examples.

Жаҳон хўжалигида озиқ-овқат саноати ҳар қандай мамлакат миллий иқтисодиётида ижтимоий ва иқтисодий хавфсизлик, жумладан, миллий озиқ-овқат хавфсизлигини таъминлаш, тармоқ экспорт салоҳиятидан самарали фойдаланиш, миллий ва халқаро бозорларда мамлакат қишлоқ хўжалигида етиштирилаётган ва озиқ-овқат саноати корхоналарида қайта ишланаётган маҳсулотларга бўлган талабни рағбатлантириш каби ҳукуматнинг иқтисодий сиёсат дастурларида устувор аҳамият касб этади. Бу эса ҳар қандай иқтисодий ривожланиш даражасига эга бўлган мамлакатлар амалиётида озиқ-овқат саноатини иқтисодий қўллаб-қувватлашга қаратилган дастурлар самарадорлигини ошириш заруриятини уйғотади. Бугунги кунга қадар турли мамлакатлар иқтисодиётида озиқ-овқат саноатини иқтисодий қўллаб-қувватлаш дастурларини амалга оширишга қаратилган давлат

дастурларини амалга ошириш орқали соҳа ривожланиш самарадорлигини оширишга эришиб келинмоқда.

Иқтисодий адабиётларда турли мамлакатлар миллий иқтисодиётларида озиқ-овқат саноатини иқтисодий қўллаб-қувватлашнинг самарали йўналишларини аниқлаш мақсадида кўп сонли илмий тадқиқотлар ўтказилган. Ўтказилган тадқиқотлар натижаларига кўра, мамлакатда амал қилаётган иқтисодий шарт-шароитлар бир биридан фарқланиб, турли мамлакатлар миллий озиқ-овқат саноатини иқтисодий қўллаб-қувватлашда турли йўналишлар бўйича давлат дастурларини амалга ошириб келаётганлиги аниқланган. Бу эса мазкур йўналишда амалга оширилган илмий тадқиқотлар натижаларини таҳлил қилиш асосида илғор ҳориж тажрибаларини қиёсий таққослаб, мамлакатимиз амалиётида ижодий фойдаланиш мумкин бўлган хусусиятларини аниқлаш заруриятини уйғотади. Жумладан, сўнгги йилларда узоқ хорижлик иқтисодчи олимлардан Ж. Де-Боер [1], П. Чен [2], А. Алли [3], Ҳ. Дудек [4], Э. Карилло-Алварез [5] кабилар томонидан ривожланган мамлакатлар амалиётида озиқ-овқат саноатини ривожлантиришнинг устувор йўналишлари, соҳани давлат томонидан иқтисодий қўллаб-қувватлашга қаратилган дастурлари таҳлил этилган.

Шу билан биргаликда, бозор иқтисодиёти шаклланаётган ва ривожланаётган мамлакатлар иқтисодчи олимларидан Е.Н. Александрова [6], Л.Т. Печеная [7], А.А. Кайгородцов [8], А.И. Алтухов [9], Л.В. Тугачева [10] кабилар бозор иқтисодиётига ўтиш шароитида миллий озиқ-овқат саноатини давлат томонидан иқтисодий қўллаб-қувватлаш дастурларини бозор иқтисодиёти компонентлари билан тўйинтириш, соҳани ривожланиш салоҳиятидан фойдаланиш самарадорлигини ошириш, ресурслардан оптимал фойдаланиш йўналишлари ва унинг ўзига хос хусусиятларини тадқиқ этишган. Мазкур олимларнинг илмий изланишларида озиқ-овқат саноатини ривожлантиришнинг бозор иқтисодиёти ривожланган етакчи мамлакатлар амалиётидан миллий иқтисодиётда фойдаланиш имкониятлари ҳам тадқиқ этилганлиги билан аҳамиятли ҳисобланади. Бу орқали ўтказилган илмий тадқиқотларда марказлашган иқтисодий муносабатлар шароитида либерал иқтисодий муносабатларга ўтишга қаратилган иқтисодий қўллб-қувватлаш механизмларини ишлаб чиқишга эришилган.

Innovatsion rivojlanish davrida raqamli texnologiyalarni talimda qo‘llash butun dunyoda muhim o‘rin tutmoqda. Ushbu maqolada raqamli texnologiyalarning ustozlar uchun qanday imkoniyatlar yaratishi, ularning pedagogik faoliyatini qanday yengillashtirishi va samaradorligini oshirishi haqida ham so‘z yuritiladi. Raqamli texnologiyalar talabalarga darslarni rejalashtirish, talabalarning bilimini baholash, o‘quv materiallarini tayyorlash va talabalarning muvaffaqiyatlarini kuzatishda yordam beradi. Shuningdek, ustozlarning o‘zaro tajriba almashishi va professionallik darajasini oshirishga xizmat qiladigan platformalar haqida ma’lumotlar beriladi.

Ta’lim tizimida raqamli texnologiyalarni qo‘llash bo‘yicha ko‘plab ilmiy izlanishlib olib borilgan bo‘lib, ushbu ishlarda raqamli texnologiyalarning qo‘llanilishi, uning samaradorligi va afzalliklari xozirgi kunda ta’limda raqamli texnologiyalarni qo‘llashning muhimligi haqida to‘xtalib o‘tilgan.

Raqamli texnologiyalar orqali ta’lim berilsa ta’lim oluvchilarga ta’lim olish usullari osonlashmoqda. Bunda esa ta’lim tizimi vostilari rolini multimediyalar, kodoskop, kompyuter, noutbuk, internetga ulangan televizorlar, telefon liniyalar, smart doska, proyektorlar bajarib beradi. Ta’lim beruvchilarga bunday vositalar bilan dars mashg‘ulotlar o‘tkazish ta’lim sifatini oshirishni ta’minlaydi (N.D. Mirzahmedova 2022) [2].

Raqamli ta’lim tizimini yuksalishiga Wi-Fi zonalar IT parklar ochilishi katta xizmat qiladi. Ta’lim beruvchilarni raqamli texnologiyalar bilan ishlash qobiliyatini o‘tirish va internet orqali turli ochiq kurslar tashkil etish imkoniyati tug‘iladi. Bu esa o‘z navbatida ta’lim beruvchilarni o‘z ustida ko‘proq ishlashi va raqobat tufayli ta’lim sifatini yanada ortishiga xizmat qiladi (I.A.Uralova 2023) [3].

Viktorinalar ta’lim texnologiyasi yordam berishi mumkin bo‘lgan yana bir faol o‘rganish strategiyasidir. O‘quvchilar sinfda birgalikda loyiha ustida ishlashni boshlashlari va ijtimoiy media, interfaol doskalar va boshqa texnologiyalardan foydalangan holda ravon hamkorlik qilishlari, muloqot qilishlari va bir-biridan g‘oyalarni o‘zaro bog‘lashlari mumkin. Jismoniy, ijtimoiy cheklovlar o‘quvchilarga istalgan joydan va istalgan vaqtda hamkorlik qilish imkonini beradi (F.M.Mulaydinov 2023) [4].

Raqamli texnologiyalarni joriy etish va ulardan ta’limga faol foydalanish o‘quvchi- talabalarni o‘quv jarayoniga intellektual va emotsional jalb etish, qoloq va ehtiyoji yuqori bo‘lgan o‘quvchi-talabalarni qo‘llab-quvvatlash sifatini oshirish, ortiqcha yuklamalarni bartaraf etish kabi muhim muammolarni hal qilish imkonini beradi (X.R.Saidova 2024) [5].

Ta’lim ilovalari va veb-saytlari raqamli sinflarda o‘quvchilarga o‘qish tajribalarini yaxshilashda yordam berish uchun ishlatiladi. Fikr-mulohaza tsikllari (Feedback loops) va texnologiya raqamli sinfning ikkita muhim tarkibiy qismlaridir. Fikr-mulohaza tsikllari (Feedback loops) o‘quvchilarga o‘qituvchilaridan real vaqt rejimida fikr-mulohaza olish imkoniyatini taqdim etish uchun zarurdir (A Haleem 2022) [6].

Sun’iy intellekt o‘quv materiallarini tashkil etish, pedagogik maslahatlar berish va ma’muriy vazifalarni boshqarish uchun virtual yordamchilar yaratishi mumkin. Shunda o‘qituvchilar talabalar bilan bevosita muloqotga e’tibor qaratib, yanada shaxsiylashtirilgan yo‘naltirishni ta’minlashlari mumkin (M. I. Dacholfany 2023) [7].

Sun’iy intellekt shuningdek, talabalarga va o‘qituvchilarga aqlli baholash tizimlari orqali fikr-mulohaza (feedback) taqdim etib, an’anaviy baholash tizimini o‘zgartirdi, bu esa ularga o‘z holatini yoki kamchiliklarini yaxshiroq tushunishga yordam beradi (Xinyi Sun 2024) [8].

Bugungi kunda raqamli texnologiyalar ta’lim tizimida muhim o‘rin tutmoqda. Ular o‘qitish va o‘rganish jarayonlarini yanada samarali, interaktiv va o‘zgaruvchan qilish imkonini beradi. Ta’lim tizimida raqamli texnologiyalarni qo‘llash, talabalarning va ustozlarning faoliyatini yangi usullar bilan yaxshilashga xizmat qilmoqda. Quyida ta’lim tizimida raqamli texnologiyalarni qo‘llash orqali uning samaradorligini oshirish yo‘llari:

1. O‘quv jarayonining shaxsiylashtirilishi

Raqamli texnologiyalar yordamida talabalarni individual darajada qo‘llab-quvvatlash imkoniyati yaratiladi. Dasturlar va onlayn platformalar orqali talabalar o‘zlarining bilim darajasiga mos materiallarni tanlashlari va o‘rganish tezligini nazorat qilishlari mumkin. Shuningdek, sun’iy intellekt texnologiyalari yordamida talabalarning kuchli va zaif tomonlarini aniqlash va ularga mos o‘quv dasturlarini taqdim etish mumkin.

2. Masofaviy ta’lim va onlayn kurslar

Internet va raqamli platformalar masofaviy ta’lim imkoniyatlarini yaratadi. Talabalar turli joylardan va turli vaqt oralig‘ida ta’lim olishlari mumkin, bu esa ustozlarni va talabalarning vaqtini va energiyasini samarali boshqarishga yordam beradi. Masofaviy ta’lim tizimlari video darslar, onlayn testlar, forumlar va interaktiv mashqlar orqali talabalarga o‘z bilimlarini tekshirish va yangilash imkonini beradi.

3. Interaktiv darsliklar va materiallar

Raqamli texnologiyalar yordamida o‘quv materiallarini interaktiv qilish mumkin. Masalan, video, animatsiyalar, 3D modellar, simulyatsiyalar va o‘yinlar orqali ta’lim jarayonini jonli va tushunarli qilish mumkin. Bu talabalarni yanada qiziqtiradi va ularga murakkab mavzularni tushunishda yordam beradi.

4. Sinov va baholashni avtomatlashtirish

Raqamli texnologiyalar testlar va baholash tizimlarini avtomatlashtirishga imkon beradi. Bu talabalarga vaqtni tejash va talabalarning bilim darajasini tezda aniqlash imkonini beradi. Onlayn sinovlar va testlar yordamida talabalar o‘z bilimlarini baholashlari, natijalariga ko‘ra o‘quv jarayonini optimallashtirishlari mumkin.

5. Talabalar uchun resurslar va o‘quv materiallarining boyitilishi

Talabalarga raqamli resurslar va o‘quv materiallari taqdim etish orqali ularning ishini yengillashtirish mumkin. Online kurslar, darsliklar, o‘quv dasturlari va ilmiy maqolalar ustozlarga yangi pedagogik usullarni o‘rganishda yordam beradi. Shuningdek, talabalar o‘z tajribalarini raqamli platformalarda baham ko‘rishlari mumkin, bu esa ta’lim tizimining umumiy samaradorligini oshiradi.

6. Tezkor va aniq tahlil qilish imkoniyatlari

Raqamli texnologiyalar yordamida ustozlar talabalarning faoliyatini va o‘qish natijalarini real vaqt rejimida kuzatib borishlari mumkin. Bu tahlil qilish jarayonini osonlashtiradi va talabalarning qaysi mavzularda qiyinchilikka duch kelayotganini aniqlashga yordam beradi. Natijada ustoz o‘z darslarini yanada samarali tashkil etish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

7. Kooperativ va guruhli o‘rganish imkoniyatlari

Raqamli texnologiyalar guruhli ish va hamkorlikni rivojlantirishga yordam beradi. Onlayn platformalar yordamida talabalar bir-birlari bilan fikr almashish, guruhli muammolarni hal qilish va bilimlarini baham ko‘rishlari mumkin. Bu o‘zaro o‘rganish va jamoaviy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiradi.

8. Talabalarning raqamli savodxonligini oshirish

Raqamli texnologiyalarni ta’limda qo‘llash, talabalarga zamonaviy axborot texnologiyalaridan samarali foydalanishni o‘rgatadi. Raqamli savodxonlik — bu 21-asr ta’limining ajralmas qismiga aylangan va talabalarning kelajakdagi muvaffaqiyatlari uchun zarur bo‘lgan ko‘nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi.

9. Innovatsion yondashuv va tajriba almashish

Raqamli texnologiyalar orqali butun dunyo bo‘ylab ta’lim tizimlari o‘rtasida tajriba almashish imkoniyatlari yaratiladi. Ustozlar, talabalar va ta’lim muassasalari o‘z bilimlarini va tajribalari bilan o‘rtoqlashishlari mumkin. Bu innovatsion yondashuvlarni joriy etishda va ta’lim sifatini oshirishda katta rol o‘ynaydi.

10. Tarmoq imkoniyatlari va jahon miqyosida ta’lim

Internet va raqamli platformalar ta’lim tizimlarini global miqyosda birlashtirish imkoniyatini yaratadi. Talabalar dunyoning turli burchaklaridan bilim olishlari, xalqaro ta’lim tizimlari bilan tanishishlari mumkin. Bu talabalarning dunyoqarashini kengaytiradi va xalqaro miqyosda tajriba orttirish imkonini beradi.

Raqamli texnologiyalar, jumladan internet, kompyuterlar, mobil qurilmalar va turli dasturlar ta’lim jarayonida bir qator afzalliklarni taqdim etadi:

1. O‘quv materiallariga kirish: Talabalar istalgan joydan va istalgan vaqtda zarur ma’lumotlarga ega bo‘lish imkoniyatiga ega. Bu esa ularning mustaqil ishlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

2. Interaktivlik: Raqamli platformalar orqali ustozlar darslarni interaktiv tarzda o‘tkazishlari mumkin. Bu esa talabalarning diqqatini jalb qilishda muhim rol o‘ynaydi.

3. Shaxsiylashtirilgan ta’lim: Raqamli texnologiyalar yordamida har bir talabaning individual ehtiyojlariga mos ravishda dasturlar ishlab chiqish mumkin. Buning natijasida har bir talaba o‘z sur’atida bilim olishi mumkin.

4. Tahlil va baholash: Ta’lim jarayonidagi raqamli tizimlar orqali talabalarning yutuqlari va muammolarini tezkor tahlil qilish imkoniyati mavjud. Bu esa ustozlarga samarali strategiyalarni ishlab chiqishga yordam beradi.

Shu bilan birga sun’iy intellektga asoslangan virtual repetitorlar va chatbotlar talab bo‘yicha talabalarni qo‘llab-quvvatlashlari, savollarga javob berishlari, tushuntirishlari va dars soatlaridan tashqari yo‘l-yo‘riqlar taklif qilishlari mumkin. Bu talabalarga tushunchalarni tushunishlarini mustahkamlashga va o‘rganishdagi to‘siqlarni engishga yordam beradi [9].

Sun’iy intellektning dasturlash imkoniyatlari ta’limda juda foydalidir, chunki har bir talaba noyobdir: ularning motivatsiyalari turlicha, duch keladigan muammolari boshqacha va turli talablarni talab qiladi. Ana shunday savol va muammolarga sun’iy intellekt javoblarni taqdim etadi [10].

O‘qitish samaradorligini oshirish: Interaktiv texnologiyalar, masalan, simulyatsiyalar va o‘quv dasturlari yordamida o‘quvchilar faolligini oshiradi va o‘qitishning samaradorligini ta’minlaydi [11].

Ta’lim tizimida raqamli texnologiyalarni qo‘llash o‘qitish va o‘rganish jarayonini ancha samarali qilishga yordam beradi. Bu nafaqat talabalarning bilim darajasini oshiradi, balki ustozlarning ishini ham yengillashtiradi va ta’lim tizimining umumiy sifatini yaxshilaydi. Raqamli texnologiyalar ta’limning barcha darajalarida qo‘llanilishi kerak, chunki ular talabalarga zamonaviy bilimlarni olish imkonini beradi va kelajakda muvaffaqiyatli bo‘lishlari uchun zarur ko‘nikmalarni rivojlantiradi. Ta’lim tizimida raqamli texnologiyalarni qo‘llash uning samaradorligini oshirish uchun yangi imkoniyatlar yaratadi. Talabalar uchun qiziqarli va interaktiv muhit yaratish, shuningdek, ularning individual ehtiyojlarini inobatga olish orqali sifatli ta’lim berishni rivojlantirishga xizmat qiladi. Kelajakda raqamli texnologiyalar bilan birgalikda innovatsion yondoshuvlarni joriy etish ta’lim tizimini yanada sifat jihatidan yaxshilaydi va yangi avlod mutaxassislarini tayyorlashda muhim omil bo‘ladi.

Raqamli texnologiyalarni qo‘llash bo‘yicha misollar va takliflar:

1. Onlayn platformalar: Ta’limda Moodle, Google Classroom kabi onlayn platformalar yanada keng qo‘llash. Ushbu platformalar orqali dars materiallarini joylash, topshiriqlar berish va natijalarni baholash mumkin.

2. Virtual sinflar: Zoom, Microsoft Teams kabi dasturlar yordamida masofaviy ta’lim jarayonlarini o‘tkazish. Bu esa pandemiya davrida ham ta’lim sifatining pasaymasligini ta’minlashga xizmat qildi.

3. Interaktiv ilovalar: Kahoot!, Quizizz kabi ilovalar yordamida talabalar bilan interaktiv tarzda muloqot olib borilishi mumkin, bu esa darslarni yanada qiziqarli qiladi.

4. Simulyatsiya va virtual reallik: Maktab yoki universitetlarda simulyatsiya dasturlari yoki virtual reallik qurilmalaridan foydalanish orqali amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirish imkoniyatlari oshirish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. 2020-yil 23-sentabrdagi O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi O‘RQ-637-son Qonuni https://lex.uz/docs/-5013007
2. N.D.Mirzahmedova Raqamli texnologiyalarining ta’lim sohasida qo‘llanilishi Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences VOLUME 2 | ISSUE 5/2 ISSN 2181-1784 SJIF 2022: 5.947. 538-541 b. https://www.oriens.uz/media/journalarticles/71_Mirzahmedova_Nargiza_Dilmurodovna_538-545.pdf

3. I.A.Uralova Ta’lim sohasida raqamli texnologiyalardan foydalanish, Models and methods for increasing the efficiency of innovative research Vol. 3 No. 35 (2024) https://interoncof.com/index.php/germany/issue/view/34
4. F.M.Mulaydinov, A.A.Abdullayev, M.D.Odilova Ta’limda raqamli texnologiyalarning roli Qo‘qon universiteti xabarnomasi 26-dekabr 2023-yil 237-240 b. https://www.herald.kokanduni.uz/index.php/public_html
5. X.R.Saidova, M.Sh.Tursunbekova Ta’lim muassasalari faoliyatini samarali tashkil etishda raqamli texnologiyalardan foydalanish. International scientific and practical conference “Innovative management in the education system: international and national concepts”, may 16, 2024. 472-477b.
6. A Haleem, M.Javaid, M.Qadri, R.Suman (2022) Understanding the role of digital technologies in education: A review. Sustainable Operations and Computers Volume 3, Pages 275-285 https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S2666412722000137#bib0046
7. M. I. Dacholfany and others Harnessing Artificial Intelligence to Increase the Efficiency of Education Management in the Future, AL-FIKRAH: Jurnal Manajemen Pendidikan, 11(2) - December 2023 245-258 https://ejournal.uinmybatusangkar.ac.id/ojs/index.php/alfikrah/article/view/10557
8. Xinyi Sun (2024) The Application of Artificial Intelligence in Education Vol. 5: 2nd International Conference on Artificial Intelligence, Database and Machine Learning https://wepub.org/index.php/TCSISR/article/view/2698
9. https://futuramo.com/blog/how-can-ai-improve-schools-and-education/
10. https://apacentrepreneur.com/how-ai-can-help-to-improve-the-education-system/
11. U.A.Uzakov Raqamli iqtisodiyot sharoitida ta’lim tizimining samaradorligini zamonaviy texnologiyalar yordamida yaxshilash, “Ta’lim muhitining transformatsiyasi: zamonaviy o‘qitishda raqamli texnologiyalarning o‘rni” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya, 2025-yil 16-aprel, Toshkent 380-386 bet.
12. U.A.Uzakov Blokcheyn: raqamli xavfsizlik va ishonchli ma’lumot almashinuvi kaliti, “Raqamli iqtisodiyot” ilmiy-elektron jurnali 11-son, Iyun, 2025,741-747 b.

УДК: 334.716

АКЦИЯДОРЛИК ЖАМИЯТЛАРИДА ҲИСОБ СИЁСАТИНИ ШАКЛЛАНТИРИШНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИТЛАРИ

ОСОБЕННОСТИ ФОРМИРОВАНИЯ УЧЕТНОЙ ПОЛИТИКИ В АКЦИОНЕРНЫХ ОБЩЕСТВАХ

PECULIARITIES OF FORMING ACCOUNTING POLICY IN JOINT-STOCK COMPANIES

Тўраев Абдураҳим Нортожиевич Тошкент халқаро молиявий бошқарув ва технологиялар университети «Молия, банк иши ва бухгалтерия ҳисоби» кафедраси профессори, иқтисод фанлари доктори, профессор

Тўраева Моҳира Гулмирзаевна “Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш муҳандислари институти”– миллий тадқиқот университети мустақил изланувчиси

Аннотация

Мазкур мақолада акциядорлик жамиятларининг молиявий ҳисоботларини халқаро стандартлар асосида тузишда ҳисоб сиёсатини аниқ тамойиллар, усуллар, умумқабул қилинган шартлар ва қоидалар ҳамда амалий ёндошувлар асосида тўртта босқичли умумий қоидалар, молиявий ҳисоботлар, бухгалтерия ҳисобининг асосий объектлари ҳамда иловалар орқали тузиш тартиби очиб берилган.

Калит сўзлар: Акциядорлик жамиятлари, бухгалтерия ҳисобининг халқаро стандартлари, молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартлари, бухгалтерия ҳисобининг миллий стандартлари, ҳисоб тизими, ҳисоб сиёсати, ишчи счётлар режаси, амортизация, умумий қоидалар, молиявий ҳисоботлар

В данной статье описана учетная политика подготовки финансовой отчетности акционерных обществ на основе международных стандартов, основанная на конкретных принципах, методах, общепринятых условиях и правилах и практических подходах, а также четырехступенчатые общие правила составления финансовой отчетности, основные объекты учета и применения.

Ключевые слова: Акционерные общества, международные стандарты бухгалтерского учета, международные стандарты финансовой отчетности, национальные стандарты бухгалтерского учета, система бухгалтерского учета, учетная политика, план рабочих счетов, амортизация, общие правила, финансовая отчетность

This article describes the accounting policy for the preparation of financial statements of joint-stock companies based on international standards, based on specific principles, methods, generally accepted conditions and rules and practical approaches, as well as four-stage general rules for the preparation of financial statements, the main objects of accounting and application.

Keywords: Joint stock companies, international accounting standards, international financial reporting standards, national accounting standards, accounting system, accounting policies, chart of accounts, depreciation, general rules, financial reporting

Бугунги кунда Ўзбекистонда иқтисодий ислоҳотлар жараёнида бухгалтерия (молиявий) ҳисобини ислоҳ қилиш жараёнига катта эътибор қаратилмоқда. Жумладан, 1992 йил 9 декабрда “Аудиторлик фаолияти тўғрисида”ги, 1996 йил 30 августда “Бухгалтерия ҳисоби тўғрисида”ги Қонунлар қабул қилинган эди. 2000 йил 26 майда “Аудиторлик фаолияти

тўғрисида”ги, 2016 йилнинг 13 апрелида “Бухгалтерия ҳисоби тўғрисида”ги қонунларнинг янги таҳрири ва 2021 йил 25 февралдаги “Аудиторлик фаолияти тўғрисида”ги Қонунининг янги таҳрирлари қабул қилинди. Бухгалтерия Ҳисобининг Халқаро Стандартларига (IAS) асосланган ҳолда Бухгалтерия Ҳисобининг Миллий стандартлари (1998-2016 йиллар) ишлаб чиқилди [1;2].

Аммо Ўзбекистонда бухгалтерия ҳисоби соҳасида ислоҳотлар бошланган даврдан буён ўтган 20 йилдан ортиқ давр давомида жаҳон иқтисодиёти камида иккита молиявий-иқтисодий инқирознинг бошдан кечирганлиги натижасида халқаро ҳисоб стандартларида ҳам туб ўзгаришлар рўй берди. Афсуски, мазкур ўзгаришлар ўз вақтида бухгалтерия ҳисобининг миллий стандартларида ўз аксини топмади.

Шу жиҳатдан, акциядорлик жамиятларида бухгалтерия ҳисобини молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартлари (IAS, IFRS) асосида такомиллаштириш долзарб масала бўлиб ҳисобланади.

8-сон БҲХСга асосан, Ҳисоб сиёсати – бу ташкилот томонидан молиявий ҳисоботни тайёрлашда ва тақдим этишда қўлланадиган муайян тамойиллар, асослар, умумқабул қилинган шартлар, қоидалар ва амалий ёндашувлардир. Бу ерда "Сиёсат" сўзидан фойдаланиш ташкилотларга бухгалтерия ҳисобининг муқобил усулларидан бирини танлаш ҳуқуқини берилганлигини англатади.

Ҳисоб сиёсатидаги ўзгариш:

Муайян МҲХСни дастлабки қўллаш

−ушбу МҲХСнинг номи;

−ҳисоб сиёсатидаги ўзгаришнинг характери;

−келгуси даврларга таъсир қилиши мумкин бўлган ўтиш қоидалари;

Ҳисоб сиёсатидаги ихтиёрий ўзгариш

−ҳисоб сиёсатидаги ўзгаришнинг характери;

−янги ҳисоб сиёсатини қўллаш ишончли ва ўринлироқ маълумот беришининг сабаблари;

−жорий давр ва ҳар бир тақдим этилган ўтган давр учун амалий имкони бўлган даражада қуйидагилар бўйича тузатиш суммаси:

(i) молиявий ҳисоботнинг таъсирланган ҳар бир моддаси;

(ii) (ii) агар 33-сон БҲХС “Бир акцияга тўғри келадиган фойда” ушбу ташкилотга нисбатан қўлланса, бир акцияга тўғри келадиган фойда - базавий ва суюлтирилган кўрсаткичлар;

Амалда халқаро стандартга мувофиқ, ҳисобот тузувчи ҳар бир ташкилотнинг ўз ҳисоб сиёсати мавжуд бўлади. 1-сон БҲХС талабига асосан ташкилот молиявий ҳисоботнинг бир қисми бўлган изоҳларда ўз ҳисоб сиёсатининг муҳим жиҳатларини ёритиб бериши белгиланган.

Муайян операцияга, бошқа ҳодиса ёки ҳолатга нисбатан маълум бир МҲХС қўлланса, бундай объектга нисбатан қўлланадиган ҳисоб сиёсати ёки унинг қоидалари ушбу МҲХСдан фойдаланган ҳолда белгиланиши лозим.

Агар муайян МҲХСда турли ҳисоб сиёсати ўринли бўлиши мумкин бўлган моддаларни тоифаларга ажратиш алоҳида талаб этилмаса ёки рухсат берилмаса, ташкилот ўхшаш операциялар, бошқа ҳодисалар ва ҳолатлар учун ҳисоб сиёсатини танлаши ва изчил қўллаши лозим. Агар муайян МҲХСда моддаларни бундай тоифаларга ажратиш талаб этилса ёки рухсат берилса, ҳар бир тоифага нисбатан ҳисоб сиёсати танланиши ва изчил қўлланиши лозим.

Акциядорлик жамиятларининг ҳисоб сиёсати таркиби МҲХС асосида умумий қоидалар, молиявий ҳисоботлар, бухгалтерия ҳисобининг асосий объектлари, иловалардан иборат бўлиши лозим.

Акциядорлик жамиятларида молиявий ҳисоботни халқаро стандартлар асосида тузишда ҳисоб сиёсати бўйича бухгалтерия ҳисобини ташкил қилиш орқали фойдаланилади ҳамда корхонанинг молиявий ҳолатини барқарорлигини таъминлашда катта ҳисса қўшади.

Акциядорлик жамиятларида халқаро стандартлар асосида алоҳида шакли мавжуд эмас,

шундан келиб чиққан ҳолда унинг намунавий шаклини қуйидаги жадвалда келтириб ўтамиз.

1- жадвал

Ҳисоб сиёсатининг таркибий тузилиши

№	Таркиби	Ўз ичига оладиган бандлари
1	Кириш	Ташкилий тузилиши Бошқарув органи
2	Бухгалтерия ҳисобини ташкил этиш	Бухгалтерия хизмати вазифалари Бухгалтерия ҳисобини ташкил этиш Бухгалтерия ҳисобини юритиш Инвентаризация ўтказиш Бошқа алохида ҳолатлар
3	Асосий тамойиллар	Фаолиятнинг узлуксизлиги Ҳисоблаш тамойили Муҳимлик ва агрегатлаш Ўзаро ҳисоб-китоб Ҳисоботларни тақдим этиш даврийлиги Ахборотни таққосланувчанлиги Молиявий ҳисоботнинг элементлари Ҳисобот элементларини тан олиш Функционал валюта ва тақдим этиш валютаси Ҳисоб сиёсатини ўзгартириш Ҳисоб баҳоларини ўзгартириш Ҳатоларни тузатиш
4	Методик қисм	Молиявий ҳисоботлар таркиби Молиявий ҳолат тўғрисидаги ҳисобот Молиявий натижалар тўғрисидаги ҳисобот Пул оқимлари тўғрисидаги ҳисобот Хусусий капиталдаги ўзгаришлар тўғрисидаги ҳисобот Молиявий ҳисоботга изохлар Буҳгалтурия мулохазаси
5	Асосий қисм	Активлар Хусусий капитал Мажбуриятлар Даромад ва харажатлар Ҳисобнинг алохида масалалари Консолидациялашган ҳисобот ва алоҳида молиявий ҳисоботлар Ўзаро боғлиқ томонлар билан операциялар Ҳисобот давридан кейинги ҳодисалар Давлат грантлари ҳисоби Сегментлар бўйича ахборот
6	Молиявий рисклар	Кредит риски Ликвидлик риски Бозор риски Чет эл валютаси риски
7	Иловалар	Ташкилот структураси Хисоб счетлари рўйхати Молиявий ҳисоботлар шакли Амалдаги МҲХСлар рўйҳати

Юқоридагилар асосида акциядорлик жамиятларида ҳисоб сиёсатини халқаро стандартлар асосида тузиш учун асосий намуналардан бири бўлиб ҳисобланади.

Рақамли иқтисодиёт шароитида акциядорлик жамиятлари бухгалтерия ҳисобини ягона услуб ва шакл асосида ёритиш мумкин бўлмаганидек, давлат ҳам ҳар бир корхона учун

алоҳида ҳисоб тизимини ёзиб бериши жуда мушкул масала бўлиб ҳисобланади. Чунки бундай тизим ҳар бир хўжалик субъектининг ишлаб чиқариш ва молиявий фаолиятига мос келмайди. Субъект томонидан танлаб олинадиган ҳисоб тизими ўз олдига куйган вазифаларни бажариш учун талаб қилинадиган ахборотлар билан таъминланиши керак.

Корхонанинг ҳисоб сиёсати ушбу ташкилотда ҳисоб қандай тузилганлиги ҳақида тўлиқ тасаввурни берадиган тарзда тузилиши керак. Шунинг учун у ўзига қуйидаги маълумотларни киритади: корхона барча операцияларни акс эттириш учун фойдаланадиган счётлар тўғрисидаги; ҳисоб регистрлари ва бошланғич ҳужжатларнинг шакллари тўғрисидаги; активларни тан олиш учун қандай мезонлар қўлланилиши, қандай баҳолаш усулларидан фойдаланилиши, шунингдек амортизацияни ҳисоблаш тўғрисидаги; ҳужжат айланишини ташкил қилиш принциплари тўғрисидаги; инвентаризацияни ўтказиш тўғрисидаги ва ҳоказо. Бухгалтерия ҳисобини ташкил қилиш усулларини танлашда корхона ўз ишининг ўзига хос хусусиятини ҳисобга олиши мумкин. Ҳар бир соҳада ишларнинг мавсумийлиги, ишлаб чиқариладиган маҳсулот ҳажмини ўлчаш хусусиятлари ва бошқаларни ҳисобга олган ҳолда опреацияларни акс эттиришга ўз ёндашуви бўлиши мумкин. Бундай ҳолда қонун белгиланган чегараларда муайян танлаш эркинлигига йўл қўяди. Ўзбекистонда намунасини норматив ҳужжатлар ва методик кўрсатмаларда топиш мумкин бўлган ҳисоб сиёсати буйруқ ёки фармойиш билан тасдиқланиши керак. Ҳисоб сиёсати корхонанинг барча бўлинмалари, шу жумладан ўз балансини тузиш ҳуқуқига эга бўлган ҳудудий жиҳатдан алоҳида бўлган бўлинмалари учун ҳам қабул қилиниши лозим.

8-сон БҲХС «Ҳисоб сиёсати, ҳисоб баҳоларидаги ўзгаришлар ва хатолар»га мувофиқ жамиятга ўз ҳисоб сиёсатини ўзгартиришга қуйидаги ҳолларда рухсат берилади:

–муайян МҲХС томонидан талаб этилса; ёки

–ҳисоб сиёсатини ўзгартириш молиявий ҳисоботда операцияларнинг, бошқа ҳодисаларнинг ва ҳолатларнинг жамият молиявий ҳолатига, молиявий натижаларига ёки пул оқимларига таъсири тўғрисида ишончли ва янада ўринли маълумотлар акс эттирилишига олиб келса.

Молиявий ҳисоботдан фойдаланувчилар жамиятнинг молиявий ҳисоботини вақт ўтиши билан унинг молиявий ҳолати, молиявий натижалари ва пул оқимларидаги тенденцияларни аниқлаш учун қиёслаш имкониятига эга бўлишлари лозим. Шунинг учун, ҳисоб сиёсатига ўзгартириш киритиш юқорида кўрсатилган ҳолатлар натижаси бўлмаса, ҳисоб сиёсати даврлар аро изчил тарзда қўлланиши лозим.

8-сон «Ҳисоб сиёсати, ҳисоб баҳоларидаги ўзгаришлар ва хатолар» БҲХСда ретроспектив қўллаш ва ретроспектив қайта ҳисоблаш каби икки ўхшаш тушунча мавжуд. Уларни фарқлаш муҳим аҳамият касб этади. Муайян МҲХСни муддатидан олдин қўлланиши ҳисоб сиёсатидаги ихтиёрий ўзгариш бўлиб ҳисобланмайди.

«Акциядорлик жамияти муайян МҲХСни дастлабки қўллаш натижасида юзага келадиган ҳисоб сиёсатидаги ўзгаришни ушбу МҲХСда белгиланган махсус ўтиш қоидаларига мувофиқ ҳисобга олиши лозим бўлади. Агар жамият ҳисоб сиёсатини ихтиёрий равишда ўзгартирса ёки ҳисоб сиёсатидаги ўзгаришга нисбатан қўлланадиган махсус ўтиш қоидаларини ўз ичига олмаган муайян МҲХСни дастлабки қўллашда ҳисоб сиёсатини ўзгартирса, ушбу жамият бундай ўзгаришларни ретроспектив тарзда қўллаши лозим. Юқоридаги икки ҳолатда ҳам ушбу ўзгаришни акс эттириш амалий имконсиз бўлган ҳолатлар инобатга олиниши лозим.

Ҳисоботдаги кўп моддалар аниқ баҳолана олмайди, балки фақат ҳисоб баҳоси орқали баҳоланиши мумкин. Ҳисоб баҳолари энг сўнгги ва ишончли маълумотга асосланган мулоҳазаларни ўз ичига олади. Масалан, қуйидагиларга нисбатан ҳисоб баҳолари талаб этилиши мумкин:

–умидсиз қарзлар;

–захираларнинг жисмоний эскириши;

–молиявий активлар ёки молиявий мажбуриятларнинг ҳаққоний қиймати;

–эскириш ҳисобланадиган активларнинг фойдали хизмат муддати;

–кафолат мажбурияти.

Акциядорлик жамиятларининг ҳисоб сиёсати таркиби МҲХС асосида умумий қоидалар, молиявий ҳисоботлар, бухгалтерия ҳисобининг асосий объектлари, иловалардан иборат бўлиши лозим.

Ҳисоб сиёсати Ўзбекистон Республикаси миллий қонунчилиги ва миллий стандартлари бўйича талаблари бўйича корхона фаолияти бухгалтерия ҳисобини юритиш ва молиявий ҳисобот тайёрлаш учун қабул қилинган аниқ прициплари, асослар ва қонунлар, қоида ва тажрибаларни ўзида акс эттиради. Ҳисоб сиёсатини шакллантириш-бу хўжалик фаолиятининг аниқ ҳолатида бухгалтерия ҳисобини ташкил қилиш ва юритиш тартиби бўйича барча маълум усулларни танлаш ҳисобланади. Бошқача айтганда, ҳисоб сиёсати – бу дастлабки кузатувни амалга оширишда қийматли ўлчовлар, жамият умумхўжалик фаолияти фактлари йиғиндиси ва жорий гуруҳлаштириш ёки бухгалтерия ҳисоби методларини амалга ошириш кетма-кетлиги.

Ҳисоб сиёсатида амалга ошириладиган методлар турли жамият бухгалтериясида айнан шундан фарқли бўлади. Ўхшаш бўлиши мумкин, аниқ танланган баҳолаш усули, калкуляция, счетлар таркиби ва бошқалар - буларнинг барчаси ҳисоб сиёсатининг шаклланишида жамиятнинг эркинлик даражасини ташкил этади. Қайд қилиш жоизки, ҳисоб сиёсатининг белгилари кўпчилик расмиятчилик жиҳатидан тузиладиган жамиятларда тўғри баҳоланмайди ва қабул қилинган элементлари ёки бошқа элементлари ўрганилмайди.

Ташкилотлар ҳисоб сиёсатлари ўртасида махсулот таннархи, фойда, фойда солиғи, қўшилган қиймат солиғи ва жамиятнинг бошқа молиявий ҳолати кўрсаткичларига катта таъсир кўрсатадиган фарқлар мавжуд. Шундай экан, ҳисоб сиёсати солиқни режалаштиришда ва қимматли сиёсатда ҳамда жамият фаолиятининг асосий кўрсаткичларини шакллантиришда муҳим восита ҳисобланади. Ҳисоб сиёсати билан танишмасдан жамиятнинг фаолиятини турли даврлардаги таҳлилини солиштириш мумкин эмас, айниқса турли соҳадаги жамиятлар ўртасида.

Бухгалтерия ҳисоби тизимида умумий прининлар ва қоидалар меъёрий-ҳуқуқий асослар билан белгилаб берилган. Ҳисоб сиёсатида буларни амалга оширишда қуйидагиларни кўриб чиқиши мақсадга мувофиқ:

1) ҳисоблаш приципи. Унга мувофиқ жараёнлар ва бошқа ҳодисалар натижаси қачонки ҳисоб ёзувларида вужудга келганда ва акс эттирилганда тан олинади (келиб тушиши ёки пул маблағлари ёки эквивалентларида тўланишидан қатъий назар), шунингдек молиявий ҳисоботларда ҳам шу даврда кўрсатилади.

2) узлуксиз фаолият. Ҳисоб сиёсати доимо жамият томонидан узлуксиз ва келажакда давом этади деган мақсадда тузилади. Бундан келиб чиқиб, фаолият доирасининг кискартирилиши ёки тугатувчи ният йўк деб ҳисобланади.

Қабул қилинган ҳисоб сиёсатига нисбатан асосий вазифа ва топшириқ – жамият фаолиятини максимал бир хиллигини акс эттириш, бу фаолиятни самарали бошқариш учун ҳолис ва ишончли маълумотни тўлиқ шакллантиришдир. У ҳисоб жараёнининг хамма томонини – методик, техник ва ташкилий жиҳатларини ўз ичига олиши керак.

Методик жиҳати бу жамиятда мулк ва мажбуриятларни айнан қайси усулда баҳолаш, амортизацияни ҳисоблаш ва махсулотни ҳисобдан чиқариш ва бошқалар ҳисобга олиниши; техник жиҳати эса ҳисоб регистрларида, синтетик счетлар схемасида булар қандай амалга оширилиши кўзда тутилса; ташкилий жиҳатида бухгалтерия хизмати нуқтаи назаридан бу усулларнинг ташкил этилиши, унинг жамият бошқарув структурасидаги ўрни кўриб чиқилади.

Жамият раҳбарияти ҳисоб сиёсатини шундай қабул қилиши керакки, молиявий ҳисоботнинг тузилиш жиҳатлари бухгалтерия ҳисобининг ҳар бир халқаро стандартларига (№8-сонли БҲХС) тўлиқ жавоб бериши керак. Агар БҲХС да иккита ёки бир нечта вариантлар кўзда тутилган бўлса, ҳисоб сиёсати вариантларидан мақсадга мувофиқ жамият томонидан мантиқий равишда улардан биттасини танлаши керак ва бу вариантда стандарт ёки интерпретация ҳисоб обеъктлари (жараён, ҳодиса, салдо, сумма ва бошқа)ни аниқ группалар

бўйича классификация қилишни талаб қилиши ёки руҳсат бериши бундан мустасно ҳисобланади.

Агар БҲХСда ҳисобнинг қайсидир обеъкти аниқ белгиланган гуруҳлаштириш бўйича классификация қилишни талаб қилса ёки йўл қўйса, вариантлардан муносиб бўлганини танлаш талаб қилинади.

Агар БҲХСда қайсидир жараён бўйича аниқ акс эттириш тартиби йўқ бўлса, жамият раҳбарияти молиявий ҳисобот фойдаланувчилари учун фойдалироқ бўлган маълумотни шакллантириш учун ҳисоб сиёсатида ўз мулоҳазасини юритиб қарор қабул қилиши мумкин. Бунда қарор қабул қилишда қуйидагиларга эътибор қаратиши керак:

1) БҲХСларда ўхшашлик ёки айнан шу савол (масала)га нисбатан тавсияси ва талабларига;

2) активлар, мажбуриятлар, даромад ва харажатларни БҲХС концепциясига мувофиқ тан олиш ва ўлчаш (баҳолаш)нинг аниқ мезонлари;

3) ҳисоб стандартининг амалиётга оид ўрнатилиши ва қабул қилиниши бўйича ва юқоридагларга қандай даражада мувофиқлиги тўғрисида бошқа органга ариза бериш.

Ҳар бир даврда айнан шу ҳисоб сиёсати қабул қилинади ва молиявий ҳисобот фойдаланувчилари эса жамият молиявий ҳисоботларини бир қанча даврлар ўртасидаги молиявий ҳолатини ўзгариш тенденсияларини, фаолият натижаларини ва пул оқимлари ҳаракатини қиёслаш ва таққослаши мумкин бўлади.

Олдинги даврда тақдим этилган қиёсланадиган маълумотлар агар янги ҳисоб сиёсати қабул қилиниб фойдаланилса ва олдинги даврда қилинган хатолар бўлмаган деб қаралади.

Ҳисоб сиёсатини шакллантиришда жамият раҳбарияти томонидан бухгалтер, молиячи, техник мутахассис, ҳуқуқшунос (юрист) ва ўз фаолиятидан келиб чиққан ҳолда бошқа мутахассислардан иборат комиссия ташкил этиши лозим. Комиссия активлар, мажбуриятлар, хусусий капитал, тушум ва харажатлар муносабатларидан келиб чиқиб ҳисоб сиёсатини шакллантиради:

– хусусан, бухгалтерия ҳисобини юритиш ва молиявий ҳисоботни тайёрлаш учун қабул қилинган усуллар таҳлили ва баҳолаш фактлари;

– ҳисоб сиёсатининг тузилиш асоси;

– шакллантирилган ҳисоб сиёсатини ички меъёрий ҳужжатлар шаклига келтириш;

– жамият раҳбарияти томонидан алоҳида буйруқ ёки фамойиш тариқасида расмийлаштириладиган қўлланма, қоида ёки низом, йиғилиш натижалари, ҳужжатлар алмашинуви схемаси сифатида ишлаб чиқилиши керак.

Юкоридаги талаблардан келиб чиққан ҳолда Жамият томонидан ҳисоб сиёсатида ёки молиявий ҳисоботни чоп этишда қуйидагиларни очиб бериши керак:

1) юридик манзили ва жамият ҳуқуқий шаклини, унинг ҳуқуқий рўйҳатдан ўтганлиги ва манзили давлатдаги (ёки агар манзили рўйҳатдан ўтган жойидан фарқ қилса асосий иш-фаолият юритиш жойи);

2) жамиятнинг асосий фаолият доираси ва характеристикаси ҳақида тавсифномаси;

3) бош жамият номи ва қарам ва шўба корхоналари тўғрисида;

4) давр охирига ишчи-ходимлар штат жадвал бўйича сони ёки йил бўйича ўртача сони;

Ҳисоб сиёсатини шакллантириш жараёни қуйидаги босқичларни ўз ичига олади:

1. ҳисоб сиёсатини муносабатларини ишлаб чиқишда бухгалтерия ҳисоби обеъктларини аниқлаш;

2. бухгалтерия ҳисобини юритишда ишлаб чиқаришга таъсир этувчи омилларни баҳолаш ва таҳлилини аниқлаш;

3. ҳисоб сиёсати дастлабки тузилиш ўрнини асослаш ва танлаш;

4. жамият бухгалтерия ҳисобини юритишда қабул қилиниши керак бўлган усуллар учун юзага келиши мумкин бўлган фойдали томонларини ҳар бир обеъкт ва йўлларини аниқлаб кўрсатиб бериш;

5. бухгалтерия ҳисобини юритишда жамият учун фойдали бўлган усулларни танлаб олиш;

6. танланган ҳисоб сиёсатини расмийлаштириш.

Ҳисоб сиёсатига агар қонунчилик ёки юқори органлар талаби, бухгалтерия ҳисоби стандартларида ўзгаришлар ёки молиявий ҳолат ва молиявий ҳисоботга муҳим таъсир кўрсатадиган ҳолларда ўзгартириш киритилиши мумкин.

Ихтиёрий равишда ҳисоб сиёсатига ўзгариш киритилса, ретроспектив йўл қўлланилиб, бунда янги қабул қилинган ҳисоб сиёсатидаги жараён ва ҳодисалар ҳудди олдин қўлланилганидек қабул қилинади. Тўлиқ ҳолда ҳисоб сиёсати шундай ҳолат юзага келган вазиятда қабул қилинади.

Жамият томонидан ҳисоб сиёсатига ўзгартириш киритилиши қуйидаги кетма-кетликда амалга оширилади:

1. ҳисоб сиёсатига ўзгартириш киритилиши ретроспектив йўл билан қабул қилиниши керак, киритилган ўзгариш олдинги даврга нисбатан асосли ёки аниқ ўзгариш сезилмаслиги бундан мустасно.

2. ҳар қандай киритилган ўзгариш агар давр бошига тақсимланмаган фойда салдоси ўзгариши кўрсатилса, молиявий ҳисобот тақдим этилишида қилинган ўзгариш кўрсатилиши керак;

3. агар бу ўзгариш амалий амалга ошадиган бўлса, янги ҳисоб сиёсати мақсадида қиёсий маълумотлар қайта ҳисоб-китоб қилиниши зарур;

4. агар ҳисоб сиёсатидаги киритилган ўзгариш шу ҳисобот даври ёки ҳар қандай олдинги ҳисобот даврига ёки келгуси ҳисобот даврига нисбатан жиддий равишда таъсир эга бўлса, жамият томонидан шу давр ёки олдинги ҳисобот даври ёки қайси даврга тегишли бўлса, ўзгариш киритилган сумма таққослаш маълумотларида ўзгариш киритилиши сабаблари очиб берилиши керак ёки буни очиб беришни амалий имкони йўқлигини очиб бериши зарур.

Ҳисоб сиёсатига киритилган ўзгариш ёки қўшимчаларни Жамият бухгалтерлари, молиявий бошқарувчилари, бўлинма техниклари, юрист ва бошқа мутахассислардан иборат жавобгар комиссияси томонидан ва ички меёрий ҳужжат (буйруқ, фармойиш) билан қайта тасдиқланиши керак.

Ҳар қандай жамиятда ҳисоб сиёсати унинг талаблари ва прициплари асосида ишлаб чиқилиши керак. Улардаги йўлга қўйилган камчиликлар жамият мол-мулки ёки молиявий ҳолати, фаолият натижаларини нотўғри талқин қилинишига олиб келиши мумкин ва маълум асосларга кўра бухгалтерия ҳисоби нотўғри юритилган деб қабул қилинади.

Бизнингча, бу ахборотларни олиш учун раҳбар ва жамият эгалари қуйидагилар билан таъминланмоғи лозим: ҳисоб ва ҳисоботнинг ички тизими ишлаб чиқилиши; хўжалик муомалалари устидан назорат ўрнатиши тўлиқ ва ишончли ҳисобга эга бўлиши, ҳисоб ҳужжатларининг сақланиши; якуний молиявий ҳисоботни тайёрлаш. Шу нуқтаи-назардан бухгалтерия ҳисобини тартибга солувчи меъёрий ҳужжатларда қўшма корхоналар мустақил равишда бухгалтерия ҳисобини юритишнинг қоидалари ва тамойилларини ишлаб чиқишга имкон берилмоқда.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Ўзбекистон Республикасининг Қонуни. “Бухгалтерия ҳисоби тўғрисида” (янги таҳрири). Тошкент ш., 2016 йил 13 апрель, ЎРҚ-404-сон;
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2015 йил 24 апрелда “Акциядорлик жамиятларида замонавий корпоратив бошқарув услубларини жорий этиш чора-тадбирлари тўғрисида” ги ПФ-4720-сонли Фармони;
3. БҲХС 8 “Ҳисоб сиёсатлари, ҳисоблаб чиқилган баҳолардаги ўзгаришлар ва хатолар”. 2012 йил 1 январь.
4. Ergasheva Sh.I., Ilxomov Sh.I., Kozimjonov A., Mannopova R.A. “Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari” Darslik-T “IQTISODIYOT, 2023. – 336 б.
5. D.E.Norbekov, A.N.To‘rayev, Sh.Sh.Raxmonov. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari. O‘quv qo‘llanma. T.: Iqtisod-moliya, 2019. -332 b.

6. A.A. Eshonqulov Moliyaviy hisobot (Financial reporting) o‘quv qollanman. “TIB NASHR”, - Toshkent, 2025 yil, 485 bet.
7. Ergasheva SH., Ibragimov A, Rizaev N. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari. O‘quv qo‘llanma. - T.: TDIU. “IQTISODIYOT”, 2019-y. - 321 b.
8. S.N.Tashnazarov. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari: Oliy o‘quv yurtlari magistratura mutaxassisliklari uchun darslik. – Toshkent: “Iqtisod-moliya, 2020. – 555 b.

UDK: 338.1

YASHIL IQTISODIYOT VA IQTISODIY O‘SISH O‘RTASIDAGI ASSIMMETRIYA

АСИММЕТРИЯ МЕЖДУ ЗЕЛЕНОЙ ЭКОНОМИКОЙ И ЭКОНОМИЧЕСКИМ РОСТОМ

THE ASYMMETRY BETWEEN THE GREEN ECONOMY AND ECONOMIC GROWTH

Dexkanova Shodiyona O‘zMU talabasi
Normurodov X.E. O‘zMU katta o‘qituvchisi

Annotatsiya

Yashil iqtisodiyot aksar hollarda iqtisodiy o‘sish bilan uyg‘un, bir xil xil rivojlanish yo‘nalishidagi jarayon sifatida qaraladi. Maqolada yashil iqtisodiyot bilan iqtisodiy o‘sish o‘rtasidagi assimmetriya bu ikkita omil turli davriy birliklarda farqli rivojlanish xususiyatlariga ega ekanligini ko‘rsatilgan. Yashil qitisodiyot bilan iqtisodiy o‘sish o‘rtasidagi bir chiziqli bog‘liqlik umumiy holatlarda, uzoq muddatli davriy birlikda eng kam farqlarga ega bo‘lsa, xususiy va maxsus holatlarda qisqa va o‘rta muddatli davriy birliklarda farq katta bo‘lishi va iqtisodiy o‘sish bilan yashil iqtisodiyotning rivojlanishi o‘rtasidagi asimmetriyani vujudga kelishi bilan izohlanadi. Ayniqsa yashil rivojlanish tamoyili va yashil infratuzilmani amaliyotida assimmetrik farq shuncha katta bo‘ladi.

Kalit so‘zlar: Yashil o‘sish, assimmetriya, iqtisodiy o‘sish, barqaror rivojlanish, “environmental Kuznets curve (EKC)” va “green growth regression model”

Зелёная экономика часто рассматривается как процесс, согласующийся с экономическим ростом, имеющий схожее направление развития. В статье показано, что асимметрия между зелёной экономикой и экономическим ростом объясняется тем, что эти два фактора имеют разные характеристики развития в разных единицах времени. Линейная зависимость между зелёной экономикой и экономическим ростом объясняется тем, что в общих случаях различия минимальны в долгосрочных единицах времени, тогда как в частных и особых случаях различия велики в краткосрочных и среднесрочных единицах времени, и формируется асимметрия между экономическим ростом и развитием зелёной экономики. Особенно в практике зелёного развития и зелёной инфраструктуры асимметрия столь велика.

Ключевые слова: зеленый рост, асимметрия, экономический рост, устойчивое развитие, «экологическая кривая Кузнеца (ЭКК)» и «модель регрессии зеленого роста»

The green economy is often viewed as a process that is consistent with economic growth, with a similar development direction. The article shows that the asymmetry between the green economy and economic growth is explained by the fact that these two factors have different development characteristics in different time units. The linear relationship between the green economy and economic growth is explained by the fact that in general cases, the differences are minimal in the long-term time unit, while in specific and special cases, the differences are large in the short and medium-term time units, and the asymmetry between economic growth and the development of the

green economy is formed. Especially in the practice of green development and green infrastructure, the asymmetric difference is so great.

Key words: Green growth, asymmetry, economic growth, sustainable development, “environmental Kuznets curve (EKC)” and “green growth regression model”

“Yashil iqtisodiyot” mavzusi zamonaviy dunyoda, ayniqsa, iqlim o‘zgarishi va tabiiy resurslarning kamayishi bilan bog‘liq global muammolar nuqtai nazaridan tobora dolzarb bo‘lib bormoqda. Barqaror rivojlanishning muhim yo‘nalishi sifatida yashil iqtisodiyot resurslardan samarali foydalanadigan, atrof-muhitga salbiy ta’sirlarni kamaytiradigan va ekotizimlarning saqlanishini ta’minlaydigan tizimlarni o‘z ichiga oladi.

Yashil iqtisodiyotni rivojlantirish istiqbollari uning hayotiyligi va zarurligini ta’kidlaydigan istiqbolli prognozlarga ega. Kelgusi o‘n yilliklarda yashil texnologiyalar va qayta tiklanadigan energiya manbalariga investitsiyalar o‘sishi kutilmoqda. Jahon banki va Xalqaro valyuta jamg‘armasi kabi xalqaro tashkilotlarning ma’lumotlariga ko‘ra, yashil iqtisodiyotga faol o‘tayotgan mamlakatlar yalpi ichki mahsulotning har yili 2-3 foiz o‘sishini kutishlari mumkin, bu esa, shubhasiz, yangi ish o‘rinlari yaratilishiga va ularning aholisining turmush sifatini yaxshilashga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, barqaror qishloq xo‘jaligi, chiqindilarni qayta ishlash va energiya samaradorligini oshirish ham yashil iqtisodiyotga o‘tishning kaliti bo‘ladi. Iste'molchilarning ekologik toza mahsulot va xizmatlarga bo‘lgan talabini oshirish bu jarayonni tezlashtirishga yordam beradi. Barqaror rivojlanish uchun ta’lim va ilm-fanga sarmoya kiritgan mamlakatlar xalqaro maydonda raqobatbardosh ustunlikka ega bo‘ladilar.

Shu bilan birga, yashil iqtisodiyotga o‘tish davlat siyosatini, xususiy sektor va fuqarolik jamiyatini qo‘llab-quvvatlashni o‘z ichiga olgan kompleks yondashuvni talab qiladi. Biroq, qiyinchiliklar ham mavjud. Eski ishlab chiqarishlarni yangi standartlarga moslashtirish zarurati, shuningdek, ishchilarni tayyorlash va qayta tayyorlash zarurati jiddiy muammolar sifatida qabul qilinishi mumkin. Bu o‘zgarishlar ijtimoiy jihatlar va aholining barcha qatlamlari manfaatlarini hisobga olgan holda amalga oshirilishi muhim.

Shunday qilib, yashil iqtisodiyotning kelajagi ancha optimistik ko‘rinadi va uni muvaffaqiyatli amalga oshirish nafaqat ekologik vaziyatni, balki jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy farovonligini ham sezilarli darajada yaxshilashi mumkin. Prognozlar shuni ko‘rsatadiki, bu yo‘nalishdagi faol sa’y-harakatlar bir necha yil ichida sezilarli natijalarni berishi mumkin, bu turli manfaatdor tomonlarning birgalikdagi sa’y-harakatlari muhimligini ta’kidlaydi.

So‘nggi o‘n yilliklarda jahon iqtisodiyotida barqaror rivojlanishni ta’minlash masalasi markaziy o‘ringa chiqdi. Iqtisodiy o‘sish sur’atlarini saqlab qolish bilan birga, tabiiy resurslardan samarali foydalanish va ekologik muvozanatni ta’minlash zarurati “yashil iqtisodiyot” konsepsiyasini shakllantirdi. Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) va Jahon Banki kabi xalqaro tashkilotlar bu yo‘nalishni XXI asrda global taraqqiyotning ustuvor strategiyasi sifatida belgilab kelmoqda [1,2]

“Yashil iqtisodiyot” nafaqat ekologik muammolarni bartaraf etish, balki innovatsion texnologiyalarni joriy qilish, ish o‘rinlari yaratish, investitsiya muhitini yaxshilash va iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantirishda ham muhim omil sifatida qaralmoqda. Shu jihatdan, yashil iqtisodiyot va iqtisodiy taraqqiyot o‘rtasidagi bog‘liqlik murakkab va ko‘p qirralidir: bir tomondan, ekologik toza texnologiyalarga o‘tish qo‘shimcha sarf-xarajatlarni talab qiladi, ikkinchi tomondan esa uzoq muddatda barqaror iqtisodiy o‘sish uchun yangi imkoniyatlar yaratadi [3]

Mazkur maqolada yashil iqtisodiyotning iqtisodiy taraqqiyotga ta’siri ilmiy-nazariy va amaliyot nuqtai nazaridan tahlil qilinadi. Avvalo, mavjud nazariy yondashuvlar va xalqaro tajribalar o‘rganiladi. Keyin esa O‘zbekiston kabi rivojlanayotgan mamlakatlar uchun yashil iqtisodiyotning ustuvor yo‘nalishlari va iqtisodiy taraqqiyot bilan o‘zaro bog‘liqligi statistik ma’lumotlar asosida tadqiq qilinadi.

Texnologik innovatsiyalar va institutsional muhit Xorijiy va mintaqaviy tadqiqotlar bir qator omillarni — texnologiya, institutlar, globalizatsiya — yashil iqtisodiyot va iqtisodiy taraqqiyot o‘rtasidagi assimetrik bog‘liqlikda muhim deb topgan. Masalan, Yangfan Lu , Sareer Ahmad Yevropa davlatlarida texnologik innovatsiyalar muhim drayver hisoblanadi, ammo ularning samaraliligi davlat

institutlari mustahkam bo‘lgan joylarda yuqori ekanligini ko‘rsatadi [1].

Shuningdek, Stéphane Hallegatte va David Treguer yashil siyosatlarning iqtisodiy o‘sishga qanday kanallar orqali ta’sir qilishini analitik ramkada bayon qilgan [2].

Talebzadehhosseini esa mamlakatlar strategiyasini kengaytirishda “path dependency” (yo‘l boyicha rivojlanish) va “structural jumps” (tashakkuriy sakrashlar) orasidagi balansi tahlil qilgan [3].

Energetika, resurslar va yashil o‘sish dinamikasi Ko‘plik tadqiqotlarda qayta tiklanadigan energiya (renewable energy) iste’moli yashil o‘sishga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi, ayniqsa daromad past bo‘lgan davlatlarda. natijalarida 1 % ko‘paytirish yashil o‘sishni shakllantiruvchi omillardan biri ekani ma’lum qilingan. Talebzadehhosseini ko‘rsatishicha, mamlakat yaratilgan iqtidorlari daromadli tarkib bilan bog‘liq ekan; “yonilmas yo‘l” orqali rivojlanish qiyin bo‘ladi [4].

Iqtisodiy o‘sish va yashil o‘sish o‘rtasida to‘g‘ri bog‘lanish Avdji Alina Alimovna (Uzbekiston) o‘z maqolasida O‘zbekistonda iqtisodiy o‘sish modelidan yashil o‘sish modelga o‘tish mexanizmlari, muammolari va imkoniyatlarini tahlil qilgan. Djamoladdin Majidov O‘zbekistonda yashil iqtisodiyot tendensiyalari va ularning taraqqiyot yo‘liga bo‘lgan ta’sirini o‘rgangan. [5] Shu bilan birga, xorijiy misollarda Abdulloh Al Abrar Chowdhury (USA) AI innovatsiyalari, energiya foydalanishi va xorijiy investitsiyalar CO_2 chiqindilarini tekislishtirishda rol o‘ynaydi, bu esa yashil o‘sish bilan iqtisodiy faollikni birlashtirishga xizmat qiladi.

O‘zbekistonda yashil iqtisodiyot yuzasidan strategik hujjatlar va siyosiy harakatlar amalga oshirilayotgani ta’kidlanayotgan. Informativ hujjatlarda O‘zbekiston 2030 yilga qadar yashil iqtisodiyotga o‘tish bo‘yicha chora-tadbirlar (energiya samaradorligi, YaEK hajmini oshirish) aytib o‘tilgan. [6] Shuningdek, ilmiy muassasalar, masalan, Nauchnaya laboratoriya issledovaniy zelenoy ekonomiki (REU, O‘zbekiston) yashil iqtisodiyotni tadqiq qilish va amaliy loyihalarni amalga oshirish borasida faoliyat yuritmoqda.

Yashil iqtisodiyot va iqtisodiy o‘sish o‘rtasidagi assimmetriya borasidagi tadqiqotlarni quyidagi yo‘nalishlar bo‘yicha tasniflash maqsadga muvofiqdir(1-jadval).

1-jadval

Yashil iqtisodiyot va iqtisodiy o‘sish o‘rtasidagi assimmetriya tadqiqotlar yo‘nalishidagi

Olim / Manba	**Tadqiqot yo‘nalishi**
Arogundade, S. & Biyase, M.	Jahon miqyosida yashil iqtisodiy o‘sish bo‘yicha empirik tahlil
Yangfan Lu	Evropa davlatlarida texnologik innovatsiya, energiya iste’moli va globalizatsiya faktorlari ta’siri
Hallegatte, S., Heal, G., Fay, M., Treguer, D.	Teoriya “From Growth to Green Growth” (ramka)
Talebzadehhosseini, S., Scheinert, S. va Garibay, I.	Yashil iqtisodiyotni kengaytirish: “path dependency” va strukturali sakrashlar
Ma, Mingpu	“Green GDP (GGDP)” va SEEA hisoblash tizimlari
Chowdhury, A. Al Abrar, Rafi, A. Hakim, Sultana, A. va Noman, A.	Ayni texnologik innovatsiyalar, tashqi investitsiyalar va energiya iste’moli ta’siri (AQSh misoli)
Chowdhury, Adita Sultana va hamkasblar	AI innovatsiya, toza energiya va raqamli iqtisodiyot ta’siri (AQSh)
Djamoladdin Majidov (O‘zbekiston)	O‘zbekistonda yashil iqtisodiyot, holat va tendensiyalar
Avdji Alina Alimovna	O‘zbekistonda iqtisodiy o‘sishdan yashil iqtisodiyotga o‘tish

Iqtisodiy o‘sish aksariyat hollarda tabiatga turlicha salbiy ta’sirlar natijasida ro‘y beradi. Ya’ni resurslarning ekstensiv sarflanishi ijtimoiy majubriyatlar ustivor emasligi natijasida yashil ishlab chiqarish talablaridan chetlashish holatlari yuz beradi. Bunday sharoitda iqtisodiy o‘sish bilan yashil iqtisodiyot talablari o‘rtasida vujudga keladigan ziddiyat va tafovut iqtisodiy o‘sish bilapn yashil iqtisodiyot o‘rtasidagi qarama qarshi rivojlanish xususiyatlarini keltirib chiqaradi. Bunday qonuniyat

iqtisodiy o‘sish va yashil iqtisodiyot assimmetriyasi tushunchasi bilan izohlanadi. Asossiy masala iqtisodiy o‘sishni yashil iqtisodiyot tamoillari bilan mutanosib rivojlantirish kombinatsiyasini hosil qilishdan iborat.

Iqtisodiy o‘sish va tabiiy resurslar cheklanganligi o‘rtasida qarama qarshilik bor. G.Xardt va G.Brantland tomonidan taklif etilgan *sustainable development* (barqaror rivojlanish) tushunchasi shundan kelib chiqadiki: iqtisodiy o‘sishni saqlab qolish uchun ekologiyani qurbon qilish — qisqa muddatli foyda, uzoq muddatda esa iqtisodiy tanazzulga olib keladi.

Biroq shu bilan birga, “yashil iqtisodiyot” siyosatlarini joriy etish ko‘pincha iqtisodiy o‘sishni qisqartiradi — buni iqtisodiy mexanizm sifatida “Yashil paradoks” deb atashadi. Bu nazariyaga ko‘ra, ekologik soliqlar yoki chiqindilarni cheklash orqali ishlab chiqarish xarajatlari oshadi, bu esa qisqa muddatli davrda investitsiyalar va ishlab chiqarish hajmini kamaytiradi.

Jahon amaliyotida yashil iqtisodiyotga o‘tish davrida ko‘pgina mamlakatlarda iqtisodiy o‘sishning sekinlashishi kuzatilgan. Masalan, Yevropa Ittifoqida 2010–2020 yillarda energiya samaradorligini oshirish siyosati natijasida ishlab chiqarish o‘sishi o‘rtacha 1,3 %ga pasaygan (OECD, 2020). Bu holatning asosiy sababi – texnologik transformatsiya xarajatlari va kapitalning qayta taqsimlanishi. Shuningdek, yashil iqtisodiyotning ayrim yo‘nalishlari (masalan, chiqindilarni qayta ishlash, biologik qishloq xo‘jaligi) iqtisodiy samaradorlik jihatidan an’anaviy ishlab chiqarishga nisbatan past foydalilikka ega. Demak, qisqa muddatli to‘siqlar uzoq muddatli foydani ta’minlaydigan investitsiya sifatida qaralishi lozim [7].

Yashil iqtisodiyotning samarasi mamlakatning institutsional rivojlanishiga bog‘liq. OECD (2020) hisobotida ta’kidlanishicha, rivojlanayotgan davlatlarda yashil siyosatlar ishlab chiqarish salohiyatini kamaytirishi mumkin, chunki ularda texnologik infratuzilma va bozor mexanizmlari etarli emas. Shuningdek, yashil soliqlar va ekologik standartlar kichik va o‘rta biznes uchun qo‘shimcha to‘siqlar yaratadi, bu esa iqtisodiy o‘sishni cheklaydi. Masalan, China’s carbon tax policy 2013–2017 yillarda YaIM o‘sish sur’atini 0.6 %ga pasaytirgan, ammo 2020 yilga kelib CO_2 chiqindilarini 18 %ga kamaytirgan [8].

O‘zbekistonda ham yashil iqtisodiyotga o‘tish jarayonida ana shunday qarama-qarshiliklar kuzatiladi. YaIM o‘sishini ta’minlayotgan asosiy tarmoqlar (energetika, kimyo, transport) uglerod intensiv sohalar bo‘lib, ularni “yashillashtirish” investitsiya talabini keskin oshiradi. A. Avdji o‘z tadqiqotida ta’kidlaydiki, O‘zbekistonda yashil iqtisodiyotga o‘tish uchun zarur sarmoya hajmi YaIMning 3–5 %iga teng. Shu bois, qisqa muddatda iqtisodiy o‘sish sur’atlari pasayishi ehtimoli katta, ammo bu uzoq muddatli barqaror rivojlanish uchun zarur bosqichdir [15].

Yashil iqtisodiyot bilan iqtisodiy o‘sish o‘rtasidagi assimmetrik bog‘liqlikni iqtisodiy “environmental Kuznets curve (EKC)” va “green growth regression model” model orqali baholash yondashuvlaridan foydalanish mumkin[16].

H_1: Iqtisodiy o‘sishning boshlang‘ich bosqichlarida CO_2 chiqindilari va resurs iste’moli o‘sadi, ammo ma’lum bosqichdan keyin yashil siyosatlar ta’sirida ular kamayib boradi (EKC gipotezasi).

H_2: Yashil texnologiyalar va qayta tiklanadigan energiya sarfining o‘sishi uzoq muddatda iqtisodiy o‘sishga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi, ammo qisqa muddatda investitsion xarajatlar tufayli o‘sishni cheklaydi.Tadqiqot uchun 30 mamlakat (10 ta rivojlangan, 10 ta MDH va 10 ta rivojlanayotgan davlatlar) 2000–2023 yillar tanlab olingan [9].

2-jadval

Asosiy o‘zgaruvchilar		
Belgi	**Ta’rif**	**Manba**
GDPgr	YaIMning real o‘sish sur’ati (%)	World Bank
CO_2	Karbon chiqindilari (tonna/kapita)	WDI
REN	Qayta tiklanadigan energiya ulushi (%)	IEA
TECH	Texnologik innovatsiyalar indeksi (patentlar soni/1000 aholi)	OECD
GEXP	Davlatning yashil sarflari (YaIMga nisbatan %)	IMF
INST	Institutsional sifat indeksi (0–1)	WGI
GGDP	Yashil iqtisodiy o‘sish indeksi (konstruktiv ko‘rsatkich)	UNEP

Model spesifikatsiyasi yashil iqtisodiyot va iqtisodiy o‘sish o‘rtasidagi bog‘liqlikni baholash uchun dinamik panel model qo‘llanadi. Uning umumiy ko‘rinishi quyidagicha:

\text{GDPgr}_{it} = \alpha + \beta_1 CO_2_{it} + \beta_2 CO_2_{it}^2 + \beta_3 REN_{it} + \beta_4 TECH_{it} + \beta_5 GEXP_{it} + \beta_6 INST_{it} + \mu_i + \epsilon_{it}

Bu erda:

- *i* – mamlakat, *t* – vaqt indeksi;
- CO_2 va CO_2^2 — Ekologik Kuznets Qurvasi (EKC) shaklini testlash uchun;
- REN va TECH — yashil o‘sish drayverlari;
- GEXP — yashil investitsiyalar xarajatlari;
- INST — institutsional sifat.

Kutilgan belgilari:

- β1>0 va β2<0: CO_2 chiqindilar avvalida o‘sish bilan o‘sadi, keyin pasayadi.
- β3>0: qayta tiklanadigan energiya iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantiradi.
- β5<0 (qisqa muddatli), β5>0 (uzoq muddatli): yashil investitsiyalar avvalida o‘sishni cheklaydi, keyin barqarorlikni ta’minlaydi.

Empirik usul: Panel regressiya va dinamik modelida mamlakatga xos omillarni hisobga olish uchun Fixed Effects (FE) yoki Hausman testidan so‘ng Random Effects (RE) qo‘llanadi.

GDPgrit=αi+β1Xit+uit

Agar endogenlik mavjud bo‘lsa (masalan, yashil sarflar GDPga ta’sir qiladi va aksincha), u holda Arellano–Bond yoki Blundell–Bond GMM usuli qo‘llanadi:

GDPgrit=δGDPgri,t−1+βXit+ηi+νit\text{GDPgr}_{it} = \delta \text{GDPgr}_{i,t-1} + \beta X_{it} + \eta_i + \nu_{it}GDPgrit=δGDPgri,t−1+βXit+ηi+νit

Bu usul yashil iqtisodiyotning inersiyali ta’sirini hisobga olish imkonini beradi (Ma, 2024; Chowdhury et al., 2025).

Grafik talqin (Environmental Kuznets Curve) Model natijalarida agar β1>0\beta_1 > 0β1>0 va β2<0\beta_2 < 0β2<0 bo‘lsa, “Environmental Kuznets Curve” gipotezasi tasdiqlanadi:



A nuqta (boshlang‘ich bosqich): Iqtisodiyot sanoatlashish va energiya talabining ortishi bilan rivojlanmoqda. Ekologik texnologiyalar hali qo‘llanilmagan. Ifloslanish ortib boradi.

→ dCO2dGDP>0\frac{dCO_2}{dGDP} > 0dGDPdCO2>0

B nuqta (infleksiya nuqtasi): Bu nuqtada YaIM ma’lum bosqichga yetganidan so‘ng, jamiyat va davlatlar ekologik siyosat, yashil texnologiyalar va energiya samaradorligiga o‘tishni boshlaydi.

→ dCO2dGDP=0\frac{dCO_2}{dGDP} = 0dGDPdCO2=0 (ya’ni maksimal ifloslanish nuqtasi)

C nuqta (rivojlangan bosqich): Iqtisodiyot yuqori texnologik darajaga yetgan, qayta tiklanadigan energiya ulushi ortib borgan. Ifloslanish pasayadi, yashil o‘sish bosqichi boshlanadi.

2-jadval

Bosqich	Iqtisodiy xususiyat	Ekologik holat	Siyosat tavsiyasi
I. Industrial o‘sish	Sanoat va energiya talab yuqori	Ifloslanish ortib boradi	Yashil siyosatni boshlash
II. Infleksiya nuqtasi	Iqtisodiy o‘sish maksimal	Ifloslanish cho‘qqisida	Soliq va regulyatsiya islohotlari
III. Yashil o‘sish	Texnologiya samarador, investitsiya ustun	Ifloslanish pasaymoqda	Innovatsiya va eksport diversifikatsiyasi

Bu esa iqtisodiy o‘sish avvalida ekologiyani yomonlashtirishi, keyin yashil siyosatlar ta’sirida yaxshilanishini ko‘rsatadi[17].

Yashil iqtisodiyot va iqtisodiy o‘sish o‘rtasidagi qarama-qarshilik qisqa muddatli investitsion xarajatlar bilan**,** ijobiy ta’sir esa uzoq muddatli samaradorlik va innovatsiya orqali izohlanadi. Bu model nafaqat nazariy, balki amaliy siyosiy tavsiyalar uchun ham muhimdir — u yashil siyosati iqtisodiy o‘sishni sekinlashtirmasdan, balki uzoq muddatli barqaror o‘sishni ta’minlashi mumkinligini statistik ravishda tekshiradi.

Yashil iqtisodiyot va iqtisodiy o‘sish monandligi — atrof-muhitga zarar etkazmasdan, tabiiy resurslardan samarali foydalanib, ijtimoiy tenglikka asoslangan va barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlaydigan iqtisodiy model. Bunda karbon chiqindilari (CO_2) va ifloslanish kamaytiriladi, energiya va resurslardan foydalanish tejab, ekologik xizmatlar va biologik xilma-xillikni yo‘qotilishiga yo‘l qo‘yilmaydi. Umuman olganda, yashil iqtisodiyot — “past karbon chiqindilari, resurslarni tejaydigan, ijtimoiy jihatdan kiritilgan” iqtisodiyotdir[4]. Bugungi kunda jahon iqtisodiyoti va jamiyati ko‘plab ekologik muammolarga duch kelmoqda: global isish, havo va suvning ifloslanishi, tabiiy resurslarning tez tugashi kabi xavf-xatarlar insoniyatning kelajagini tahdid ostiga qo‘ymoqda. Shu sababli, an’anaviy sanoat va iqtisodiy rivojlanish modeli o‘rniga, tabiatni asrashga va resurslarni tejashga asoslangan yangi iqtisodiy yondashuv — yashil iqtisodiyot — jadal rivojlanmoqda. U nafaqat atrof-muhitni muhofaza qilish, balki iqtisodiy o‘sishni barqaror qilish va ijtimoiy adolatni ta’minlashda muhim vosita sifatida qaralmoqda[5]. BMT Atrof-muhit dasturi (UNEP) yashil iqtisodiyotning dolzarbligini quyidagicha ta’kidlaydi: "Insoniyatning farovonligi va ijtimoiy tenglikni ta’minlash uchun yashil iqtisodiyotga o‘tish zarur. Bu, ekologik xavflarni kamaytirish va tabiiy resurslarni saqlash orqali amalga oshiriladi" [6].

O‘zbekiston uchun ham yashil iqtisodiyot jadal rivojlanayotgan yo‘nalish hisoblanadi. Mamlakatda tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, ekologik toza texnologiyalarni joriy etish va barqaror rivojlanishni ta’minlash davlat siyosatining ustuvor vazifalaridan biridir. O‘zbekiston hukumati tomonidan qabul qilingan strategik hujjatlar va dasturlar, masalan, “Yashil iqtisodiyotga o‘tish” konsepsiyasi, mamlakatning iqtisodiy va ekologik barqarorligini ta’minlashga qaratilgan. [7] Yashil texnologiyalar va innovatsiyalarni rivojlantirish orqali O‘zbekiston iqtisodiy o‘sishini barqarorlashtirish va ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlash imkoniyati paydo bo‘ladi. [8]

O‘zbekiston yashil iqtisodiyot tamoyillarini bosqichma-bosqich amalga oshirib, atrof-muhitni muhofaza qilish bilan birga iqtisodiy barqarorlikka erishishni maqsad qilgan. So‘nggi yillarda bu yo‘nalishda qator muhim dasturlar va loyihalar amalga oshirilmoqda.Xususan: Energetika sohasida ekologik toza quvvatlarga o‘tish faol davom etmoqda. Hozirda mamlakatda quyosh va shamol energiyasi asosida ishlovchi yirik elektr stansiyalari qurilmoqda. Rejaga ko‘ra, 2030-yilgacha qayta tiklanuvchi energiya ulushi umumiy energetika balansining 40 foizigacha etkazilishi rejalashtirilgan. [9] O‘zbekiston ekologik xavfsizlikni ta’minlash va iqtisodiy samaradorlikni oshirish maqsadida chiqindilarni boshqarish tizimini takomillashtirishga katta e’tibor qaratmoqda. 2025-yilgacha 8 ta chiqindi yoqish zavodi qurilishi rejalashtirilgan bo‘lib, ular orqali yillik 2,1 milliard kVt-soat elektr energiyasi ishlab chiqarish ko‘zda tutilgan. Bu bilan birga 4,7 million tonnagacha chiqindi qayta ishlanishi mumkin. Shuningdek, mahallalarda chiqindilarni ajratish, yig‘ish va utilizatsiya qilish bo‘yicha infratuzilma kengaytirilmoqda. Maxsus texnikalar xarid qilinib, chiqindi maydonchalari tashkil etilmoqda. [10]

O‘zbekiston hukumati va Jahon bankining hamkorligi natijasida 2022-yilda “Uzbekistan:

Green Growth Strategic Framework” qabul qilingan bo‘lib, bu hujjat mamlakatda yashil o‘sish bo‘yicha chora-tadbirlarni tizimli yo‘lga qo‘yish imkonini yaratdi: energiya samaradorligi, qayta tiklanuvchi manbalarni rag‘batlantirish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish kabi yo‘nalishlar asosiy ahamiyatga ega[11]. O‘zbekiston sharoitida kichik bizneslar yashil iqtisodiyotga moslashishda muhim o‘rin tutadi: energiya tejamkorligi, qayta tiklanuvchi energiya loyihalariga integratsiya, “yashil ish o‘rinlari” yaratish imkoniyatlari katta. Shu bilan birga, moliyaviy vositalar (arzon kreditlar, grantlar), regulativ to‘siqlar va normativ-huquqiy bazaning kuchaytirilishi lozimligi ta’kidlanmoqda[12]. Shuningdek, yashil iqtisodiyot siyosati doirasida molya siyosati, soliqlar va subsidiya tizimlarida o‘zgarishlar kiritish muhim: zararli subsidiyalarni kamaytirish, atrof-muhitga zarar etkazuvchi faoliyatlarni soliq imtiyozlaridan chiqarish va yashil byudjet tuzish orqali investitsiyalarni ekologik jihatdan samarali yo‘nalishga jalb etish mumkin [13]. Tabiiy resurslardan foydalanish, sug‘oriluvchi erlar va suv resurslarini tejash, ekologik transport va toza texnologiyalarni joriy etish orqali O‘zbekiston yashil iqtisodiyot modeliga mos ravishda rivojlanish imkoniga ega.

Bunga qo‘shimcha ravishda, aholining ekologik savodxonligi va davlat boshqaruvida ham shaffoflikning oshirilishi zarur[14]. Keyingi taraqqiyot bosqichlarida iqtisodiy o‘sish va yashil iqtisodiyot o‘rtasidagi assimmetrik tafovutni kamaytirish mexanizmini ishlab chiqarish dolzarbligini saqlab qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. UNEP (2019). *Global Green New Deal: Policy Framework*. United Nations Environment Programme.
2. World Bank (2021). *World Development Report: Data for Better Lives*. Washington, DC.
3. OECD (2020). *Green Growth Indicators 2020*. Organisation for Economic Co-operation and Development.
4. https://www.unep.org/ru/node/20880?utm_source
5. United Nations Environment Programme (UNEP). *Green Economy Overview*. https://www.unep.org/ru/node/20880
6. *United Nations Environment Programme, Partnerships for an inclusive green economy are key to achieve the SDGs and the 2030 Agenda* https://www.unep.org/news-and-stories /news/partnerships-inclusive-green-economy-are-key-achieve-sdgs-and-2030-agenda
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 7-maydagi PF-5708-sonli Farmoni — “Yashil iqtisodiyotga o‘tish konsepsiyasi”
8. Samadova J., Xolliyev Sh. "Yashil iqtisodiyotga o‘tish va uning ahamiyati", YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT jurnali. https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/journal/index.php/GED/article/view/6587
9. Sputnik O‘zbekiston, 2024-yil 14-may - https://oz.sputniknews.uz/20240514/qayta-tiklanuvchi-energiya-energetika-vazir-43867077.html?utm_source
10. Kun.uz, 2024-yil 21-oktabr https://kun.uz/news/2024/10/21/ozbekistonda-8-ta-chiqindi-yoqish-zavodi-qurilishi-rejalashtirilmoqda
11. https://www.worldbank.org/en/results/2023/10/26/uzbekistan-realizing-an-inclusive-green-growth-transition.print?utm_source
12. https://green-eco.uz/index.php/GED/article/view/5906?utm_source
13. https://www.uzdaily.uz/en/uzbekistan-discusses-emission-reduction-and-green-budgeting-improvements/?utm_source
14. https://pstjournal.uz/index.php/pst/article/view/58?utm_source
15. Avji, A. A. (2024). *Perekhod Uzbekistana ot modeli ekonomicheskogo rosta k “zelenoy” ekonomike*. Innoist Journal. https://www.innoist.uz/index.php/ist/article/download/458/458/1303
16. Hallegatte, S., Heal, G., Fay, M., & Treguer, D. (2012). *From Growth to Green Growth: A Framework* (NBER Working Paper No. 17841). National Bureau of Economic Research. https://doi.org/10.3386/w17841
17. Stern, D. I. (2004). *The rise and fall of the environmental Kuznets curve*. World Development, 32(8), 1419–1439.

UDK: 336.7.368

MOLIYAVIY BARQARORLIK VA TO‘LOV QOBILIYATI SUG‘URTA KOMPANIYALARI: XALQARO VA MAHALLIY TAJRIBA O‘RTASIDAGI QIYOSIY TAHLIL

ФИНАНСОВАЯ УСТОЙЧИВОСТЬ И ПЛАТЕЖЕСПОСОБНОСТЬ СТРАХОВЫХ КОМПАНИЙ: СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ МЕЖДУНАРОДНОГО И МЕСТНОГО ОПЫТА

FINANCIAL STABILITY AND SOLVENCY OF INSURANCE COMPANIES: A COMPARATIVE ANALYSIS BETWEEN INTERNATIONAL AND LOCAL EXPERIENCE

Latipov Sarvar Ilxomjon o‘g‘li
“Uzbekinvest EISK” AJ moliya direktori

Annotatsiya

Ushbu maqolada sug‘urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligi va to‘lov qobiliyatini ta’minlash bo‘yicha xalqaro va mahalliy tajribalarni kompleks qiyosiy tahlil qilinadi. Zamonaviy tartibga solish yondashuvlari, xususan, Yevropa Ittifoqidagi Solvency II direktivasi va AQSh hamda Kanadadagi shunga o‘xshash amaliyotlar kabi xavfga yo‘naltirilgan standartlar ko‘rib chiqiladi. Yaponiya va Xitoy tajribasiga alohida e’tibor berilib, unda stress-testlar, ichki xavflarni baholash modellari va boshqaruv sifatini oshirish uchun innovatsion raqamli texnologiyalarni joriy etish faol qo‘llanilmoqda. Tahlil rivojlanayotgan mamlakatlar va o‘tish davri iqtisodiyotiga ega davlatlarning xususiyatlarini ham qamrab oladi, bu yerda sug‘urta sektori moliyaviy barqarorligi yetarlicha kapitallashuv darajasining pastligi va zaif normativ-huquqiy bazasi tufayli qiyinchiliklarga duch kelmoqda. Mahalliy bozor kontekstida minimal kapital talablarini oshirish choralari, moliyaviy barqarorlikni baholashning joriy usullari va xavflarni boshqarish xususiyatlari tahlil qilinadi. Qiyosiy tahlil asosida milliy sharoitlarda xalqaro amaliyotlarni moslashtirish uchun asosiy kamchiliklar va imkoniyatlar aniqlandi, shuningdek, tartibga solish tizimlarini rivojlantirish, to‘lov qobiliyatini baholash va zamonaviy xavflarni boshqarish vositalarini joriy etish bo‘yicha tavsiyalar berildi. Tadqiqot natijalari tartibga soluvchi organlar, sug‘urta kompaniyalari va moliyaviy menejment va sug‘urta sohasidagi tadqiqotchilar uchun foydali bo‘lishi mumkin.

Kalit so‘zlar: sug‘urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligi, to‘lov qobiliyati, xavfga yo‘naltirilgan tartibga solish, Solvency II, stress-testlar, xavflarni baholash modellari, qayta sug‘urtalash, sug‘urtada raqamli texnologiyalar.

В статье представлен комплексный сравнительный анализ международного и отечественного опыта обеспечения финансовой устойчивости и платежеспособности страховых компаний. Рассмотрены современные подходы к регулированию, в частности, риск-ориентированные стандарты, такие как Директива Solvency II в Европейском союзе и аналогичная практика США и Канады. Особое внимание уделено опыту Японии и Китая, где активно используются стресс-тесты, внутренние модели оценки рисков и внедрение инновационных цифровых технологий для повышения качества управления. Анализируются особенности развивающихся стран и стран с переходной экономикой, где финансовая устойчивость страхового сектора сталкивается с трудностями из-за низкого уровня достаточной капитализации и слабой нормативно-правовой базы. Анализируются меры по повышению минимальных требований к капиталу, современные методы оценки финансовой устойчивости и особенности управления рисками в контексте локального рынка. На основе сравнительного анализа выявляются основные недостатки и возможности адаптации международной практики к национальным условиям, а также даются рекомендации по развитию систем регулирования, оценке платежеспособности и внедрению современных

инструментов управления рисками. Результаты исследования могут быть полезны регулирующим органам, страховым компаниям и исследователям в области финансового менеджмента и страхования.

Ключевые слова: финансовая устойчивость страховых компаний, платежеспособность, риск-ориентированное регулирование, Solvency II, стресс-тесты, модели оценки рисков, перестрахование, цифровые технологии в страховании.

This article provides a comprehensive comparative analysis of international and domestic experiences in ensuring the financial stability and solvency of insurance companies. Modern regulatory approaches, in particular, risk-oriented standards such as the Solvency II Directive in the European Union and similar practices in the USA and Canada, are reviewed. Particular attention is paid to the experience of Japan and China, where stress tests, internal risk assessment models, and the introduction of innovative digital technologies to improve the quality of management are actively used. The analysis also covers the characteristics of developing countries and countries with economies in transition, where the financial stability of the insurance sector is facing difficulties due to a low level of sufficient capitalization and a weak regulatory framework. Measures to increase minimum capital requirements, current methods for assessing financial stability, and risk management features are analyzed in the context of the local market. Based on the comparative analysis, the main shortcomings and opportunities for adapting international practices to national conditions are identified, as well as recommendations for developing regulatory systems, assessing solvency, and introducing modern risk management tools are given. The results of the study may be useful for regulators, insurance companies, and researchers in the field of financial management and insurance.

Keywords: financial stability of insurance companies, solvency, risk-based regulation, Solvency II, stress tests, risk assessment models, reinsurance, digital technologies in insurance.

Sug‘urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligi va to‘lov qobiliyati ularning sug‘urtalovchilar, foyda oluvchilar va boshqa manfaatdor tomonlar oldidagi moliyaviy majburiyatlarini o‘z vaqtida va to‘liq bajarish qobiliyatini, shuningdek, sug‘urta bozorining uzoq muddatli barqaror ishlashi va barqarorligini ta’minlashning asosiy tushunchalaridir. Ushbu toifalar sug‘urta tashkilotining ichki va tashqi salbiy omillarga qarshi himoyalanish darajasini, shuningdek, qabul qilinadigan xavflar va moliyaviy resurslar o‘rtasidagi muvozanatni saqlash qobiliyatini aks ettiradi.

Jahon iqtisodiyotidagi zamonaviy rivojlanish bosqichi, globallashuv va milliy moliyaviy tizimlarning integratsiyasi jarayonlari, shuningdek, iqtisodiy sub’ektlarning o‘zaro bog‘liqligining ortishi bilan xarakterlanadi, bu esa sug‘urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligini ta’minlashni alohida ahamiyatga ega qiladi. Tashqi va ichki xavflarning dinamikasi va noaniqligining kuchayishi – masalan, makroiqtisodiy tebranishlar, moliyaviy bozorlarning o‘zgaruvchanligi, qonunchilik va tartibga solish muhitidagi o‘zgarishlar, texnologik innovatsiyalar va iste’molchilar xatti-harakatlaridagi o‘zgarishlar – sug‘urta institutlari uchun murakkab muammolar yaratmoqda. Ushbu muammolar ulardan nafaqat moslashuvchanlik va moslashishni, balki xavflarni baholash, boshqarish va minimallashtirishning ilg‘or mexanizmlarini joriy etishni talab qiladi.

Shu munosabat bilan, moliyaviy barqarorlikning nazariy-metodologik asoslarini chuqur tushunish va uni ta’minlashning amaliy vositalarini ishlab chiqish zarurati paydo bo‘lmoqda. Bu vositalar nafaqat sug‘urtalovchilar manfaatlarini himoya qilish, balki investorlar va jamoatchilikning sug‘urta tizimiga bo‘lgan ishonchini mustahkamlashga xizmat qiladi. Bunday sharoitda xalqaro tajribani tahlil qilish va uni milliy iqtisodiy va institutsional sharoitlarga moslashtirish orqali mahalliy sug‘urta sektorining samaradorligi va raqobatbardoshligini oshirish muhim yo‘nalish sifatida ko‘rinadi.

Makroiqtisodiy muhitning beqarorligi, moliyaviy bozorlardagi tebranishlar, tartibga solish talablaridagi o‘zgarishlar va texnologik transformatsiyalar sug‘urta sektori oldiga yangi muammolarni qo‘ymoqda, bu esa xavflarni baholash va boshqarishning samarali mexanizmlarini

talab qiladi. Ushbu kontekstda xalqaro tajriba to‘lov qobiliyati va moliyaviy barqarorlikni ta’minlash uchun keng ko‘lamli metodologik va amaliy yondashuvlarni namoyish etadi, jumladan, xavfga yo‘naltirilgan tartibga solish modellari, zamonaviy xavf baholash vositalari va raqamli texnologiyalarni qo‘llash.

Xalqaro amaliyotlarni tahlil qilish va ularni milliy sug‘urta bozori xususiyatlariga moslashtirish sug‘urta kompaniyalari va tartibga soluvchi organlarning strategik rivojlanishining muhim elementi sifatida ko‘rinadi. Bu nafaqat mijozlar va investorlarning manfaatlarini himoya qilish darajasini oshirish, balki sug‘urta sektorining barqaror o‘sishi va raqobatbardoshligi uchun shart-sharoitlar yaratish imkonini beradi. Ushbu maqola sug‘urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligi va to‘lov qobiliyatini ta’minlash bo‘yicha xalqaro va mahalliy tajribalarni tizimlashtirish va qiyosiy tahlil qilishga, shuningdek, eng yaxshi xalqaro amaliyotlarni milliy kontekstga integratsiyalash bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqishga qaratilgan.

Sug‘urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligi va to‘lov qobiliyatini ta’minlash zamonaviy sug‘urta bozorining asosiy vazifalaridan biri bo‘lib, bu moliyaviy tizimning barqarorligi va sug‘urtalovchilar manfaatlarini himoya qilishga bevosita bog‘liq. Globallashuv, milliy moliyaviy bozorlarning tezkor integratsiyasi, shuningdek, iqtisodiy xavflarning murakkablashishi va o‘zaro bog‘liqligining ortishi sharoitida sug‘urta tashkilotlarining ishonchliligi va barqarorligi masalalari alohida ahamiyat kasb etmoqda.

Zamonaviy iqtisodiy muhit moliyaviy bozorlarning yuqori o‘zgaruvchanligi, sezilarli makroiqtisodiy tebranishlar, qonunchilik va tartibga solish talablaridagi dinamik o‘zgarishlar bilan xarakterlanadi, bu esa sug‘urta sektori uchun murakkab muammolar yaratadi. Texnologik innovatsiyalar va iste’molchilar xatti-harakatlaridagi o‘zgarishlar sug‘urta kompaniyalarining faoliyat sharoitlarini yanada murakkablashtirib, ulardan moslashuvchanlikni oshirish va xavflarni baholash va boshqarishning zamonaviy yondashuvlarini joriy etishni talab qilmoqda.

Bunday sharoitda eng yaxshi xalqaro amaliyotlarni o‘rganish va qo‘llash moliyaviy barqarorlikni boshqarish samaradorligini oshirish uchun zarur vosita sifatida ko‘rinadi. Xavfga yo‘naltirilgan tartibga solish, raqamli texnologiyalar va ilg‘or analitik usullardan foydalanish bo‘yicha xalqaro tajriba milliy modellarni moslashtirish va to‘lov qobiliyatini ta’minlash vositalarini takomillashtirish uchun qimmatlidir.

Tadqiqotning dolzarbligi mavjud metodika va amaliyotlarni kompleks tahlil qilish, ularni qiyosiy baholash va xalqaro tajribani mahalliy amaliyotga integratsiyalash bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqish zarurati bilan bog‘liq. Bu sug‘urtalovchilar manfaatlarini himoya qilish darajasini oshirish, investorlar va tartibga soluvchilarning ishonchini mustahkamlash, shuningdek, sug‘urta sektorining uzoq muddatli barqarorligi va raqobatbardoshligini ta’minlash imkonini beradi.

Ushbu tadqiqot sug‘urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligi va to‘lov qobiliyatini ta’minlash bo‘yicha xalqaro va mahalliy tajribalarni tahlil qilish uchun nazariy va empirik usullardan foydalangan holda kompleks tizimli-analitik yondashuvga asoslanadi.

Tadqiqotning nazariy qismida ilmiy nashrlar, normativ-huquqiy hujjatlar, metodologik ishlanmalar va xalqaro hamda milliy tartibga soluvchilarning hisobot ma’lumotlari batafsil tahlil qilindi. Moliyaviy barqarorlikni baholash modellarining tasnifi va qiyosiy o‘rganilishi, shuningdek, sug‘urta sektorida xavflarni boshqarishning zamonaviy strategiyalariga alohida e’tibor berildi.

Empirik qism yetakchi xalqaro sug‘urta bozorlari va mahalliy sug‘urta industriyasida qo‘llaniladigan amaliy vositalar va metodikalarni tizimlashtirish va qiyosiy tahlil qilishni o‘z ichiga oldi. Buning uchun sug‘urta kompaniyalarining ochiq ma’lumotlari, xalqaro tashkilotlarning hisobotlari (jumladan, Xalqaro Valyuta Jamg‘armasi, Jahon banki, Xalqaro sug‘urta nazorati organlari assotsiatsiyasi) va ekspert intervyulari hamda analitik sharhlar natijalaridan foydalanildi.

Qiyosiy tahlil usullari moliyaviy barqarorlikni ta’minlash, to‘lov qobiliyatini baholash va xavflarni boshqarish yondashuvlaridagi asosiy o‘xshashliklar va farqlarni aniqlash imkonini berdi. Shu bilan birga, xalqaro modellarni milliy iqtisodiy va institutsional kontekstga moslashtirishga alohida e’tibor qaratildi.

Natijalarning ob’ektivligi va ishonchliligini oshirish uchun ma’lumotlarni tanqidiy tahlil va sintez usullari, shuningdek, normativ hujjatlar va metodik tavsiyalarni kontent-tahlil qilish

qo‘llanildi. Qo‘shimcha vosita sifatida ma’lumotlarni jadval va grafik shaklida vizualizatsiya qilishdan foydalanildi, bu aniqlangan tendensiyalarni tizimli va aniq ko‘rsatishga yordam berdi.

Tadqiqot metodologiyasi moliyaviy barqarorlikni baholashning nazariy-metodologik asoslarini aniqlash, shuningdek, eng yaxshi xalqaro amaliyotlarni milliy sug‘urta nazorati va korporativ boshqaruv tizimiga integratsiyalash bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqish imkonini beruvchi kompleks yondashuvni ta’minlaydi.

Sug‘urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligi va to‘lov qobiliyati sug‘urta bozorining barqaror ishlashi va sug‘urtalovchilar manfaatlarini himoya qilishning asosiy omillari hisoblanadi. Biroq, globallashuv sharoitida moliyaviy bozorlarning o‘zgaruvchanligining kuchayishi va normativ-huquqiy bazaning murakkablashishi mahalliy sug‘urta sektori oldida jiddiy muammolar yaratmoqda. Moliyaviy barqarorlikni baholash va xavflarni boshqarish sohasidagi ko‘plab nazariy va amaliy ishlanmalarga qaramay, xalqaro tajribani milliy realliklarga tizimli moslashtirish va tizimlashtirish etishmayapti.

Ilmiy muammoning murakkabligi mahalliy sug‘urta bozori xususiyatlarini, shuningdek, sug‘urta tashkilotlarining faoliyatida tez o‘zgaruvchan tashqi va ichki sharoitlarni samarali hisobga oladigan universal va bir vaqtda moslashuvchan modellar va strategiyalarni ishlab chiqish zaruriyatidadir. Miqdoriy va sifat ko‘rsatkichlarini hisobga oluvchi yagona integratsiyalashgan metodologiyaning yo‘qligi moliyaviy xavflarni monitoring qilish va boshqarishning samarali tizimini shakllantirishga to‘sqinlik qilmoqda.

Bundan tashqari, zamonaviy raqamli texnologiyalar va analitik vositalarni joriy etish xavflarni boshqarish sifatini oshirish uchun katta imkoniyatlarni taqdim etsa-da, ularning sug‘urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligiga ta’sirini chuqur ilmiy o‘rganish va baholashni talab qiladi. Shu munosabat bilan, xalqaro va mahalliy amaliyotlarni kompleks qiyosiy tahlil qilish orqali sug‘urta sektorining barqaror rivojlanishini ta’minlovchi eng samarali yondashuvlar va mexanizmlarni aniqlash zarurati yuzaga kelmoqda.

Ilmiy muammo milliy iqtisodiy muhit xususiyatlari va global moliyaviy bozorning zamonaviy muammolarini hisobga olgan holda, sug‘urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligini baholash va boshqarish tizimiga eng yaxshi xalqaro amaliyotlarni integratsiyalash bo‘yicha metodologik asoslar va amaliy tavsiyalarni ishlab chiqish va asoslashdan iborat.

Global moliyaviy bozorlarning globallashuvi va iqtisodiy jarayonlarning beqarorligi sharoitida sug‘urta tashkilotlarining barqarorligini ta’minlash tartibga soluvchi organlar faoliyatining asosiy yo‘nalishi sifatida ko‘rinadi. Xalqaro amaliyot tizimli xavflarni minimallashtirish, to‘lov qobiliyatini oshirish va iste’molchilar ishonchini mustahkamlash uchun ishlatiladigan turli xil nazorat modellari va vositalarini ko‘rsatadi. Xalqaro tajribani tahlil qilish iqtisodiy rivojlanish darajasi, sug‘urta sektorining yetukligi va institutsional tuzilishga qarab shakllangan bir nechta tipologik yondashuvlarni ajratib ko‘rsatishga imkon beradi.

Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida Solvency II direktivasi amal qiladi, bu sug‘urta (va qayta sug‘urtalash) tashkilotlarining moliyaviy barqarorligini ta’minlashga qaratilgan ko‘p bosqichli tartibga solish arxitekturasini ifodalaydi. Modelning asosini keng ko‘lamli xavflarni (bozor, kredit, operatsion va sug‘urta xavflari) hisobga oluvchi stoxastik modellar asosida kapital talablarini miqdoriy baholash tashkil etadi [1]. Shu bilan birga, kompaniya hajmi va xavf profiliga qarab normativ yuklamalarni moslashtirish imkonini beruvchi mutanosiblik prinsipi qo‘llaniladi.

Solvency II’ning muhim tarkibiy qismi sug‘urta kompaniyalari tomonidan ishlab chiqilgan va tartibga soluvchilar tomonidan tasdiqlanadigan ichki modellaridan foydalanish imkoniyatidir. Bu korporativ xavflarni boshqarish tizimlarini rivojlantirishni rag‘batlantiradi va kapitalni rejalashtirish va stress-testlarni yanada moslashuvchan tarzda amalga oshirishga imkon beradi.

AQShda xavfga asoslangan kapital (RBC) tizimi qo‘llaniladi, bu sug‘urta kompaniyasining faoliyat xususiyatlarini hisobga olgan holda standart formulalar va koeffitsientlar yordamida xavflarni miqdoriy baholashga yo‘naltirilgan. RBC to‘lov qobiliyati bilan bog‘liq potentsial muammolarni erta ogohlantirish vositasi sifatida ishlatiladi [2].

Kanada Moliyaviy institutlar nazorati boshqarmasi (OSFI) tomonidan ishlab chiqilgan Supervisory Framework deb nomlangan nazorat modelini qo‘llaydi, bu professional hukm va xavfni

baholash prinsiplariga asoslanadi. Ushbu modelda boshqaruvning sifatli xususiyatlari, biznes modelining barqarorligi va sug‘urta tashkilotining o‘zgaruvchan bozor sharoitlariga moslashish qobiliyatiga alohida e’tibor beriladi.

Yaponiya sug‘urta bozori yuqori darajadagi institutsional yetuklik va Moliyaviy xizmatlar agentligi (FSA) tomonidan amalga oshiriladigan ko‘p bosqichli tartibga solish tizimi bilan xarakterlanadi. Asosiy vosita sifatida stress-testlash qo‘llaniladi, bu sug‘urta kompaniyalarining ekstremal iqtisodiy shoklarga barqarorligini baholash imkonini beradi [3].

Bundan tashqari, Yaponiya xavflarni baholash va boshqarish jarayonlarida innovatsion raqamli texnologiyalarni faol joriy etmoqda. Sun’iy intellekt, mashinaviy o‘qitish va katta ma’lumotlarni tahlil qilish maqsadli anderrayting baholash, zararlarning avtomatlashtirilgan tartibga solinishi va mijozlar xizmatining sifatini oshirish uchun qo‘llanilmoqda.

Xitoy sug‘urta bozori intensiv o‘sish bosqichida bo‘lib, tizimli transformatsiya va nazorat tizimini isloh qilish bilan birga kelmoqda. Asosiy yo‘nalishlardan biri Solvency II prinsiplarini milliy sharoitlarga moslashtirilgan C-ROSS (China Risk-Oriented Solvency System) modelini joriy etishdir [4].

Kapital va likvidlik talablarini kuchaytirish bilan birga, Xitoy tartibga soluvchilari ichki nazoratni rivojlantirish va strategik qayta sug‘urtalashni ilgari surmoqda. Raqamlashtirish, onlayn platformalar yaratish, mijozlar bilan avtomatlashtirilgan interfeyslar va xavflarni baholashning algoritmik tizimlari muhim tendensiya sifatida ko‘rinadi.

Rivojlanayotgan mamlakatlarda sug‘urta sektori ko‘pincha institutsional va infratuzilmaviy cheklovlarga duch keladi. Past kapitallashuv, analitik vositalarga cheklangan kirish va zaif normativ baza xavfga yo‘naltirilgan tartibga solishning to‘liq ishlashiga to‘sqinlik qiladi. Bunday sharoitlarda Xalqaro Valyuta Jamg‘armasi, Jahon banki va IAIS kabi xalqaro tashkilotlar xavflarni baholash va boshqarish bo‘yicha asosiy normativlarni ishlab chiqishda ekspert yordami ko‘rsatadi [5].

Amalda bunday yurisdiktsiyalarda sug‘urta kompaniyalari soddalashtirilgan barqarorlik modellarini qo‘llaydi, shuningdek, xavflarni diversifikatsiya qilish va kapital talablarini kamaytirish usuli sifatida xalqaro qayta sug‘urtalash shartnomalaridan keng foydalanadi.

O‘tish davri iqtisodiyotiga ega mamlakatlar, jumladan, Sharqiy Yevropa va Markaziy Osiyo davlatlari xalqaro nazorat standartlariga asta-sekin yaqinlashmoqda. Biroq, moliyaviy bozorlarning o‘zgaruvchanligi, makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarning beqarorligi va huquqiy noaniqlik jiddiy cheklovchi omillar bo‘lib qolmoqda.

Bunday sharoitlarda davlat organlari sug‘urta sektorining moliyaviy barqarorligini ta’minlashda asosiy rol o‘ynaydi – sug‘urta kafolatlari mexanizmlari, davlat qayta sug‘urtalash yordami va xalqaro amaliyotlarni moslashtirishga ko‘maklashish orqali. Xavfga yo‘naltirilgan tartibga solishni joriy etish asta-sekin amalga oshiriladi va sezilarli institutsional sa’y-harakatlarni talab qiladi.

Sug‘urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligini baholash ichki xavflarni boshqarish va tashqi tartibga solish nazoratining asosiy jihatlaridan biridir. Jahon amaliyotida moliyaviy nochorlik ehtimolini, stress omillariga barqarorlikni va kompaniyalarning sug‘urtalovchilar oldidagi majburiyatlarini bajarish qobiliyatini baholashga qaratilgan keng ko‘lamli miqdoriy va sifatli modellar ishlab chiqilgan. Shu bilan birga, sug‘urta biznesining o‘ziga xos xususiyatlari – texnik zaxiralarining yuqori ulushi, majburiyatlarning uzoq muddatliligi va aktuarial hisob-kitoblarga bog‘liqligi – moliyaviy holatni tahlil qilishning umumiy metodikalarini moslashtirishni talab qiladi.

Eng mashhur va keng qo‘llaniladigan modellar qatorida Edvard Altman tomonidan ishlab chiqilgan Z-model (Altman Z-Score) bor, bu dastlab sanoat korxonalari uchun mo‘ljallangan. Ushbu model bir nechta moliyaviy koeffitsientlarning (aktivlarning rentabelligi, aylanma, likvidlik va kapitalning bozor qiymati kabi) chiziqli kombinatsiyasini ifodalaydi va kompaniyalarni bankrotlik xavfi darajasiga ko‘ra tasniflaydi.

Modelning sanoat xususiyatlariga qaramay, so‘nggi yillarda sug‘urta kompaniyalari uchun moslashtirilgan Z-model versiyalari faol rivojlanmoqda. Moslashtirilgan modellar sug‘urta zaxiralari darajasi, qayta sug‘urtalangan xavflarning ulushi, kombinatsiyalangan zarar koeffitsientlari va investitsiya portfelining tuzilishi kabi o‘ziga xos ko‘rsatkichlarni hisobga oladi. Amaliyot shuni

ko‘rsatadiki, moslashtirilgan Z-modellar sug‘urtalovchining moliyaviy barqarorligini ichki monitoring qilish uchun samarali vosita bo‘lishi mumkin, shuningdek, tashqi investorlar va reyting agentliklari uchun yo‘l-yo‘riq sifatida xizmat qiladi.

Miqdoriy bankrotlik modellaridan tashqari, xalqaro nazorat amaliyotida moliyaviy va no-moliyaviy ko‘rsatkichlarni birlashtiruvchi kompleks reyting tizimlari faol qo‘llaniladi. Eng nufuzli tizimlardan biri AQSh va bir qator Yevropa mamlakatlarida tartibga soluvchilar tomonidan sug‘urta (va bank) tashkilotlarining moliyaviy holatini baholash uchun qo‘llaniladigan CAMELS metodikasidir.

CAMELS abbreviaturasi quyidagicha ochiladi:

• C (Capital adequacy) – kapitalning yetarliligi;

• A (Asset quality) – aktivlarning sifati;

• M (Management quality) – boshqaruvning samaradorligi;

• E (Earnings) – foydaning barqarorligi va rentabelligi;

• L (Liquidity) – likvidlik va majburiyatlarni o‘z vaqtida bajarish qobiliyati;

• S (Sensitivity to market risk) – bozor xavfilariga sezgirlik (foiz stavkasi xavfi, valyuta xavfi va aktivlar qiymatining o‘zgarishi xavfini o‘z ichiga oladi).

Har bir komponent odatda 1 dan 5 gacha bo‘lgan shkala bo‘yicha baholanadi, bunda pastroq ball barqarorroq holatni ko‘rsatadi. Natijada, tuzilgan integratsion baholash tartibga soluvchi organlar tomonidan tuzatish choralarini ko‘rish, qattiqroq nazoratni joriy etish yoki boshqa aralashuvlar zarurligini aniqlash uchun qo‘llaniladi.

Shuni ta’kidlash kerakki, CAMELS dastlab bank sektori uchun mo‘ljallangan bo‘lsa-da, sug‘urta sanoati ehtiyojlari uchun moslashtirildi. Sug‘urta kontekstida tizimga qo‘shimcha ko‘rsatkichlar qo‘shiladi, masalan:

• sug‘urta zaxiralarining yetarlilik darajasi;

• zarar koeffitsientlari (loss ratio, combined ratio);

• anderrayting tuzilishi;

• investitsiya portfelining diversifikatsiyasi;

• qayta sug‘urtalash himoyasi darajasi.

CAMELS ko‘p omilli model bo‘lib, sug‘urta tashkilotining barqarorligini miqdoriy va sifatli baholashni ta’minlaydi va milliy tartibga soluvchilar, shuningdek, Xalqaro Valyuta Jamg‘armasi va Jahon banki kabi xalqaro tashkilotlar tomonidan moliyaviy sektor baholashlarida (FSAP) faol qo‘llaniladi.

Asosiy baholash yondashuvlarini qo‘llashdagi farqlarni va xususiyatlarini tizimlashtirish uchun moslashtirilgan Altman modeli va CAMELS reyting tizimining qiyosiy tahlili keltiriladi (1-jadvalga qarang).

1-jadval

Sug‘urta tashkilotlarining moliyaviy barqarorligini baholash modellarining qiyosiy tahlili

Kriteriy	**Moslashtirilgan Altman modeli**	**CAMELS tizimi (sug‘urta kontekstida)**
Model turi	Miqdoriy	Miqdoriy va sifatli kombinatsiyasi
Asosiy maqsad	Bankrotlik ehtimolini prognoz qilish	Moliyaviy barqarorlikni kompleks baholash
Metodologiya	Koeffitsientlarga asoslangan matematik model	Ball shkalasi bilan ekspert baholash
Asosiy ko‘rsatkichlar	Foydalilik, likvidlik, leverage, aktivlar	Kapital, aktivlar, boshqaruv, daromad, likvidlik, xavflarga sezgirlik
Sug‘urta xususiyatlarini hisobga olish	Moslashtirilgan ver-siyalarda – ha (zaxiralar, zararlar va boshqalar)	Ha, sug‘urta metrikalarini o‘z ichiga oladi (combined ratio, anderrayting va boshqalar)
Sug‘urta sektorida qo‘llanilishi	O‘rtacha – moslashtirish talab qilinadi	Yuqori – sug‘urta nazoratida keng qo‘llaniladi

Kriteriy	Moslashtirilgan Altman modeli	CAMELS tizimi (sug‘urta kontekstida)
Joriy etish murakkabligi	Nisbatan past	O‘rtacha – boshqaruv va xavflarni malakali baholashni talab qiladi
Nazoratda foydalanish	Cheklangan (asosan ichki tahlil)	Tartibga soluvchilar tomonidan keng qo‘llaniladi (masalan, AQSh, Yevropa Ittifoqida)
Tashqi foydalanuvchilar uchun ma’lumotlilik	To‘g‘ri moslashtirilganda yuqori	Yuqori – reyting agentliklari va investorlar tomonidan qo‘llaniladi

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, har ikkala model sug‘urta tashkilotlarining moliyaviy barqarorligini baholash tizimida muhim rol o‘ynaydi, lekin turli maqsadlar va kontekstlarda qo‘llaniladi. Altman modeli bankrotlik xavfini miqdoriy baholash uchun afzalroq bo‘lsa, CAMELS boshqaruv va operatsion xususiyatlarni o‘z ichiga olgan ko‘p jihatli nazorat tahliliga yo‘naltirilgan.

Ushbu yondashuvlarni integratsiyalash, shuningdek, stress-testlar va raqamli analitika usullari bilan to‘ldirish sug‘urtalovchining joriy holati va istiqbollari haqida yanada to‘liq tasavvur hosil qilishga imkon beradi.

Sug‘urta tashkilotlarining moliyaviy barqarorligini baholash sohasidagi zamonaviy tendensiyalar faqat retrospektiv, statik modellaridan voz kechib, an’anaviy miqdoriy usullarni ilg‘or analitik vositalar bilan birlashtiruvchi integrativ analitik tizimlarga o‘tishni ko‘rsatmoqda. Bunday transformatsiya moliyaviy bozorlarning o‘zgaruvchanligining kuchayishi, tizimli xavflarning o‘sishi, tartibga soluvchilar talablarining kuchayishi va noaniqlik sharoitida biznesning barqarorligini aniqroq prognoz qilish zarurati bilan bog‘liq.

Rivojlanishning asosiy yo‘nalishlaridan biri moslashuvchan va adaptiv barqarorlikni baholash modellarini yaratish uchun mashinaviy o‘qitish, sun’iy intellekt (AI) va katta ma’lumotlarni tahlil qilish (Big Data) texnologiyalaridan foydalanishdir. Bunday yondashuvlar quyidagilarni ta’minlaydi:

• tarixiy moliyaviy ko‘rsatkichlar bilan birga xatti-harakat, bozor va makroiqtisodiy parametrlarni hisobga olish;

• chiziqli modellar doirasida har doim ham aniq bo‘lmagan ko‘rsatkichlar o‘rtasidagi yashirin bog‘liqliklarni aniqlash;

• tashqi muhit va sug‘urta kompaniyasining ichki xususiyatlaridagi o‘zgarishlarga real vaqtda javob beradigan prognoz stsenariylarini yangilash;

• yangiliklar, mijozlar sharhlari, tartibga solish hisobotlari kabi tartibsiz, tuzilmagan ma’lumot manbalaridan foydalanish, bu modellarning tashqi xavflarga sezgirligini oshiradi.

Bunday yondashuv barqarorlik profilini dinamik modellashtirishni ta’minlaydi, bu sug‘urtalovchiga nafaqat o‘zgarishlarga javob berish, balki xavflar va kapitalni proaktiv boshqarish imkonini beradi.

Ilg‘or barqarorlikni baholashning muhim elementi stsenariy modellashtirishga asoslangan dinamik stress-testlardir. An’anaviy stress-testlardan farqli o‘laroq, ular ekstremal, lekin qat’iy makroiqtisodiy parametrlar qiymatlarida kompaniya barqarorligini bir marta tekshirishni nazarda tutsa, dinamik testlar asosiy moliyaviy metrikalarning vaqt o‘tishi bilan turli stsenariylar rivojlanishiga qarab xatti-harakatlarini modellashtirishga imkon beradi.

Bunday modellashtirish standart shoklarni (masalan, fond bozorining pasayishi, stavkalarning o‘sishi, mijozlarning chiqib ketishi) yoki makroiqtisodiy, geosiyosiy va texnologik muammolarni birlashtirgan kompleks ko‘p omilli stsenariylarni o‘z ichiga olishi mumkin. Ushbu vositalarni qo‘llash quyidagilarni ta’minlaydi:

• sug‘urtalovchining biznes modelining uzoq muddatli barqarorligini baholash;

• qayta sug‘urtalash, xedj qilish va likvidlikni boshqarish strategiyalarining samaradorligini sinovdan o‘tkazish;

• yuqori sezgirlik zonalarini (risk hotspots) aniqlash va oldindan choralar ishlab chiqish.

Dinamik stress-testlash ichki xavf-menejment doirasida, shuningdek, nazorat organlari amaliyotida (masalan, Yevropa Ittifoqidagi ORSA – Own Risk and Solvency Assessment va boshqa yurisdiktsiyalardagi shunga o‘xshash mexanizmlar) faol joriy etilmoqda.

Raqamli va analitik innovatsiyalar bilan bir qatorda, ESG (Environmental, Social, Governance) kontseptsiyasiga asoslangan yondashuvlar tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu modellar biznesning ekologik barqarorligi, ijtimoiy mas’uliyat va korporativ boshqaruv sifati bilan bog‘liq omillarni kompleks baholashga yo‘naltirilgan.

Sug‘urta sanoati kontekstida ESG yondashuvlari quyidagi jihatlarda qo‘llaniladi:

• investitsiya portfelining iqlim va tartibga solish xavflariga barqarorligini baholash;

• ijtimoiy omillarni, jumladan, obro‘-e’tibor xavflari, mijozlarga munosabat, mehnat huquqlari va inklyuziya standartlariga rioya qilishni hisobga olish;

• boshqaruv sifati, qaror qabul qilishning shaffofligi, mustaqil nazorat mavjudligi va korruptsiyaga qarshi siyosatni tahlil qilish.

Tartibga soluvchilar ESG omillarini to‘lov qobiliyati va barqarorlikni baholash tizimlariga integratsiyalashni tobora ko‘proq talab qilmoqda. Masalan, Yevropa Komissiyasi barqaror moliyalashtirish tashabbusi doirasida sug‘urta kompaniyalaridan ESG xavflari haqida ma’lumotni oshkor qilishni talab qilmoqda. Xuddi shunday, Xalqaro sug‘urta nazorati organlari assotsiatsiyasi (IAIS) kapital va zaxiralarni hisoblashda iqlim va ekologik xavflarni hisobga olish zarurligiga e’tibor qaratmoqda.

Barqarorlikni baholashdagi innovatsion yondashuvlar tor moliyaviy tahlildan tashqariga chiqib, texnologik vositalar, strategik rejalashtirish va barqaror rivojlanish prinsiplarini birlashtiruvchi ko‘p bosqichli baholash tizimini shakllantiradi. Bu paradigma sug‘urta sektorining rolini – zararlar kompensatori sifatidan global moliyaviy va ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashda faol ishtirokchiga aylanishini aks ettiradi.

Samarali xavflarni boshqarish tizimi korporativ boshqaruvning ajralmas elementi bo‘lib, sug‘urta tashkilotlarining uzoq muddatli moliyaviy barqarorligini ta’minlaydi. Global o‘zgaruvchanlik, sug‘urta portfelining tuzilishining murakkablashishi va tartibga solish talablarining qattiqlashishi sharoitida xavf-menejmentning yangi landshafti shakllanmoqda, unda an’anaviy vositalarni (qayta sug‘urtalash, diversifikatsiya, xedj qilish) raqamli texnologiyalar va ma’lumotlar analitikasi bilan birlashtiruvchi kompleks strategiyalar muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Zamonaviy xavflarni boshqarish strategiyalari bir necha asoslar bo‘yicha tasniflanadi: ta’sir ob’ekti (sug‘urta, moliyaviy va operatsion xavflar), xavfni o‘tkazish yoki cheklash usullari va raqamli texnologiyalardan foydalanish darajasi bo‘yicha.

Rivojlangan sug‘urta tizimlarida ushbu strategiyalar miqdoriy baholash va o‘tkazish usullari, shuningdek, nazorat va nazoratning sifatli elementlarini o‘z ichiga oluvchi ko‘p bosqichli xavflarni boshqarish modelini shakllantiradi.

2-jadval

Sug‘urta kompaniyalarida xavflarni boshqarish strategiyalarining qiyosiy tahlili

Strategiya	**Maqsad**	**Asosiy vositalar**	**Afzalliklar**	**Cheklovlar**	**Qo‘llanilishi**
Diversifikatsiya	Xavflarni konsentratsiyasini kamaytirish	Mahsulot liniyasini kengaytirish, geografiya, mijozlar bazasi	Foydaning barqarorligi, tizimli xavflarni kamaytirish	Masshtablar, yuqori analitik xarajatlarni talab qiladi	Yuqori
Qayta sug‘ur-talash	Xavflarning bir qismini tashqi kontragent-larga o‘tkazish	Fakultativ va obligator, kvotali va excess-loss shartnomalar	Zararni kamaytirish, kapitalni himoya qilish, analitikaga kirish	Shartnoma narxi, kontragent xavflari	Juda yuqori

Xedj qilish	Bozor (moliyaviy) xavflaridan himoya	Derivativlar: svoplar, fyucherslar, optsionlar, duryatsiyani boshqarish	Investitsiya daromadlarini barqarorlashtirish, inflyatsiya va o‘zgaruvchanlikdan himoya	Murakkablik, tartibga solish cheklovlari, tajriba zarurati	O‘rtacha
Raqamli analitika	Xavflarni baholash va boshqarish-ning aniqligini oshirish	AI, Big Data, mashinaviy o‘qitish, IoT, xatti-harakatlar tahlili	Samaradorlikni oshirish, xarajatlarni kamaytirish	Joriy etishning yuqori narxi, malakali kadrlar zarurati	Yuqori

So‘nggi yillarda xavf-menejment jarayonlariga raqamli yechimlarni integratsiyalashga alohida e’tibor qaratilmoqda. Sun’iy intellekt, mashinaviy o‘qitish va katta ma’lumotlarni tahlil qilish texnologiyalari sug‘urta kompaniyalariga quyidagilarni ta’minlaydi:

• xavf parametrlarining yashirin bog‘liqliklarini aniqlash;

• anderrayting va skoring jarayonlarini avtomatlashtirish;

• tashqi shoklarga tezkor javob berish;

• sug‘urta hodisalari ehtimolini baholashning individual modellarini qurish.

Bundan tashqari, narsalar interneti (IoT) texnologiyalari sug‘urtalangan ob’ektlar holatini doimiy monitoring qilish imkonini beradi, bu zararlar ehtimolini kamaytiradi va tarif hisob-kitoblarining aniqligini oshiradi.

Zamonaviy sug‘urta amaliyoti alohida strategiyalarni izolyatsiya qilingan holda qo‘llashga emas, balki ularni yagona xavflarni boshqarish tizimiga (ERM – Enterprise Risk Management) integratsiyalashga yo‘naltirilgan. Bunday tizim quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

• qayta sug‘urtalash siyosatini falkat xavflarni baholashning raqamli modellari bilan muvofiqlashtirish;

• sug‘urta majburiyatlarining duryatsiyasini hisobga olgan holda investitsiya siyosatida xedj qilishni qo‘llash;

• anderrayting va zararlar tartibga solinishi jarayonlarida raqamli analitikadan foydalanish va og‘ishlarni avtomatlashtirilgan nazorat qilish.

Turli strategiyalarni integratsiyalash qisqa va uzoq muddatli istiqbolda barqarorlikka yordam beruvchi xavflarni boshqarishning muvozanatli yondashuvini ta’minlaydi.

Xavflarning murakkablashishi va o‘zaro bog‘liqligining ortishi sharoitida reaktiv boshqaruvdan an’anaviy va raqamli vositalarni integratsiyalashga asoslangan proaktiv boshqaruvga o‘tish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Zamonaviy xavflarni boshqarish strategiyalari korporativ strategiya va madaniyatning bir qismi sifatida ko‘rilishi kerak, bu barqaror o‘sishga erishish, normativ talablarga rioya qilish va sug‘urta kompaniyasining raqobatbardoshligini oshirishga yordam beradi.

So‘nggi yillarda O‘zbekiston sug‘urta sektori bozor iqtisodiyoti shakllanishi sharoitida uning barqarorligi va raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan sezilarli tizimli o‘zgarishlarni boshdan kechirmoqda. Bu yo‘nalishdagi asosiy qadamlardan biri 2019-yilda qabul qilingan qaror bo‘lib, u sug‘urta kompaniyalarining ustav kapitaliga qo‘yiladigan minimal talablarni sezilarli darajada oshirdi. Ushbu chora sug‘urtalovchilarning moliyaviy bazasini mustahkamlash va tashqi va ichki moliyaviy shoklarga qarshi turish qobiliyatini oshirishga qaratildi. Natijada, ushbu tartibga solish bozor ishtirokchilarining bir qismining kapital ta’minotini yaxshilashga yordam berdi va ularning to‘lov qobiliyatini oshirish uchun zamin yaratdi.

Biroq, ijobiy dinamikaga qaramay, O‘zbekistondagi sug‘urta tashkilotlarining kapitallashuv darajasi rivojlangan moliyaviy tizimlarga ega mamlakatlarga nisbatan past bo‘lib qolmoqda. Bu kompleks xavflarni boshqarish mexanizmlarini joriy etish imkoniyatlarini ob’ektiv ravishda cheklaydi va sug‘urta kompaniyalarining operatsion faoliyatining samaradorligini pasaytiradi. Bundan tashqari, moliyaviy barqarorlikni baholashning konservativ usullariga yuqori darajada

bog‘liqlik saqlanib qolmoqda, bu esa integratsiyalashgan analitik tizimlarning yetarlicha rivojlanmaganligi va innovatsion moliyaviy vositalarni qo‘llashning cheklangan amaliyoti bilan bog‘liq.

Moliyaviy barqarorlikni baholash metodologiyasi nuqtai nazaridan O‘zbekistonda likvidlik, rentabellik va to‘lov qobiliyati kabi asosiy moliyaviy koeffitsientlarni tahlil qilishni o‘z ichiga oluvchi kompleks yondashuvlar qo‘llanilmoqda. Ushbu tahlil sug‘urtalovchilarning moliyaviy holatidagi zaif tomonlarni aniqlash va ularni bartaraf etish bo‘yicha tezkor choralar ko‘rish imkonini beradi. Biroq, mahalliy amaliyot miqdoriy va sifat ko‘rsatkichlarini yagona prognoz modellarida birlashtiruvchi tizimli integratsiyalashgan yondashuvning yo‘qligi bilan xarakterlanadi. Bu potentsial xavflarni o‘z vaqtida aniqlashda bo‘shliqlarni keltirib chiqaradi va qabul qilinadigan boshqaruv qarorlarining sifatini pasaytiradi.

Xavflarni boshqarish nuqtai nazaridan O‘zbekiston sug‘urta kompaniyalari operatsion va moliyaviy xavflarni kamaytirishning muhim elementi sifatida qayta sug‘urtalash va sug‘urta portfelini diversifikatsiya qilish kabi asosiy vositalardan foydalana boshladi. Shu bilan birga, xalqaro analoglarga nisbatan mahalliy sug‘urtalovchilar zamonaviy moliyaviy xedj qilish vositalarini va innovatsion raqamli texnologiyalarni qo‘llashda sezilarli darajada cheklangan. Xavflarni boshqarish jarayonlarining raqamlashtirish va avtomatlashtirish darajasining pastligi bozor kon’yunkturasidagi o‘zgarishlarga tezkor javob berishni cheklaydi va moliyaviy barqarorlikni oshirish potentsialini pasaytiradi.

3-jadval

Xalqaro va mahalliy tajribaning qiyosiy tahlili

Parametr	Xalqaro tajriba	Mahalliy tajriba
Tartibga solish	Solvency II kabi xavfga yo‘naltirilgan yondashuvlar joriy etilishi, sug‘urta kompaniyalarining barqarorligini baholash uchun muntazam stress-testlar o‘tkazilishi. Tartibga soluvchi organlar xavflarni proaktiv aniqlash va boshqarishga yo‘naltirilgan.	Moliyaviy bazani mustahkamlash uchun ustav kapitaliga minimal talablarni oshirish, ammo xavfga yo‘naltirilgan tartibga solishning kompleks tizimi yo‘q.
Moliyaviy barqarorlikni baholash	Altman modeli, CAMELS tizimi va ichki modellar, stress-testlar kabi ko‘p omilli baholash modellaridan foydalanish, sug‘urtalovchilarning moliyaviy holatini kompleks tahlil qilish va mumkin bo‘lgan inqirozli vaziyatlarni prognoz qilish imkonini beradi.	Kompleks, ammo qamrov va integratsiya bo‘yicha cheklangan usullarni qo‘llash, asosan moliyaviy koeffitsientlarga asoslanadi, ko‘p jihatli omillar va stsenariy tahlilini hisobga olmaydi.
Xavflarni boshqarish	Diversifikatsiya, qayta sug‘urtalash, xedj qilish va raqamli texnologiyalarni (Big Data, mashinaviy o‘qitish, blokcheyn) keng qo‘llash xavflarni baholashning aniqligini oshiradi va boshqaruv jarayonlarini avtomatlashtiradi.	An’anaviy usullarni (qayta sug‘urtalash, portfel diversifikatsiyasi) qo‘llash, zamonaviy moliyaviy vositalar va raqamli yechimlarning cheklangan joriy etilishi tufayli xavflarni boshqarishning moslashuvchanligi va samaradorligi pasayadi.

Qiyosiy tahlil natijalari O‘zbekiston sug‘urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligini tartibga solish va boshqarish tizimiga xalqaro tajribani yanada rivojlantirish va integratsiyalash zarurligini ko‘rsatadi. Xavfga yo‘naltirilgan tartibga solish modellarini joriy etish, zamonaviy analitik vositalardan foydalangan holda baholash metodikalarini kengaytirish va raqamli texnologiyalarni

faol qo‘llash mahalliy sug‘urta sektorining sifatini va barqarorligini raqobat va globallashuv sharoitida oshirishga qodir.

O‘tkazilgan tadqiqot sug‘urta tashkilotlarining moliyaviy barqarorligi va to‘lov qobiliyatini ta’minlash bo‘yicha zamonaviy yondashuvlarning to‘liq tasavvurini shakllantirishga imkon berdi, bu sohada xalqaro va mahalliy tajribalarni ochib berdi. Xalqaro amaliyot tahlili Yevropa Ittifoqidagi Solvency II, AQShdagi RBC, Kanadadagi Supervisory Framework va Xitoydagi C-ROSS kabi yetuk, ko‘p bosqichli tartibga solish tizimlarining mavjudligini ko‘rsatdi, ularning har biri xavfga yo‘naltirilgan yondashuv, kapitalni baholashning moslashuvchan modellari va miqdoriy va sifatli nazorat vositalarining keng qo‘llanilishiga e’tibor qaratadi. Stress-testlash texnologiyalari, ichki xavflarni baholash modellari va sun’iy intellekt, mashinaviy o‘qitish va Big Data kabi raqamli yechimlardan foydalanish sug‘urtalovchilarning moliyaviy barqarorligini aniqroq va o‘z vaqtida baholashga yordam beradi.

Integrativ metodologiyalar, masalan, moslashtirilgan Altman Z-modellari va CAMELS kabi reyting tizimlari baholash modellarini rivojlantirishga sezilarli hissa qo‘shadi, ularning har biri o‘ziga xos funktsional yo‘nalishga ega – bankrotlikni prognoz qilishdan tortib tashkilot holatini kompleks baholashgacha. Ularning dinamik stress-testlar va ESG-ga yo‘naltirilgan metrikalar bilan kombinatsiyalangan qo‘llanilishi o‘zgaruvchan va ko‘p omilli xavf muhitida sug‘urta kompaniyalarining barqarorligini baholashning zamonaviy vektorini shakllantiradi.

Tadqiqotda xavflarni boshqarishda innovatsion yondashuvlarga alohida e’tibor berildi, bu reaktiv strategiyalardan proaktiv strategiyalarga o‘tishni ko‘rsatadi. Rivojlangan mamlakatlardagi zamonaviy sug‘urta kompaniyalari raqamli analitikani, IoT va algoritmik modellashtirishni anderrayting, zararlar tartibga solinishi va xavflarni monitoring qilish jarayonlariga faol integratsiyalashmoqda, bu boshqaruv qarorlarining tezkorligi, aniqligi va samaradorligini sezilarli darajada oshiradi.

O‘zbekiston kontekstida ustav kapitaliga talablarni oshirish bilan bog‘liq muhim tizimli o‘zgarishlar qayd etildi, bu sektorning moliyaviy bazasini mustahkamlash uchun asos bo‘ldi. Biroq, qiyosiy tahlil institutsional, infratuzilmaviy va texnologik cheklovlarning mavjudligini aniqladi, bu xavfga yo‘naltirilgan tartibga solish modellarini va zamonaviy barqarorlikni baholash tizimlarini to‘liq joriy etishga to‘sqinlik qiladi. Mahalliy amaliyot asosan klassik moliyaviy koeffitsientlarga tayanadi, bu esa raqamlashtirishning cheklanganligi va analitik vositalarning zaif integratsiyasi tufayli potentsial xavflarga sezgirlikni pasaytiradi va strategik rejalashtirish imkoniyatlarini cheklaydi.

O‘zbekiston sug‘urta sektorining moliyaviy barqarorligini oshirish xalqaro nazorat standartlarini joriy etish, raqamli infratuzilmani rivojlantirish, kadrlar salohiyatini kuchaytirish va barqarorlikni baholashning integrativ modellarini ilgari surish bo‘yicha tizimli sa’y-harakatlarni talab qiladi. Kompleks transformatsiya normativ-huquqiy modernizatsiya, davlat tomonidan institutsional qo‘llab-quvvatlash va biznes jarayonlarini bosqichma-bosqich raqamlashtirishni o‘z ichiga olishi kerak. Faqat shu sharoitlarda global turbulentlik va tizimli xavflarning o‘sishi sharoitida samarali faoliyat yurita oladigan raqobatbardosh va barqaror sug‘urta bozorini shakllantirish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Yevropa parlamenti va Kengashning 2009 yil 25 noyabrdagi 2009/138/EC direktivasi sug‘urta va qayta sug‘urtalash faoliyati to‘g‘risida (Solvency II) // Official Journal of the European Union. – 2009. – L 335. – B. 1–155.
2. National Association of Insurance Commissioners (NAIC). Risk-Based Capital Overview. – 2022. – URL: https://www.naic.org/ (kirish sanasi: 01.08.2025).
3. Office of the Superintendent of Financial Institutions (OSFI). Supervisory Framework. – Canada: OSFI, 2020. – 38 b.
4. China Banking and Insurance Regulatory Commission (CBIRC). China Risk-Oriented Solvency System (C-ROSS): Regulatory Framework. – Beijing: CBIRC, 2021. – 65 b.
5. Financial Services Agency (FSA) of Japan. Stress Testing and Solvency Margin Regulation in Japan. – Tokyo: FSA, 2020. – 42 b.

6. Altman E. I. Corporate Financial Distress and Bankruptcy: Predict and Avoid Bankruptcy, Analyze and Invest in Distressed Debt. – 3rd ed. – New York: Wiley, 2010. – 368 b.
7. Basel Committee on Banking Supervision. CAMELS Rating System. – Bank for International Settlements, 2021. – URL: https://www.bis.org/ (kirish sanasi: 01.08.2025).
8. International Association of Insurance Supervisors (IAIS). Application Paper on the Use of Big Data Analytics in Insurance. – Basel: IAIS, 2022. – 56 b.
9. European Commission. Sustainable Finance and ESG Disclosure Requirements for Insurance Companies. – Brussels: EC, 2021. – 49 b.
10. The World Bank. Strengthening Insurance Markets in Developing Countries: Challenges and Policy Options. – Washington, DC: The World Bank, 2020. – 112 b.
11. Azimov R.S. Sug‘urta tashkilotlarining moliyaviy barqarorligini baholashning zamonaviy yondashuvlari // “Sug‘urta ishi” jurnali. – 2023. – №1. – B. 21–29.

UDK: 338.658.3

MEHNAT MOTIVATSIYASINI O‘RGANISHNING ILMIY - NAZARIY ASOSLARI

НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ИЗУЧЕНИЯ МОТИВАЦИИ ТРУДА

SCIENTIFIC AND THEORETICAL BASIS OF THE STUDY OF WORK MOTIVATION

Yormamatov Qodirjon Juraqulovich
O‘ZMU, “Makroiqtisodiyot” kafedrasi PhD, kata o‘qituvchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada mehnat motivatsiyasini ilmiy-nazariy asoslari nuqtai nazaridan o‘rganishga qaratilgan. Tadqiqot xodimlarning ishga bo‘lgan motivatsiyasi, rag‘batlantirish tizimlari va ularning samaradorlikka ta’sirini tahlil qiladi. Ichki va tashqi motivatsiya omillarini uyg‘unlashtirish orqali rag‘batlantirish tizimini loyihalash xodimlarning ishga bo‘lgan qiziqishini oshirish, faoliyatga jalb qilinishni kuchaytirish va korxona natijalarini yaxshilash imkonini beradi.

Kalit so‘zlar mehnat motivatsiyasi, rag‘batlantirish tizimi, xodim samaradorligi, motivatsion profil, kompleks yondashuv.

Целью данной статьи является исследование мотивации труда с точки зрения её научно-теоретических основ. В исследовании анализируются мотивация работников к труду, системы мотивации и их влияние на эффективность. Разработка системы мотивации, сочетающей внутренние и внешние факторы мотивации, позволяет повысить заинтересованность работников в труде, повысить вовлечённость в деятельность и улучшить результаты деятельности предприятия.

Ключевые слова: мотивация труда, система мотивации, эффективность труда, мотивационный профиль, комплексный подход.

This article is devoted to studying labor motivation from a scientific-theoretical perspective. The research analyzes employees’ work motivation, incentive systems, and their impact on productivity. Designing an incentive system by aligning internal and external motivational factors allows increasing employees’ engagement, enhancing their participation in work, and improving organizational outcomes.

Keywords: labor motivation, incentive system, employee productivity, motivational profile, comprehensive approach

Mehnat motivatsiyasi xodimlarning ishga bo‘lgan qiziqishi tashkiliy maqsadlarga erishishdagi faol ishtiroki va umumiy ishlab chiqarish samaradorligini belgilovchi asosiy omil hisoblanadi.

Korxonalarda samarali motivatsiya tizimi nafaqat xodimlarni faol ishlashga rag‘batlantiradi, balki resurslardan oqilona foydalanish, ishlab chiqarish barqarorligini ta’minlash va iqtisodiy samaradorlikni oshirish imkonini yaratadi. Shu bois, mehnat motivatsiyasini ilmiy-nazariy jihatdan o‘rganish zamonaviy menejment va iqtisodiyotning dolzarb tadqiqot yo‘nalishlaridan biridir.

Ilmiy tadqiqotlar ko‘rsatadiki, mehnat motivatsiyasining nazariy yondashuvlari turli davrlar davomida rivojlanib, xodimlarni rag‘batlantirishning iqtisodiy, ijtimoiy va psixologik aspektlarini o‘z ichiga oladi.

Klassik nazariyalardan tortib zamonaviy psixologik va xulq-atvor modellargacha bo‘lgan yondashuvlar xodimlarning ichki va tashqi motivatsiyasini uyg‘unlashtirishga xizmat qiladi. Shu asosda, mehnat motivatsiyasini o‘rganish nafaqat nazariy asoslarni aniqlash balki korxonalarda samarali motivatsiya tizimini yaratish va boshqarish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga ham imkon beradi.

Motivlashtirishning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatining eng muhim jihatlaridan biri uning mehnat unumdorligiga bevosita ta’sir ko‘rsatishidir. Turli mamlakatlarda o‘tkazilgan tadqiqotlar shuni tasdiqlaydiki, motivatsiya strategiyalarini faol amalga oshiruvchi tashkilotlar yuqori iqtisodiy natijalarga erishadilar. Gallup ma’lumotlariga ko‘ra, xodimlarni jalb qilish darajasi yuqori bo‘lgan korxonalar raqobatchilarga nisbatan 23% yuqori daromadlilik va 18% yuqori samaradorlikni ko‘rsatadi. Shu bilan birga, xodimlarni mehnatga jalb qilish va mehnat samaradorligini oshirish mamlakatning mehnat munosabatlari siyosati yoki mehnat bozoriga emas, balki bevosita korxonadagi barcha darajadagi rahbarlarga bog‘liqligini ko‘rsatadi.

Innovatsion faoliyatni rag‘batlantirishda ham mehnat motivatsiyasi muhim rol o‘ynaydi. Yuqori ichki motivatsiyaga ega xodimlar ko‘proq tashabbus ko‘rsatadilar, yangi g‘oyalarni ilgari suradilar va biznes jarayonlarini optimallashtirishda faol ishtirok etadilar. McKinsey tadqiqotlariga ko‘ra, xodimlarini innovatsion jarayonlarga keng jalb qilgan kompaniyalar yangi texnologiyalar va ish uslublarini joriy etish darajasida boshqalarga nisbatan 30% yuqorilikka erishadi [1].

Adam Smit va David Rikardo asarlarida klassik iqtisodiyot mehnat motivatsiyasini qiymatning mehnat nazariyasi nuqtai nazaridan tahlil qilishga asos yaratgan. Smit (1776) mehnatni asosiy qiymat manbai sifatida ko‘rsatib, insonning iqtisodiy xatti-harakatlarini farovonlikni oshirishga bo‘lgan oqilona intilish orqali izohlagan va “bozorning ko‘rinmas qo‘li” orqali mehnat taqsimoti va raqobat unumdorlikni oshirishini ta’kidlagan.

Rikardo esa mehnatga asoslangan qiymat nazariyasi orqali ishlab chiqarish jarayonidagi mehnatning ijtimoiy va iqtisodiy ahamiyatini tahlil qilgan. Klassik nazariyalar mehnat motivatsiyasining shaxsiy manfaatlar va resurslarni samarali taqsimlash bilan bevosita bog‘liqligini ko‘rsatadi [2]. Shu asosda, klassik iqtisodiyot g‘oyalari motivatsiya nazariyalarini rivojlantirish va xodimlarning ichki hamda tashqi motivatsiyasini uyg‘unlashtirib rag‘batlantirish tizimini yaratishda ilmiy poydevor vazifasini bajaradi.

Shu qatorda, mehnat motivatsiyasi tadqiqotlari xodimlarning samaradorligi va innovatsion faoliyatiga bevosita ta’sirini ko‘rsatmoqda. De Oliveira (2023) fikriga ko‘ra tadqiqotida xodimlarning ichki va tashqi motivatsiyasini uyg‘unlashtirish orqali rag‘batlantirish tizimini loyihalash korxona samaradorligini oshirishga yordam berishi qayd etilgan [3].

Shu bilan birga, Fang (2023) ishida motivatsion profillarni aniqlash va ularga mos rag‘batlantirish mexanizmlarini ishlab chiqish orqali xodimlarning ishga jalb qilinishini sezilarli darajada oshirish mumkinligi ta’kidlangan [4].

Bundan tashqari, Olàh (2023) fikirlarini ham ilgari surgan tadqiqoti esa mehnat motivatsiyasi va innovatsion jarayonlar o‘rtasidagi bog‘liqlikni o‘rganib, yuqori ichki motivatsiyaga ega xodimlar kompaniyaning yangi texnologiyalar va ish uslublarini joriy etish samaradorligini 25 - 30% ga oshirishini ko‘rsatgan. Shu tarzda, zamonaviy tadqiqotlar xodimlarni rag‘batlantirish tizimini individual motivatsion profilga moslashtirishning strategik ahamiyatini tasdiqlaydi [5].

Ushbu tadqiqot mehnat motivatsiyasini ilmiy-nazariy asoslari nuqtai nazaridan o‘rganishga qaratilgan bo‘lib, xodimlarning ishga bo‘lgan qiziqishi va rag‘batlantirish tizimlariga ta’sirini

aniqlashga qaratilgan. Tadqiqotda tahlil va sintez, abstrakt-mantiqiy fikrlash, tanqidiy baholash va ilmiy umumlashtirish kabi metodlar qo‘llanilgan.

Tadqiqot natijalari xodimlarning motivatsiyasi ularning ishga bo‘lgan qiziqishi, samaradorligi va ish sifatiga bevosita ta’sir qilishini ko‘rsatadi. Ichki motivatsiya, ya’ni xodimning o‘z ichki intilishi, qiziqishi va mas’uliyat hissi, shuningdek, tashqi motivatsiya omillari moddiy rag‘batlar, mukofotlar va ijtimoiy imtiyozlar uyg‘un ishlatilganda, xodimlarning ishga bo‘lgan qiziqishi oshadi va ular o‘z vazifalarini samarali bajarishga intiladi.

Motivatsion profillarni aniqlash xodimlarning individual ehtiyojlari va ularning ishga bo‘lgan yondashuvini tushunishga yordam beradi. Bu esa rag‘batlantirish mexanizmlarini xodimlarga moslashtirish imkonini beradi. Shu tarzda, xodimlar faoliyatga yanada jalb qilinadi, ularning ishga bo‘lgan motivatsiyasi kuchayadi va korxona ichidagi umumiy natijalar sezilarli darajada yaxshilanadi.

1 - jadval

Mehnat motivatsiyasi vositalari va ularning ta’siri tavsifi [6]

	VOSITA	MOTIVATSIYAGA TA’SIRI
1	Moddiy yordam	Xodimning moddiy rag‘batini oshiradi, ishga bo‘lgan qiziqishini kuchaytiradi
2	Xodimlarni mukofotlash	Minnatdorchilik, sertifikat va mukofotlar orqali tashqi rag‘bat beradi
3	Mukofotlash matritsasi	Natijaga qarab mukofotlash orqali xodimlarni faoliyatga jalb qiladi
4	Imtiyozlar menyusi (kafeteriya prinsipi)	Xodimlar o‘zlariga mos rag‘batni tanlab, ichki motivatsiyani oshiradi
5	Sog‘lom turmush tarziga rag‘bat	Sport va ijtimoiy faoliyat orqali motivatsiya yaratadi
6	“Yilning eng yaxshi xodimi” unvoni	Tan olinishi va ijtimoiy rag‘bat orqali motivatsiyani oshiradi
7	Ijtimoiy himoya	Ish joyidagi xavfsizlik va barqarorlik xodimning ishga bo‘lgan ishonchini oshiradi
8	Transport imtiyozlari	Ishga borishdagi qulayliklar motivatsiyani oshiradi
9	Korxona ijtimoiy dasturi	Turli imtiyozlar xodimlarning faoliyatini rag‘batlantiradi
10	Strategik xarita	Maqsadlarni aniqlash orqali xodimlarni korxona strategiyasiga yo‘naltiradi
11	Minnatdorchilik xati	Oddiy ijtimoiy rag‘bat, xodimni qadrlash orqali motivatsiyani oshiradi
12	So‘rovnoma	Motivatsion omillarni aniqlab, tizimni takomillashtirish imkonini beradi

Shu bilan birga, keltrilgan jadvaldagi turli motivatsiya vositalari, jumladan moddiy yordam, mukofotlash, imtiyozlar, ijtimoiy himoya va strategik yondashuv, xodimlarning ishga bo‘lgan qiziqishi, samaradorligi va sodiqligini oshirishga xizmat qiladi. Moddiy rag‘batlar, masalan, korporativ pensiya yoki bonuslar, ichki motivatsiyani mustahkamlab, xodimning ishga bo‘lgan qiziqishini kuchaytiradi va ularni uzoq muddat davomida samarali ishlashga undaydi.

Xodimlarga tanlov imkoniyatini beruvchi tizimlar, masalan “kafeteriya” prinsipi bo‘yicha imtiyozlar, ularning shaxsiy ehtiyojlari va qiziqishlariga mos rag‘batni tanlashga imkon yaratadi, bu esa ichki motivatsiyani oshirib, xodimning ishga sodiqligini kuchaytiradi. Bundan tashqari, ijtimoiy himoya va transport imtiyozlari kabi amaliy rag‘batlar xodimlarning ish sharoitini yaxshilab, ularni ruhiy va jismoniy jihatdan qo‘llab-quvvatlaydi, shu orqali motivatsiya tizimi barqarorlik kasb etadi.

Shuningdek, strategik xarita va xodimlar ehtiyojlarini aniqlashga mo‘ljallangan so‘rovnomalar korxona maqsadlariga yo‘naltirish va tizimli yondashuvni ta’minlaydi. Bu vositalar orqali

xodimlarning individual ehtiyojlari va tashkilot strategiyasi uyg‘unlashtiriladi, natijada motivatsiya tizimi samarali va uzoq muddatli bo‘lib, korxona ichki va tashqi maqsadlariga erishishga yordam beradi. Shu tarzda, moddiy, ijtimoiy va shaxsiy rag‘batlantirish vositalari birgalikda ishlatilganda mehnat motivatsiyasining kompleks va barqaror tizimini yaratadi.



1 – rasm. Ikki xil rag‘batlantirish siyosati sharoitida motivatsiya-stimulyatsiya modelidan foydalanish [7]

Bundan tashqari, keltirilgan rasmda tashkilotning motivatsion profilini shakllantirish va qo‘llab - quvvatlash xodimlarning ishga bo‘lgan qiziqishi va samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. So‘rovnomalar yordamida xodimlarning ichki va tashqi motivatsiya omillari aniqlanib, kelajakdagi rag‘batlantirish tizimini samarali loyihalash imkoniyati yaratiladi. Zarur motivatsion profil asosida rag‘batlantirish tizimi loyihalanadi: istalgan motivatsiya turlarida qulaylik, istalmagan turlarda esa noqulaylik yaratiladi, bu xodimlarning ish faoliyatini tizimli va maqsadga yo‘naltirilgan boshqarishga yordam beradi.

Model yordamida rag‘batlantirish tizimi ichki va tashqi motivatsiyani uyg‘unlashtiradi, nafaqat mavjud xodimlarning samaradorligini oshiradi, balki ishga qabul qilinayotganlarning kelajakdagi ishlash potensialini baholashga imkon beradi. Ishga qabul jarayonida motivatsion profili mos bo‘lmagan shaxslarni aniqlash salbiy omillarni kamaytiradi va umumiy motivatsion muhitni yaxshilaydi.

Shuningdek, motivatsion profildagi sezilarli o‘zgarishlar rag‘batlantirish tizimini doimiy takomillashtirishni talab qiladi, bu esa xodim ehtiyojlari va tashkilot strategiyasini uyg‘unlashtiradi hamda motivatsiya tizimini barqaror va samarali qiladi.

Yuqoridagi tahlilardan kelib chiqib xulosa va erishilgan natijalarni jam qilar ekanmiz:

Mehnat motivatsiyasini o‘rganish tadqiqotlari shuni ko‘rsatadiki, xodimlarning ishga bo‘lgan qiziqishi va samaradorligi ularning motivatsion profili bilan bevosita bog‘liq. Ichki va tashqi motivatsiya omillarini uyg‘unlashtirish orqali rag‘batlantirish tizimini shakllantirish xodimlarning ish faoliyatini samarali boshqarish va natijalarni oshirish imkonini beradi.

Motivatsion profillarni aniqlash va ularga mos rag‘batlantirish mexanizmlarini qo‘llash xodimlarning faoliyatga bo‘lgan qiziqishini oshiradi, natijada korxona natijalari sezilarli darajada yaxshilanadi. Kompleks yondashuv moddiy rag‘batlar, ijtimoiy imtiyozlar va mukofotlash mexanizmlari birgalikda ishlatilganda mehnat motivatsiyasini barqaror va samarali qiladi.

Shu bilan birga, tizimli yondashuv rag‘batlantirish tizimini doimiy ravishda takomillashtirishga imkon beradi va korxonaning strategik maqsadlariga erishishida muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. De Smet, A., Mugayar-Baldocchi, M., Reich, A., & Schaninger, B. (2023, September 11). Some employees are destroying value, others are building it: Do you know the difference? McKinsey & Company.
2. Смит А.Исследование о природе и причинах богатства народов. –М.: Эксмо, 2016. - С.255
3. De Oliveira, R. (2023). Aligning intrinsic and extrinsic motivation to enhance organizational performance: A contemporary approach. Journal of Organizational Behavior, 44(3), 215–230.
4. Fang, L. (2023). Motivational profiling and employee engagement: Designing effective reward systems. Human Resource Management Review, 33(1), 101–115.
5. Olah, J. (2023). The link between employee motivation and innovation adoption in firms. International Journal of Innovation Management, 27(2), 235–252.
6. Симшенко Н.А., Сёхла С.Ю., Павленко И.Г. Институционалные аспекты формирования мотивационного механизма управления трудозанятостю. Российское предпринимательство, 16(22), 4135-4144. 2015.
7. Мотивация и осенка персонала: Учебное пособие // Г.А. Дмитриенко, Э. А. Шарапа-това, Т. М. Максименко. – Киев, 2002. –с.240-244

УДК: 338.47

МУЛТИМОДАЛ ТРАНСПОРТ ТИЗИМИ ОРҚАЛИ ЛОГИСТИКА ХИЗМАТЛАРИНИ БОШҚАРУВ САМАРАДОРЛИГИНИ ОШИРИШ

ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ УПРАВЛЕНИЯ ЛОГИСТИЧЕСКИХ УСЛУГ ЗА СЧЕТ МУЛЬТИМОДАЛЬНОЙ ТРАНСПОРТНОЙ СИСТЕМЫ

IMPROVING THE EFFICIENCY OF LOGISTICS MANAGEMENT THROUGH A MULTIMODAL TRANSPORT SYSTEM

Хомидов Хожиакбар Адхамович
Андижон давлат Университети мустақил изланувчиси

Аннотация

Мазкур мақолада мултимодал транспорт тизими орқали логистика хизматлари самарадорлигини ошириш йўллари, уларнинг иқтисодий афзалликлари, тизимни такомиллаштириш омиллари ҳамда Ўзбекистон шароитидаги амалий ечимлар таҳлил қилинади.

Калит сўзлар: логистика, транспорт, иқтисодиёт, савдо, мултимодал, модернизация.

В статье анализируются пути повышения эффективности логистических услуг посредством мультимодальной транспортной системы, их экономические преимущества, факторы совершенствования системы и практические решения в условиях Узбекистана.

Ключевые слова: логистика, транспорт, экономика, торговля, мультимодальные перевозки, модернизация.

This article analyzes ways to improve the efficiency of logistics services through a multimodal transport system, their economic advantages, factors for improving the system, and practical solutions in the conditions of Uzbekistan.

Keywords: logistics, transport, economy, trade, multimodal, modernization.

Замонавий иқтисодиёт шароитида логистика тизимининг самарадорлиги мамлакатнинг транспорт инфратузилмаси, ташқи савдо фаолияти ва ички бозор интеграциясининг асосий омилларидан бири ҳисобланади. Айниқса, глобал рақобат кучайиб бораётган ҳозирги даврда юкларни тез, арзон ва ишончли етказиб бериш имконини берувчи мултимодал транспорт тизими логистика хизматларини ривожлантиришда стратегик аҳамият касб этмоқда. Мултимодал ташиш — бу бир нечта транспорт турлари (темир йўл, автомобиль, ҳаво, денгиз ва дарё)нинг ягона логистика занжирида узвий ишлашини таъминловчи мураккаб тизим бўлиб, у вақт ва харажатларни оптималлаштиришга хизмат қилади.

Ўзбекистон учун бу масала ниҳоятда долзарбдир, чунки мамлакатнинг географик жойлашуви — йирик транзит йўлаклар чорраҳасида жойлашганлиги — мултимодал транспорт тизимини ривожлантириш учун табиий имкониятлар яратади. Шу сабабли сўнгги йилларда “Янги Ўзбекистон — логистика марказига айланиш” тамойили асосида темир йўл ва автомобиль транспорти инфратузилмаси модернизация қилинмоқда, халқаро транспорт коридорлари (“Тошкент–Андижон–Ўш–Иркештом”, “Транс-Афғон йўлаги”, “Хитой–Қирғизистон–Ўзбекистон”) фаол ривожлантирилмоқда.

Мултимодал транспорт тизими — бу юкларни бир нечта транспорт турлари орқали ягона ташиш ҳужжати ва логистика занжири асосида етказиб беришни назарда тутувчи интеграциялашган транспорт тизимидир. Халқаро амалиётда “multimodal transport” атамаси Халқаро транспорт форумлари ва БМТнинг Савдо ва транспорт бўйича Конференцияси (UNCTAD) томонидан қўлланилади ҳамда юк ташишнинг мураккаб, лекин самарали моделларидан бири сифатида баҳоланади. Унинг моҳияти шундаки, юкни жўнатувчи фақатгина бир оператор (мултимодал оператор) билан шартнома тузади ва юк бутун йўл бўйича унинг масъулияти остида ҳаракатланади. Мултимодал транспорт тизими логистика фанининг асосий йўналишларидан бири бўлиб, у “бирлаштирилган транспорт тизимлари” назариясига таянади. Бу назарияга кўра, транспортнинг ҳар бир тури (темир йўл, автомобиль, денгиз, ҳаво, дарё) ўзининг афзалликларига эга ва уларни мувофиқлаштирилган ҳолда фойдаланиш орқали умумий логистика самарадорлигига эришилади. Масалан, темир йўл транспорти — узоқ масофага юк ташишда арзон ва барқарор, автомобиль транспорти — манзилга етказишда енгил ва тезкор, ҳаво транспорти — юқори қийматли ва тез бузиладиган товарлар учун қулай, денгиз транспорти — халқаро савдо учун энг арзон вариант ҳисобланади. [1] Мултимодал ташишнинг илмий-амалий назарияси “комплементар транспорт тизимлари” ғоясига асосланади, яъни транспорт турлари бир-бирини тўлдириши лозим. Бу орқали транспорт тизимидаги умумий харажатлар 15–30% гача қисқариши, вақт тежалиши эса 25–40% гача ошиши мумкин. Мултимодал транспорт тизимининг ҳуқуқий ва меъёрий асослари халқаро миқёсда аниқ белгилаб берилган. Ушбу соҳани тартибга солувчи асосий халқаро ҳужжатлар қуйидагилар ҳисобланади:

- 1980 йилдаги БМТнинг “Халқаро мултимодал ташиш тўғрисидаги конвенцияси” — ушбу ҳужжат мултимодал операторнинг ҳуқуқ ва мажбуриятларини, ташиш ҳужжатлари шаклини ва юкларнинг хавфсизлигини таъминлаш механизмларини белгилайди;
- 1991 йилдаги Европа Иқтисодий комиссиясининг “Транспорт ва логистика интеграцияси концепцияси” — транспорт турлари ўртасидаги мувофиқлик, инфратузилма стандартлари ва ахборот алмашинуви тартибини белгилайди;
- 2008 йилда қабул қилинган Халқаро транспорт ва логистика хавфсизлиги стандарти — логистика занжирларида хавфсизлик бошқарув тизимини жорий этишни кўзда тутади [2].

Шу билан бирга, Европа Иттифоқи мамлакатларида “TEN-T” (Trans-European Transport Network) дастури доирасида яратилган мултимодал логистика марказлари тизими халқаро транспорт тизимларининг намунаси бўлиб хизмат қилмоқда. Бу марказлар орқали юкларни қайта йўналтириш, сақлаш ва тақсимлаш жараёнлари автоматлаштирилган ҳолда амалга оширилади. Масалан, Германия, Нидерландия ва Польшадаги логистика хаблари темир йўл, автомобиль ва денгиз транспортини уйғунлаштирган ҳолда ишлайди. Бу моделлар нафақат транспорт харажатларини камайтиради, балки етказиб бериш вақти ва сифатини ҳам

оптималлаштиради. Шунингдек мултимодал транспорт тизимининг самарадорлиги унинг қуйидаги афзалликлари билан изоҳланади:

- Вақтни тежаш — турли транспорт турларининг мувофиқлашган иши натижасида юк етказиб бериш вақти қисқаради. Масалан, юк темир йўл орқали чегарага етказилиб, кейин автомобиль транспорти орқали манзилга тезкор етказилади.
- Харажатларни камайтириш — транспортнинг афзал жиҳатларини бирлаштириш орқали логистика тизимида умумий харажатлар 15–30% гача қисқариши мумкин.
- Ишончлилик ва хавфсизлик — барча ташиш жараёнлари ягона оператор томонидан бошқарилиши, юкларнинг йўқолиши ёки кечикиши хавфини кескин камайтиради.
- Ҳужжат айланмасини соддалаштириш — мултимодал ташишда “Combined Transport Document” каби ягона рақамли ҳужжат орқали барча маълумотлар автоматик тарзда интеграция қилинади.
- Экологик самарадорлик — темир йўл ва денгиз транспортининг улуши кўпайган сари CO_2 чиқиндилари миқдори 20–25% гача камайиши мумкин. [3]

Жаҳон банки ва OECD маълумотларига кўра, мултимодал транспорт тизимини кенг жорий этиш натижасида транспорт-логистика харажатларининг ЯИМдаги улуши ўртача 2–3 фоизга камайиши, экспорт айланмасининг эса 10–15 фоизга ошиши мумкин. Бу эса мамлакат иқтисодиётининг барқарор ўсишига хизмат қилади. Мултимодал транспорт тизимининг самарадорлигини баҳолашда илмий ва амалий мезонлар тизими қўлланилади. Улар қуйидаги кўрсаткичлар орқали ифодаланади:

- ташиш вақти (T) — юк етказиб беришнинг умумий давомийлиги;
- ташиш харажатлари (C) — логистика занжири бўйича умумий сарфлар;
- хизмат кўрсатиш ишончлилиги (R) — ташиш жараёнида юз берган хато ва кечикишлар сони;
- юк айланмаси ва транспорт узеллари ўтказувчанлиги (Q) — терминаллар ва логистика марказларининг иш қобилияти;
- экотизим таъсири (E) — CO_2 чиқиндилари ва табиий ресурслар сарфи даражаси. [4]

Бу кўрсаткичларни комплекс таҳлил қилиш орқали транспорт тизимининг интеграция даражаси, логистика хизматларининг сифатини ҳамда иқтисодий самарадорликни аниқлаш мумкин. Масалан, Masood & Yang тадқиқотига кўра, логистика тизимининг самарадорлиги тўғридан-тўғри транспорт турлари ўртасидаги мувофиқлашув даражасига боғлиқ бўлиб, бир хил тизимда ишлаётган транспорт турлари ўзаро маълумот алмашинувини тез ва аниқ амалга оширса, иқтисодий самарадорлик 20–25 фоизга ортиши мумкин. [5] Бундан ташқари, замонавий инновацион ёндашувлар — яъни sun’iy intellekt (AI), IoT (Internet of Things) ва blokcheyn технологияларини жорий этиш орқали ташиш жараёнларини оптималлаштириш ва хавфсизликни таъминлаш имкониятлари кенгаймоқда.

Ўзбекистон учун мултимодал транспорт тизимини ривожлантириш стратегик аҳамиятга эга. Мамлакатнинг географик жойлашуви — Марказий Осиё транзит йўлаклари чорраҳасида жойлашганлиги — уни минтақавий логистика марказига айлантириш имконини яратади. Жаҳон банкининг 2023 йилдаги маълумотларига кўра, мамлакатнинг умумий юк айланмаси 12,6 миллиард тонна-километрни ташкил этган, шундан 70–75 фоизи темир йўл транспорти ҳиссасига тўғри келади. Бу ҳолат темир йўл транспортининг устуворлигини кўрсатади, бироқ автомобиль ва ҳаво транспортининг паст улуши мултимодал интеграциянинг чекланганлигини англатади.

1-жадвал

SWOT таҳлил: Ўзбекистонда мултимодал транспорт тизими [6]

Тоифа	Асосий жиҳатлар
S — Кучли томонлар	• Геостратегик жойлашув (Марказий Осиё транзит чорраҳаси) • Ривожланган темир йўл инфратузилмаси (75% юк ташиш ҳажми) • Давлат стратегияси ва халқаро лойиҳалар (“Хитой–Қирғизистон–Ўзбекистон”, “Транс-Афғон йўлаги”)

W — Заиф томонлар	• Автомобиль ва ҳаво транспорти интеграцияси паст • Божхона жараёнларида бюрократия • Рақамли бошқарув ва ягона ахборот тизимининг етишмаслиги
O — Имкониятлар	• IoT, AI ва блокчейн технологияларини жорий этиш • Давлат-хусусий шериклик асосида логистика марказларини кенгайтириш • Экспорт ва транзит салоҳиятини ошириш
T — Хавф-хатарлар	• Минтақадаги рақобатчи транзит йўлаклар (Қозоғистон, Туркманистон) • Сиёсий ва иқтисодий беқарорлик • Инфратузилма инвестицияларининг етишмаслиги

Юқорида келтирилган жадвал таҳлилидан кўриниб турибдики, Ўзбекистонда мултимодал транспорт тизимини ривожлантириш учун муҳим устунликлар ва истиқболли имкониятлар мавжуд. Аввало, мамлакатнинг геостратегик жойлашуви — Марказий Осиё транзит йўлакларининг чорраҳасида бўлиши — логистика соҳасидаги энг катта рақобат устунлигидир. Шунингдек, темир йўл тизимининг ривожланганлиги ва халқаро лойиҳаларда фаол иштирок этилаётгани мамлакатнинг ташқи иқтисодий алоқаларини кенгайтириш имконини бермоқда. Бироқ тизимнинг заиф томонлари ҳам мавжуд. Хусусан, автомобиль ва ҳаво транспорти интеграциясининг пастлиги, божхона жараёнларидаги ортиқча бюрократия ҳамда яхлит рақамли бошқарув тизимининг йўқлиги логистика занжирининг узвийлигини таъминлашда тўсиқ бўлиб қолмоқда. Бу ҳолат юк ташиш вақти ва харажатларини кўпайтириб, тизим самарадорлигини пасайтиради. Шу билан бирга, яқин йиллардаги имкониятлар жуда катта. Жумладан, IoT, sun’iy intellekt ва блокчейн технологияларини жорий этиш, транспорт турлари ўртасида маълумот алмашинувини автоматлаштириш ҳамда давлат-хусусий шериклик асосида логистика марказларини кенгайтириш мамлакат логистика салоҳиятини оширишда ҳал қилувчи омил бўлади.

Ўзбекистон шароитида мултимодал транспорт тизимини ривожлантириш нафақат логистика соҳасида, балки иқтисодиётнинг барча тармоқларида ижобий натижа беради. Мамлакатнинг геостратегик жойлашуви, ривожланган темир йўл инфратузилмаси ва халқаро транспорт йўлакларига чиқиш имкониятлари бу йўналишдаги энг катта устунликлар ҳисобланади. Шу билан бирга, тизимдаги айрим муаммолар — транспорт турлари ўртасидаги интеграциянинг етарли эмаслиги, ахборот тизимларининг заифлиги, божхона жараёнларидаги ортиқча бюрократия — самарадорликни чеклаб турибди. Шунинг учун, келгусида логистика хизматларини такомиллаштириш мақсадида қуйидаги вазифаларни амалга ошириш муҳим аҳамиятга эга:

- транспорт инфратузилмасини рақамлаштириш ва ягона ахборот платформасини яратиш;
- давлат-хусусий шериклик асосида мултимодал логистика марказларини ташкил этиш;
- IoT, sun’iy intellekt ва блокчейн технологияларини жорий этиш орқали бошқарув самарадорлигини ошириш;
- халқаро стандартларга мос божхона ва лицензиялаш тизимини шакллантириш;
- “яшил логистика” тамойилларини амалга ошириш орқали экологик барқарорликни таъминлаш.

Хулоса қилиб айтганда, мултимодал транспорт тизимини жадал ривожлантириш Ўзбекистоннинг халқаро савдо айланмасини кенгайтириш, экспорт ва транзит салоҳиятини ошириш ҳамда иқтисодиётни глобал логистика тизимига интеграция қилишда ҳал қилувчи омил бўлиб хизмат қилади. Бу тизим мамлакатни минтақавий транспорт марказига айлантириш билан бирга, барқарор иқтисодий ўсишга кенг йўл очади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Балабанов И.Т. “Транспортная логистика.” — Москва: Финансы и статистика, 2019.
2. Круглов В.И. “Логистика транспортных систем.” — Санкт-Петербург: Питер, 2020.
3. Harrison A., van Hoek R. “Logistics Management and Strategy.” — 6th Edition. Pearson, 2021.

4. Waters D. “Global Logistics: New Directions in Supply Chain Management.” — Kogan Page, 2018
5. Masood, T. & Yang, J. “Optimizing Multimodal Transport Systems Using Deep Reinforcement Learning.” Journal of Transport Geography, Vol. 98, 2021
6. https://lex.uz/

UDK: 330.322

XORIJIY INVESTITSIYALAR UCHUN O‘ZBEKISTON JOZIBADORLIGINI OSHIRISH: ISLOHOTLAR, MUAMMOLAR VA ISTIQBOLLAR

ПОВЫШЕНИЕ ПРИВЛЕКАТЕЛЬНОСТИ УЗБЕКИСТАНА ДЛЯ ИНОСТРАННЫХ ИНВЕСТИЦИЙ: РЕФОРМЫ, ПРОБЛЕМЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ

INCREASING THE ATTRACTIVENESS OF UZBEKISTAN FOR FOREIGN INVESTMENT: REFORMS, PROBLEMS AND PROSPECTS

Abduraxmonov Valijon G‘ofurovich
i.f.n., dotsent. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Andijon fakulteti
“Mutaxassislik, ijtimoiy-gumanitar va aniq fanlar” kafedrasi

Annotatsiya

Ushbu maqolada O‘zbekistonning investitsion jozibadorligi, xorijiy investitsiyalar oqimlari va mintaqaviy raqobatbardoshligi tahlil qilindi. Natijalar Shuningdek, mamlakatda iqtisodiytni liberallashtirish sharoitida sezilarli ijobiy o‘zgarishlarga erishgan bo‘lsa-da, infratuzilma, huquqiy kafolat va regulyativ barqarorlik sohalarida chuqur islohotlar zarur. Tadqiqot natijalari bo‘yicha ilmiy xulosalar olindi.

Kalit so‘zlar: Xorijiy investitsiyalar, investitsion muhit, O‘zbekiston, iqtisodiy liberallashtirish, xalqaro tajriba, mintaqaviy raqobat.

В данной статье анализируется инвестиционная привлекательность Узбекистана, потоки иностранных инвестиций и региональная конкурентоспособность. Результаты. Кроме того, несмотря на значительные позитивные изменения в стране в контексте экономической либерализации, необходимы глубокие реформы в сфере инфраструктуры, правовых гарантий и нормативно-правовой стабильности. По результатам исследования сделаны научные выводы.

Ключевые слова: Иностранные инвестиции, инвестиционная среда, Узбекистан, экономическая либерализация, международный опыт, региональная конкуренция.

This article analyzes the investment attractiveness of Uzbekistan, foreign investment flows and regional competitiveness. Results Also, although the country has achieved significant positive changes in the context of economic liberalization, deep reforms are needed in the areas of infrastructure, legal guarantees and regulatory stability. Scientific conclusions were drawn based on the results of the study.

Keywords: Foreign investment, investment environment, Uzbekistan, economic liberalization, international experience, regional competition.

Globallashuv sharoitida xorijiy investitsiyalar milliy iqtisodiyotning o‘sish drayveri sifatida tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Rivojlanayotgan davlatlar uchun to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish, eksportni rag‘batlantirish va texnologik uzatish mexanizmlarining eng samarali shakli hisoblanadi.

O‘zbekiston 2017-yildan boshlab iqtisodiy liberallashtirish bosqichiga o‘tdi: valyuta bozorining erkinlashtirilishi, soliq tizimining soddalashtirilishi, xususiylashtirish siyosati va “Investitsiyalar to‘g‘risida”gi qonunning qabul qilinishi chet el sarmoyadorlari uchun muhim ishonch omiliga aylandi. Shu bilan birga, xalqaro indekslardagi (Doing Business, LPI, Economic Freedom) holat hali ham mintaqaviy raqobatchilarga nisbatan past.

Maqolaning maqsadi – 2017–2024 yillar oralig‘ida O‘zbekistonning investitsion jozibadorligini aniqlash, asosiy muammolarni tahlil qilish va xalqaro tajribaga asoslangan tavsiyalarni ishlab chiqishdir.

Tadqiqotda statistik, solishtirma va tahliliy metodlar qo‘llanildi. Ma’lumotlar UNCTAD, Jahon banki (Doing Business), IMF, va O‘zbekiston Milliy statistika qo‘mitasi bazalaridan olindi. Qo‘shimcha ravishda, Gruziya, Qozog‘iston va Vetnam mamlakatlari misolida mintaqaviy taqqoslash amalga oshirildi. Xorijiy va mahalliy manbalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, investitsion muhitni yaxshilash iqtisodiy o‘sishning barqarorligini ta’minlashda asosiy omil hisoblanadi.

UNCTAD hisobotida rivojlanayotgan davlatlar uchun xorijiy investitsiyalar oqimlari global iqtisodiy o‘sishning 40 foizidan ortig‘ini tashkil etayotgani qayd etilgan. Mualliflar ta’kidlashicha, siyosiy barqarorlik, huquqiy kafolatlar va transport-logistika infratuzilmasi xorijiy sarmoyadorlar uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega. O‘zbekiston bu yo‘nalishda so‘nggi yillarda sezilarli islohotlar amalga oshirgan, ammo infratuzilma va moliya bozori chuqurligi bo‘yicha hali rivojlangan mamlakatlardan ortda[1].

Jahon bankining Doing Business hisobotida O‘zbekiston 69-o‘rinda qayd etilgan bo‘lib, 2018-yildagi 76-o‘rindan yaxshilanish kuzatilgan. Bu natija biznesni ro‘yxatdan o‘tkazish, soliq to‘lovlari va kredit olish jarayonlaridagi yengilliklar hisobiga erishilgan. Biroq, mulkni himoya qilish va investor huquqlarini kafolatlash sohalarida sezilarli kamchiliklar mavjud[2].

IMF Country Report ma’lumotlariga ko‘ra, O‘zbekistonning iqtisodiy liberallashtirish siyosati o‘sish sur’atlarini barqarorlashtirishga yordam bergan. Shu bilan birga, xorijiy investitsiyalar oqimlari asosan neft-gaz va energetika sektorida to‘plangan bo‘lib, diversifikatsiya darajasi past. Bu esa uzoq muddatli barqarorlikni cheklaydi[3].

EBRD tahliliga ko‘ra, O‘zbekiston Markaziy Osiyoda eng tez o‘sayotgan iqtisodlardan biri hisoblanadi. Biroq, bankning Country Strategy 2023–2028 hisobotida korrupsiya, ma’muriy to‘siqlar va investitsiya nizolari bo‘yicha sud tizimidagi noaniqliklar investorlar ishonchini pasaytiruvchi omillar sifatida ko‘rsatilgan[4].

Faxriddin Raximov va Dilnoza Raximova “Milliy iqtisodiyotda innovatsiya faolligini oshirishda xorijiy investitsiyalardan foydalanishning ustuvor yo‘nalishlari” nomli maqolalarida ta’kidlaydiki, “Investitsiyalarni jalb qilish tamoyillari ko‘rib chiqilgan, shuningdek investitsiyaning mamlakat eksport- va importidagi tutgan o‘rni ma’lumotlar tahlilida tatbiq etilgan” Ularning fikricha, innovatsiya, eksportga yo‘naltirilgan ishlab chiqarish va investitsiya muhiti yaxshilanishi jozibadorlikni oshirish asosiy yo‘llaridir[5].

Statistik tahlil xorijiy investitsiyalar oqimining yillik o‘zgarishlari, soha tarkibi va mamlakatlar kesimidagi investitsiya manbalari bo‘yicha o‘tkazildi. Grafik vizualizatsiya orqali tendensiyalar dinamikasi ko‘rsatildi.

1-jadval

O‘zbekistonga kiruvchi to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar hajmi, 2017–2024 yillar ($ mln)

Yil	Xorijiy investitsiyalar oqimi (mlrd $)	Yillik o‘zgarish (%)	Asosiy tarmoqlar	Asosiy investorlar
2017	1,60	–	Energetika, avtomobilsozlik	Xitoy, Rossiya
2018	2,01	+25,6	Qurilish, neft-gaz	Janubiy Koreya, Turkiya
2019	2,31	+14,9	Kimyo, transport	Xitoy, Singapur
2020	1,72	–25,6	Energetika, infratuzilma	Rossiya, BAA

Yil	Xorijiy investitsiyalar oqimi (mlrd $)	Yillik o‘zgarish (%)	Asosiy tarmoqlar	Asosiy investorlar
2021	2,27	+32,0	Neft-gaz, qayta ishlash	Xitoy, Koreya
2022	2,49	+9,7	Sanoat, metallurgiya	Germaniya, Saudiya Arabistoni
2023	2,18	–12,5	Qayta tiklanuvchi energetika, texnologiya	ACWA Power, BYD
2024*	3,80 (prognoz)	+74,3	Logistika, “yashil” iqtisodiyot	EBRD, IFC, Yaponiya

Manba: UNCTAD (2024), IMF Country Report, O‘zbekiston Statistika agentligi asosida muallif tomonidan tuzildi.

Yuqoridagi jadvaldan ko‘rinib turibdiki, 2017–2024 yillarda O‘zbekistonga kirib kelgan xorijiy investitsiyalar oqimi barqaror o‘sish tendensiyasiga ega bo‘lib, mamlakatning investitsion jozibadorligi sezilarli darajada oshgan.

2017–2019 yillarda investitsiyalar asosan energetika, kimyo va avtomobilsozlik tarmoqlariga yo‘naltirilgan bo‘lsa, 2020 yilda pandemiya ta’sirida pasayish kuzatilgan. 2021 yildan boshlab esa qayta tiklanish bosqichi boshlandi — neft-gaz, metallurgiya va qayta ishlash sohalarida yangi loyihalar amalga oshirildi.

So‘nggi yillarda, xususan 2023–2024 yillarda, investitsiyalar “yashil iqtisodiyot”, qayta tiklanuvchi energetika va logistika sohalariga faol yo‘nalmoqda. Bu mamlakatda barqaror rivojlanish, energiya samaradorligi va raqamli infratuzilma rivojiga bo‘lgan qiziqish ortib borayotganidan dalolat beradi. Asosiy investorlar tarkibida Xitoy, Rossiya, Janubiy Koreya kabi an’anaviy hamkorlar bilan bir qatorda, Germaniya, Saudiya Arabistoni, Yaponiya, EBRD va IFC kabi yangi strategik hamkorlarning ulushi ortmoqda.

Umuman olganda, 2024 yil prognozida investitsiyalar hajmining 3,8 mlrd dollarga (+74,3%) yetishi kutilayotgani O‘zbekistonning xalqaro moliyaviy hamkorlikdagi obro‘sining mustahkamlanayotganini ko‘rsatadi. Shu bois, kelgusi yillarda mamlakat investitsion siyosatini tarmoq diversifikatsiyasi, barqaror energiya manbalari, va moliyaviy barqarorlikni ta’minlashga yo‘naltirish muhim ahamiyat kasb etadi.



1-rasm. 2017–2024 yillarda O‘zbekiston xorijiy investitsiyalar oqimlarining dinamikasi

Manba: O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi

Yuqoridagi 1-rasmdan ko‘rinadiki, 2020-yilda pandemiya ta’sirida xorijiy investitsiyalar oqimi keskin kamaygan, biroq 2021–2024 yillarda barqaror o‘sish tendensiyasi kuzatilmoqda. 2024-yil prognozi rekord darajadagi 3,8 mlrd $ sarmoya oqimini ko‘rsatmoqda. Bu O‘zbekistonning iqtisodiy erkinlik siyosati va xalqaro integratsiya jarayonlari natijasidir.

2-jadval

Xalqaro taqqoslash (Gruziya, Qozog‘iston, Vetnam)[6][7][8].

Mamlakat	2023-yil Xorijiy investitsiya hajmi (mlrd $)	Xorijiy investitsiyalar / YaIM (%)	Doing Business reytingi	LPI (2023)
O‘zbekiston	2,18	3,8	69-o‘rin	2,6
Gruziya	1,90	7,5	7-o‘rin	2,7
Qozog‘iston	15,7	9,1	50-o‘rin	2,7
Vetnam	18,5	6,2	70-o‘rin	3,0

Manba: World Bank (2023), UNCTAD (2024), AstanaTimes, mpi.gov.vn.

Taqqosiy tahlil shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekiston xorijiy investitsiya hajmi bo‘yicha mintaqaviy raqobatchilardan ortda bo‘lsada, iqtisodiy liberallashtirish sur’atlari va yangi sektorlarning ochilishi investitsiya salohiyatini kengaytiradi. LPI va Doing Business ko‘rsatkichlarini yaxshilash orqali mamlakat Gruziya modeliga yaqinlashishi mumkin.

O‘zbekistonning 2017–2024 yillardagi iqtisodiy islohotlari xorijiy investitsiya oqimini barqaror o‘sish traektoriyasiga olib chiqdi. Shunga qaramay, sarmoyadorlar uchun asosiy muammolar sifatida quyidagilar qayd etiladi:

1. Huquqiy barqarorlik yetishmasligi – investitsiya nizolari bo‘yicha mustaqil arbitraj mexanizmlarini kuchaytirish zarur;
2. Logistika tizimining past samaradorligi – bojxona, transport infratuzilmasi va tranzit yo‘llarni modernizatsiya qilish lozim;
3. Moliyaviy integratsiya cheklanganligi – kapital bozorlari, IPO mexanizmlari va obligatsiyalarni kengaytirish orqali ichki sarmoyadorlarni jalb etish;
4. Inson kapitali yetishmovchiligi – texnik va raqamli kadrlar tayyorlashda xususiy sektor ishtirokini kuchaytirish;
5. Mintaqaviy brending va kommunikatsiya zaifligi – “Invest in Uzbekistan” strategiyasi doirasida xalqaro axborot kampaniyalari tashkil etish.

Bu islohotlar amalga oshirilsa, O‘zbekiston FDI oqimini 2026-yilgacha 5–6 mlrd $ darajasiga olib chiqish salohiyatiga ega.

Xulosa qilib aytganda O‘zbekistonning 2017–2024 yillardagi islohotlari mamlakatni yopiq iqtisodiy modeldan ochiq, raqobatbardosh iqtisodiyotga o‘tish bosqichiga olib keldi. Xorijiy investitsiya hajmi 2017-yildagi 1,6 mlrd $ dan 2024-yilda 3,8 mlrd $ ga yetishi — investitsion jozibadorlikning o‘sib borayotganidan dalolat beradi.

Shu bilan birga, uzoq muddatli barqarorlik uchun quyidagi yo‘nalishlarda islohotlarni davom ettirish zarur:

- Bozorni soddalashtirish va byurokratik to‘siqlarni qisqartirish;
- Huquqiy kafolatlarni kuchaytirish;
- Infratuzilma va logistika tarmoqlarini modernizatsiya qilish;
- Kadrlar tayyorlash va innovatsion salohiyatni oshirish;
- Xalqaro savdo bitimlari va “yashil iqtisodiyot” loyihalarini kengaytirish.

Ushbu choralar O‘zbekistonni Markaziy Osiyoda eng jozibador investitsiya markazlaridan biriga aylantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati:

1. UNCTAD (2024). World Investment Report 2024. https://unctad.org/publication/world-investment-report-2024
2. World Bank (2023)Doing Busines Report www.databank.worldbank.org/2023/id/f3b456e4
3. IMF (2024). Uzbekistan Country Report. https://www.imf.org/en/Countries/UZB
4. EBRD. (2023). Uzbekistan Country Strategy 2023–2028..

5. F. Rahimov, D. Rahimova Milliy iqtisodiyotda innovatsiya faolligini oshirishda xorijiy investitsiyalardan foydalanishning ustuvor yo‘nalishlari. Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil ilmiy electron jurnali (2024) https://www.researchgate.net/publication/385628423_Milliy_iqtisodiyotda_innovatsiya_faolligini_oshirishda_xorijiy_investitsiyalardan_foydalanishning_ustuvor_yo%27nalishlari
6. FDI Intelligence (2024). Central Asia Investment Trends.
7. Krugman, P. (2018). The Return of Depression Economics. W.W. Norton.
8. Stiglitz, J. (2020). People, Power, and Profits: Progressive Capitalism for an Age of Discontent. New York: Penguin Books.
9. Astana Times (2024). Kazakhstan attracts $15.7bn FDI.
10. Civil.ge (2024). Georgia’s FDI Performance.
11. mpi.gov.vn (2024). Vietnam FDI Data.
12. Heritage Foundation (2023). Economic Freedom Index.

UDK: 334.72

BIZNES FAOLIYATIDA IQTISODIY XAVFSIZLIK KO‘RSATKICHLARI VA ULARNI BAHOLASH USULLARI

ПОКАЗАТЕЛИ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ БЕЗОПАСНОСТИ ХОЗЯЙСТВЕННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ И МЕТОДЫ ИХ ОЦЕНКИ

ECONOMIC SECURITY INDICATORS IN BUSINESS ACTIVITIES AND METHODS OF ASSESSING THEM

Otayev Shonazar Qodirovich
PhD. Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy Universiteti
Ekonometrika va iqtisodiy modellashtirish kafedrasi

Annotatsiya

Ushbu maqolada korxona faoliyatida iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlashning nazariy asoslari, ko‘rsatkichlar tizimi va baholash metodologiyasi ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Iqtisodiy xavfsizlikni tashkil etuvchi asosiy komponentlar – moliyaviy, ishlab chiqarish, innovatsion, bozor va tashqi iqtisodiy xavfsizlik ko‘rsatkichlari asosida integral baholash modeli taklif etiladi. Tadqiqotda normallashtirilgan indikatorlar usuli, og‘irlik koeffitsientlarini aniqlashda AHP (Analytic Hierarchy Process) va integral indeks usuli qo‘llanilgan. Namuna sifatida sanoat korxonasining 2020–2024 yillar ma’lumotlari tahlil qilingan. Natijalar iqtisodiy xavfsizlikning moliyaviy va innovatsion komponentlari zaifligini ko‘rsatadi hamda korxona barqarorligini ta’minlash bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: iqtisodiy xavfsizlik, biznes faoliyati, indikator, integral indeks, moliyaviy xavfsizlik, tahlil, risk, baholash.

В данной статье научно проанализированы теоретические основы, система показателей и методология оценки обеспечения экономической безопасности деятельности предприятия. Предложена комплексная модель оценки на основе основных компонентов экономической безопасности – показателей финансовой, производственной, инновационной, рыночной и внешнеэкономической безопасности. В исследовании использованы метод нормированных показателей, метод анализа иерархий (МАИ) и метод интегральных индексов для определения весовых коэффициентов. В качестве выборки проанализированы данные промышленного предприятия за 2020–2024 годы. Результаты показывают слабость финансовой и

инновационной составляющих экономической безопасности, разработаны рекомендации по обеспечению устойчивости предприятия.

Ключевые слова: экономическая безопасность, предпринимательская деятельность, показатель, интегральный индекс, финансовая безопасность, анализ, риск, оценка.

This article scientifically analyzes the theoretical foundations, indicator system and assessment methodology for ensuring economic security in the activities of an enterprise. An integrated assessment model is proposed based on the main components of economic security - financial, production, innovation, market and external economic security indicators. The study used the method of normalized indicators, AHP (Analytic Hierarchy Process) and the integral index method to determine weight coefficients. As a sample, data from an industrial enterprise for 2020–2024 were analyzed. The results show the weakness of the financial and innovation components of economic security, and recommendations were developed to ensure the stability of the enterprise.

Keywords: economic security, business activity, indicator, integral index, financial security, analysis, risk, assessment.

Globallashuv va iqtisodiy raqobatning kuchayishi sharoitida korxonalar faoliyatining barqarorligi ko‘p jihatdan ularning iqtisodiy xavfsizligiga bog‘liqdir. Biznes subyektlarining iqtisodiy xavfsizligi – bu tashqi va ichki tahdidlarga bardosh bera olish, moliyaviy va ishlab chiqarish resurslarining uzluksizligi, raqobatbardoshlikni saqlab qolish va strategik rivojlanish imkoniyatlarini mustahkamlash holatidir.

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda ishlab chiqarish va eksport hajmining kengayishi, yangi texnologiyalarni joriy etish jarayonlari iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlash masalasini yanada dolzarb qilmoqda. Shu bois, korxonalarning iqtisodiy xavfsizlik darajasini ko‘rsatkichlar tizimi asosida baholash amaliy va ilmiy ahamiyatga ega.

Maqolaning maqsadi — korxona faoliyatida iqtisodiy xavfsizlikni ifodalovchi asosiy indikatorlarni aniqlash, ularning integral baholash modelini ishlab chiqish hamda amaliy misolda tahlil qilishdir.

Iqtisodiy xavfsizlik masalasi xalqaro va mahalliy tadqiqotchilar tomonidan turli yondashuvlarda izohlangan.

V. Senchagov (2019) iqtisodiy xavfsizlikni davlatning iqtisodiy barqarorligini saqlashga xizmat qiluvchi tizim sifatida talqin etib, indikator yondashuvni ishlab chiqqan. Unga ko‘ra, iqtisodiy xavfsizlikni baholashda YaIM o‘sishi, inflyatsiya, tashqi qarz, byudjet taqchilligi kabi makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar asosiy rol o‘ynaydi[1].

J. Shumpeter (1934) esa xavfsizlikni innovatsion faoliyat bilan bog‘lab, korxonaning yangi texnologiyalarni joriy etish va bozor o‘zgarishlariga moslashish qobiliyatini asosiy omil sifatida ko‘rsatgan[2].

M. Porter (1990) raqobat xavfsizligini korxonaning strategik ustunlikka ega bo‘lish qobiliyati orqali ifodalaydi. U raqobatbardoshlikni ta’minlovchi ichki resurslar, talab sharoiti, yordamchi tarmoqlar va boshqaruv tizimi o‘zaro uyg‘un bo‘lishi zarurligini ta’kidlaydi[3].

Mahalliy olimlar (T. Abdurahmonov, N. Toshpulatov, Z. Usmonov, 2023) iqtisodiy xavfsizlikni korxona darajasida kompleks tarzda baholashni taklif etib, moliyaviy ko‘rsatkichlar, risk indeksi va tashqi iqtisodiy omillarni birgalikda tahlil qilish zarurligini qayd etganlar[4].

Iqtisodiy xavfsizlikni baholashda ko‘p komponentli yondashuv qo‘llaniladi. Bu yondashuv korxona faoliyatining turli jihatlarini — moliyaviy barqarorlik, samaradorlik, innovatsion faoliyat, bozor raqobatbardoshligi va tashqi iqtisodiy omillarni — yagona tizimda baholash imkonini beradi. Tadqiqot quyidagi asosiy metodlarga tayangan:

- Indikator yondashuvi:

Har bir indikatorning qiymati quyidagi formula orqali 0–1 oraliqqa keltiriladi:

$$X_i^* = \frac{X_i - X_{\min}}{X_{\max} - X_{\min}}$$

bu yerda:

- X_i— i-indikatorning haqiqiy qiymati,
- X_{max} — indikatorning eng yuqori (eng yaxshi) qiymati,
- X_{min}— indikatorning eng past (xavfli) qiymati,
- X_i^* — normallashtirilgan qiymat ($0 \le X_i^* \le 1$).

Agar indikatorning oshishi xavfsizlikni kamaytirsa (masalan, qarz yuklamasi), formula quyidagicha teskari shaklda olinadi:

$$X_i^* = \frac{X_{\max} - X_i}{X_{\max} - X_{\min}}$$

- Umumiy iqtisodiy xavfsizlik indeksini aniqlash formulasi

Normallashtirilgan ko‘rsatkichlar asosida integral iqtisodiy xavfsizlik indeksi quyidagicha hisoblanadi:

$$I_{\text{total}} = \sum_{j=1}^{n} w_j \cdot X_j^*$$

bu yerda:

- W_j — j-komponentning og‘irlik koeffitsienti (AHP orqali aniqlanadi),
- X_j^* — normallashtirilgan qiymat,
- n— indikatorlar soni,
- I_{total} — umumiy iqtisodiy xavfsizlik indeksi (0 dan 1 gacha).

1-jadval

Umumiy iqtisodiy xavfsizlik indeksini tahlil mezonlari

I_umumiy qiymati	Baholash darajasi	Izoh
0.00 – 0.30	Past xavfsizlik	Korxona iqtisodiy tahdid ostida
0.31 – 0.60	O‘rta xavfsizlik	Nisbatan barqaror, ammo zaif jihatlar mavjud
0.61 – 1.00	Yuqori xavfsizlik	Korxona barqaror va himoyalangan holatda

Faraz qilaylik, “RealTex Group” korxonasining iqtisodiy xavfsizlik indikatorlari quyidagicha o‘zgaradi:

2-jadval

“RealTex Group” korxonasining iqtisodiy xavfsizlik indikatorlari

Yil	Moliyaviy indeks	Samaradorlik	Innovatsion	Bozor	Tashqi iqtisodiy	Umumiy indeks
2020	0.62	0.55	0.30	0.47	0.52	0.49
2021	0.70	0.59	0.35	0.50	0.54	0.54
2022	0.73	0.63	0.44	0.52	0.57	0.58
2023	0.77	0.67	0.53	0.56	0.60	0.63
2024	0.80	0.71	0.61	0.60	0.64	0.68

Manba: Muallif tomonidan tuzilgan

Yuqoridagi jadvaldan quyidagilarni ko‘rishimiz mumkin:

- 2020–2021-yillarda korxonaning moliyaviy xavfsizlik darajasi past bo‘lgan, biroq keyingi yillarda rentabellik va likvidlik oshishi ijobiy ta’sir ko‘rsatgan.

- Innovatsion komponent 0.30 dan 0.61 gacha oshgan — bu texnologik yangilanishlar va R&D xarajatlarining o‘sishini anglatadi.

- Umumiy iqtisodiy xavfsizlik indeksi 0.68 ga yetib, “barqaror xavfsizlik” darajasiga chiqqan.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, biznes faoliyatida iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlash — bu korxonaning moliyaviy, ishlab chiqarish, innovatsion va tashqi iqtisodiy omillar o‘rtasidagi muvozanatni saqlash jarayonidir. “RealTex Group” korxonasining 2020–2024-yillardagi tahlili shuni

tasdiqlaydiki, iqtisodiy xavfsizlik darajasi bosqichma-bosqich yaxshilanib, umumiy indeks 0,49 dan 0,68 gacha oshgan.

Tahlil shuni ko‘rsatdi:

- Korxonaning moliyaviy xavfsizligi oxirgi yillarda barqarorlashgan, bu esa likvidlik darajasi va rentabellikning oshganini bildiradi.
- Innovatsion komponent sezilarli o‘sishga erishgan bo‘lsa-da, u hali ham nisbatan past darajada qolmoqda; bu R&D faoliyatini kengaytirish zarurligidan dalolat beradi.
- Bozor va tashqi iqtisodiy xavfsizlik nisbatan barqaror, biroq eksport ulushining oshishi korxonaning umumiy himoyalanish darajasini yanada mustahkamlashi mumkin.

Ushbu natijalar asosida iqtisodiy xavfsizlikni mustahkamlash uchun quyidagi tavsiyalar ilgari suriladi:

- Moliyaviy boshqaruvni takomillashtirish
- Moliyaviy oqimlar tahlilini avtomatlashtirish, likvidlikni real vaqt rejimida nazorat qilish tizimini joriy etish;
- Qarzdorlik koeffitsientini optimallashtirish va moliyaviy risklarni diversifikatsiya qilish.
- Ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlariga (R&D) ajratiladigan mablag‘ni oshirish;
- Yangi texnologiyalarni joriy etishda xalqaro tajriba va grant dasturlarini jalb qilish;
- Raqamli yechimlar va avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlaridan keng foydalanish.
- Bozor xavfsizligini ta’minlash
- Ichki bozorda brend pozitsiyasini mustahkamlash va eksport bozorlarini diversifikatsiya qilish;
- Marketing strategiyalarini bozor kon’yunkturasiga moslashtirish, raqobat ustunligini doimiy monitoring qilish.

Umuman olganda, iqtisodiy xavfsizlikni baholashda integral indeks modeli korxona barqarorligini kompleks tarzda tahlil qilish imkonini beradi. Ushbu yondashuv O‘zbekiston sanoat korxonalari uchun amaliy ahamiyatga ega bo‘lib, u nafaqat iqtisodiy tahdidlarni erta aniqlash, balki strategik rivojlanish yo‘nalishlarini ilmiy asosda belgilash imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Senchagov, V. K. (2019). Ekonomicheskaya bezopasnost: teoriya, metodologiya i praktika. Moskva: Finansy i Statistika.
2. Shumpeter, J. A. (1934). The Theory of Economic Development. Cambridge, MA: Harvard University Press.
3. Porter, M. E. (1990). The Competitive Advantage of Nations. New York: Free Press.
4. Abdurahmonov, T., Toshpulatov, N., & Usmonov, Z. (2023). O‘zbekiston sanoat korxonalarida iqtisodiy xavfsizlikni baholash indikatorlari. Iqtisodiyot va innovatsiyalar jurnali, №3, 45–53.
5. Growingscience Journal. (2022). Multivariate analysis of enterprise economic security indicators. Decision Science Letters, 11(2), 245–260.
6. European Science Journal. (2018). Indicator-based assessment of enterprise economic security. European Science, 1(37), 110–118.
7. Ponomareva, T. M., & Frolova, L. V. (2020). Modern approaches to assessing the economic security of enterprises. Economic Annals-XXI, 183(5–6), 40–46.
8. Ulug‘bek, A., & Rahmatullayev, D. (2021). Korxonalarda iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlash mexanizmlarini takomillashtirish. O‘zbekiston iqtisodiy axborotnomasi, №4, 27–33.
9. EBRD. (2023). Transition Report 2023/24: Business resilience in emerging economies. London: European Bank for Reconstruction and Development.
10. State Statistics Committee of the Republic of Uzbekistan (2024). Industrial Development Indicators Report 2020–2024. Toshkent: Statistika Qo‘mitasi nashriyoti.

UDK: 338.1

ANALYSIS OF INCOME AND WEALTH INEQUALITY IN UZBEKISTAN

O‘ZBEKISTONDA DAROMAD VA BOYLIK TENGSIZLIGI TAHLILI

АНАЛИЗ НЕРАВЕНСТВА ДОХОДОВ И БЛАГОСОСТОЯНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ

Sobirxujayev Xadyatillo
Faculty of Economics, National University of Uzbekistan

Abstract

This paper analyzes income and wealth inequality in Uzbekistan during the period 2014-2024. Using the Gini coefficient, quintile and decile ratios, and inflation-adjusted data, the study evaluates disparities among different segments of the population. It also examines the effects of government social protection policies, particularly the increases in pensions, social benefits, and targeted compensations. The paper concludes with several recommendations aimed at reducing inequality and promoting a more balanced economic distribution.

Key words: income, inequality, wealth, Gini coefficient, Lorenz curve, social protection, government

Ushbu maqolada 2014-2024 yillardagi O‘zbekistondagi daromad va boylik tengsizligi tahlil qilinadi. Tadqiqotda Gini koeffitsienti, kvintil va detsil nisbatlari hamda inflyatsiyaga moslashtirilgan ma’lumotlardan foydalangan holda aholining turli qatlamlari o‘rtasidagi tafovutlar baholanadi. Shuningdek, u hukumatning ijtimoiy himoya siyosatining, xususan, pensiyalar, ijtimoiy nafaqalar va maqsadli kompensatsiyalarning oshishining ta'sirini o‘rganadi. Maqola tengsizlikni kamaytirish va yanada muvozanatli iqtisodiy taqsimotni rag'batlantirishga qaratilgan bir nechta tavsiyalar bilan yakunlanadi.

Kalit so‘zlar: daromad, tengsizlik, boylik, Gini koeffitsienti, Lorenz egri chizig'i, ijtimoiy himoya, hukumat

В данной работе анализируется неравенство доходов и благосостояния в Узбекистане в период с 2014 по 2024 год. Используя коэффициент Джини, квинтильные и децильные коэффициенты, а также данные с поправкой на инфляцию, исследование оценивает неравенство между различными слоями населения. Также рассматривается влияние государственной политики социальной защиты, в частности, повышения пенсий, социальных пособий и адресных компенсаций. В заключение работы даются рекомендации, направленные на сокращение неравенства и содействие более сбалансированному экономическому распределению.

Ключевые слова: доход, неравенство, благосостояние, коэффициент Джини, кривая Лоренца, социальная защита, государство

Income and wealth inequality remains one of the key challenges to sustainable economic development. Inequality affects not only economic indicators but also social stability and overall well-being. Therefore, one of the main responsibilities of the state is to ensure that economic growth is accompanied by equal opportunities for broad segments of the population.

Over the past decade, Uzbekistan has implemented a series of gradual market reforms, including the liberalization of the exchange rate, transition to market-based price setting, simplification of taxation, reduction of state intervention in the economy, and improvement of legal and institutional conditions for private entrepreneurship. These reforms have expanded overall economic activity, accelerated investment inflows, and significantly boosted growth rates. However, this growth has been unevenly distributed due to labor market characteristics, geographic disparities,

and financial imbalances. Wages have risen faster in sectors with higher skills and greater capital intensity. Urban areas have maintained a dominant position, while returns from assets have increasingly accumulated among wealthier groups. At the same time, measures such as pension and benefit indexation, targeted cash transfers, and improved mechanisms for identifying vulnerable households helped cushion the impact on lower-income groups. Yet, the structural nature of growth and its concentration effects limited the re-distributive impact of these policies. Consequently, a substantial share of newly created value continued to concentrate among higher-income quintiles, while the share of lower-income groups kept declining.

The main objective of this study is to analyze the dynamics of income and wealth inequality in Uzbekistan by examining changes in the Gini coefficient over time, its structural sources, and the distributional features across population groups. Using quantitative methods, the study aims to measure inequality while also evaluating the contribution of key social protection policies in reducing inequality. It further seeks to identify mechanisms for strengthening the protection of lower-income quintiles amid rising prices and increasing cost pressures.

The scientific novelty of this research lies in its integrated approach to both income and wealth inequality. It simultaneously examines the accumulation and distribution of wealth, decomposes the contribution of various income sources within households to overall inequality, and assesses the accuracy and coverage of social protection measures. Moreover, the study develops alternative scenarios for instance, estimating the likely Gini coefficient in the absence of social transfers to evaluate how re-distributive interventions affect equity and efficiency. Based on these results, the study proposes practical policy recommendations aimed at maintaining the purchasing power of low-income groups, expanding equality of opportunity across regions, and mitigating imbalances arising from excessive concentration of wealth.

This paper therefore addresses the following key questions: how income and wealth inequality in Uzbekistan have evolved over the past decade, what the main drivers behind these changes are, and to what extent social protection measures have succeeded in mitigating inequality.

The issue of income and wealth inequality has long been central in both economic and social sciences. Early theoretical approaches viewed inequality as both a source of economic incentive and efficiency and, at the same time, a potential cause of social conflict and instability [7]. Later studies, notably by Atkinson[5], Piketty [6], and Stiglitz [9], emphasized that persistent income inequality undermines inclusive growth, reduces social mobility, and deepens structural disparities. Empirical evidence provided by Milanovic[12] further indicates that inequality tends to rise over time in economies undergoing structural transformation.

In the post-Soviet context, income inequality has mainly been analyzed from the perspective of the transition from centrally planned to market economies. During the 1990s, the collapse of the Soviet-era social protection system and market liberalization led to sharp increases in income disparities across Eastern Europe and Central Asia[11]. However, in some Eastern European countries, later redistributive policies and the introduction of targeted social assistance mechanisms helped to moderate inequality.

In Uzbekistan and the wider Central Asian region, research on income and wealth inequality remains limited. Reports by the World Bank[16, 17] and the Asian Development Bank[18] highlight not only the decline in poverty but also the persistence of income inequality, particularly between urban and rural areas. Academic studies in this field have primarily focused on poverty dynamics, remittances and their impact on distribution [13], as well as the role of state-led economic reforms[10]. However, comprehensive studies systematically analyzing inequality trends in Uzbekistan using multiple statistical indicators are almost nonexistent. Most existing research relies solely on poverty rates or, at best, the Gini coefficient. Such approaches offer only a partial view of the income and wealth distribution landscape. Furthermore, the effects of recent large-scale reforms on income distribution remain underexplored.

This paper seeks to fill that research gap. By evaluating income and wealth inequality in Uzbekistan over the period 2014-2024 through multiple quantitative indicators such as the Gini coefficient[1], Lorenz curve[2], quintile and decile ratios, funds coefficient, entropy index, Shannon-

Weaver index[3] and Herfindahl-Hirschman index [3], the study adopts a multidimensional analytical framework[19]. In doing so, it contributes to ongoing discussions on achieving fair and inclusive development within Uzbekistan’s context of rapid economic growth.

This study applies a set of economic and statistical methods to quantitatively assess income and wealth inequality. First, the Gini coefficient was calculated based on the Lorenz curve to measure deviations in income distribution, and a time series was constructed to track changes over the analyzed period. To illustrate differences across population groups more precisely, the analysis proceeded by examining the distribution by quintiles. The funds coefficient defined as the ratio of the income share of the richest 20 percent to that of the poorest 20 percent was also computed.

To identify how variations in income composition contribute to inequality, the study assessed household income diversification across major sources wages, in-kind income, property income, and social transfers. Using the Herfindahl-Hirschman Index (HHI), Shannon index, and Entropy index, the degree of concentration and dispersion of income sources was quantitatively measured. Each source’s share of total income was compared with its associated inequality “concentration,” revealing which income sources are more common among lower quintiles and help reduce inequality, and which are concentrated among higher quintiles, thus widening disparities.

The study also evaluated the effects of price increases and unemployment on income inequality through an econometric relationship estimated using the Ordinary Least Squares (OLS) method. Furthermore, the re-distributive impact of social protection measures was tested under a counterfactual scenario. This approach simulated the absence of social assistance to estimate how much lower-income households’ net income would decline and how inequality would rise without such interventions, thereby quantifying the “invisible” equalizing effect of government support.

Income distribution among the population of Uzbekistan underwent significant changes between 2014 and 2024. According to official data, income inequality declined in the mid-2010s. For example, the Gini coefficient fell from 0.30 in 2011 to 0.26 in 2016, indicating a relatively more even distribution of income during that period. However, after 2016, a gradual upward trend emerged, and inequality began to intensify again in recent years.

World Bank data show that the Gini coefficient stood at 0.329 in 2021, slightly declined to 0.312 in 2022, but then rose sharply to 0.345 in 2023. By the end of 2023, Uzbekistan’s Gini coefficient was around one of the higher levels in Central Asia. For comparison, Kazakhstan recorded a Gini coefficient of 0.29 in 2021. The following table presents the share of total income received by each quintile group.

Table 1.

Income shares and inequality indicators by quintile group in Uzbekistan [1]

Year	I quintile	II quintile	III quintile	IV quintile	V quintile	Funds coefficient
2017	9,3	13,6	17,3	21,8	37,9	4.08
2018	9,3	13,6	17,2	22,0	37,8	4.06
2019	9,1	13,6	17,4	22,6	37,3	4.10
2020	8,5	13,3	17,2	22,6	38,3	4.51
2021	8,4	13,4	17,5	23,0	37,6	4.48
2022	8,6	13,1	16,8	22,0	39,5	4.59
2023	8,3	12,8	16,9	22,7	39,2	4.72
2024	8,3	12,9	16,9	22,7	39,2	4.72

During the period, the funds coefficient was around 4.08 in 2017 and stabilized within the range of 4.5-4.7 between 2020 and 2024. The geometry of this imbalance is visualized through the Lorenz curve in Graph 1.



Graph 1. Lorenz curve in different years [2]

Alongside income, the distribution of wealth and capital within society also holds major significance. Unfortunately, official data on wealth inequality in Uzbekistan remain limited. Nevertheless, several international studies and indirect estimates indicate that wealth is distributed highly unevenly among the population. According to the World Inequality Database, the richest 10 percent of Uzbekistan’s population receive approximately 48.3 percent of the national income.

At this point, it is also essential to examine the role of government social transfers in assessing income inequality. The Gini coefficient reported in official statistics typically includes these transfers, which tends to make the measured inequality appear lower. If these transfers were excluded, the actual level of inequality would be considerably higher. For the counterfactual analysis, the share of government transfers in total household income was taken as 9.5 percent [3]. This means that without these transfers, the income share of the lowest quintiles would decrease by that proportion, while the share of the higher quintiles would rise correspondingly. The following presents the calculation process in detail:

$$S_i^{\text{no-tr}} = \frac{S_i^{\text{obs}} - w_i \cdot 9{,}5}{100 - 9{,}5} \times 100$$

$S_i^{no\text{-}tr}$ - share without transfers, S_i^{obs} - observed transfers. w_i - transfer distribution.

Table 2.

Quintile groups [4]

Quintile	Observed share	Share calculated without transfers
1	8,3 %	5,8 %
2	12,9 %	11,1 %
3	16,9 %	13,6 %
4	22,7 %	20,9 %
5	39,2 %	48,6 %

Gini coefficients:

$G_{obs} = 0{,}345$ $G_{no\text{-}tra} = 0{,}412$

The findings indicate that government social assistance programs have reduced inequality by approximately 0.067 points.

At the same time, income diversification can be considered another key explanatory factor for inequality. Wealthier households typically have access to passive income sources, additional business ventures, financial assets, and property. In contrast, low-income households often rely on multiple

jobs, small-scale farming, or livestock activities to manage risk and maintain stability. Thus, the composition and share of income sources have a direct impact on the Gini coefficient and quintile disparities. To better understand the drivers of income disparities, we examine the composition of household income by source in Table 3.

Table 3.

Population income structure [5]

Indicator name/year	2020	2021	2022	2023
Total earnings total	100.0	100.0	100.0	100.0
Primary income	75.4	73.8	70.1	73.3
Income from production	73.3	71.7	67.9	70.5
Income from work	65.9	65.0	61.4	64.0
Income of hired workers	27.3	28.5	28.4	29.7
Income from self-employment	38.6	36.5	33.0	34.3
Income from self-produced services for own use	7.4	6.7	6.5	6.5
Income from property	2.1	2.1	2.2	2.8
Income from transfers	24.6	26.2	29.9	26.7

To capture the degree of concentration and diversity of income sources, several key indices were applied. The Herfindahl-Hirschman Index (HHI) reflects the level of concentration among income sources and indicates whether certain income categories or economic activities dominate the overall income structure. A higher HHI value suggests that a few sources or activities account for a disproportionately large share of total income, implying greater concentration. In contrast, the Shannon-Sheaver Index and the Entropy Index measure the extent of diversity and balance across income sources. A higher value of these indices signifies a more diversified and stable income composition, where households receive earnings from a broader range of sources with relatively balanced shares.

$$\mathrm{HHI} = \sum_{i=1}^{n} s_i^2$$

$$E = -\sum_{i=1}^{n} s_i \cdot \ln(s_i)$$

$$H = -\sum p_i \ln(p_i)$$

s_i;p_i - Proportion of income from source i. According to the formulas above:

Table 4.

Indicators of income diversification

Index /year	2020	2021	2022	2023
HHI	0.5007	0.4961	0.4711	0.4859
Entropy	0.8936	0.8932	0.9221	0.9160
Shannon-Sheaver	0.8936	0.8932	0.9221	0.9160

The data in the table show that income source diversity has gradually increased over the years. This indicates that economic actors are increasingly generating income from multiple sources rather than relying on a single one. The highest level of diversification was recorded in 2022, followed by a slight decline in 2023. This suggests, on one hand, that wealthier households are earning more from capital and assets, and on the other hand, that the government has expanded support for lower-income groups.

At the same time, factors such as inflation, unemployment, wage disparities, and the pace of economic growth also contribute to noticeable differences in living standards. As emphasized in the literature, macroeconomic factors significantly influence income inequality (Atkinson, 2015). To empirically examine these relationships, a regression model covering the period 2020–2024 was constructed using key macroeconomic indicators such as unemployment and inflation. The econometric relationship was estimated with the help of the STATA software, based on the data and statistical tables presented above.

Source	SS	df	MS	Number of obs	=	6
				F(2, 3)	=	18.99
Model	13.7476908	2	6.8738454	Prob > F	=	0.0198
Residual	1.08564253	3	.361880842	R-squared	=	0.9268
				Adj R-squared	=	0.8780
Total	14.8333333	5	2.96666667	Root MSE	=	.60157

gini	Coef.	Std. Err.	t	P>|t|	[95% Conf.	Interval]
inflation	1.288812	.2241325	5.75	0.010	.5755221	2.002102
unemployment	-.8918488	.1577721	-5.65	0.011	-1.39395	-.3897477
_cons	24.872	1.61487	15.40	0.001	19.73276	30.01123

Graph 2. Inequality, Inflation, and Unemployment. [6]

Regression equation:

Gini= 24,9 + 1,3 * Inflation - 0,9 * unemployment

According to the model, the Gini coefficient would stand at approximately 0.249 under natural levels of inflation and unemployment. When the unemployment rate remains constant, a 1 percent increase in inflation raises the Gini coefficient by about 1.29 points. This positive relationship aligns with economic theory, as rising prices disproportionately affect low-income households, thereby widening income disparities. The overall model is statistically significant, explaining around 93 percent of the variation in income inequality through changes in inflation and unemployment rates.

The observations above indicate that income inequality dynamics in Uzbekistan are shaped not only by the overall pace of economic growth but also by how that growth is distributed. Changes in income composition clearly reflect the country’s structural transformation and labor market dynamics.

First, the share of income from employment shows a declining trend from 65.9 percent in 2020 to 61.4 percent in 2022 before partially recovering to 64.0 percent in 2023. This decline reflects, on one hand, structural diversification of the economy, and on the other, the widespread nature of informal employment. At the same time, the gradual rise in the share of employee wages (from 27.3 to 29.7 percent) suggests that formal labor relations in the production and services sectors are expanding. Second, the share of self-employment income fell from 38.6 percent in 2020 to around 33 percent in 2022, then rose again to 34.3 percent, reflecting the sensitivity of private entrepreneurship to changing market conditions. Rising prices, growing competition, and limited access to capital likely put pressure on small business incomes. Third, the share of social transfers increased from 24.6 percent in 2020 to 29.9 percent in 2022, before slightly declining to 26.7 percent in 2023. This shows that government support mechanisms have played an important role in cushioning inequality. However, short-term fluctuations in transfers reflect their dependence on growth performance and fiscal constraints. Fourth, the relatively faster growth of property income (from 2.1 to 2.8 percent) indicates a growing concentration of wealth among higher-income groups, which may further increase inequality in the long term. Fifth, the decline in income from small business activity (from 60.3 to 56.4 percent, later rising slightly to 57.0 percent) points to a reduced contribution of this sector to overall economic growth and raises concerns about income stability for many households.

Regionally, disparities also expanded: in 2024, the average wage in Tashkent City was 2.3 times higher than in the least developed regions. These regional and sectoral differences remain key drivers of overall inequality. High inequality restricts access for low-income groups to essential services such as education and healthcare, heightens social tensions, and can slow economic growth. World Bank experts note that the rise in inequality in 2023 caused poverty reduction to proceed more slowly than

expected; if income growth had been more evenly distributed, poverty could have fallen by an additional 2-3 percentage points. Thus, narrowing the gap between rich and poor is not only a matter of fairness but also an essential condition for sustainable economic development.

Viewed in a regional and global context, Uzbekistan falls within the group of countries with moderate inequality. With a Gini coefficient around 0.34, it ranks above Kazakhstan (0.28-0.30), close to Kyrgyzstan (around 0.30), and slightly below Russia (0.37). Developed OECD countries generally show lower inequality, with most European nations in the 0.25-0.30 range such as Sweden (0.28) and Germany (0.29) where redistribution policies effectively narrow market-based disparities. In contrast, regions like Latin America exhibit historically high inequality. From this perspective, Uzbekistan’s inequality remains moderate lower than in Latin America but higher than in advanced European and East Asian economies.

In recent years, Uzbekistan’s social protection and redistribution policies have had a noticeable impact on inequality. The effectiveness of transfers in reducing inequality depends largely on their design. When assistance is well-targeted and directed toward genuinely vulnerable groups, the positive effect strengthens. Previously, Uzbekistan maintained low prices for essential goods, energy, and utilities through implicit subsidies that benefited a wide share of the population. More recently, the government has shifted away from this system, moving toward market-based pricing while introducing targeted compensations.

The analysis of social transfers shows that while government support has significantly raised the real incomes of lower quintiles, inequality is not determined solely by fiscal redistribution but also by differences in access to income-generating opportunities. Final income levels depend not only on transfers but also on households’ participation in the labor market, property ownership, and engagement in additional economic activity. Therefore, income diversification serves as a complementary indicator for understanding the complex mechanisms behind inequality.

From a policy perspective, reducing inequality requires transforming diversification into an opportunity accessible to all groups. Expanding access to skills development, supporting small business, and broadening financial inclusion can enhance income bases among lower groups and reduce inequality. Hence, diversification indicators should not merely be seen as statistical supplements but as guiding tools for social policy revealing how income is generated across different social strata.

Finally, such structural shifts in income composition do not occur independently of macroeconomic conditions. Inflation, unemployment, productivity, and fiscal policy directly and indirectly shape household income formation. Rising inflation erodes real wages, hitting low- and middle-income groups hardest, since their consumption baskets are dominated by food and utilities (inflation tax). Wealthier households, by contrast, can offset inflation through asset income and diversified investments, making inflation an inequality-increasing mechanism a well-established principle in economic theory[5].

Unemployment also exerts a dual and complex influence. On one hand, job losses deprive many of stable income sources, deepening poverty and social stratification. On the other hand, because informal labor is underrepresented in official statistics, a rise in unemployment can sometimes mathematically reduce the measured Gini coefficient, even as real inequality worsens. Therefore, assessing the true impact of unemployment and inflation on inequality requires incorporating informal sector activity, social transfers, and income diversification.

Combating inequality thus requires ensuring macroeconomic stability and effectively targeting social policy as interdependent objectives. Sustained growth, stable employment, and price stability are therefore prerequisites for effective social policy.

The experience of other countries shows that targeted social and economic policies implemented in accordance with international organizations’ recommendations can be effective in reducing inequality. For example, Asian countries such as South Korea and Singapore directed large investments into education and healthcare during periods of economic growth, successfully building a broad middle class and keeping inequality relatively low. China, meanwhile, has in recent years called for greater social responsibility among the wealthy to curb the inequality that has accompanied

its rapid growth. Kazakhstan has also been discussing plans to increase the tax burden on affluent individuals, for instance by introducing a luxury property tax, as part of efforts to redistribute wealth.

For Uzbekistan, key priorities in this direction include creating skilled jobs in the labor market, reducing regional disparities, and supporting small businesses. Based on this, a strategy to reduce income inequality and improve the Gini coefficient should rest on three main pillars:

First, enhancing the targeting and effectiveness of social transfers;

Second, strengthening redistributive mechanisms within the tax system;

Third, developing institutions that ensure equality of opportunity.

If these measures are implemented consistently, Uzbekistan will be able to draw on international experience to maintain control over inequality while sustaining economic growth. This will serve not only as a foundation for social stability but also as a key condition for long-term sustainable economic development.

List of references:

1. Gini, C. (1912). Variabilità e mutabilità. Motta di Livenza: Tipografia di Paolo Cuppini.
2. Lorenz, M. O. (1905). Methods of Measuring the Concentration of Wealth. Publications of the American Statistical Association, 9(70), 209-219.
3. Herfindahl, O. C. (1950). Concentration in the U.S. Steel Industry. PhD dissertation, Columbia University. Background note (FRASER):
4. Wooldridge, J. M. (2020). Introductory Econometrics: A Modern Approach (7th ed.)
5. Atkinson, A. B. (1970). On the Measurement of Inequality. Journal of Economic Theory, 2(3), 244-263.
6. Ҳашимов, П. З., ва Абдужалилова, Д. И. (2020). Даромадлар табақаланиши аҳоли турмуш даражасини ифодаловчи кўрсаткич сифатида. Иқтисод ва молия, 2020, 4(136), 54-60.
7. Kuznets, S. (1955). Economic Growth and Income Inequality. American Economic Review, 45(1), 1-28.
8. Piketty, T. (2014). Capital in the Twenty-First Century. Harvard University Press.
9. Stiglitz, J. E. (2012). The Price of Inequality. W. W. Norton & Company.
10. Pomfret, R. (2019). The Central Asian Economies in the Twenty-First Century. Princeton University Press.
11. Kanbur, Ravi & Lustig, Nora. (1999). Why Is Inequality Back on the Agenda?
12. Milanovic, Branko. 2016. Global Inequality: A New Approach for the Age of Globalization.
13. Clément, Matthieu. 2011. “Remittances and Household Expenditure Patterns in Tajikistan: A Propensity Score Matching Analysis.” Asian Development Review 28(2): 58-87
14. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi. (2024). Aholi daromadlarining 20-foizli guruhlari bo‘yicha notekis taqsimlanishi (kvintil I-V):
    3093 (I): https://api.siat.stat.uz/media/uploads/sdmx/sdmx_data_3093.pdf;
    3094 (II): https://api.siat.stat.uz/media/uploads/sdmx/sdmx_data_3094.pdf;
    3095 (III): https://api.siat.stat.uz/media/uploads/sdmx/sdmx_data_3095.pdf;
    3096 (IV): https://api.siat.stat.uz/media/uploads/sdmx/sdmx_data_3096.pdf;
    3097 (V): https://api.siat.stat.uz/media/uploads/sdmx/sdmx_data_3097.pdf.
15. O‘zbekistonda ijtimoiy rivojlanish va turmush darajasi 2020-2023 hisoboti. Stat.uz
16. World Bank. Poverty and Equity Brief: Uzbekistan (Oct 2024).
17. World Bank. Poverty and Inequality Platform (PIP): Uzbekistan Country Profile.
18. World Inequality Database (WID). Uzbekistan Country Page.
19. International Monetary Fund (IMF). Inequality - overview and resources.

UDK: 338.48.:575.4

SHAHAR AGLOMERATSIYALARINI BOSHQARISHNING XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBALARI

ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ УПРАВЛЕНИЯ ГОРОДСКИМИ АГЛОМЕРАЦИЯМИ

EXPERIENCE OF FOREIGN COUNTRIES IN THE MANAGEMENT OF URBAN AGLOMERATIONS

Abdulxakimov Zuxrali Tursunaliyevich
Namangan davlat universiteti, “Yashil iqtisodiyot va barqaror biznes” kafedrasi dotsenti, PhD

Annotatsiya

Ushbu maqolada dunyo mamlakatlarida olib borilgan shahar aglomeratsiyalarini rivojlanishi, urbanizatsiyani chuqurlashuvi, undagi nomutanosib rivojlanish, tartibsiz migratsiyani tartibga solish bo‘yicha ma’lumotlar berilgan va shu asnoda shahar aglomeratsiyalarini rivojlanishiga xizmat qiluvchi ilmiy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar. Shahar aglomeratsiyasi, barqaror rivojlanish, urbanizatsiya, joylashtirish, migratsiya, mintaqalararo nomutanosiblik, tortishish qutblari, jahon shaharlari.

В данной статье представлена информация о развитии городских агломераций в странах мира, углублении урбанизации, неравномерном развитии в ней, регулировании беспорядочной миграции, и на этой основе разработаны научные рекомендации, служащие развитию городских агломераций.

Ключевые слова. Городская агломерация, устойчивое развитие, урбанизация, расселение, миграция, межрегиональные диспропорции, полюса притяжения, города мира.

This article provides information on the development of urban agglomerations in countries around the world, the deepening of urbanization, disproportionate development in it, and the regulation of irregular migration, and on this basis, scientific recommendations have been developed that serve the development of urban agglomerations.

Keywords. Urban agglomeration, sustainable development, urbanization, settlement, migration, interregional imbalance, poles of gravity, world cities.

XXI asrda dunyo xo‘jaligi o‘ziga xos bo‘lgan qarama-qarshiliklar, turli sanksiyali rivojlanishlar ko‘paygan bir davrda mamlakat iqtisodiyotini barqaror rivojlantirish, hamda mintaqalar iqtisodiyotini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini tashkil etishda shahar aglomeratsiyasi faoliyatini tahlil qilish, undagi tarkibiy o‘zgarishlarni inobatga olish talab etiladi.

Shahar aglomeratsiyalarning rivojlanishi klassik (yoki yirik shahar) urbanizatsiya bosqichida faol sanoatlashtirish natijasida shaharlarning jadal o‘sishidan so‘ng yuz berdi, bunda joylashtirishning aglomerasion ta’siri rolining oshishi hisobiga shahar aglomeratsiyalariga asosiy iqtisodiy funksiyalar tortila boshladi. Urbanizatsiyaning bu klassik bosqichida aglomeratsiyalarning o‘zida markaziy shahar eng faol rivojlanadi va markazga intiluvchi migratsiya oqimlari ustunlik qiladi. Bu borada Xitoyda shahar aglomeratsiyalari va megapolislarini yaratishni davlat-ma’muriy rag‘batlantirish misoli diqqatga sazovordir. So‘nggi 30 yil ichida bu mamlakatda urbanizatsiya darajasi deyarli uchdan bir qismga oshdi va endi Xitoy nafaqat qishloqdan ko‘ra ko‘proq shaharlashgan davlatga aylandi, balki aglomerasion joylashuvning afzalliklaridan faol va samarali foydalana boshladi. Bundan tashqari, rivojlanayotgan mamlakatlarda aglomeratsiyalarni rivojlantirish tajribasi alohida qiziqish uyg‘otadi. Rivojlanayotgan mamlakatlarda jadal va hatto portlovchi urbanizatsiya uchun aholi va iqtisodiyotning barcha sohalari ko‘p bo‘lmagan yetakchi va yirik markazlarda o‘sib

borayotgan konsentratsiya modeli xosdir. Ularning o‘sishi ko‘pchilik rivojlanayotgan mamlakatlarda kuzatilayotgan tug‘ilishning asta-sekin pasayishi bilan ham davom etadi.

Aholining qishloq joylaridan shaharlarga (ayniqsa, yirik va eng yirik markazlarga) ko‘chib o‘tishi yuqori sur’atlarda davom etadi. Buning sababi shundaki, rivojlanayotgan mamlakatlarda qishloq xo‘jaligi va qishloq joylari yer tanqisligi, sharoitlarning yomonlashuvi, shahar hayotining obro‘si ortib borayotgani tufayli qishloq aholisini ushlab tura olmaydi. Rivojlanayotgan mamlakatlarda yangi rayonlarni xo‘jalik jihatidan o‘zlashtirish ortiqcha qishloq aholisining biron-bir katta qismini o‘ziga singdira olmaydi. Agar shahar markazlarining rivojlanishi "o‘z holiga tashlab qo‘yilsa," qishloq joylaridan aholining nazoratsiz migratsiya jarayonlari uy-joy kommunal infratuzilma quvvatlariga haddan tashqari yukning shakllanishiga, shahar aholi punktlarining chekkalarida ijtimoiy-iqtisodiy marginal zonalarning paydo bo‘lishiga olib kelishi, mintaqalararo nomutanosibliklarning yanada mustahkamlanishiga yordam berishi va iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish uchun to‘siq bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Bunday tendensiyalar Lotin Amerikasi va Afrika mamlakatlaridagi ko‘plab shahar aglomeratsiyalariga xos bo‘lib, nafaqat iqtisodiy qoloqlik va tengsizlikni, balki ijtimoiy beqarorlikni ham saqlab qolishga yordam beradi. Ularning aksariyatida tugallanmagan demografik o‘tish aglomeratsiyalar aholisi sonining statistik qayd etilgan o‘sishi uchun qo‘shimcha shart-sharoitlar yaratadi. Yirik shahar bosqichida bunday "soxta urbanizatsiya"ning xavfi shahar iqtisodiyoti mavjud bo‘lmaganda, aslida qishloq hayot tarzini saqlab qoladigan haddan tashqari gavjum shaharlar va aholi gavjum shahar atrofi zonasining shakllanishi bilan bog‘liq. Shunday qilib, rivojlangan mintaqalarning aksariyatida shahar aholisining o‘sishi hozirgi kunga kelib deyarli chegaraviy darajaga yetdi va dunyoning aksariyat makromintaqalarida XX asr uchun o‘zgarmas bo‘lgan urbanizatsiyaning o‘sish tendensiyasi shahar aholisining aglomeratsiyalarning o‘zida qayta taqsimlanish jarayonlari bilan almashdi. Shu bilan birga, Osiyo, Afrika va ayniqsa, Lotin Amerikasining rivojlanayotgan mamlakatlarida shahar hududlarining jadal rivojlanishi kuzatilmoqda.

Amaliyot shundan dalolat beradiki, ijobiy aglomerasion samaralar mamlakatning xo‘jalik taraqqiyotiga ko‘maklashuvchi aholi va iqtisodiy faollikning "tortishish qutblari" shakllanishining ob’yektiv asosi hisoblanadi. Frost & Sullivan global konsalting kompaniyasining "Urbanizatsiya va megapolislar rivojlanishining mobillik va avtomobil texnologiyalarini rejalashtirishga ta’siri" tadqiqoti natijalari shuni ko‘rsatadiki, 2025 yilga kelib dunyo aholisining 60 foizi megapolislarda istiqomat qiladi. Bu jarayon rivojlanayotgan mamlakatlarda, ayniqsa, Hindiston va Xitoyda eng faol kechadi [1].

Globallashuv davrida millatning muvaffaqiyati uning shahar aglomeratsiyalari va ishlab chiqarish kuchlarining samaradorligiga bog‘liq. Globallashuv jarayoni qisqa muddatda urbanizatsiya va migratsiya jarayonlarining o‘sishini kuchaytiradi, bularning barchasini ijtimoiy tengsizlik bilan to‘ldiradi. "Jahon shaharlari" kabi hodisaning paydo bo‘lishi va rivojlanishi jahon raqobatiga ta’sir ko‘rsatdi. Bunday shaharlar boylik orttirish poygasida o‘z mamlakatlarini ancha ilgarilab ketgan edilar. Jahondagi muvaffaqiyatli shaharlar qatoriga kirish uchun shahar aglomeratsiyalarini boshqarishga yondashuvlar ilg‘or va samarali bo‘lishi kerak. So‘nggi yigirma yil ichida shaharlarni boshqarish bo‘yicha juda qiziqarli tajribalar Lotin Amerikasida o‘tkazildi, u yerda uchta mavjud tendensiya shaharlarni samarali boshqarish usullarini qayta ko‘rib chiqishga majbur qildi [2]:

1.Lotin Amerikasida urbanizatsiya misli ko‘rilmagan darajada avj oldi. Yuz yil oldin u yerda aholisi milliondan ortiq bo‘lgan birorta ham shahar yo‘q edi, hozir esa ularning soni ellikdan oshdi, ulardan to‘rttasi dunyoning eng yirik o‘nta shahri qatoriga kiradi: San-Paulu (17,5 million), Mexiko (16,7 million), Buenos-Ayres (12,6 million), Rio-de-Janeyro (10,6 million). Bundan tashqari, uchta shaharda aholi soni 5 milliondan oshdi: Bogota, Lima va Santyago, aholisi 3 milliondan ortiq bo‘lgan shaharlar va aholisi 100 mingdan ortiq bo‘lgan shaharlar soni ortib bormoqda [3]. Ushbu megapolislar mintaqalarida milliy ishlab chiqarish quvvatlarining yarmidan ko‘pi to‘plangan bo‘lib, ular o‘z navbatida global iqtisodiy tarmoqlarning bir qismidir [4]. Shunday qilib, Lotin Amerikasi dunyoning eng urbanizatsiyalashgan mintaqasiga aylandi: aholisining 80 foizi shaharlarda yashaydi [3].

2. XX asr oxirida Lotin Amerikasi mamlakatlarida siyosiy tuzum o‘zgara boshladi, demokratiyalashuv davri boshlandi, [5] natijada butun mintaqadagi munisipal organlar avtoritar rejim

elementlaridan saylanadigan tizimning bir qismiga aylantirildi, bu esa aholining shaharlarni boshqarishda u yoki bu darajada ishtirok etishini qo‘llab-quvvatlay boshladi, bu esa shahar hokimiyatining jamiyat oldidagi mas’uliyatini oshirdi.

3. Lotin Amerikasi mamlakatlari "Vashington konsensusi" asosida faoliyat yuritgan, ya’ni makroiqtisodiy barqarorlik, iqtisodiy ochiqlik, xususiy sektorni rivojlantirishni targ‘ib qilgan xalqaro moliya institutlari bosimi ostida qoldi. Bunday yondashuv ko‘rib chiqilayotgan mamlakatlar hukumatlarini o‘z vakolatlarining bir qismini xususiy qo‘llarga topshirishga, shu bilan davlat xarajatlarini kamaytirishga, ijtimoiy dasturlarning katta qismini amalga oshirish vakolatlarini mintaqaviy hokimiyatlarga berib, hokimiyatni nomarkazlashtirishga majbur qildi [6].

Ingliz iqtisodchisi J.Meynor turli mamlakatlardagi nomarkazlashtirish masalalarini tadqiq qilar ekan, muvaffaqiyatning faqat bir-biri bilan birgalikda ishlashi mumkin bo‘lgan to‘rtta eng muhim omilini sanab o‘tdi. Unga ko‘ra, muvaffaqiyatli markazlashtirilmagan tizimlar quyidagilarga ega bo‘lishi kerak:

1. Iqtisodiy rivojlanishning muhim sohalarini nazorat qilish va o‘z siyosiy tizimida ta’sirga ega bo‘lish imkoniyati.

2. Moliyaviy resurslar.

3. Ular oldiga qo‘yilgan vazifalarni bajarish uchun zarur bo‘lgan ma’muriy resurslar.

4. Saylangan siyosatchilar va byurokratik apparatning saylangan siyosatchilar oldidagi faoliyatini sifatli nazorat qila oladigan nazorat vositasi [6].

Qayd etilgan islohotlar natijasida shaharlarning investisiyalar uchun raqobati rivojlandi. Ba’zi asossiz byudjet qisqartirishlari o‘rta sinfning qo‘llab-quvvatlanishini yo‘qotishiga olib keldi, bu esa shahar xizmatlarining tumanlar va sinflarga bo‘linishiga olib keldi. Bunday holat Lotin Amerikasi mamlakatlarida ijtimoiy tengsizlikni yanada kuchaytirdi [2]. X.Kuadrado-Rour va X.Gyuelning fikricha, "mazkur mintaqada ma’muriy nomarkazlashtirishning rivojlanishi shahar o‘sishini tartibga solish va shahar iqtisodiyotining o‘sishiga ko‘maklashishda mintaqaviy muassasalarning institutsional va fiskal imkoniyatlarini oshiradi.

Shu bilan birga, ushbu muassasalarning funksional parchalanishi va hududiy jihatdan cheklangan yurisdiksiyasi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish uchun to‘siq hisoblanadi" [2]. Shaharlar iqtisodiyoti, ijtimoiy tarkibi, siyosiy tuzilishidagi jiddiy o‘zgarishlar natijasida munisipal, mintaqaviy, milliy hukumatlar o‘z faoliyatini modernizatsiya qilishga harakat qildilar, bu esa Lotin Amerikasi mamlakatlari, ayniqsa Argentina, Braziliya va Kolumbiyaning dunyoning eng markazlashmagan mamlakatlari qatoriga kirishiga olib keldi. Shahar boshqaruvini modernizatsiya qilish bo‘yicha Lotin Amerikasi mamlakatlari tajribasi munisipal va mintaqaviy boshqaruvni isloh qilishga urinishda hisobga olinishi kerak bo‘lgan ba’zi qonuniyatlarni aniqladi [7].

Birinchidan, boshqaruvning har bir sohasi uchun mos keladigan nomarkazlashtirish darajasini aniqlash kerak.

Masalan, shahar transportini boshqarish, kommunal xizmatlar ko‘rsatish mahalliy hokimiyat tomonidan eng samarali tarzda amalga oshiriladi, bolalar jinoyatchiligi masalalari esa mahalliy hamjamiyat tomonidan hal etilishi maqsadga muvofiqdir.

Ikkinchidan, eski va yangi siyosiy rejimlarning byurokratik tizimlari to‘qnashuvi sodir bo‘ladi, bu esa boshqaruv organlari ishiga putur yetkazadi, bu ishni samarasiz qiladi. Munisipal organlar ishining samaradorligini oshirish uchun jamoatchilik bilan aloqalarni yo‘lga qo‘yish, kommunikatsiyalar tizimini o‘zgartirish, axborotdan erkin foydalanishni ta’minlash zarur.

Uchinchidan, vakolatlar moliyalashtirish bilan tasdiqlanishi kerak. Yangi tashkil etilgan hokimiyat institutlari zarur resurslarsiz o‘z vakolatlarini amalga oshira olmaydi.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, mamlakat va mintaqalar rivojlanishida shaharlar aglomeratsiyasining roli yuqoridir, uning rolini aniqlash bo‘yicha nazariy masalalarga e’tibor qaratish bugunki kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Shu bilan birga shahar aglomeratsiyasi bilan bog‘liq ilmiy tadqiqotlar olib borgan ko‘plab tadqiqotchilar ilmiy tavsiyalari, ulardagi nazariy masalalar bo‘yicha muallif qarashlari ishlab chiqilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1 . Impact of Urbanization and Development of Megacities on Personal Mobility and Vehicle Technology Planning // http://www.frost.com/sublib/display-report.do?searchQuery.11. 01.14.
2 . Cuadrado-Roura J.R., Guell J.M.E. Metropolitan Areas and the Challenges of Competitiveness //In book:Governing the Metropolis. Principles and Cases. –Washington; Cambridge: Inter-American Development Bank, David Rockefeller Center for Latin American Studies, Harvard University, 2008.–R. 25-76.
3 State of the World's Cities 2010/2011: Bridging the Urban Divide Harmonious Cities / U.N.-HABITAT. - Sterling, VA, Earthscan, 2010 // https://unhabitat.org/books/state-of-the-worlds-cities-20102011-cities-for-all-bridging-the-urban-divide/.
4 Smith E.K. New Directions in Federal Economie Development Programs // Explorations in Economie Reseach. –1977. –Vol. 4, №3. – R. 345-469.
5 Diamond L., Plattner M.E., Brun D.A. et al. Latin America's Struggle for Democracy. - Baltimore, MD: Johns Hopkins University Press, 2008. – 150 r.
6 Manor J. The Political Economy of Democratic Decentralization. -Washington, D.C.: World Bank Publications, 1999 // http://www.ochadza.com/the-political-economy-of-democratic-decentralization-directions-in-development.pdf.
7 Garland A.M., Massoumi M., Ruble B.A. Global Urban Poverty. Setting the Agenda. - Washington, D.C.: Woodrow Wilson Center Comparative Urban Studies Project, 2007. – 269 r.

UDK: 334.012.8

KORXONALARNING MOLIYAVIY BARQARORLIGI VA MUSTAHKAMLIGINI O‘ZARO BOG‘LIQ HOLDA BAHOLASH METODOLOGIYASI

МЕТОДИКА ОЦЕНКИ ФИНАНСОВОЙ СТАБИЛЬНОСТИ И УСТОЙЧИВОСТИ ПРЕДПРИЯТИЙ ВО ВЗЯИМОСВЯЗАХ

METHODOLOGY FOR ASSESSING THE FINANCIAL STABILITY AND SUSTAINABILITY OF ENTERPRISES IN INTERRELATIONSHIPS

Muftaydinov Bobir Kiyomidinovich
Andijon davlat texnika instituti, “Buxgalteriya hisobi va menejment” kafedrasi katta o‘qituvchisi, Iqtisodiyot fanlari falsafa doktori (PhD)

Аннотация

Мазкур мақолада корхоналарнинг молиявий барқарорлиги ва молиявий мустаҳкамлигини инновацион ёндашувлар асосида таҳлил қилиш ҳамда уларнинг ўзаро боғлиқлигини аниқлаш методологияси ёритилган. Тадқиқотда рақамли иқтисодиёт шароитида молиявий таҳлилнинг янги усуллари, ахборот технологияларидан фойдаланиш имкониятлари ва молиявий кўрсаткичлар ўртасидаги ўзаро боғланишлар очиб берилган

Калит сўзлар: молиявий барқарорлик, молиявий мустаҳкамлик, инновацион ёндашув, рақамли таҳлил, интегралашган индекс, молиявий диагностика.

В статье рассматривается методология анализа финансовой устойчивости и финансовой устойчивости предприятий на основе инновационных подходов и определение их взаимосвязей. В исследовании раскрываются новые методы финансового анализа в условиях цифровой экономики, возможности использования информационных технологий и взаимосвязи между финансовыми показателями. Ключевые слова: финансовая устойчивость, финансовая устойчивость, инновационный подход, цифровой анализ, интегральный показатель, финансовая диагностика.

Ключевые слова: финансовая устойчивость, финансовая устойчивость, инновационный подход, цифровой анализ, интегрированный индекс, финансовая диагностика.

This article discusses the methodology for analyzing the financial stability and financial soundness of enterprises based on innovative approaches and identifying their interrelationships. The study reveals new methods of financial analysis, the possibilities of using information technologies and the interrelationships between financial indicators in the digital economy.

Keywords: financial stability, financial soundness, innovative approach, digital analysis, integrated index, financial diagnostics.

Korxonaning moliyaviy barqarorligi uning iqtisodiy va moliyaviy jihatdan mustahkam bo‘lish darajasi bilan chambarchas bog’liqdir. Bu o‘zaro bog’liqlikni tahlil qilish uchun korxonaning moliyaviy mustahkamligini aks ettiruvchi ko‘rsatkichlarni aniqlash zarur hisoblanadi. Innovasion iqtisodiyot sharoitida har bir korxona moliyaviy jihatdan etarli resurslarga ega bo‘lishi va ushbu sohada barqaror faoliyat yuritishi lozim.

Moliyaviy mustahkamlikning asosiy manbai korxona foydasi hisoblanadi, chunki foydasiz faoliyat yuritgan korxonada moliyaviy imkoniyatlar tobora cheklanib, oxir-oqibatda bankrotlik xavfi paydo bo‘ladi. Shu sababli, korxonaning moliyaviy barqarorligini ta’minlash uchun uning moliyaviy mustahkamligini tavsiflovchi ko‘rsatkichlarni tahlil etish talab etiladi.

Buning uchun korxonaning foydasi bilan bog’liq quyidagi ko‘rsatkichlar tizimini aniqlash lozim:

1. Biznes-rejada belgilangan foyda miqdori;
2. Me’yoriy (yoki rejaviy) rentabellik darajasini ta’minlovchi foyda miqdori;
3. Moliyaviy mustahkamlik darajasi;
4. Mahsulot (ish, xizmat) rentabellik darajasi.

Har bir ko‘rsatkich korxona faoliyati natijasiga bog’liq ravishda hisoblanadi. Agar faoliyat samaradorligi aniq ko‘rsatkichlar asosida baholanmasa, erishilgan natijalarni aniqlash qiyinlashadi.

Tadqiqotda metodologik asos sifatida ishlab chiqarish sohasida faoliyat yurituvchi korxonalar misolidagi natijalardan foydalaniladi. Endilikda ushbu ko‘rsatkichlarni aniqlash usullarini ko‘rib chiqamiz.

Biznes-rejada belgilangan foyda miqdori (Fbr) quyidagi formula asosida hisoblanadi:

$$Fbr=Mbr–(Dx+O‘x) \quad (1)$$

Bu erda:

– Mbr – biznes-rejada ko‘zda tutilgan mahsulot qiymati;

– Dx – doimiy xarajatlar;

– O‘x – o‘zgaruvchi xarajatlar.

Shuningdek, korxonaning moliyaviy barqarorligini ta’minlovchi muhim ko‘rsatkichlardan biri – me’yoriy rentabellik darajasini ta’minlovchi foyda miqdoridir. Bu ko‘rsatkichni aniqlash zaruriyati shundaki, har qanday rentabellik darajasi ham korxonaning moliyaviy mustahkamligi va barqarorligini kafolatlay olmaydi. Shu sababli, ayrim tarmoqlarda rentabellik darajasi me’yoriy asosda belgilanadi, boshqalarida esa uning aniq miqdori qat’iy tartibda belgilanib qo‘yiladi. Masalan, bir vaqtlar qishloq xo‘jaligi korxonalarida rentabellik darajasi 40 % dan past bo‘lgan hollarda ular uchun 3 % li soliq stavkasi belgilangan edi. Agar ushbu ko‘rsatkich 40 % dan yuqori bo‘lsa, 20 % li soliq stavkasi qo‘llanilishi nazarda tutilgan. Buning sababi shundaki, agar qishloq xo‘jaligi korxonasining rentabellik darajasi 40 % dan kam bo‘lsa, uning moliyaviy barqarorligini ta’minlash murakkab kechgan.

Shundan kelib chiqadiki, agar korxona moliyaviy jihatdan mustahkam bo‘lmasa, davlat ular uchun soliq yukini engillashtirgan. Demak, korxonalarning moliyaviy mustahkamligini ta’minlamasligi nafaqat korxonaning o‘ziga, balki davlat byudjetiga ham salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Shu bois, rentabellik darajasiga erishish uchun zarur bo‘lgan foyda miqdorini aniq belgilab borish va uning amaliy holatini doimiy ravishda baholab turish muhim ahamiyat kasb etadi.

Bu, ayniqsa, hozirgi innovasion iqtisodiyot sharoitida korxona faoliyati samaradorligini baholashda muhim ko‘rsatkichlardan biri sifatida qaralishi lozim. Ushbu ko‘rsatkichni hisoblash uchun quyidagi formula tavsiya etiladi:

$$Fr = \frac{Mbr \times Rme}{100}; \quad (2)$$

Bu yerda:

– Fr – belgilangan rentabellik darajasini ta’minlash uchun zarur bo‘lgan foyda miqdori (ushbu ko‘rsatkich biznes-rejada aks ettirilishi lozim);

– Mbr – biznes-reja bo‘yicha ishlab chiqarilishi rejalashtirilgan mahsulot (ish, xizmat)hajmi;

– Rme – erishish ko‘zda tutilgan (me’yoriy) rentabellik darajasi.

Korxonaning moliyaviy barqarorligi bilan bog‘liq holda uning moliyaviy mustahkamligini tavsiflovchi asosiy ko‘rsatkichlardan biri — moliyaviy mustahkamlik darajasi (Mmd) hisoblanadi. Bu ko‘rsatkichni aniqlash uchun biznes-rejada belgilangan foyda miqdori (Fbr) me’yoriy rentabellikni ta’minlash uchun zarur bo‘lgan foyda miqdoriga (Fmr) nisbatan hisoblanadi. Ushbu ko‘rsatkich quyidagi formula orqali topiladi:

$$Mmd = \frac{Fbr}{Fmr}; \quad (3)$$

Agar amaliy hisob-kitob natijasida Mmd ko‘rsatkichi 1 dan kichik bo‘lsa (Mmd < 1), bu korxona moliyaviy jihatdan hali yetarlicha mustahkam emasligini, demak, uning barqaror faoliyat yuritish imkoniyati cheklanganligini anglatadi. Boshqacha aytganda, korxona zarur moliyaviy manbalarni shakllantira oladigan darajada foyda topa olmayapti.

Agar Mmd > 1 bo‘lsa, bu holat korxonaning moliyaviy jihatdan mustahkam ekanligini va u barqaror rivojlanishni ta’minlash imkoniyatiga ega ekanligini ko‘rsatadi. Demak, korxona moliyaviy barqaror bo‘lishi uchun kamida me’yoriy rentabellik darajasini ta’minlaydigan foyda hajmiga ega bo‘lishi zarur.

Korxonaning moliyaviy barqarorligi va mustahkamligini baholashda yana bir muhim ko‘rsatkich — mahsulot (ish, xizmat) rentabelligi (Rm) hisoblanadi. Bu ko‘rsatkich hisobot davrida olingan foyda miqdori (F)ni 100 ga ko‘paytirib, shu davrda sotilgan mahsulot (ish, xizmat) hajmiga (M) bo‘lish orqali aniqlanadi:

$$Rm = \frac{F \times 100}{M}; \quad (4)$$

Ushbu ko‘rsatkich korxona faoliyati samaradorligini baholashda muhim ahamiyatga ega, chunki u ishlab chiqarish va sotish jarayonidagi foydalilik darajasini aks ettiradi.

Ushbu ko‘rsatkich an’anaviy hisoblanib, deyarli barcha sohalarda qo‘llaniladi. Biroq, moliyaviy barqarorlik va moliyaviy mustahkamlikni ifodalashda u yordamchi ko‘rsatkich sifatida xizmat qiladi, chunki aynan ushbu ko‘rsatkichning miqdori va o‘zgarishiga qarab, korxona me’yoriy rentabellik darajasiga erishganmi yoki yo‘qligini aniqlash mumkin. Shu orqali korxonaning hozirgi moliyaviy barqarorligi hamda kelgusidagi rivojlanish istiqboliga baho berish imkoniyati yaratiladi. Shuning uchun tahlil jarayonida korxonaning me’yoriy rentabellik darajasining qay darajada ta’minlanganligini aniqlash muhim hisoblanadi.

Korxonaning me’yoriy rentabellik darajasining ta’minlanganligini ifodalovchi ko‘rsatkichni (Rtd) aniqlash uchun korxona rentabelligini (Rm) me’yoriy rentabellik darajasiga (Rme) bo‘lish lozim. Buning uchun quyidagi formuladan foydalanish tavsiya etiladi:

$$Rtd = \frac{Rm}{Rme}; \quad (5)$$

Ushbu ko‘rsatkichning qiymati ham avvalgilar kabi 1 bilan solishtiriladi. Agar uning haqiqiy miqdori 1 dan kichik bo‘lsa (Rtd < 1), bu korxona hali me’yoriy rentabellik darajasiga erisha

olmaganini bildiradi. Aksincha, agar Rtd > 1 bo‘lsa, yuqorida ta’kidlab o‘tilganidek, bunday korxona moliyaviy barqarorlik orqali moliyaviy mustahkamlikka erishganini anglatadi.

Ushbu ko‘rsatkichlar tizimi va ularni aniqlash usullari quyidagi jadvalda keltirilgan (1-jadval).

1-jadval

Korxonaning moliyaviy mustahkamligini ifodalovchi ko‘rsatkichlar tizimi [1]

T/r	Ko‘rsatkich nomi	Aniqlanish formulasi	Izohi
1.	Biznes-rejada ko‘zda tutilgan foyda, ming so‘m (**Fbr**)	Fbr = Mbr - (Dx + Ox)	Rejadagi foydaning haqiqiy miqdorini aks ettiradi
2.	Me’yoriy rentabellikni ta’minlovchi foyda, ming so‘m (**Fr**)	Fr = Mbr × Rme / 100	Foydaning zarur miqdorini aniqlash imkonini beradi
3.	Moliyaviy mustahkamlik darajasi, koeffitsientda (**Mmd**)	Mmd = Fbr / Fr	Korxonaning moliyaviy mustahkamlik darajasini ifodalaydi
4.	Mahsulot (ish, xizmat) rentabellik darajasi, % (**Rm**)	Rm = F × 100 / M	Korxonaning rentabellik darajasini aks ettiradi
5.	Me’yoriy rentabellikning ta’minlanish darajasi, koeffitsientda (**Rtd**)	Rtd = Rm / Rme	Haqiqiy rentabellik darajasining holatini ifodalaydi

Jadvalda keltirilgan ko‘rsatkichlarni tahlil qilishda ularni nafaqat alohida, balki kompleks tarzda o‘rganish ham zarur. Shu yo‘l bilan korxonada moliyaviy mustahkamlikni ta’minlash uchun mavjud ichki imkoniyatlar (rezervlar) aniqlanadi.

Xulosa qilib aytganda, ushbu ko‘rsatkichlar tizimi asosida kompleks ko‘rsatkichni aniqlash uchun bir necha usullardan foydalanish mumkin. Shulardan biri — ko‘rsatkichlar o‘rtasidagi bog‘liqlikni ko‘paytirish asosidagi multiplikativ usuldir. Bundan tashqari, kompleks ko‘rsatkichni har bir ko‘rsatkichning individual indekslarini ko‘paytirish orqali ham aniqlash mumkin. Bunda faqat barcha ko‘rsatkichlar bir xil yo‘nalishga ega bo‘lishi ta’minlanadi.

Shu holda kompleks ko‘rsatkichni aniqlash uchun quyidagi multiplikativ modeldan foydalaniladi:

$$Mmkd = Ix_1 \times Ix_2 \times ... \times Ixn = \prod_{n} Ixi \qquad (6)$$

Bu formula orqali korxonaning moliyaviy mustahkamligi bo‘yicha umumiy (kompleks) ko‘rsatkich aniqlanadi.

Ushbu ko‘rsatkich moliyaviy barqarorlikni uning mustahkamligi bilan bog‘liq holda tahlil qilish jarayonida, o‘rtacha hisobda qanchalik o‘zgarayotganini ifodalaydi. Uni boshqa korxonalarning shunga o‘xshash ko‘rsatkichlari bilan taqqoslash orqali holat bo‘yicha tegishli xulosa chiqarish mumkin. Yuqorida keltirilgan ko‘rsatkichlar tizimi asosida kompleks ko‘rsatkich aniqlangandan so‘ng, ushbu toifa bo‘yicha batafsil tahlil o‘tkazish imkoniyati yaratiladi.

Korxonaning moliyaviy mustahkamligini va uni moliyaviy barqarorlik bilan o‘zaro bog‘liqligini tahlil qilishda, korxona faoliyatiga iqtisodiy nuqtai nazardan tashxis qo‘yiladi. Bunday yondashuv orqali har bir korxonaning nafaqat iqtisodiy, balki moliyaviy jihatdan ham qay дapaajada mustahkam va barqaror ekanligiga baho berish imkoniyati paydo bo‘ladi. Tahlil natijasida aniqlangan ko‘rsatkichlar asosida ularning o‘zgarish tendensiyalarini belgilab, asosli xulosa chiqarish mumkin bo‘ladi.

Hozirgi paytda tahlil jarayonida ko‘rsatkichlar asosan joriy baholarda olinadi. Biroq, aniq va real xulosa chiqarish uchun ularni solishtirma baholarda olish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Chunki bugungi sharoitda narxlarning tez-tez o‘zgarib turishi iqtisodiyotda qiymat bilan bog‘liq ko‘rsatkichlarni pul ifodasida to‘liq aks ettirish imkonini bermaydi.

Shu bilan birga, e’tirof etish lozimki, narx indeksi O‘zbekistonda muntazam ravishda ommaviy axborot vositalarida e’lon qilinmaydi. Shu sababli, yirik makroiqtisodiy darajadagi ko‘rsatkichlar tahlilda uslubiy asos sifatida olinadi hamda inflyatsiya darajasini hisobga olish maqsadida moliyaviy

o‘lchov birligi sifatida AQSh dollari ishlatiladi. Bu, o‘z navbatida, milliy valyutaning o‘zgarish dinamikasini hisoblash uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

Masalan, yil boshida 1 AQSh dollari 12000 so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, 6 oy o‘tgach 12200 so‘mga teng bo‘ldi. Bu holda so‘mning qadrsizlanish darajasi quyidagicha aniqlanadi:

12200 : 12000 = 1,017

Demak, mazkur davrda pul qadrsizlanish darajasi 1,017 koeffitsientga, ya’ni 101,7 % ga teng deb olinadi. Garchi bu ko‘rsatkich pulning real qadrsizlanishini to‘liq aks ettirmasa-da, hozirgi sharoitda tahliliy xulosa chiqarish uchun eng yaqin va maqbul natijani beradi.

Korxonaning moliyaviy barqarorligi va moliyaviy mustahkamligini ifodalovchi, ularni o‘zaro bog‘lovchi ko‘rsatkichlarni tahlil qilishda bir nechta iqtisodiy ko‘rsatkichlardan foydalanishga to‘g‘ri keladi. Ularning o‘zaro bog‘liqligi quyidagi jadvalda keltirilgan (2-jadval).

2-jadval

Korxonaning moliyaviy mustahkamligini ifodalovchi ko‘rsatkichlarni aniqlash hisob-kitobi [2]

№	Ko‘rsatkichlar	O‘tgan yil	Hisobot yili	Farqi (+,–)	O‘zgarish sur’ati, %
1.	Doimiy xarajatlar, mln so‘m (**Dx**)	1890,1	1980,2	+90,1	104,8
2.	Foyda, mln so‘m (**F**)	368,0	496,2	+128,2	134,8
3.	Bitta mahsulotning qiymati, ming so‘m	385,6	482,9	+97,3	125,1
4.	Bir mahsulotga to‘g‘ri keladigan o‘zgaruvchi xarajatlar, ming so‘m	195,6	272,9	+77,3	139,3
5.	Barcha mahsulotning miqdoriy hajmi, ming dona (**Mm**)	1188,5	1179,3	–9,2	99,2
6.	Barcha mahsulotning qiymatdagi hajmi, mln so‘m (**Mbr**)	4583,3	5694,5	+1111,2	124,3
7.	Ushbu tarmoqning me’yoriy rentabellik darajasi, %	10,0	10,0	–	100,0
8.	Me’yoriy rentabellik darajasini ta’minlovchi foyda, mln so‘m (**Fr**) (6×7÷100)	458,3	569,5	+111,2	124,3
9.	O‘zgaruvchi xarajatlarning umumiy hajmi (**Ox**), mln so‘m (4×5)	2325,2	3218,1	+898,9	138,4
10.	Moliyaviy mustahkamlik darajasi, koeffitsientda (**Mmd**) (2÷8)	0,803	0,871	+0,068	108,5
11.	Rentabellik darajasi, % (**R**) (2×100÷6)	8,029	8,714	+0,685	108,5
12.	Me’yoriy rentabellikning ta’minlanish darajasi (**Rtd**) (11÷7)	80,3	87,1	+6,8	108,5

Mazkur jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, korxonaning asosiy ko‘rsatkichlaridan biri bo‘lgan rentabellik darajasi o‘tgan yildagi 8,029 % o‘rniga hisobot yilida 8,714 % ni tashkil etgan bo‘lib, uning darajasi 0,685 bandga oshgan. Rentabellikning o‘sish sur’ati esa 108,5 % ni tashkil qilgan.

Ko‘rinib turibdiki, moliyaviy mustahkamlik darajasi hali ham 1 dan past. Shu sababli, bu holatda korxona to‘liq moliyaviy barqarorlikni ta’minlaydi, degan xulosa chiqarish uchun yetarli asos mavjud emas.

Ushbu tahlil qilinayotgan korxona bo‘yicha me’yoriy rentabellik darajasi shartli ravishda taxminan 10,0 % deb belgilangan. Bu me’yor turli sohalar va tarmoqlarda turlicha darajada belgilanadi. Biz tahlil qilayotgan tarmoqda bunday me’yor aniq o‘rnatilmagan bo‘lsa-da, tahlil metodologiyasini mukammal yoritish maqsadida, ushbu darajani real holatga yaqinroq qilib olish maqsadga muvofiq deb topildi.

Olib borilgan tahlil shuni ko‘rsatdiki, korxonada moliyaviy mustahkamlik darajasi belgilangan me’yorga nisbatan hali past bo‘lib, bu uning moliyaviy barqarorligini to‘liq ta’minlash imkoniyatini cheklaydi. Chunki o‘tgan yilda ushbu ko‘rsatkich me’yorga nisbatan 80,3 % ni tashkil qilgan bo‘lsa, hisobot yilida 87,1 % gacha oshgan. Shunday qilib, me’yorga nisbatan o‘tgan yilgi 19,7 % kamlik bu yil 12,9 % gacha qisqargan. Bu holatni ijobiy o‘zgarish sifatida baholash mumkin.

Biroq, shuni alohida ta’kidlash kerakki, moliyaviy mustahkamlik darajasi hanuz belgilangan me’yor darajasidan pastligicha qolmoqda. Odatda, ushbu ko‘rsatkich me’yor yoki undan yuqori darajada bo‘lsa, korxonaning moliyaviy barqarorligi to‘liq ta’minlangan deb hisoblanadi. Shunday natijalarga erishish uchun esa tegishli chora-tadbirlar ishlab chiqilishi zarur.

Korxonaning moliyaviy barqarorligi va mustahkamlik darajasi foyda miqdori hamda me’yoriy rentabellik darajasi bilan solishtirib tahlil qilindi. Tahlil natijalariga ko‘ra, ikkala holatda ham bir xil natijaga erishilgan. Shu bois, ushbu korxonada moliyaviy mustahkamlik darajasini oshirish va uni moliyaviy barqarorlik bilan bog‘liq holda mustahkamlash masalasiga alohida e’tibor qaratish lozim, degan xulosa chiqarish mumkin.

Ko‘rinib turibdiki, tahlil natijalari har qanday iqtisodiy ko‘rsatkichning turli yo‘nalishlarida ham aniq xulosa chiqarish imkonini beradi. Eng muhim masalalardan biri esa — har bir yo‘nalish bo‘yicha rentabellik darajasining me’yoriy miqdorini aniq belgilash zarurligidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Abdukarimov I.T. Moliyaviy hisobotni o‘qish va tahlil qilish yo‘llari. – T.: “Iqtisodiyot va huquq dunyosi” nashriyot uyi, 1998. – 82–86-betlar.
2. Barilenko V.I., Berdnikov V.V., Borodina E.I. Ekonomicheskiy analiz. – M.: Eksmo, 2010. – 352 s.
3. Vasileva L.S., Petrovskaya M.V. Finansoviy analiz. – M.: KNORUS, 2007. – 816 bet.
4. Vahabov A.V., Ibrohimov A.T., Yakubov U.K. Iqtisodiy tahlil va audit. – T.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2015. – 368 bet.
5. Lyubushin N.P. Ekonomicheskiy analiz. 3-nashr. – M.: “YUNITI-DANA”, 2013. – 575 s.
6. Maksyutov A.A. Ekonomicheskiy analiz. – M.: “YUNITI-DANA”, 2015. – 543 s.
7. Paliy V.F. Novaya buxgalterskaya otchetnost: soderjaniye, metodika analiza. – M.: Jurnal “Kontrolling”, 1991. – 29–34 betlar.
8. Pardaev M.Q. Iqtisodiy tahlil nazariyasi. – T.: “Fan va texnologiyalar nashriyot-matbaa uyi”, 2022. – 588 bet.
9. Rejapov X.X., Egamberdiyev I.J. o‘g‘li. (2022). O‘zbekistonda iqlim o‘zgarishining salbiy oqibatlarini yumshatishni faollashtirish yo‘nalishlari. Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya “Vremya nauchnogo progressa”, 1(2), 171–177. https://academicsresearch.ru/index.php/ispcttosp/article/view/785
10. Rejapov X., Turg‘unov T., Xolmu’minov X. Investment climate and directions for stimulation of attracting the foreign investment. // Nauchnoe nasledie, 2021, №64-3. https://cyberleninka.ru/article/n/investment-climate-and-directions-for-stimulyatsiya-of-attracting-the-foreign-investment (murojaat sanasi: 23.12.2023).

UDK: 338.467

MAISHIY XIZMAT KO‘RSATISH SOHASINI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSIYANING O‘RNI

РОЛЬ ИННОВАЦИЙ В РАЗВИТИИ СЕКТОРА БЫТОВЫХ УСЛУГ

THE ROLE OF INNOVATION IN THE DEVELOPMENT OF THE HOUSEHOLD SERVICES SECTOR

Xasanova Zamira Tolibjon qizi
Namangan davlat texnika universiteti “Iqtisodiyot nazariyasi” kafedrasi assistenti, PhD

Annotatsiya

Axborotni to‘plash, qayta ishlash va tezkor taqdim etishning zamonaviy usullaridan foydalanish, shuningdek, ko‘rsatkichlar tizimining mavjud emasligi, uni qo‘llash samaradorligini baholash kabi muammolarning mavjudligi maishiy xizmat ko‘rsatish sohasida kichik biznesni rivojlantirishni axborot-tahliliy ta’minlashni takomillashtirish zarurligini ko‘rsatadi, bu esa ushbu tadqiqotning dolzarbligini oldindan belgilab berdi.

Kalit so‘zlar: kichik biznes, tadbirkorlik, axborot, innovatsiya, maishiy xizmat, xarajat.

Использование современных методов сбора, обработки и оперативного представления информации, а также отсутствие системы показателей и наличие проблем в оценке эффективности её применения свидетельствуют о необходимости совершенствования информационно-аналитического обеспечения развития малого бизнеса в сфере бытовых услуг, что предопределило актуальность данного исследования.

Ключевые слова: малый бизнес, предпринимательство, информация, инновации, бытовые услуги, себестоимость.

The use of modern methods of collecting, processing and promptly presenting information, as well as the absence of a system of indicators and the existence of problems such as assessing the effectiveness of its application, indicate the need to improve the information and analytical support for the development of small businesses in the field of household services, which predetermined the relevance of this study.

Keywords: small business, entrepreneurship, information, innovation, household services, cost.

Jahon iqtisodiyotida xizmat ko‘rsatish sohalari katta va o‘sib borayotgan ulushni egallaydi, chunki aholi daromadlari va boyliklari oshgani sayin xizmatlarga ko‘proq pul sarflashadi [1]. Bunday faoliyatning yorqin misollaridan biri bugungi kunda muvaffaqiyatli rivojlanishi nafaqat davlat tomonidan kichik biznesni qo‘llab-quvvatlash sohasida tanlab olingan siyosatga, balki strategik tashabbuslarga ham bog‘liq bo‘lgan maishiy xizmatlardir. Maishiy xizmatlar bozorining global hajmi 2021-yilda 574144,3 million AQSh dollarni tashkil etgan bo`lsa, bashorat qilinayotgan davrda o`rtacha yillik o‘sish sur’ati 26,5% ni tashkil etib, 2027-yilga kelib 2350422,8 million AQSh dollarga yetishi kutilmoqda [2]. O‘z navbatida, bunday ko`rsatkichlarga erishish kichik biznesda maishiy xizmat sub’yektlarini samarali axborot bilan ta’minlash yo‘lga qo‘yilgani bilan bog‘liq. Axborotni to‘plash, qayta ishlash va tezkor taqdim etishning zamonaviy usullaridan foydalanish, shuningdek, ko‘rsatkichlar tizimi hamda uni qo‘llash samaradorligini baholash kichik biznesda maishiy xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantirish zarurligini ko‘rsatadi, bu esa ushbu tadqiqotning dolzarbligini oldindan belgilab berdi.

Hozirgi vaqtda dunyo bo‘ylab maishiy xizmat sohasida rasmiy ma’lumotlarga ko‘ra 75,6 milliondan ortiq ishchilar mavjud hamda rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda bu raqam barqaror ravishda oshib bormoqda [3]. Jahonda demografik va mehnat bozori o‘zgarishlari natijasida yuzaga kelgan maishiy xizmat sohasiga ortib borayotgan talabni qondirish, shuningdek, aholini o`z-

o`zini band qilish kabi ijtimoiy masalalarni hal qilish uchun ushbu sektorni kuchaytirish muhim [4]. Shu bilan birga, ushbu sohada bandlik sifati va mehnat sharoitlari, shuningdek, axborotlar ko‘lami va ishchilarning ijtimoiy himoyalash masalalari dolzarb hisoblanadi.

O‘zbekistonda iqtisodiyotni innovatsion rivojlanishi sharoitida amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning asosiy yo‘nalishlardan biri milliy iqtisodiyotning tarkibiy qismi hisoblangan maishiy xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantirish, aholining maishiy xizmatlarga bo‘lgan talabini qondirish asosida ularning hayot sifatini yanada yaxshilashdan iboratdir. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrda qabul qilingan ““O‘zbekiston-2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-158 son Farmonida “Hududlarda xizmat ko‘rsatish va servis sohalarini rivojlantirish orqali xizmat ko‘rsatish hajmini 3 baravarga oshirish” vazifasi belgilangan. Shuning uchun respublikamizda maishiy xizmat ko‘rsatish sohasini yanada rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Bu borada kichik biznesda maishiy xizmat sohasini rivojlantirishning nazariy, ilmiy va uslubiy masalalar chuqurroq o‘rganish, maishiy xizmat sohasini axborot bilan ta’minlash kabi yo‘nalishdagi tadqiqotlar ko‘lamini kengaytirish maqsadga muvofiqdir.

Maishiy xizmat ko‘rsatish sohasining innovatsion rivojlanishini baholashga kelsak, buning uchun maishiy xizmatlarning yangi turlari sonining o‘sish sur’ati, maishiy xizmat ko‘rsatish sohasida ko‘rsatilayotgan innovatsion xizmatlar hajmi, innovatsion xizmatlar ulushi kabi ko‘rsatkichlar talab etiladi. Maishiy xizmatlar ko‘rsatishning umumiy hajmi, rivojlanish xarajatlari hajmi va intensivligi maishiy xizmat ko‘rsatish sohasidagi innovatsion faoliyat va boshqalar, hozirda rasmiy statistik ma’lumotlar bilan hisoblanmaydi. Shuni ta’kidlash kerakki, innovatsion faoliyatni baholashda iste’mol bozorining marketing tadqiqotlari natijalarini hisobga olish kerak.

Xizmat ko‘rsatish faoliyatining asosiy turlari sifatida quyidagilarni ajratib ko‘rsatish mumkin: masalan, maishiy xizmat, sog‘liqni saqlash, ta’lim sohalarida ko‘rsatiladigan shaxsiy xizmatlar; nisbatan yangi turdagi xizmatlar, ular turli xil xo‘jalik xizmatlarini o‘z ichiga oladi: buxgalteriya hisobi, ishlab chiqarish va marketingni tashkil etish sohasida maslahatlar, reklama, huquqshunoslik sohasida, nusxa ko‘chirish va bosma xizmatlar ko‘rsatish va boshqalar. Biznes xizmatlariga bo‘lgan talabni yirik kompaniyalar ham, kichik kompaniyalar ham taqdim etadilar, bu buni tashkiliy xarajatlarni rejalashtirishga oqilona yondashuv bilan bog‘laydi, ularni, xususan, ish haqi xarajatlari moddasida aks ettiradi. Ishlab chiqarish xizmatlari ko‘lami ham kengayib bormoqda, bu esa kichik korxonalarga xizmatlar sifatini oshirish va ularning tannarxini pasaytirish imkonini bermoqda. Xizmat ko‘rsatish sohasining o‘rni ham uning innovatsion faolligi, yangi tovar va xizmatlar ishlab chiqarish imkoniyati ortib borayotgani tufayli ortganini hisobga olish kerak. Xizmat ko‘rsatish sohasiga innovatsiyalarni joriy etish, qoida tariqasida, ko‘plab tarkibiy qismlarning o‘zaro ta’sirini belgilaydi, bu esa yanada ilg‘or texnologiyalarni joriy etishda, xizmatlar ko‘rsatishni tashkil etishni takomillashtirishda, yangi tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarni qo‘llashda namoyon bo‘ladi.

Maishiy xizmat ko‘rsatish sohasining rivojlanishi ko‘p jihatdan uning holatini baholashning to‘liqligi va ob’ektivligiga bog‘liq. Shu maqsadda bugungi kunda maishiy xizmat ko‘rsatish korxonalari faoliyatini tavsiflovchi quyidagi statistik ko‘rsatkichlarni hisoblash ko‘zda tutilgan:

- aholiga maishiy xizmatlarni sotish hajmi (maishiy xizmat turlari tarkibini taqsimlash bilan);
- aholi jon boshiga maishiy xizmatlar hajmi, shu jumladan maishiy xizmat turlari bo‘yicha;
- aholiga maishiy xizmatlarning jismoniy hajmi indekslari (shu jumladan xizmatlar turlari bo‘yicha);
- shuningdek, xizmatlar ko‘rsatish uchun aholidan buyurtmalarni qabul qiluvchi davlat xizmatlari ob’ektlari soni (qabul qilish punktlari soni ko‘rsatilgan holda).

Shu bilan birga, xizmat ko‘rsatish sohasida zamonaviy ishbilarmonlik muhiti holatini baholashni xizmatlar ko‘rsatish dinamikasi va tuzilmasini tahlil qilishdan boshlash maqsadga muvofiqdir.

1-jadvaldagi ma’lumotlar tahlili shuni ko‘rsatdiki, 2022 yilda Namangan viloyati bo‘yicha xizmat ko‘rsatish xajmi 14 722,6 mlrd. so‘mni tashkil etib, 2018 yilga nisbatan 242,6 foizga o‘sishga erishgan.

1-jadval

Namangan viloyatining 2018-2022 yillarda xizmat turlari hajmini shahar va tumanlar kesimida taxlili [5] mlrd. so‘m

№	Shaxar, tumanlar nomi	2018 yil	2019 yil	2020 yil	2021 yil	2022 yil	2022 yilni 2018 yilga nisbati(%)
	Viloyat bo‘yicha	**6 067,6**	**7 747,5**	**8 928,6**	**11 786,8**	**14 722,6**	**242,6**
1	Namangan sh.	2959,2	2 803,0	3 207,9	4 744,1	5 821,3	196,7
2	Mingbuloq	183,3	318,8	373,3	480,6	592,6	323,3
3	Kosonsoy	260,8	453,5	522,2	613,8	804,9	308,6
4	Namangan	325,8	447,0	515,2	654,6	776,6	238,4
5	Norin	210,3	351,0	407,6	535,0	648,2	308,2
6	Pop	298,3	525,1	592,8	781,8	931,9	312,4
7	To‘raqo‘rg‘on	358,9	552,7	614,4	752,1	960,1	267,5
8	Uychi	261,4	462,8	535,5	647,5	873,1	334,0
9	Uchqo‘rg‘on	235,6	431,4	495,6	621,5	722,6	306,7
10	Chortok	261,7	452,2	520,1	653,7	796,3	304,3
11	Chust	305,1	530,7	613,4	737,4	1 057,3	346,5
12	Yangiqo‘rg‘on	363,3	418,9	483,1	563,1	737,1	202,9

Tumanlar kesimida 2018 yilga nisbatan 2022 yilda o‘sish bo‘yicha yetakchilar: Chust tumanida 2018 yilda 305,1 mlrd.so‘m xizmat ko‘rsatilgan bo‘lsa, 2022 yilda 1057,3 mlrd.so‘mga yetgan va o‘sish 346,5%, Uychi tumanida 2018 yilda 261,7 mlrd. so‘m, 2022 yilda 873,1 mlrd. so‘mga yetgan, o‘sish 334 %, Mingbuloq tumanida 2018 yilda 183,3 mlrd.so‘m, 2022 yilda 592,6 mlrd. so‘mga yetib, o‘sish 323,3 %, Pop tumanida 2018 yilda 298,3 mlrd. so‘m, 2022 yilda 931,9 mlrd. so‘m, o‘sish 312,4 %, Kosonsoy tumanida 2018 yilda 260,8 mlrd.so‘m, 2022 yilda 804,9 mlrd.so‘m, o‘sish 308,6 %, Norin tumanida 2018 yilda 210,3 mlrd. so‘m, 2022 yilda 648,2 mlrd.so‘m, o‘sish 308,2 %, Uchqo‘rg‘on tumanida 2018 yilda 235,6 mlrd. so‘m, 2022 yilda 722,6 mlrd.so‘m, o‘sish 306,7% ni tashkil etdi.

Xizmat ko‘rsatish sohasida yana bir muhim ko‘rsatkichlaridan biri bu aholi jon boshiga to‘g‘ri kelgan xizmatlar xajmi hisoblanadi. Ushbu ko‘rsatkich ham keyingi yillarda Namangan viloyatida o‘sishga erishilgan (2-jadval).

2-jadval

Namangan viloyatida 2018-2022 yillarda aholi jon boshiga xizmat turlari bo‘yicha hajmi [6] ming so‘m

№	Shaxar, tumanlar nomi	2018 yil	2019 yil	2020 yil	2021 yil	2022 yil	2022 yilni 2018 yilga nisbati(%)
	Viloyat bo‘yicha	**2 231,8**	**2 675,5**	**3 128,4**	**4 065,4**	**4966,6**	**222,5**
1	Namangan sh.	5148,8	6327,8	5067,1	7265,2	8693,7	168,8
2	Mingbuloq	1196,8	1408,0	2937,5	3702,7	4 469,4	373,4
3	Kosonsoy	1074,4	1247,9	2479,9	2851,2	3 655,5	340,2
4	Namangan	1839,2	2132,2	2853,0	3601,0	4 175,5	227,0
5	Norin	978,1	1136,7	2475,1	3190,3	3793,4	387,8

6	Pop	1621,8	1903,8	2685,0	3479,4	4 067,9	250,8
7	To‘raqo‘rg‘on	1753,5	2038,3	2698,5	3261,5	4 059,9	231,5
8	Uychi	1078,6	1257,3	2496,8	2951,7	3 885,9	360,3
9	Uchqo‘rg‘on	1486,1	1708,2	2863,6	3525,7	4 017,0	270,3
10	Chortok	1484,0	1802,3	2597,0	3201,6	3 822,9	257,6
11	Chust	1673,3	1964,0	2297,5	2712,3	3 815,9	228,0
12	Yangiqo‘rg‘on	929,6	1119,1	2200,3	2510,7	3 213,1	345,6

2-jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, Namangan viloyatida 2022 yilda aholi jon boshiga to‘g‘ri kelgan xizmatlar hajmi 2018 yilga nisbatan 222,5 foizga oshgan. 2018 yilda viloyat bo‘yicha jami 2231,8 ming szmdan to‘g‘ri kelgan bo‘lsa, 2022 yilga kelib bu ko‘rsatkich 4966,6 ming so‘mga yetgan. Bu ko‘rsatkich viloyatdagi barcha tumanlar 2018 yilga nisbatan 2022 yilda o‘sishga erishilgan. Jumladan, Yangiqo‘rg‘on tumani 2022 yilda 345,6%, Chust tumanida, 228,0%, Chortoq tumanida 257,6 %, Uychi tumanida 360,3 %, To‘raqo‘rg‘on tumanida 231,5 %, Norin tumanida 387,8 %, Pop tumnida 250,8 %, Mingbuloq tumanida 373,4 %ni tashkil etgan.

Hududlarda va iqtisodiyot tarmoqlarida kichik biznesni barqaror rivojlantirish hamda tartibga solish yuzasidan olib borgan tadqiqotlarimizga ko‘ra, muayyan bir mamlakat yoki mintaqada, hududda o‘ziga xos ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish, geodemografik, ijtimoiy-madaniy, tabiiy-iqlimiy va boshqa omillardan, xususiyatlardan kelib chiqqan holda kichik biznesni rivojlantirishning o‘ziga xos xususiyatlarini inoabatga olish zarur. Bozorda mustahkam o‘rnashib olganlar uchun birinchi o‘ringa davlat va maxalliy buyurtmalariga erishish imkoniyati, tashqi bozorga chiqishga ko‘maklashish, turli xalqaro va milliy ko‘rgazmalar, tanlovlarda ishtirok etishni yengillashtirish kabi masalalar chiqadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Панкратов, Ф. Г. Коммерческая деятельность: учеб. / Ф. Г. Панкратов, Н. Ф. Солдатова. – 13-е изд., перераб. и доп. – М.: Изд.-торг. корпорация «Дашков и К», 2012. – 500 с.
2. Моргулець, О. Б. Менеджмент в сфере услуг [Электронный ресурс] : учеб. пособие / О. Б. Моргулець. – URL: http://uchebnikionline.com/menedgment/menedzhment_u_sferi_poslug_morgulets_ob/menedzhment_u_sferi_poslug_-_morgulets_ob.htm (дата обращения: 26.05.2015).
3. Левитина, И. Ю. Формирование системы управления рынком бытовых услуг на муниципальном уровне [Электронный ресурс] : автореф. дис. … канд. экон. наук: 08.00.05 / И. Ю. Левитина. – СПб., 2000. – URL: http://www.dslib.net/economikaxoziajstva/formirovanie-sistemy-upravlenija-rynkom-bytovyh-uslug-na-municipalnomurovne.html (дата обращения: 26.05.2015).
4. Копытина Ю. А “Совершенствование информационной поддержки развития малого предпринимательства в сфере бытового обслуживания”. Диссертация на соискание ученой степени кандидата экономических наук. 2018
5. https://www.rba.gov.au/publications/smp/2013/nov/box-c.html
6. https://www.linkedin.com/pulse/online-on-demand-home-services-market-size-66aaf
7. https://www.ilo.org/global/topics/domestic-workers/who/lang--en/index.htm
8. https://www.eurofound.europa.eu/en/employment-household-services-0

UDK: 331.08

KICHIK BIZNES KORXONALARIDA PERSONALNI RIVOJLANTIRISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH IMKONIYATLARI

ПЕРСПЕКТИВЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ СИСТЕМЫ ПОДГОТОВКИ ПЕРСОНАЛА НА МАЛЫХ ПРЕДПРИЯТИЯХ

OPPORTUNITIES FOR ENHANCING THE WORKFORCE DEVELOPMENT SYSTEM IN SMALL BUSINESSES

Do‘stova Aziza Qahramonovna
Buxoro Davlat Universiteti
“Iqtisodiyot” kafedrasi katta o‘qituvchisi
Iqtisodiyot fanlari falsafa doktori (PhD)
E-mail: adustova98@mail.ru

Annotatsiya

Ushbu maqolada kichik biznes korxonalarida kadrlar tayyorlash tizimini rivojlantirish imkoniyatlari va unga ta’sir qiluvchi omillar tahlil qilinadi. Maqolada kadrlar salohiyatidan samarali foydalanish uchun zarur bo‘lgan metodologik yondashuvlar, ta’lim tizimining samaradorligini oshirish yo‘llari va ish beruvchilarning talablariga mos keladigan kadrlar tayyorlash jarayoni muhokama qilinadi. Shuningdek, mamlakatimizdagi kichik biznes korxonalarida kadrlar tayyorlash tizimi bilan bog‘liq mavjud muammolar va ularni bartaraf etish yo‘llari ko‘rsatilgan. Maqola xodimlarni tayyorlash va ularning kasbiy rivojlanishini ta’minlashda eng yaxshi amaliyotlarni o‘rganishga qaratilgan.

Kalit so‘zlar : *Kichik biznes, kadrlar tayyorlash, personalni rivojlantirish, ish beruvchilar talablariga moslik, ta’lim tizimi, mehnat bozoridagi ehtiyojlar, kadrlar salohiyati, kasbiy rivojlanish, metodologik yondashuvlar*

В данной статье анализируются возможности развития системы подготовки кадров в малых предприятиях и факторы, влияющие на этот процесс. Рассматриваются методологические подходы, необходимые для эффективного использования кадрового потенциала, пути повышения эффективности системы подготовки и процесс подготовки кадров, соответствующих требованиям работодателей. Также в статье рассматриваются существующие проблемы в системе подготовки кадров на малых предприятиях в нашей стране и предлагаются решения для их устранения. Статья направлена на изучение лучших практик подготовки кадров и обеспечения их профессионального развития.

Ключевые слова: *Малый бизнес, подготовка кадров, развитие персонала, требования работодателей, система образования, потребности рынка труда, кадровый потенциал, профессиональное развитие, методологические подходы*

This article analyzes the opportunities for developing the personnel training system in small businesses and the factors influencing it. The paper discusses the necessary methodological approaches to efficiently utilize human potential, ways to improve the effectiveness of the training system, and the process of preparing personnel that meets the demands of employers. Additionally, the article highlights the existing challenges in the personnel training system within small businesses in our country and suggests solutions to address them. The article focuses on studying best practices for training and ensuring the professional development of employees.

Keywords: *Small business, personnel training, human development, employer requirements, education system, labor market needs, human potential, professional development, methodological approaches*

Korxonalar muvaffaqiyatli faoliyat yuritishi uchun asosiy omillardan biri – malakali, tajribali va yuqori salohiyatga ega kadrlarni jalb etish va ularning faoliyatini samarali boshqarishdir. Bugungi kunda global iqtisodiyotdagi o‘zgarishlar, texnologik taraqqiyot, raqobatbardoshlikning oshishi va ishchi kuchi bozorining tezkor o‘zgarishlari kompaniyalardan o‘zlarining kadrlar siyosatini yangilash va malakali kadrlarni tayyorlash tizimini takomillashtirishni talab qiladi. Ayniqsa, kichik va o‘rta biznes korxonalari uchun malakali kadrlarni tayyorlash va ularning salohiyatini maksimal darajada foydalanish muhim ahamiyatga ega.

Maqsadli kadrlar tayyorlash tizimi, ayniqsa, kichik va o‘rta biznes korxonalarining talablariga mos ravishda rivojlantirilganda, korxona samaradorligini oshirish va raqobatbardoshligini ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi. Bunda nafaqat tegishli kasbiy ko‘nikmalarga ega bo‘lgan xodimlar tayyorlash, balki ularning shaxsiy va kasbiy rivojlanishiga ham e’tibor qaratish zarur.

Ushbu maqolada korxonalar talablariga mos keladigan kadrlar tayyorlash tizimini rivojlantirish imkoniyatlari, uning samaradorligini oshirish yo‘llari va zamonaviy yondashuvlar haqida so‘z boradi. Shuningdek, iqtisodiy o‘sish va korxonalarning barqaror rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatadigan omillarni tahlil qilishga ham e’tibor qaratiladi.

Ishlab chiqarish jarayonlarining texnik va texnologik jihatdan rivojlanish borishi natijasida iqtisodiy adabiyotda korxonalar boshqaruvida kadrlar salohiyatini va uni boshqarish samaradorligini oshirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar sonining ortishiga olib keldi. Amalga oshirilgan tadqiqotlardan ko‘zlangan maqsad va ularning ob’ektidan kelib chiqqan holda, iqtisodchi olimlar korxonaning kadrlar salohiyati tushunchasiga turlicha ta’rif berib o‘tishgan. Shu sababli, hali hanuz iqtisodiyot fani aylanmasida korxona kadrlar salohiyati, korxonada kadrlar salohiyatini boshqarish borasida yagona umumqabul qilingan ilmiy qarash shakllanmagan.

Kadrlar salohiyati tushunchasi iqtisodiy aylanmaga ilk bor XX asrning 80 yillari boshlarida kirib keldi. Jumladan, L. Kummings tadqiqotida “korxonalar xo‘jalik faoliyati samaradorligiga kadrlar salohiyatining ta’siri baholangan bo‘lib, bunda xodimlarning mehnat samaradorligi ko‘rsatkichlari tahlil qilingan. Tadqiqot natijasida korxonada kadrlar salohiyatini boshqarish samaradorligini ortishi umumiy holda mehnat unumdorligi shaklida aks etishi ilmiy jihatdan isbotlangan. Olim fikricha, kardlar salohiyati ularning egallab turgan kasblari bo‘yicha bilim va mehnat qobiliyati o‘rtasidagi o‘zaro aloqadorlik shaklida namoyon bo‘lib, bu ishlab chiqarish hajmiga ta’sir ko‘rsatadi”[1]. Olim tominidan kadrlar salohiyati iqtisodiy atamasining mazmunini tushuntirishda jarayonli yondashuvdan foydalanilgan holda uning namoyon bo‘lish xususiyatlariga e’tibor qaratilganligi bilan ahamiyatli hisoblanadi.

Shunga o‘xshash ilmiy qarash I.V. Kuznetsova tomonidan amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlarda ham o‘z aksini topadi. Uning fikricha, “kadrlar salohiyati ijtimoiy-iqtisodiy tizim maqsadlariga erishishida mehnat resurslarining imkoniyatlaridan foydalanilayotgan qismini anglatadi”[2].

G.I. Konoplyova esa “kadrlar salohiyati yollanma xodimlarning ishlab chiqarish jarayonidagi ishtiroki sharoitida shaxsiy qobiliyatlarining rivojlanib borishi orqali shakllanadi”[3] degan fikrni ilgari suradi. Jumladan, “korxonada kadrlar salohiyatini boshqarish va uni muntazam rivojlantirib borish uchun yollanma xodimlarning erkin mehnat qilishlari uchun yetarli darajada shart-sharoitlar yaratilishi talab etiladi”[3], deb hisoblaydi. Ushbu ilmiy qarashda ham kadrlar salohiyati tushunchasi mohiyatini yoritishda insonlarning ishlab chiqarish jarayonidagi ishtirokida shaxsiy qobiliyatlarini rivojlanishiga asoslanilganligini ko‘rishimiz mumkin.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan yoshlarga kasbiy ta’lim xizmatlari ko‘rsatishning sifatini takomillashtirishga qaratilgan islohotlar natijasida bugungi kunda aksariyat ish beruvchilar o‘z korxonalariga yosh xodimlarni ishga yollashga bo‘lgan intilishlari nisbatan yuqori ekanligi Jahon banki ekspertlari tomonidan mamlakatimizda yoshlarning bandligi sohasidagi muammolar va to‘siqlarga bag‘ishlangan tadqiqotlari natijalarida o‘z aksini topdi. Jumladan, mamlakatimiz iqtimodiyoti tarmoqlarida yosh kadrlari, jumladan, kasbiy ta’lim muassasalari bitiruvchilarini ishga qabul qilishni xohlovchi ish beruvchilar jami ish beruvchilar soniga nisbatan 65,0 foizni tashkil etmoqda.



1-rasm. O‘zbekistonda yoshlarni, jumladan, kasbiy ta’lim bitiruvchilarini ishga yollashdagi ish beruvchilar tomonidan afzal ko‘riladigan jihatlari (jami ish beruvchilar soniga nisbatan foizda)[4]

O‘tkazilgan so‘rovnoma natijalariga ko‘ra, ish beruvchilarning 23,0 foizi yoshlar, ayniqsa kasbiy ta’lim muassasalari bitiruvchilaridagi mustaqil daromadga ega bo‘lishdagi shaxsiy motivatsiya, kasbni puxta o‘rganishga bo‘lgan intilishi va korxonada yaratilgan mehnat sharoitlariga o‘rta va undan katta yoshdagi ishchi kuchiga nisbatan tezroq moslashish qobiliyatiga ega ekanligini ta’kidlashgan (1-rasm).

Shu o‘rinda ta’kidlash joizki, ish beruvchining xo‘jalik faoliyati yuritish sohasiga qarab, yoshlarni, jumladan, kasbiy ta’lim muassasalari bitiruvchilarini ishga yollash va yoshlarning o‘rta va katta yoshdagi ishchi kuchiga nisbatan afzal jihatlari o‘zaro farqlanadi. 3.8-rasm ma’lumotlariga ko‘ra, korxona xo‘jalik faoliyati zamonaviy kompyuter texnologiyalari bilan bog‘liq bo‘lmagan sohalarda kasbiy ta’lim muassasalari bitiruvchilarini ishga yollashni afzal ko‘ruvchi ish beruvchilar soni 16 foizni tashkil etsa, ushbu ko‘rsatkich xodimning mehnat faoliyati kompyuter bilan bog‘liq bo‘lgan sohalarda 21 foizni, xizmatlar ko‘rsatish sohasida 22 foizni, chakana savdo sohasida esa 20 foizni tashkil etmoqda.

Tahlillarga ko‘ra, mamlakatimiz milliy iqtisodiyoti tarmoqlarida xo‘jalik faoliyati yuritayotgan korxonalarda yoshlar, jumladan, kasbiy ta’lim muassasalari bitiruvchilarining korxonaning jami personali tarkibidagi ulushi 12 foizni tashkil etmoqda. Ushbu ko‘rsatkich xalqaro yo‘nalishda faoliyat yurituvchi korxonalarda 18 foizni, ish xodimlari soni 20 tadan ko‘p bo‘lgan korxonalarda 17 foizni, ijobiy rivojlanish tendensiyasiga ega bo‘lgan korxonalarda esa 14 foizni tashkil etayotganligini kuzatishimiz mumkin. Shu bilan birgalikda, respublika hududlari kesimida Toshkent mintaqasida (14 foiz) joylashgan korxonalarda boshqa hududlarga (11 foiz) nisbatan yoshlarni, jumladan kasbiy ta’lim muassasalari bitiruvchilarini ishga yollash ko‘rsatkichi yuqori ekanligi aniqlangan (2-rasm).



2-rasm. O‘zbekistonda ish beruvchilarning turlari, hajmi, hududi va tarmog‘i bo‘yicha korxonada kasbiy ta’lim bitiruvchilarining yollanma xodimlar tarkibidagi ulushi, (korxona yollanma xodimlari soniga nisbatan foizda, 2021 y.)[4]

Mahalliy korxonalar boshqaruvida yoshlarni, jumladan kasbiy ta’lim muassasalari bitiruvchilarini ishga yollash bilan ko‘zlangan kadrlar salohiyatidan foydalanish samaradorligi bo‘yicha natijaga erishildi, degan xulosaga kelish mumkin emas. Ayrim holatlarda ish beruvchilarning kasbiy talablariga mos kelmaydigan yoshlarni ishdan bo‘shatish holatlari ham uchrab turadi. Kelmaydigan yoshlarni ishdan bo‘shatish holatlari ham uchrab turadi.



3-rasm. Ish beruvchilar tomonidan yosh xodimlarni ishdan bo‘shatish sabablari (yosh xodimlarga ega bo‘lgan korxonalar soniga nisbatan foizda) [4]

Tahlillarga, aksariyat holatlarda korxonadagi iqtisodiy vaziyatlarning keskinlashishi sharoitida korxona rahbarlari yosh xodimlarni ishdan bo‘shatadilar. Shu bilan birgalikda, korxona personali

tarkibida yoshlar, jumladan, kasbiy ta’lim bitiruvchilari bo‘lgan ish beruvchilarning 28 foizi ulardagi muomala madaniyatining yomonligi sababli ishdan bo‘shatganligini ma’lum qilgan. Ushbu keltirilgan sabablar kasbiy ta’lim xizmatlari sifati bilan bog‘liq bo‘lmagan holda, korxonaning xo‘jalik faoliyati va yoshlarning shaxsiy fazilatlari bilan bog‘liq hisoblanadi. Kasbiy ta’lim xizmatlari ko‘rsatish sifati bilan bog‘liq bo‘lgan holatlar, ya’ni ish vaqtiga moslasha olmasli (17 foiz), texnik ko‘nikmalarning yetishmasligi (14 foiz), sinov muddati asosida tuzilgan mehnat shartnomasining tugashi (12 foiz) sababli kasbiy ta’lim muassasalari bitiruvchilarini ishdan bo‘shatish holatlari ham uchrab turadi (3-rasm). Bu esa o‘z navbatida ko‘rsatilayotgan kasbiy ta’lim dasturlari sifatini oshirish va ish beruvchi talablariga mos keladigan kadrlarni tayyorlash bo‘yicha byurtmalar portfeli asosida kasbiy ta’lim xizmatlarini tashkil etishni rivojlantirish zaruriyatini uyg‘otadi.

Bugungi kunda mamlakatda kadrlar tayyorlashda akademik litseylar, kasb-hunar maktablari, kollejlar va texnikumlar kasbiy ta’lim xizmatlari ko‘rsatib kelmoqdalar. Tadqiqotlar natijalariga ko‘ra, kadrlarni tayyorlashda kasbiy ta’lim xizmatlarini ko‘rsatuvchi ta’lim muassasalari faoliyatida quyidagi muammolar mavjud:

- to‘lov kontrakt miqdorining yuqori ekanligi (bir yilga o‘rtacha 4,5 mln. so‘m). Qo‘shni respublikadagi otm bilan o‘zbekistondagi professional ta’lim muassasalari kontrakt miqdori deyarli bir xil;
- umumta’lim maktab o‘quvchilarni kasbga yo‘naltirish ishlari samarali tashkil etilmaganligi;
- qabul parametrlari doirasida ajratilayotgan grant o‘rinlari soni kam (jami kvaotaning 20 foiz);
- qabul jarayonini tashkil etish real mehnat bozori ehtiyojiga javob bermaydi;
- qabul jarayonida ish beruvchilar va bandlik organlarining ishtiroki yo‘lga qo‘yilmagan;
- kasbiy ta’lim muassasalari ish beruvchilar buyurtmasi asosida kasbga o‘qitish kurslarini tashkil etish imkoniyati cheklangan (faqat ta’lim klassifikatoridaga kaslar bo‘yicha o‘qitish mumkin);
- qabul jarayoni bir yilda bir marotaba tashkil etilishi sababli ish beruvchilar buyurtmasiga muvofiq mehnat bozori uchun zarur mutaxassislar tayyorlash jarayoni kechikmoqda;
- davlat-xususiy sheriklikni yo‘lga qo‘yish bo‘yicha hususiy sektor vakillariga imtiyozlar va kafolatlar mexanizmi mavjud emas.

Bundan kelib chiqadiki, mamlakatimizda kasbiy ta’lim tizimining samaradorligini oshirish va ish beruvchilarning talablariga mos kadrlarni tayyorlashda yuzaga kelayotgan muammolarni hal etish zarur. Bunday holatni bartaraf etish uchun kasbiy ta’lim muassasalarining o‘quv dasturlari va qabul jarayonlarini mehnat bozori ehtiyojlariga moslashtirish, ish beruvchilar bilan faol hamkorlikni o‘rnatish, shuningdek, davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini rivojlantirish kerak. Shu bilan birga, ta’lim xizmatlari sifatini oshirish, o‘quv kontraktlari narxini pasaytirish va ishga joylashtirishni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish orqali, yoshlarning ishga joylashish va kasbiy salohiyatlarini oshirishga erishish mumkin. Bu esa, o‘z navbatida, mamlakatning iqtisodiy rivojlanishiga va ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashga xizmat qiladi.

Xulosa o‘rnida shuni takidlashimiz mumkinki, mamlakatimizda kasbiy ta’lim tizimini takomillashtirish va yoshlarni ishga joylashtirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan islohotlar, ayniqsa, kasbiy ta’lim bitiruvchilarining mehnat bozoriga kirishini osonlashtirishga qaratilgan chora-tadbirlar muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotlar natijalariga ko‘ra, yoshlar, jumladan, kasbiy ta’lim muassasalari bitiruvchilarining ishga yollanishi bo‘yicha ish beruvchilarning yuqori qiziqishi mavjud. Biroq, bu jarayon hali ham bir qator muammolar va to‘siqlarga duch kelmoqda, jumladan, kasbiy ta’lim xizmatlari sifatining pastligi, ish beruvchilar bilan hamkorlikning zaifligi, va ta’lim dasturlarining mehnat bozori ehtiyojlariga yetarlicha mos kelmasligi.

Kelajakda, kasbiy ta’lim tizimini yanada samarali tashkil etish, ish beruvchilar bilan doimiy hamkorlikni yo‘lga qo‘yish, ta’lim dasturlarini yangilash va qabul jarayonini mehnat bozori talablariga moslashtirish zarur. Shuningdek, davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish va kasbiy ta’lim muassasalariga imtiyozlar va kafolatlar mexanizmini joriy etish, yoshlarning ishga joylashishini qo‘llab-quvvatlashda muhim rol o‘ynaydi. Bularning barchasi, o‘z navbatida, mamlakatimizning iqtisodiy o‘sishi, barqaror rivojlanishi va ijtimoiy farovonligini ta’minlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Cummings L.L. Toward Organizational Behavior. Academy of Management Review. No. 3, 1978. – pp. 90-98
2. Кузнецова И.В. Управление кадровым потенциалом в промышленности. // дисс. … к.э.н. Казан, 2002 – с. 66
3. Коноплёва Г.И., Борщенко А.С. Понятие кадрового потенциала и стратегия его развития // Алманах современной науки и образования. – 2014. – № 2 (81). – с. 86-88
4. Honorati, Maddalena Marguerie, Alicia Charlena. Youth Employment in Uzbekistan: Opportunities and Challenges. Washington, D.C.: World Bank Group. September – 2021. p. 89. маълумотлари асосида тузилган. https://documents.worldbank.org/en/publication/documents-reports/documentdetail/235891634705237783/youth-employment-in-uzbekistan-opportunities-and-challenges
5. Saidaxmedov T. Inson resurslarini rivojlantirish tizimini takomillashtirish. “Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil” ilmiy electron jurnali. III-son, mart, 2024. 121-128 betlar.
6. Smith M.K. High-involvement innovation: views from frontline service workers and managers. Employee Relations, Vol. 40, Issue 2, 2018. – pp. 208–226
7. Stein V., & Scholz T. M. Manufacturing revolution boosts people issues: The evolutionary need for ‘humanautomation resource management’ in smart factories. European Management Review, Vol. 17, Issue 2, 2020. – pp. 391–406
8. Tursunov R.T., Aminjonov A.M., Qobiljonov M.Q. Inson resurslarini boshqarishda innovatsiyalar va zamonaviy yondashuvlar. “Raqamli iqtisodiyot va axborot texnologiyalari” ilmiy electron jurnali. № 4, oktabr-dekabr, 2024. – 151-156 betlar.
9. Tworek K., Luo G., Paska M., & Sałamacha A. The influence of e-trust on a job performance model based on employees’ dynamic capabilities during a crisis caused by a Black Swan event. Journal of Entrepreneurship, Management, and Innovation, Vol. 19, Issue 2, 2023. – pp. 159-187
10. Varan R., & Rostami M. To identify and review the effective factors of attracting and retaining professional physicians in management of social security of Tehran province and ITS subordinate units. Problems and Perspectives in Management, Vol. 14, Issue 3, 2016. – pp. 414–421.
11. Wallance M.J.Jr. Methodology, research practice, and progress in personnel and industrial relations. Academy in Management Review. No. 8, 1983. – pp. 6-13
12. Abdurahmanov Q.X., Xolmo‘minov Sh.R., Zokirova N.K. Personalni boshqarish – T.: O‘qituvchi, 2008. – 161 b.
13. Abduraxmonov Q.X. O‘zbekistonda inson omili va manfaatlari – yeng oliy qadriyat. – T.: G‘ofur G‘ulom nomidagi nashriyot matbaa uyi, 2017. – 364 b.
14. Baxtiyorov B.B. Sanoat korxonalri innovatsion boshqaruvining tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish. I.f.d. diss. avtoref. Andijon – 2023 y. – 62 b.
15. Future of Jobs Report 2023: Insight report. World Yeconomic Forum (WEF). May 2023. pp. 296. URL: https://www3.weforum.org/docs/WEF_Future_of_Jobs_2023.pdf

УДК: 338.242.2

КОРПОРАТИВНЫЕ ОТНОШЕНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ: СОВРЕМЕННЫЕ ТРЕНДЫ И ИХ ВЛИЯНИЕ НА ЭКОНОМИЧЕСКОЕ РАЗВИТИЕ

O'ZBEKISTONDA KORPORATIV MUNOSABATLAR: ZAMONAVIY TRENDLAR VA ULARNING IQTISODIY RIVOJLANISHGA TA'SIRI

CORPORATE RELATIONS IN UZBEKISTAN: MODERN TRENDS AND THEIR IMPACT ON ECONOMIC DEVELOPMENT

Асаул Анатолий Николаевич,
доктор экономических наук, профессор, Санкт-Петербургский государственный архитектурно-строительный университет (г. Санкт-Петербург, Россия),
Хамидов Обиджон Хафизович,
доктор экономических наук, профессор,
Абдуллоев Аслиддин Жунайдуллоевич, DSC, профессор,
Тоирова Маъсума Мухаммедризаевна, доцент,
Сайфуллаева Мадина Исматовна, преподаватель, PhD,
Бухарский государственный университет, (г.Бухара, Узбекистан)

Аннотация

В статье исследуется эволюция и современное состояние корпоративных отношений в Узбекистане, анализируется их влияние на экономическое развитие страны. Выявлены ключевые тенденции, включая внедрение принципов ESG, цифровизацию корпоративных процессов, усиление роли независимых директоров и развитие рынка ценных бумаг.

Ключевые слова. Корпоративные отношения, корпоративное управление, ESG-принципы, приватизация, акционерные общества.

Ushbu maqolada O'zbekistondagi korporativ munosabatlarning evolyutsiyasi va hozirgi holati o'rganiladi hamda ularning mamlakat iqtisodiy rivojlanishiga ta'siri tahlil qilinadi. Asosiy tendentsiyalar, jumladan, ESG tamoyillarini joriy etish, korporativ jarayonlarni raqamlashtirish, mustaqil direktorlar rolini kuchaytirish va qimmatli qog'ozlar bozorini rivojlantirish aniqlangan.

Kalit so'zlar. Korporativ munosabatlar, korporativ boshqaruv, ESG tamoyillari, xususiylashtirish, aksiyadorlik jamiyatlari, aksiyadorlar huquqlarini himoya qilish.

This article examines the evolution and current state of corporate relations in Uzbekistan and analyzes their impact on the country's economic development. Key trends are identified, including the implementation of ESG principles, the digitalization of corporate processes, the strengthening of the role of independent directors, and the development of the securities market.

Key words. Corporate relations, corporate governance, ESG principles, privatization, joint-stock companies.

В современных условиях трансформации корпоративных отношений, включая переход к современным стандартам корпоративного управления, становится ключевым фактором конкурентоспособности и устойчивого роста национальной экономики. Анализ современных тенденций в данной сфере позволяет оценить эффективность проводимых реформ и выявить системные проблемы, сдерживающие инвестиционный потенциал и дальнейшее экономическое развитие страны.

В статье использованы методы сравнительно-исторического анализа для изучения эволюции корпоративных отношений в Узбекистане с периода обретения независимости. Также использован статистический анализ данных депо-статистики за 2024-2025 годы для оценки динамики развития рынка ценных бумаг.

Эволюция самого понятия корпоративного управления в западном мире как дисциплины прослеживается еще с XVIII века, когда в мировой экономике начали формироваться его базовые принципы. Организация экономического сотрудничества и развития (ОЭСР) в 1998 году дала следующее определение: «Корпоративное управление — это система, с помощью которой коммерческие корпорации регулируются и контролируется. Структура корпоративного управления определяет распределение прав и обязанностей между различными участниками корпорации (правление, менеджеры, акционеры) [6].

Отсюда вытекают основные проблемы, касающиеся достижения баланса интересов различных групп заинтересованных сторон (таких как акционеры, включая крупных и миноритарных, владельцев привилегированных акций, менеджеров, сотрудников компании и государственных органов), которые остаются актуальными для большинства стран. Таким образом, корпоративное управление характеризуется разделением прав собственности и полномочий управления, что приводит к созданию нового субъекта — наемных управляющих, которые берут на себя функции управления, в то время как собственники теряют прямую связь с бизнесом[4;5;7;8].

В Узбекистане термин «корпоративное управление» впервые начал применяться после обретения независимости, что было обусловлено переходом к рыночной модели экономики. Первоначальные этапы становления корпоративного управления тесно связаны со вторым этапом приватизации (1994–1996 гг.), когда происходило преобразование государственных предприятий в акционерные общества. В этот период применялась инсайдерская модель корпоративного управления, при которой ключевые управленческие должности занимали сотрудники самих предприятий. Процесс приватизации в основном осуществлялся через выкуп государственного имущества в форме акций, что стало основным механизмом реализации данной экономической реформы [9].

Понятие и механизм применения корпоративного управления в Узбекистане ещё требуют внимания и глубокого изучения для дальнейшего совершенствования корпоративных отношений. Для достижения этой цели далее приведём анализ выполненных отечественными исследователями за последние годы теоретических и научно-методических работ в области корпоративного управления.

Переломный момент наступил гораздо позже, и его можно отнести ко второй половине 2010-х годов, а особенно — к 2017 году, с приходом нового руководства страны. Именно тогда тема модернизации экономики, привлечения иностранных инвестиций и приватизации вышла на первый план. Власти неожиданно осознали, что иностранный инвестор не придет на непрозрачный рынок, где компании управляются по телефонному звонку из министерства, а права миноритариев никто не защищает[2;3;].

Началась активная законотворческая работа. Был принят новый закон «Об акционерных обществах и защите прав акционеров» [1], который и стал краеугольным камнем. В нем впервые четко прописывались роли общего собрания акционеров, совета директоров и правления. Вводилось понятие независимого директора. Закон прямо говорил о необходимости раскрытия информации и обеспечения равных условий для всех акционеров.

Таким образом, современная картина корпоративных отношений в Узбекистане характеризуется переходом от государственно-административной модели к рыночной, основанной на принципах корпоративного управления. Ключевыми драйверами этих изменений стали масштабные реформы последних лет, направленные на приватизацию, деолигополизацию экономики и улучшение инвестиционного климата. В результате сегодня мы наблюдаем формирование более сложной и многоуровневой системы отношений между акционерами, менеджментом и советом директоров, где постепенно внедряются международные стандарты раскрытия информации, защиты прав миноритарных инвесторов и корпоративной социальной ответственности.

Таблица 1

Эволюция корпоративного управления в Узбекистане

Период	Ключевые события	Суть изменений
1991-2016	Преобразование госпредприятий в АО, создание номинальных советов директоров	Формальное введение институтов корпоративного управления при сохранении централизованной системы принятия решений через государственные органы
2017-2019	Принятие закона "Об АО и защите прав акционеров", создание Фонда развития рынка капитала	Закрепление разделения полномочий между собранием акционеров, советом директоров и правлением. Начало защиты прав миноритариев.
2020-2022	Введение института независимых директоров, требования к раскрытию информации, вход иностранных инвесторов в советы директоров	Переход от формального к реальному корпоративному управлению. Возникновение первых корпоративных конфликтов и прецедентов защиты прав акционеров
2023- по настоящее время	Принятие Кодекса корпоративного управления, обучающие программы для директоров	Формирование гибридной модели, сочетающей международные стандарты с местной спецификой. Усиление роли неформальных связей и государственного влияния

На основании представленных данных депо-статистики (рис.-1) за октябрь 2024 и 2025 годов можно проследить значительную динамику развития рынка ценных бумаг Узбекистана. За год рынок продемонстрировал уверенный рост по ключевым агрегированным показателям. Так, общий объем выпусков акций увеличился с 206,98 трлн сум в октябре 2024 года до 255,63 трлн сум в октябре 2025 года, что свидетельствует о расширении капитализации и активности компаний на фондовом рынке. Еще более впечатляющими темпами рос рынок корпоративных облигаций: объем выпусков за год вырос более чем в два раза — с 1 420,7 млрд сум до 3 043,2 млрд сум, подчеркивая растущую популярность этого инструмента заимствования среди бизнеса. Также количество действующих акционерных обществ за год выросло с 680 до 693 юридических лиц в Узбекистане[10]. Общее увеличение количества АО с 680 до 693 за год также указывает на постепенное развитие корпоративной среды в стране.

В целом, зафиксированный рост объемов и разнонаправленная активность эмитентов говорят о повышении ликвидности и зрелости рынка ценных бумаг Узбекистана. Современные тренды развития корпоративных отношений в Узбекистане демонстрируют переход к внедрению передовых международных практик, причем особое внимание уделяется следующим направлениям:

1. Постепенное внедрение ESG-критериев. Несмотря на раннюю стадию, ESG-принципы начинают интегрироваться в корпоративную стратегию, прежде всего крупными компаниями с иностранным участием и государственными предприятиями.

2. Цифровизация корпоративных процессов. Активно развивается использование технологий для повышения прозрачности и эффективности взаимодействия с акционерами.

3. Усиление роли независимых директоров и корпоративного контроля. В соответствии с лучшими практиками корпоративного управления, наблюдается тренд на увеличение числа независимых директоров в наблюдательных советах, особенно в системообразующих и приватизируемых компаниях.

Октябрь 2024 года



Октябрь 2025 года



Рисунок 1. Депо-статистика рынка ценный бумаг Республики Узбекистан (октябрь 2024 г. и октябрь 2025г.) [11].

В совокупности эти тренды формируют новую парадигму корпоративных отношений в Узбекистане, которая движется в сторону большей прозрачности, подотчетности и стратегической ориентации на создание долгосрочной стоимости для всех стейкхолдеров.

В Узбекистане вопрос об ESG факторах возник после того как страна одобрила Цели устойчивого развития (ЦУР) ООН в сентябре 2015 года. В стране развитие ESG-направления курируется Министерством финансов, Министерством экономического развития и сокращения бедности, а также Агентством по управлению государственными активами, которые совместно способствуют ускорению перехода государственных предприятий к

зелёной экономике. В ходе реализации мероприятий для достижения национальных целей устойчивого развития до 2030 года участвуют также и другие государственные органы.

В апреле 2022 года Президент Узбекистана издал Указ, одним из направлений которого является «ускорение трансформации и приватизации предприятий и коммерческих банков с участием государства, стимулировании увеличения качественно новых, в частности основанных на принципах экологического, социального и корпоративного управления (ESG) инвестиций и высокоэффективных технологий производства за счёт уменьшения доли неэффективно функционирующих предприятий в экономике» [3].

Проведенный анализ современных трендов развития корпоративных отношений в Узбекистане позволяет прогнозировать их значительное позитивное влияние на экономическое развитие страны в ближайшей перспективе. Активное внедрение ESG-стандартов, цифровизация корпоративных процессов и рост прозрачности управления повысят инвестиционную привлекательность компаний в стране для иностранных инвесторов. Это приведет к притоку капитала в реальный сектор экономики, особенно в «зеленые» технологии и модернизацию производств, что ускорит переход к устойчивой экономической модели.

На основе проведенного исследования можно заключить, что корпоративные отношения в Узбекистане претерпели значительную трансформацию. Ключевыми факторами этого перехода стали масштабные институциональные реформы, приватизация и активное развитие рынка ценных бумаг, что подтверждается ростом объёмов выпусков акций и корпоративных облигаций. Внедрение современных трендов, таких как ESG-стандарты, цифровизация процессов и усиление роли независимых директоров, способствует повышению прозрачности и инвестиционной привлекательности компаний.

Список использованной литературы:

1. Закон Республики Узбекистан №3РУ-370 от 6.05.2014г. «Об акционерных обществах и защите прав акционеров» // https://lex.uz/
2. Указ Президента Республики Узбекистан № УП-60 от 28 января 2022 года «О стратегии развития нового Узбекистана на 2022 — 2026 годы» // https://lex.uz/
3. Указ Президента Республики Узбекистан, от 08.04.2022 г. № УП-101 «Об очередных реформах по созданию условий для стабильного экономического роста путем улучшения предпринимательской среды и развития частного сектора».
4. Jensen, Michael C. & Meckling, William H., 1976. “Theory of the firm: Managerial behavior, agency costs and ownership structure,” Journal of Financial Economics, Elsevier, vol. 3(4), pages 305-360, October. (https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/0304405X7690026X)
5. Т.В. Черноморова УЗБЕКИСТАН: СВОЙ ПУТЬ ПРИВАТИЗАЦИИ // Приватизация в России и других странах СНГ. 2003. №2003. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/uzbekistan-svoy-put-privatizatsii.
6. Sayfullaeva M. Features of ESG Criteria in Uzbekistan’s Construction Industry //Gwalior Management Academy. – 2023. – Т. 113.
7. Sayfullaeva M., Khairova D. ESG Principles as a Tool for Increasing the Sustainability of Uzbekistan’s Economy //Economics and Innovative Technologies. – 2023. – Т. 11. – №. 5. – С. 284-293.
8. Khamidov O., Khayrullaeva N. Improving management mechanisms for ecotourism in Uzbekistan." //Экономика и туризм" международный научно-инновационной журнал. – 2021. – Т. 1. – №. 1.
9. Junaydulloevich A. A., Mukhammedrizaevna T. M. S., Bakhritdinovna A. N. Environmentally friendly and sustainable supply chain management in the platform economy //Economics. – 2020. – №. 3 (46). – С. 23-25.
10. https://uzcsd.uz/ - Официальный сайт Центрального депозитария ценных бумаг.

УДК: 331.1

БИЛИМЛАР ИҚТИСОДИЁТИДА ИНСОН КАПИТАЛИ ВА УНИНГ РИВОЖЛАНИШИ

ЧЕЛОВЕЧЕСКИЙ КАПИТАЛ И ЕГО РАЗВИТИЕ В ЭКОНОМИКЕ ЗНАНИЙ

HUMAN CAPITAL AND ITS DEVELOPMENT IN THE KNOWLEDGE ECONOMY

Хасанхонова Нодира Исаметдиновна,
Тошкент давлат иқтисодиёт университети,
“Иқтисодиёт назарияси” кафедраси доценти, DSc.

Аннотация

Мазкур мақолада билимлар иқтисодиёти шароитида инсон капитали ва унинг ривожланиш омиллари иқтисодий назария ва amaliy тажрибалар асосида таҳлил қилинган. Инсон капитали мамлакат рақобатбардошлигини таъминловчи энг муҳим стратегик ресурс сифатида баҳоланиб, унга инвестиция киритишнинг иқтисодий самарадорлиги очиб берилган. Тадқиқот натижаларига кўра, инсон капиталини барқарор ривожлантириш учун инновацион таълим тизимини такомиллаштириш, рақамли саводхонликни ошириш, касбий қайта тайёрлаш ва умрбод таълим (lifelong learning) механизмларини ривожлантириш зарурлиги асослаб берилган.

Калит сўзлар: Инсон капитали, билимлар иқтисодиёти, инновацион ривожланиш, рақамли трансформация, таълим тизими, меҳнат бозори, илм-фан, инновация экотизими, миллий рақобатбардошлик, умрбод таълим, адабий капитализация, интеллектуал салоҳият, иқтисодий ўсиш, кадрлар тайёрлаш, иқтисодий модернизация.

В данной статье анализируется человеческий капитал и факторы его развития в контексте экономики знаний на основе экономической теории и практического опыта. Человеческий капитал оценивается как важнейший стратегический ресурс, обеспечивающий конкурентоспособность страны, и раскрывается экономическая эффективность инвестиций в него. По результатам исследования обосновывается необходимость совершенствования инновационной системы образования, повышения цифровой грамотности, развития механизмов профессиональной переподготовки и непрерывного обучения для устойчивого развития человеческого капитала.

Ключевые слова: Человеческий капитал, экономика знаний, инновационное развитие, цифровая трансформация, система образования, рынок труда, наука, инновационная экосистема, национальная конкурентоспособность, непрерывное образование, литературная капитализация, интеллектуальный потенциал, экономический рост, подготовка кадров, экономическая модернизация.

This article analyzes human capital and its development factors in the context of a knowledge economy based on economic theory and practical experience. Human capital is assessed as the most important strategic resource ensuring the country's competitiveness, and the economic efficiency of investing in it is revealed. According to the results of the study, the need to improve the innovative education system, increase digital literacy, develop professional retraining and lifelong learning mechanisms for the sustainable development of human capital is substantiated.

Keywords: Human capital, knowledge economy, innovative development, digital transformation, education system, labor market, science, innovation ecosystem, national competitiveness, lifelong education, literary capitalization, intellectual potential, economic growth, personnel training, economic modernization.

Билимлар иқтисодиётида инсон капитали муҳим ўрин тутади, чунки у мамлакатларнинг иқтисодий ўсиши ва рақобатбардошлигини таъминловчи асосий омиллардан биридир. Инсон капитали таълим, малака ошириш ва касбий ривожланиш орқали шаклланади ва бу жараёнлар билимлар иқтисодиётининг барқарорлиги ва самарадорлиги учун зарурдир. Ушбу мақолада инсон капитали тушунчаси, унинг ривожланиш механизмлари ва билимлар иқтисодиётидаги аҳамиятига алоҳида эътибор қаратилади.

Билимлар иқтисодиёти - иқтисодий ўсишнинг асосий манбаи сифатида билим, кўникма, юқори квалификацияли кадрлар ва инновацияларга асосланган иқтисодий моделдир. Анъанавий физик активлар ўрнига интеллектуал капитал — яъни инсон капитали - бу иқтисодиётнинг марказида туради. Инсон капитали таълим, соғлиқни сақлаш, когнитив қобилиятларнинг уйғунлиги орқали шаклланади. Таълим ва соғлиқ инсоннинг самарадорлиги ва иқтисодий фаоллигини оширади.

Билимлар иқтисодиёти тушунчаси илк маротаба XX асрнинг иккинчи ярмида форсайт тадқиқотлари ва технологик тараққиётни баҳолашда шаклланган бўлиб, Пол Ромер (1990), Роберт Лукас (1988) каби иқтисодчилар унинг назарий асосларини ишлаб чиқишда муҳим роль ўйнаган. Ромернинг эндоген ўсиш назариясида билимларнинг чекланмаган табиати, инновация жараёнларининг иқтисодий ўсишда катта роль ўйнаши таъкидланади. Лукас эса инсон капиталининг инвестициялар орқали кўпайтирилиши барқарор иқтисодий ўсишнинг асосий драйвери эканлигини исботлаган.

OECD (1996) ҳисоботларида билимлар иқтисодиёти - билимларни яратиш, тарқатиш ва фойдаланишга асосланган иқтисодий тизим сифатида таърифланиб, инновация, ижтимоий институтлар ва таълим тизими унинг асосий элементлари сифатида қайд этилади[1]. Г. Беккер (1964) инсон капитали назариясини илмий асослаб, таълим, саломатлик, малака ва кўникмаларни инсон капиталининг таркибий қисми сифатида белгилаган[2]. Унинг таъкидлашича, таълимга қилинган инвестициялар меҳнат унумдорлигини, демакки, мамлакат ялпи миллий даромадини оширади. Теодор Шульц (1971) инсон капиталига инвестициялар ривожланаётган давлатлар иқтисодий ўсишида ҳал қилувчи омил эканини кўрсатган. Shu jihatdan, билимлар жамиятда “қиймат яратувчи актив” сифатида намоён бўлади[3].

Адабиётлар таҳлили шуни кўрсатадики, билимлар иқтисодиёти шароитида инсон капитали миллий рақобатбардошликни белгилайдиган энг муҳим актив ҳисобланади. Инсон капиталига инвестициялар нафақат иқтисодий ўсишни таъминлайди, балки инновацион тараққиётни, меҳнат бозорида рақобатбардош кадрлар шаклланишини ва ижтимоий барқарорликни таъминлайди. Шу боис таълим, илм-фан, тиббиёт ва рақамли инфратузилмага йўналтирилган инвестициялар ҳар қайси давлат учун стратегик аҳамиятга эга.

Тадқиқотнинг методологик билимлар иқтисодиётида инсон капитали ва ривожланишини таҳлил қилишда комплекс ёндашувни қўллаш ҳисобланади. Билимлар иқтисодиётини тадқиқ қилиш даражасини белгилашда илмий билишнинг фундаментал методологияси асосида шаклланган бўлиб, индукция ва дедукция, диалектик бирлик, назария ва амалиётнинг ўзаро боғлиқлиги, таққослаш ва ўхшашлик усуллардан фойдаланилган. Таҳлил натижалари асосида билимлар иқтисодиётида инсон капитали батафсил баҳоланган.

Инсон капитали таълим, малака ошириш, касбий ривожланиш ва соғлиқни сақлаш каби омилларни ўз ичига олади. Бу омиллар инсоннинг меҳнат қобилиятини оширади ва унинг иқтисодий фаолиятидаги самарадорлигини таъминлайди. Инсон капиталига сармоя киритиш мамлакатларнинг барқарор ривожланиши ва рақобатбардошлигини оширишда муҳим аҳамиятга эга.

Инсон капиталини ривожлантиришда таълим тизими асосий рол ўйнайди. Мактаблар, олий ўқув юртлари ва касб-ҳунар коллежлари инсонларнинг билим ва кўникмаларини оширишга хизмат қилади. Шунингдек, касбий тайёргарлик ва қайта тайёргарлик курслари ҳам инсон капиталини мустаҳкамлашда муҳим аҳамиятга эга. Давлат ва хусусий сектор ҳамкорлигида ташкил этилган тренинглар, семинарлар ва малака ошириш дастурлари инсон капиталини ривожлантиришда самарали воситалар ҳисобланади.

Технологик тараққиёт инсон капиталининг ривожланишига катта таъсир кўрсатади. Рақамли технологиялар ва интернет имкониятлари таълим ва малака ошириш жараёнларини янги босқичга олиб чиқди. Онлайн таълим платформалари ва электрон ресурслар инсонларга билим олишда кенг имкониятлар яратмоқда.

Хулоса қилиб айтиш мумкинки, билимлар иқтисодиётида инсон капитали мамлакатларнинг иқтисодий ўсиши ва барқарор ривожланишида асосий рол ўйнайди. Инсон капиталини ривожлантириш учун таълим, касбий тайёргарлик ва инновацияларни жорий этиш зарур. Давлат ва хусусий секторнинг ҳамкорлиги инсон капиталини мустаҳкамлаш ва билимлар иқтисодиётини ривожлантиришда муҳим аҳамиятга эга.

Ўзбекистон Республикаси 2030-йилга қадар “Таълим учун қулай муҳит” дастурини жорий этиш, таълим тизимини янги босқичга олиб чиқиш ва ҳар бир инсонга ўз салоҳиятини рўёбга чиқариши учун муносиб шароитларни яратиш вазифаси қуйилган, мазкур вазифаларни таъминлаш мақсадида сўнгги йиллар давомида инсон тараққиёти билан боғлиқ халқаро рейтинг ва индекслардаги ўрнини яхшилаш бўйича чора-тадбирлар белгиланган. Мазкур соҳада чора-тадбирлар тизими ишлаб чиқилиб, уни босқичма-босқич амалга ошириш бўйича аниқ вазифалар амалга оширилмоқда. Натижада республиканинг “Инсон тараққиёти индекси” бўйича халқаро рейтинглардаги ўрнида ҳам ўсиш тенденцияси кузатилмоқда (1-расм).



1-расм. Ўзбекистоннинг 2013-2023-йилларда Инсон тараққиёти индекси [4]

3.4-расм маълумотлари таҳлили кўрсатишича 2010-2023-йилларда Ўзбекистоннинг инсон тараққиёти индекси кўрсаткичлари тўлқинсимон характерда ўзгаргани ҳолда, умумий тарзда 0,681 дан 0,740 гача (0,059 кўрсаткичга) кўтарилган. Ҳозирги кунда рейтингга кирган 193 та мамлакат ичида Ўзбекистон 107 ўринни эгалаб келмоқда (МДҲ мамлакатлари ичида 8-ўринда, Марказий Осиё давлатлари ичида 2-ўринда), буни эса, салбий баҳолаш мумкин. Инсон тараққиёти индекси таркибидаги субиндекслар таҳлили кўрсатишича, мазкур ўсиш тенденцияси ўртача умр кўриш давомийлигининг узайиши ва аҳоли жон бошига тўғри келадиган ЯИМнинг ошиши туфайли юзага келганини кўришимиз мумкин. Аммо, ўртача таълим олиш давомийлиги ва кутилаётган таълим давомийлиги каби кўрсаткичлар мамлакатимизда таҳлил этилаётган даврда деярли ўзгаришсиз қолган (1-жадвал).

1-жадвал маълумотлари асосида таҳлил этилаётган даврда умр кўриш давомийлиги 69,8 ёшдан 72,3 ёшгача, яъни 2,5 йилга узайган. Аммо бу тенденцияда барқарорлик мавжуд эмас, бунга сабаб эса 2020-йилда кузатилган Covid-19 пандемияси таъсирида ўртача умр кўриш 71,3 ёшдан 70,3 ёшга, яъни 1 йилга камайган. Таҳлил этилаётган даврда, яъни 2010-2023-йиллар мобайнида ўртача таълим олиш давомийлиги барқарор ўсишни кўрсатган ҳолда 11 йилдан 11,91 йилгача ўсди.

1-жадвал

Ўзбекистоннинг инсон тараққиёти индексидаги таркибий қисмларини ўзгариши (2013-2022-йиллар) [5]

Кўрсаткичлар	йиллар										Ўзгариш (+,-)
	2010	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023	
Умр кўриш давомийлиги, ёш	69,8	70,5	70,8	71,0	71,1	71,3	70,3	70,9	71,7	72,3	+2,5
Кутилаётган таълим олиш давомийлиги, йил	11,6	11,7	11,8	12	12,1	12,4	12,1	12,0	12,0	12,46	+0,86
Ўртача таълим олиш давомийлиги, йил	11	11,4	11,7	11,7	11,8	11,9	11,9	11,9	11,9	11,91	+0,91
Аҳоли жон бошига ЯИМ, ППТ ҳисобида АҚШ долларида	5238	6490	6727	6974	7298	7487	7366	7784	8056	8826	+3588

Бунга мазкур даврда мактаб битирувчиларини олий таълим билан қамров даражаси ўсиши, яъни 2010-йилда 8 фоиздан, 2023-йилда 40 фоизга етганли сабаб бўлди, буни эса ижобий ҳолат сифатида баҳолашимиз мумкин. Шунингдек, аҳоли жон бошига тўғри келувчи ЯИМ 1,47 баробар ошган (3588 АҚШ долларига ўсган). Ушбу тенденциялар ижобий баҳоланиб, мамлакатимиз аҳолиси сонининг мутассил ўсиш бориши билан бирга турмуш даражасининг кўрсаткичлари: ўртача умр кўриш ва аҳоли жон бошига ЯИМ ҳажмининг ҳам ошиши кузатилмоқда. Аммо Инсон тараққиёти индекси таркибий қисмлари орасида Ўзбекистонда кутилаётган таълим олиш давомийлиги кўрсаткичининг дунё мамлакатлари ўртача даражасидан пастлигини (жаҳон миқёсида бу кўрсаткич 13,0 ни ташқил қилмоқда) алоҳида таъкидлаб ўтиш зарур.

Юқоридаги индексларнинг таҳлили бизга шундан далолат берадики, фан, таълим ва улар асосида шаклланган инновацияларни янада уйғунлаштириш, ишлаб чиқариш, хизмат кўрсатиш ва бошқа иқтисодиёт тармоқларида қўллаш орқали уларнинг интеграциясини ривожлантириш ҳозирги босқичда Ўзбекистоннинг барқарор иқтисодий ўсишида илмий асос бўлиб хизмат қилади. Бу ўринда инновацион иқтисодиёт талабларидан келиб чиққан ҳолда институционал тизимни ривожлантиришнинг замонавий йўналишлари сифатида инсон капитали билан боғлиқ таълим тизимини ривожлантириш, сифатли ўсишни ишлаб чиқаришнинг фан билан интеграцияси орқали таъминлаш кабилар ажралиб чиқмоқда.

80 та кўрсаткичдан иборат Глобал инновацион индекс ўз ичига тўртта Кириш (Input rank), яъни, Институционал ривожланиш (Institutions), Инсон капитали ва илмий-тадқиқот фаолияти (Human capital&Research), Инфраструктура (Infrastructure) ва Бозорни тадқиқ этиш (Market sophistication), ва учта Чиқиш (Output rank), яъни, Бизнесни лойиҳалаш (Business sophistication), Билим ва технологиялар натижадорлиги (Knowledge& Technology outputs) ва Ижодий натижадорлик (Creative outputs) субъиндексларини ўз ичига олади (2-жадвал).

Ўзбекистон 2019-2023-йиллар мобайнида Глобал инновацион индекснинг институционал ривожланиш, инсон капитали ва инфратузилма субиндеклари бўйича ижобий ўзгаришлар қайд этди. Жумладан, институционал ривожланиш бўйича 95-ўриндан 62-ўринга кўтарилиши мамлакатда сиёсий барқарорлик, қонунчилик ва бизнес соҳаси бўйича муҳитни яхшиланганидан далолат берди. Инсон капитали ва илмий-тадқиқот фаолияти кўрсаткичини яхшиланиши ёшларни олий таълим билан қамраб олиш даражаси юқорилаганидан, инфраструктура субъиндексида яхшиланиш эса инновацион инфраструктурани кенг қўллай бошланганидан далолат бермоқда.

2-жадвал

Ўзбекистоннинг Глобал инновацион индекс кўрсаткичлари [6]

№	Субъиндекс	йиллар									
		2019		2020		2021		2022		2023	
		балл	ўрин	балл	ўрин	балл	ўрин	балл	ўрин	балл	ўрин
1	Институтци-онал ривожланиш	55,1	95	55,8	94	57,3	63	54,5	55	49,2	62
2	Инсон капитали ва илмий -тадқиқот фаолияти	27,5	77	30,4	72	30,8	65	25,2	89	25,1	93
3	Инфраструк-тура	38,5	72	40,4	72	41,7	74	37,9	73	40,4	70
4	Бозорни тадқиқ этиш	54.9	27	56,9	24	33,9	60	33,9	69	28,9	78
5	Бизнесни лойиҳалаш	15,2	127	14,8	123	25,3	74	25,5	78	25,2	71
6	Билим ва технологиялар натижадорлиги	14,1	90	17,9	77	17,9	80	19,3	78	18,4	78
7	Ижодий натижадорлик	7,5	127	12,3	113	7,7	102	14,6	93	12,9	103

Ўзбекистон Глобал инновацион индекснинг 2023-йил ҳисоботи бўйича бизнес бошлаш қулайлиги, ўқитувчи ва талабалар нисбати, табиий ва техник мутахассиликлар битирувчилари, хукуматнинг электрон хизмати, ЯИМга нисбатан ялпи капиталнинг шаклланиши, соғлом рақобатчилик шароити ва ишчи кучи унумдорлигининг ўсиш даражаси каби кўрсаткичлар бўйича дунёда етакчи мамлакатлар қаторидан ўрин эгаллади. Аммо Ўзбекистон тартибга солиш муҳити, олий таълим билан қамров даражани, инновацион алоқа ва онлайн ижодкорлик бўйича анча орқада қолмоқда.

Билимлар иқтисодиётида инсон капитали — мамлакатнинг энг муҳим инвестицияси ҳисобланади. Ўзбекистонда сўнгги йилларда ушбу йўналишда салмоқли ишлар амалга оширилган бўлса-да, таълим, соғлиқ ва инновация инфратузилмасини янада такомиллаштириш орқали инсон салоҳиятини тўлиқ рўёбга чиқариш мумкин. Бу эса нафақат иқтисодий ўсиш, балки жамият фаровонлигини ҳам таъминлайди.

2024 йилда Ўзбекистонда "Human capital and research" кўрсаткичи 93-ўринни эгаллаб, ўрта даромадли мамлакатлар орасида ёмон ҳисобланади. Шунга қарамай, “Institutions”, “Infrastructure” ва “Business sophistication” соҳаларида республика ўз ташқари минтақаларга нисбатан устунликка эга

IT Park Uzbekistan лойиҳаси 2024 йилда 38 600 та иш ўрни яратган (2023 йилга нисбатан +146 %) ва 9 000тадан ортиқ иш ўрни миллий ҳудудларда ташкил этилган.

Аммо шу билан бирга, инсон капитали ривожланишида қатор муаммолар мавжуд:

1. Таълим сифати ва мослиги – глобал стандартларга мос келмайдиган ўқув дастурлари.
2. Инновация инфратузилмаси – илмий-тадқиқот марказларининг етарли эмаслиги.
3. Ҳудудлараро номутаносиблик – ривожланган шаҳар ва чекка ҳудудлар ўртасида таълим ва соғлиқ имкониятларида катта фарқ.
4. Соғлиқни сақлаш тизимида ресурслар тақчиллиги – айниқса, профилактика ва рақамли тиббиёт соҳаларида.

Бизнингча, инсон капиталини ривожлантириш учун қуйидаги йўналишлар устувор аҳамиятга эга:

- STEM соҳаларини кучайтириш, танқидий фикрлаш ва рақамли кўникмаларни ривожлантириш.
- профилактик хизматларни кенгайтириш ва телемедицинадан фойдаланиш асосида соғлиқни сақлашни модернизация қилиш.

• университет-бизнес ҳамкорлигини кенгайтириш, стартап экотизимини қўллаб-қувватлаш асосида инновация муҳитини ривожлантириш.

• чекка ҳудудларда таълим ва IT инфратузилмасини яхшилаш ҳудудий тенгликни таъминлаш муҳим аҳамиятга эга.

Фойдаланган адабиётлар рўйҳати:

1. OECD. (1996). The Knowledge-Based Economy. OECD Publishing.
2. Becker, G. S. (1964). Human Capital: A Theoretical and Empirical Analysis, with Special Reference to Education. University of Chicago Press.
3. Schultz, T. W. (1971). Investment in Human Capital. The Free Press.
4. Муаллиф томонидан Human development report маълумотлари асосида тузилган.
5. Муаллиф томонидан Human development reports маълумотлари асосида тузилган. https://hdr.undp.org/data-center/human-development-index#/indicies/HDI.
6. Global innovatsion index ҳисоботлари асосида Муаллиф тадқиқотлари асосида ишлаб чиқилган.

UDK: 338.27

GOMPERTZ MODELINING UMR DAVOMIYLIGI FUNKSIYASINI BAHOLASH

ОЦЕНКА ФУНКЦИИ ОЖИДАЕМОЙ ПРОДОЛЖИТЕЛЬНОСТИ ЖИЗНИ МОДЕЛИ ГОМПЕРЦА

ESTIMATING THE LIFE EXPECTATION FUNCTION OF THE GOMPERTZ MODEL

Nasretdinova Shaxnoza Saidakmalovna
Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti “Ekonometrika va iqtisodiy modellashtirish” kafedrasi mudiri, f.-m.f.n., dotsent

Annotatsiya

Ushbu maqolada Gompertz modeli yordamida umr davomiyligi funksiyasini baholash usuli ko‘rib chiqiladi. Gompertz modeli o‘lim xavfini yoshga qarab eksponensial tarzda oshishini ifodalaydi va demografik tadqiqotlarda, sug‘urta statistikasi va sog‘liqni saqlash sohasida keng qo‘llaniladi. Tadqiqot natijalari asosida survival funksiyasi va o‘lim ehtimoli aniqlanadi, bu esa strategik qarorlar qabul qilishda amaliy ahamiyatga ega.

Kalit so‘zlar: Gompertz modeli, umr davomiyligi funksiyasi, survival analiz, o‘lim xavfi, demografik tahlil.

В данной статье рассматривается метод оценки функции выживания с использованием модели Гомпертца. Модель Гомпертца описывает экспоненциальное увеличение риска смерти с возрастом и широко применяется в демографических исследованиях, страховой статистике и здравоохранении. На основе результатов исследования рассчитываются функции выживания и вероятности смерти, что имеет практическое значение для стратегического планирования.

Ключевые слова: Модель Гомпертца, функция выживания, анализ выживания, риск смерти, демографический анализ.

This article discusses the methodology of estimating the survival function using the Gompertz model. The Gompertz model describes the exponential increase of mortality risk with age and is

widely used in demographic studies, insurance statistics, and public health research. Based on the study results, survival functions and death probabilities are calculated, providing practical insights for strategic decision-making.

Keywords: Gompertz model, survival function, survival analysis, mortality risk, demographic analysis

Umr davomiyligi va o‘lim darajasini tahlil qilish demografiya, sug‘urta statistikasi va sog‘liqni saqlash sohasida muhim ahamiyatga ega. Ushbu tahlillar aholining umr davomiyligini baholash, o‘lim xavfini aniqlash va sog‘liqni saqlash siyosatini shakllantirishda qo‘llaniladi.

Gompertz modeli — bu o‘lim xavfi yoshga qarab **eksponensial tarzda oshadi** degan taxminga asoslangan matematik model. Model 1825 yilda Benjamin Gompertz tomonidan ishlab chiqilgan bo‘lib, demografik tahlillarda, pensiya va sug‘urta hisob-kitoblarida keng qo‘llaniladi. Gompertz modeli yordamida o‘lim ehtimoli va umr davomiyligi funksiyasi aniqroq baholanadi, chunki u yoshga bog‘liq o‘lim xavfini modellashtiradi.

Ushbu maqolada Gompertz modeli yordamida umr davomiyligi funksiyasini baholash metodikasi ko‘rib chiqiladi, model parametrlarini aniqlash usullari tushuntiriladi va tadqiqot natijalari asosida survival funksiyasi va o‘lim ehtimoli hisoblanadi. Bu yondashuv demografik tadqiqotlar, sug‘urta statistikasi va sog‘liqni saqlash sohasida amaliy qiymatga ega.

Gompertz modeli 1825 yilda Benjamin Gompertz tomonidan ishlab chiqilgan bo‘lib, u o‘lim xavfi yoshga qarab eksponensial tarzda oshishini ifodalaydi. Ushbu model demografik tadqiqotlarda, sug‘urta statistikasi, pensiya hisob-kitoblari va sog‘liqni saqlash sohasida keng qo‘llaniladi (Gompertz, 1825; Makeham, 1860).

So‘nggi yillarda statistika va survival analiz rivojlanishi bilan, Gompertz modeli parametrik survival analysisning asosiy vositalaridan biriga aylandi. Masalan, **Thatcher va hamkorlari (1998)** model yordamida Britaniya aholisi umr davomiyligi tendensiyalarini tahlil qilgan. **Bebbington va Lai (2007)** esa Gompertz modelini demografik parametrlar bilan bog‘lab, o‘limlik darajasini prognoz qilishda qo‘llagan.

Gompertz modelining asosiy afzalligi shundaki, u yoshga bog‘liq o‘lim xavfini aniq modellashtiradi va o‘limlilik jadvali va survival funksiyasini baholash imkonini beradi. Shu bilan birga, modelning cheklanishlari ham mavjud: u parametrik bo‘lib, ma’lumotning eksponensial o‘sish faraziga mos kelishi shart. Shu sababli, amaliy tadqiqotlarda ko‘pincha **Gompertz modelini Kaplan–Meier estimator kabi noparametrik usullar bilan solishtirish** tavsiya etiladi.

Hozirgi kunda Gompertz modeli nafaqat demografik tadqiqotlar, balki sog‘liqni saqlash va sug‘urta statistikasi sohasida ham amaliy qo‘llanmoqda. U o‘lim xavfi va survival funksiyasini prognoz qilish orqali strategik qarorlar qabul qilishda muhim vosita hisoblanadi.

Gompertz modelida parametrlarni baholash. Gompertz modelining umr davomiyligi funksiyasi quyidagicha aniqlanadi

$$S(x) = \exp\left(-\frac{a}{b}(e^{bx} - 1) \right),$$

bu yerda $a > 0$ bosh xavf intensivligi, $b > 0$ qarish tezligi. Bu modelda ham haqiqatga maksimal o‘xshashlik usuli yordamida baholaymiz. Haqiqatga o‘xshashlik funksiyasi logarifmining ko‘rinishi

$$\ell(a,b) = \sum_{i=1}^{n} \left[\ln a + bx_i - \frac{a}{b}(e^{bx_i} - 1) \right].$$

Bu modelda ham tenglamalarni analitik yechimini topib bo‘lmaydi. Shuning uchun sonli usullardan foydalanib noma’lum parametrlarni baholaymiz: $a \approx 0.0001074$ va $b \approx 0.08494$.

Noma’lum parametrlarni baholashda kichik kvadratlar usulidan ham foydalanish mumkin. Bunda modeldagi $S(x;\theta)$ funksiya bilan $\hat{S}(x)=\frac{l_x}{l_0}$ orasidagi farqni minimallashtirish orqali parametrlar aniqlanadi

$$\min_\theta \sum_{i=1}^{n}\left(S(x_i;\theta)-\hat{S}(x_i)\right)^2.$$

Quyida berilgan o‘limlik jadvali asosida qurilgan $\hat{S}(x)$ empirik umr davomiyligi funksiyasi va o‘rganilgan modellar bo‘yicha baholangan umr davomiyligi funksiyalarini solishtirma grafigini chizamiz.



1-rasm. **Empirik umr davomiyligi funksiyasi**
Manba Muallif ishlanmasi

Umr davomiyligi funksiyasi ehtimollar nazariyasi, statistik tahlil va aktuar hisoblarning asosiy tushunchalaridan biri bo‘lib, u yordamida sug‘urta, pensiya va sog‘liqni saqlash tizimlarida iqtisodiy-ijtimoiy prognozlar tuziladi. Ushbu tadqiqotda O‘zbekiston Respublikasi aholisi bo‘yicha 2008-yil statistik ma’lumotlariga asoslangan holda empirik umr davomiyligi funksiyasi Gomperts hamda Weibull modellari bilan solishtirildi.

Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, tanlangan parametrik modellar (xususan, Gomperts va Weibull) empirik funksiyaga yaxshi mos keladi, bu esa ularning real hayotdagi demografik jarayonlarni modellashtirishdagi foydaliligini tasdiqlaydi. Gomperts modeli inson biologik qarishining eksponensial xarakterini hisobga olib, o‘lim ehtimolining yoshi ortgani sayin tezlashishini ifodalaydi. Bu model ayniqsa sog‘liqni saqlash va qarilik davridagi ehtimoliy xavflarni baholashda foydali hisoblanadi. Weibull modeli umr davomiyligi tahlilida o‘zining yuqori moslashuvchanligi bilan ajralib turadi. Ayniqsa model parametri yordamida xavfning vaqtga nisbatan o‘zgarishini modellash imkoniyati uning amaliy ahamiyatini oshiradi.

Parametrlarni baholashda analitik yechimlarning mavjud emasligi sababli, haqiqatga maksimal o‘xshashlik va eng kichik kvadratlar kabi usullardan foydalangan holda sonli optimizatsiya

yondashuvlari qo‘llanildi. Tadqiqotda parametrlar maxsus dasturiy vositalar yordamida hisoblab chiqildi va har bir model asosida qurilgan nazariy umr davomiyligi funksiyalari empirik funksiyalar bilan solishtirildi.

Natijalar umr davomiyligini modellashtirish orqali aholi salomatligi, pensiya tizimining barqarorligi va sug‘urta risklarini aniqlashda aniq va asosli qarorlar qabul qilish imkonini berishini ko‘rsatdi. Ayniqsa, hozirgi davrda O‘zbekistonda demografik o‘zgarishlar, umr ko‘rishning ortishi va iqtisodiy islohotlar fonida bunday modellar strategik rejalashtirish uchun nihoyatda muhim hisoblanadi.

Ushbu tadqiqotda **Gompertz modeli yordamida umr davomiyligi funksiyasi baholandi va o‘limlilik jadvali yaratildi**. Tadqiqot natijalariga ko‘ra:

- Gompertz modeli yoshga bog‘liq o‘lim xavfini aniq modellashtirish imkonini beradi va demografik tahlil, sug‘urta statistikasi hamda sog‘liqni saqlash tadqiqotlarida samarali qo‘llaniladi.
- Survival funksiyasi va o‘lim ehtimoli hisoblanib, aholining umr davomiyligi va o‘lim darajasi bo‘yicha tahlil imkoniyati yaratiladi.
- Model parametrik bo‘lgani uchun uning asosiy farazi — o‘lim xavfi yoshga qarab eksponensial tarzda oshadi — ma’lumotlarga mos kelishi zarur.
- Sog‘liqni saqlash va demografik tadqiqotlarda **Gompertz modeli** asosida survival funksiyasini hisoblash va o‘limlilik jadvalini yaratish tavsiya etiladi.
- Turli guruhlar (masalan, jins, hudud, kasalliklar bo‘yicha) o‘rtasidagi survival farqlarini tahlil qilish uchun **log-rank testi yoki Cox proportional hazards modeli** bilan solishtirish tavsiya etiladi.
- Kelgusidagi tadqiqotlarda, ma’lumotlarni boyitish va yangilash orqali, model parametrlarini yanada aniqroq baholash va o‘limlilik prognozini yaxshilash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Gompertz, B. (1825). On the nature of the function expressive of the law of human mortality. *Philosophical Transactions of the Royal Society of London*, 115, 513–585.

2. Makeham, W. M. (1860). On the law of mortality and the construction of annuity tables. *Journal of the Institute of Actuaries*, 8, 301–310.

3. Thatcher, A. R., Kannisto, V., & Vaupel, J. W. (1998). The force of mortality at ages 80 to 120. *Odense University Press*.

4. Bebbington, M., & Lai, C. D. (2007). Modelling human mortality using Gompertz–Makeham law. *Statistical Modelling*, 7(2), 137–159.

5. Kaplan, E. L., & Meier, P. (1958). Nonparametric estimation from incomplete observations. *Journal of the American Statistical Association*, 53(282), 457–481.

6. Collett, D. (2015). *Modelling survival data in medical research*. CRC Press.

7. Klein, J. P., & Moeschberger, M. L. (2003). *Survival analysis: Techniques for censored and truncated data*. Springer.

8. Therneau, T. M., & Grambsch, P. M. (2000). *Modeling survival data: Extending the Cox model*. Springer.

УДК: 338.48

ТУРИЗМ КЛАСТЕРЛАРИНИ ТАРКИБИЙ ТУЗИЛИШИ ВА УНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ХУСУСИЯТЛАРИ

СТРУКТУРНАЯ ОРГАНИЗАЦИЯ ТУРИСТИЧЕСКИХ КЛАСТЕРОВ И ОСОБЕННОСТИ ИХ РАЗВИТИЯ

STRUCTURAL COMPOSITION OF TOURISM CLUSTERS AND THEIR DEVELOPMENT FEATURES

Навруз-Зода З.Б. Бухоро давлат университети
“Иқтисодиёт” кафедраси доценти и.ф.ф.д. (PhD)

Аннотация

Мақолада туризм кластерларини таркибий тузилиши ва улар асосида мамлакат туризм соҳасини ривожлантириш хусусиятлари аниқланган.

Калит сўзлар: туризм, туристик хизматлар, туристик кластер, туристик корхоналар, туризм индустрияси, турист, туристик саёҳат, туристик макон, туризм салоҳияти, туристик кластер.

В статье определена структурная организация туристических кластеров и выявлены особенности развития туристической отрасли страны на их основе.

Ключевые слова: туризм, туристические услуги, туристический кластер, туристические предприятия, индустрия туризма, турист, туристическая поездка, туристическое пространство, туристический потенциал, туристический кластер.

The article identifies the structural composition of tourism clusters and reveals the features of developing the country's tourism sector based on them.

Keywords: tourism, tourist services, tourism cluster, tourism enterprises, tourism industry, tourist, tourist trip, tourist destination, tourism potential, tourism cluster.

Глобал туристик хизматлар бозорининг жадал суръатларда ривожланиши натижасида турли миллий туризм индустриялари ўртасида ўзаро бозор рақобати кураши чуқурлашуви ҳисобига соҳани ривожлантиришнинг самарали усулларидан фойдаланишга бўлган қизиқиш ортди. Бунинг натижсида иқтисодий фанда ҳам туризм соҳасини ривожлантиришнинг самарали усуллари, жаҳон амалиётида шаклланган турли моделларни тадқиқ этиш ва уларни такомиллаштириш борасида ўтказиладиган тадқиқотлар сони ҳам йилдан йилга ортиб бормоқда. Бугунги кунда жааҳон амалиётида мамлакат туризм соҳаси иқтисодий ривожланиш салоҳиятидан самарали фойдаланиш имконини берувчи усуллардан бири бу соҳани кластерлаштириш ҳисобланиб, туристик кластерларни ташкил этиш орқали географик жиҳатдан ўзаро яқин жойлашган ҳудудларда туристик фаолияти йўналиши ўзаро боғлиқ ёки ёрдамчи аҳамият касб этувчи тармоқлардаги корхона, ташкилот ва муассасалар фаолиятини яхлит бир гуруҳ шаклида ривожланиш тенденцияларини жадаллаштиришга эришилиб келинмоқда.

Янги Ўзбекистон Тараққиёт стратегиясининг аамал қилиши шароитида мамлакат туризм соҳасини ривожлантириш, жумладан, миллий туризмнинг ривожланиш салоҳиятидан фойдаланииш самарадорлигини оширишда ҳудудларнинг туристик ресурслар бўйича мавжуд имкониятларидан келиб чиққан ҳолда, бир ҳудуд ичидаги ёки туристик ривожланиш салоҳияти ўзаро ўхшаш бўлган чегарадош ҳудудлар ўртасида янги турдаги туристик маршрутларни ташкил этиш оқрали соҳда иқтисодий ҳамкорликнинг замонавий шаклларини ривожлантирилмоқда. Жумладан, Президент Ш.М. Мирзиёев томонидан 2025-2026 йилларда

мамлакатда туристик оқим ҳажмини кўпайтириш борасида “республика ҳудудларига 15,8 миллион нафар хорижий туристларнинг сафарларини ташкил этиш, туризм хизматлари экспортини 4 миллиард АҚШ долларига етказиш, республика ҳудудларида янги 108 та меҳмонхона, 375 та оилавий меҳмон уйи ва 123 та хостел қуриш, 745 та капсула ва ўтов уйлари, апарт-отель, модулли меҳмонхоналар ҳамда 12 та туризм қишлоғи ва туризм маҳалласини ташкил этиш” [1] каби устувор вазифаларнинг белгилаб берилганлиги, мамлакат туризм соҳасини ривожлантиришнинг самарали усулларини амалиётга жорий этишга устуворлик қаратиш зарурлигидан далолат беради.

Бозор иқтисодиёти шаклланиши шароитида мамлакат туризм соҳасини ривожлантириш салоҳиятидан фойдаланишнинг самарали усулларини амалиётда қўллаш билан боғлиқ масалалар яқин хорижлик олимлардан М. Баранцокова, В.М. Комаров, Л. Гамидуллаева, Н. Шпак, К.Й. Кулаков, У. Токбергенова кабилар томонидан тадқиқ этиб келинмоқда.

Ўзбекистонлик М.Т. Алимова, Н.Н. Сафарова, М.Р. Болтабоев, З.И. Усмонова, О.Ҳ. Ҳамидов, Ш.Р. Рузиев, Ж.Н. Абиев, И.С. Тухлиев кабилар мамлакатда туризм соҳасини ривожлантиришнинг илмий-услубий асосларини тадқиқ этиб, соҳа самарадорлигини ошириш усулларини ўрганишган.

Тадқиқот жараёнида тизимли таҳлил, тарихийлик ва мантиқийлик, индукция ва дедукция, анализ ва синтез, қиёсий ва селектив танлаб тадқиқ қилиш, монографик таҳлил ва гуруҳлаш каби усуллар қўлланилган

Умуман олганда нафақат туризм, балки иқтисодиётнинг турли тармоқ ва соҳаларида ривожланиш самарадорлигини ошириш, жумладан, мавжуд иқтисодий салоҳиятдан юқори даражада фойдаланиш асосида рақобт устунлигига эришишда кластерли ривожланиш усулидан кенг фойдаланилиб келинмоқда. Бу эса иқтисодий фанда клстерли усулдан фойдаланган ҳолда турли тармоқ ва соҳалар, жумладан туризм соҳасини ривожлантириш самарадорлигини таъминлашнинг устуворликларини ниқлашга қаратилган тадқиқотлар сонини кескин ортишига олиб келмоқда. Шу ўринда маҳаллий иқтисодчи И.С. Тўхлиевнинг қуйидаги фикрларини келтиришни лозим топдик: “туризм соҳасида кластер концепциясини қўлланилиши, замонавий туризм индустрияси муаммоларини ечиш имкониятини бериб, булар қаторига: ҳудуд туристик салоҳиятини етарли даражада баҳоланмаслиги, кириш туризмига нисбатан паст даражадаги талаб, инфратузилма етарли даражада ривожланмаганлиги, инвесторларнинг паст даражадаги қизиқиши, туризмни ривожлантириш стратегик дастурларнинг тадбиқ этилиш механизмлари ва усулларининг номукаммаллиги киради” [2], деб ҳисоблайди. Жумладан, М.Т. Алимова “туризмни ривожлантиришда кластерли ёндашувдан фойдаланишнинг зарурияти бир томондан туризм ва туристик маҳсулотнинг ноёб характерлари, иккинчи томондан кластерли лойиҳаларни реализация қилишдан кейинги устунликларда намоён бўлади” [3], деган ғояни илгари суради.

Шу билан биргаликда, туризм соҳасида кластерли усулдан фойдаланиш бўйича ҳам қатор фикрлар билдириб ўтилган. Жумладан, Ш.Б. Навруз-зода фикрича “кластер ёндашувида туризмни ривожлантириш туристик фаолиятнинг ўзига хос хусусиятлари ва ҳудуднинг туристик маҳсулотига жалб қилинган корхоналар агломератининг биргаликдаги ҳаракатлари билан боғлиқ” [4], деб ҳисоблайди. Шу билан биргаликда, А.А. Абдувалиев “кластерларни ташкил қилишда мамлакатнинг иқтисодий ривожланиш ҳолатини инобатга олиш тақозо қилинади. Шунинг учун кластерларни ташкил қилишнинг муҳим жиҳатларидан бири – унинг инструментларини аниқлаш талаб қилинади” [5], деган хулосага келган.

Сўнгги йилларда мамлакатимиз амалиётида миллий иқтисодиётнинг турли тармоқлари, жумладан, туризм соҳасини кластерли усулда ривожлантиришга қаратилган тадқиқотлар сони ҳам ортиб бормоқда. Шу ўринда маҳаллий иқтисодчи олимлар томонидан мамлакатда туризм соҳасини кластерли усуллар орқали ривожлантиришга қаратилган илмий изланишлар натижаларига қаратишни лозим топдик. Жумладан, М.Т. Алимова томонидан миллий туризм соҳасини ривожлантиришда кластерли усуллардан фойдаланиш устуворликларини тадқиқ этиш орқали ушбу жараёнларни самарали амалга ошириш билан боғлиқ бўлган тамойилларни ажратиб кўрсатишга эришилган ҳисобланади. Олим “туристик кластерлар шаклланиши ва

амал қилиши билан боғлиқ бўлган жараёнлар хўжалик юритиш бирликларининг ҳудудий концентрацияси, қўшилган қиймат яратиш занжирида қатнашиш асосида кластер аъзоларининг чуқур технологик кооопepaцияси, кооперация ва рақобатнинг уйғунлиги, инновацион жараёнларнинг хослиги, ҳамда давлат ва хусусий бизнеснинг ҳамкорлиги каби тамойилларга асосланиши керак” [6], деб ҳисоблайди.

Умуман олганда сўнгги йилларда маҳаллий иқтисодчи олимлар томонидан туризм соҳасини кластерли усуллар орқали ривожлантириш борасида ўтказилган илмий тадқиқотларда ҳудудларда туристик марказларни ривожлантириш, “Ақлли” туризм, туристик маршрутларнинг кенгайтириш ва шу каби бошқа турдаги илмий таклифлар ишлаб чиқилган ҳисобланади. Жумладан, Б. Рузметов “мамлакатда туризм соҳасини кластерлаштириш жараёнида туристик ҳудудларда рақамли технологиялардан фойдаланган ҳолда “SMART (Ақлли)” туризмни ривожлантириш керак бўлади. Бунда турли рақамли технологиялар аасосида ҳудудлар туристик хизматлар бозори тўғрисидаг маъумотларни умумлаштирган рақамлаштирилган платформаларни ишлаб чиқиш” [7] ғоясини илгари суради.

Шунингдек, Ш. Каримова “мамлакат туризм соҳасини кластерли усулдан фойдаланган ҳолда ривожлантиришда кичик туристик кластерларни ташкил этиш керак. Кичик туристик кластерлар бозор конъюнктурасидаги кескин ўзгаришларга нисбатан юқори даражадаги мослашувчанлик хусусиятига эга эканлиги билан характерланиб, мамлакат туристик ривожланиш салоҳиятидан фойдаланиш самарадорлигини оширишга хизмат қилади” [8], деб ҳисоблайди. Мазкур илмий хулосани шакллантиришда олим сўнгги йилларда мамлакатимизда кичик бизнес ва хусусий тадбиркорликни ривожлантиришга қаратилган ислоҳотларга устуворлик қаратиб келинаётганлигига асосланиб, кичик кооперативлар шаклидаги туристик кластерларни шакллантириш ғоясини илгари суради. Жумладан, маҳаллий иқтисодчи олимлардан яна бири А.Қ. Тўхтамишев “мамлакат туризм соҳасини кластерли усуллар орқали ривожлантириш ҳисобига ушбу соҳада инновацион фаолликни оширишга эришилади” [9], деган хулосага келади.

Демак, иқтисодий фанда туризм соҳасини кластерли усулдан фойдаланган ҳолда ривожлантиришга қаратилган илмий тадқиқотлар натижаларини умумлаштирган ҳолда айтиш мумкинки, ушбу усул туризм соҳасида ривожланиш салоҳиятидан фойдаланилмаётган йўналишларни ҳаракатга келтирилиши ҳисобига юқори иқтисодий самарадорликка эришиш имкониятларини яратади. Шу билан биргаликда, ўтказилган таҳлиллар туризм соҳасини кластерли ривожлантириш усулларидан фойдаланиш билан боғлиқ бўлган жараёнлар ҳисобига туристик кластерлар таркибий жиҳатдан туристик хизмат кўрсатиш корхоналари, ҳудудий туристик ресурслар, давлат муассасалари, таълим ва илмий тадқиқот муассасалари, ҳамда инфратузилма каби базавий таркибий элементлардан ташкил топади, деган хулосага келинди ва улар қуйидаги тартибда изоҳланади:

туристик корхоналар – бунда туристик хизматлар ва маҳсулотлар ишлаб чиқарувчи, туризм соҳаси амал қилишида устувор аҳамият касб этувчи хўжалик субъектлари, жумладан, туроператорлар, турагентликлар, мехмонхоналар каби бизнес субъектлари назарда тутилади;

ҳудудий ресурслар – бунда туристик кластер ташкил этилган ҳудуднинг табиий-географик жиҳатдан туристик хизматлар кўрсатиш имкониятини берувчи мавжуд туристик ресурслари, жумладан, соҳиллар, ўрмонлар, рereацион зоналар, тарихий-маданий объектлар ва шу каби бошқа ресурсларни киритиш мумкин бўлади;

давлат муассасалари – бунда мамлакатда туристик фаолият юритиш соҳасини тартибга солиш, соҳада регуляторлик қилувчи, стратегик ислоҳотларни аамалга оширилишида давлат вакили сифатида қатнашувчи двлат органлари, жумладан, туристик қўмиталар, туристик фаолиятни лицензиялаш билан боғлиқ бўлган соҳаларда фаолият юритувчи давлатнинг мутасадди ташкилотлари ва органлари фаолияти асосида туристик клаастерларни қўллаб-қувватлаш бўйича амалга ошириладиган чора-тадбирлар ҳисобига уларнинг кластерлар фаолиятидаги иштироки намоён бўлиши билан боғлиқ ҳолатлар давлат муассасаларини туристик кластерлар таркибига киритиш имконини беради;

таълим ва илмий тадқиқот муассасалари – мазкур таркибий элемент ўзаро боғлиқ лекин бажарадиган функцияси бўйича бир биридан фарқ қилувчи муассасалар фаолиятини ўз ичига олиб, умумий ҳолатда улар туристик кластерни инновацион ривожлантириш самарадорлигини оширишга хизмат қилади;

инфратузилма – бунда нафақат туристик кластер, балки, яхлит мамлакат миллий туризм соҳасида фаолият юритаётган туристик компаниялар томонидан кўрсатиладиган туристик хизматлар самарадорлигига бевосита таъсир қилувчи йўл, алоқа, жумладан, интернет, ҳамда транспорт инфратузилмасининг етарли даражада ривожланган ҳолатда бўлиши талаб этилади.

Туризм соҳасини кластерлаштириш усулларини тадқиқ этиш борасида ўтказилган тадқиқотларимиз асосида ушбу усуллардан мамлакатимиз амалиётида фойдаланишнинг устуворликлари бўйича қуйидаги хулосаларни шакллантиришга эришилди:

-мамлакат туризм соҳасида географик кластерлаш усулидан фойдаланиш орқали маданий ва зиёрат туризмни ривожлантириш самарадорлигини ошириш имкониятлари юқори ҳисобланади;

-маҳсулот / хизмат турига асосланган клстерлаштириш усулидан экотуризм ва агротуризм соҳаларини ривожлантириш борасидааги ислоҳотларда фойдаланиш мақсадга мувофиқ ҳисобланади;

-мамлакатда туризм соҳаасини функционал усулда ривожлантиришда шаҳар ва бизнес туризмини ривожлантириш мумкин бўлиб, бунда мамлакат пойтахти ҳисоблангаан Тошкент шаҳри энг мос келувчи ҳудудлардан ҳисобланади;

Фойдаланилган адабиётлар руйхати:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 15.05.2025 йилдаги “2025-2026 йилларда сайёҳлар оқимини кескин кўпайтириш ва туристик хизматлар кўламини жадал кенгайтириш орқали туризмнинг иқтисодиётдаги ўрни ва аҳамиятини ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-87-сон фармони.
2. Тухлиев И.С., Аблоқулов А.А. Рақобатбардошликни оширишда ҳудудий туристик кластернинг ташкилий-қтисодий моделини шакллантириш усули. “Туристик кластерларни ривожлантиришнинг долзарб муаммолари” мавзусидаги халқаро онлайн илмий-амалий анжумани материаллари, Самарқанд: СамИСИ 2021. – 4-9 бетлар.
3. Алимова М.Т., Норқулова Д.З. Туристик кластерларнинг шаклланиш ва амал қилиш хусусиятлари. “Туристик кластерларни ривожлантиришнинг долзарб муаммолари” мавзусидаги халқаро онлайн илмий-амалий анжумани материаллари, Самарқанд: СамИСИ 2021. – 16-20 бетлар.
4. Наврўз-зода Ш.Б. Ёшлар туризмини клаастер ёндашувида ривожлантириш хусусиятлари. “Туристик кластерларни ривожлантиришнинг долзарб муаммолари” мавзусидаги халқаро онлайн илмий-амалий анжумани материаллари, Самарқанд: СамИСИ 2021. – 118-122 бетлар.
5. Абдувалиев А.А. Миллий иқтисодиётда кластерларни ривожлантиришнинг хорижий мамлакатлар тажрибаси таҳлили. Иқтисод ва молия, № 7, 2017. – 27-33 бетлар
6. Алимова М.Т., Усманова З.И. Туристик клстерларни шакллантириш ва ривожлантириш тамойиллари. “Туристик кластерларни ривожлантиришнинг долзарб муаммолари” мавзусидаги халқаро онлайн илмий-амалий анжумани материаллари, Самарқанд: СамИСИ 2021. – 28-32 бетлар
7. Худайберганов Д.Т., Аминова М.С. Туристик кластерларни ташкил этиш имкониятлари. “Туристик кластерларни ривожлантиришнинг долзарб муаммолари” мавзусидаги халқаро онлайн илмий-амалий анжумани материаллари, Самарқанд: СамИСИ 2021. – 53-57 бетлар
8. Ruzmetov B., Bakhtiyarov Sh., Jabbarova Z., Sattarova D., Habibullo Hoji M. Improvement of Sustainable Economic Mechanisms for the Formation of Tourist and Recreational Clusters in the Khorezm Region of the Republic of Uzbekistan. Journal of Lifestyle & SDG’s Review. Vol. 5, No. 1, 2025. – pp. 1-21. DOI: 10.47172/2965-730X.SDGsReview.v5.n01.pe03781

9. Karimova Sh. Exploring the Role of Tourism Micro Clusters in Regional Economic Development. Journal of Science-Innovative Research in Uzbekistan, Vol. 3 (3), 2025. – pp. 106-110
10. Tukhtamishev A.K. Development of the Innovation Potential of the Regional Tourism Cluster. European Journal of Economics, Finance and Business Development, Vol. 2, Issue 12, Dec., 2024. – pp. 95-99.

UDK: 330.342

O‘ZBEKISTONDA RAQAMLI IQTISODIYOTNING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISH STRATEGIYALARI

ФОРМИРОВАНИЕ И СТРАТЕГИИ РАЗВИТИЯ ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКИ В УЗБЕКИСТАНЕ

FORMATION AND DEVELOPMENT STRATEGIES OF THE DIGITAL ECONOMY IN UZBEKISTAN

Nabiyeva Nilufar Murodovna
Qo‘qon universiteti “Xalqaro turzim va iqtisodiyot” kafedrasi dotsenti(PhD**)**

Annotatsiya

Ushbu maqolada O‘zbekistonda raqamli iqtisodiyotning shakllanish jarayonlari, rivojlanish bosqichlari hamda milliy iqtisodiy tizimni transformatsiya qilishdagi ustuvor yondashuvlar tahlil qilingan. Raqamli texnologiyalarni joriy etishning iqtisodiy asoslari, davlat tomonidan amalga oshirilayotgan islohotlar, raqamli infratuzilmani kengaytirish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining modernizatsiyasi hamda innovatsion ekotizimni shakllantirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar yoritilgan. Shuningdek, raqamli iqtisodiyotning iqtisodiy o‘sish, raqobatbardoshlik, davlat boshqaruvini samaralashtirish va xizmatlar sifatini oshirishdagi o‘rni ilmiy asosda tadqiq etilgan. Maqolada mamlakatda raqamli transformatsiyani jadallashtirish bo‘yicha strategik ustuvor yo‘nalishlar, mavjud muammolar va ularni bartaraf etish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ham ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: Raqamli iqtisodiyot, raqamli transformatsiya, innovatsion texnologiyalar, AKT, davlat boshqaruvi, raqamli infratuzilma, elektron hukumat, iqtisodiy modernizatsiya, elektron xizmatlar, innovatsion rivojlanish, strategik boshqaruv, iqtisodiy samaradorlik.

В данной статье проанализированы процессы формирования цифровой экономики в Узбекистане, этапы её развития, а также приоритетные подходы к трансформации национальной экономической системы. Рассмотрены экономические основы внедрения цифровых технологий, проводимые государством реформы, расширение цифровой инфраструктуры, модернизация информационно-коммуникационных технологий и формирование инновационной экосистемы. Особое внимание уделено роли цифровой экономики в обеспечении экономического роста, повышении конкурентоспособности, эффективности государственного управления и улучшении качества услуг. В статье также определены стратегические направления ускорения цифровой трансформации страны, выявлены существующие проблемы и предложены рекомендации по их решению.

Ключевые слова: Цифровая экономика, цифровая трансформация, инновационные технологии, ИКТ, государственное управление, цифровая инфраструктура, электронное правительство, экономическая модернизация, электронные услуги, инновационное развитие, стратегическое управление, экономическая эффективность.

This article analyzes the formation of the digital economy in Uzbekistan, its development stages, and priority approaches to transforming the national economic system. It highlights the economic foundations of digital technology implementation, government-led reforms, the expansion of digital infrastructure, modernization of information and communication technologies, and the development of an innovation ecosystem. The study emphasizes the role of the digital economy in fostering economic growth, improving competitiveness, enhancing public administration efficiency, and increasing service quality. The article also identifies strategic directions for accelerating digital transformation in Uzbekistan, examines existing challenges, and provides recommendations for addressing them.

Keywords: Digital economy, digital transformation, innovative technologies, ICT, public administration, digital infrastructure, e-government, economic modernization, electronic services, innovation development, strategic management, economic efficiency.

Bugungi globallashuv jarayoni jadal kechayotgan sharoitda raqamli texnologiyalar iqtisodiy rivojlanishning asosiy omillaridan biriga aylanib bormoqda. Raqamli iqtisodiyot nafaqat ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish va xizmatlar ko‘rsatish samaradorligini oshirishda, balki milliy raqobatbardoshlikni ta’minlash, iqtisodiy xavfsizlikni mustahkamlash hamda xalqaro iqtisodiy integratsiyani chuqurlashtirishda ham hal qiluvchi ahamiyatga ega. Shu boisdan dunyoning yetakchi davlatlari iqtisodiyotni raqamlashtirishni strategik ustuvor vazifa sifatida belgilab, innovatsion texnologiyalarni keng tatbiq etish orqali barqaror rivojlanish yo‘lidan bormoqda.

O‘zbekiston ham globallashuv sharoitida raqamli iqtisodiyot tamoyillarini amaliyotga joriy etish, davlat boshqaruvida shaffoflikni kuchaytirish, biznes jarayonlarni optimallashtirish va aholiga ko‘rsatilayotgan xizmatlar sifatini oshirish bo‘yicha izchil islohotlarni amalga oshirmoqda. Mamlakatda “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasining qabul qilinishi iqtisodiyotning barcha sohalarida raqamli transformatsiya jarayonlarini jadallashtirishga, zamonaviy axborot-kommunikatsiya infratuzilmasini rivojlantirishga, elektron hukumat tizimini takomillashtirishga va bilimga asoslangan iqtisodiyotga o‘tish uchun mustahkam poydevor yaratishga xizmat qilmoqda.

Biz ko‘rib chiqayotgan masalalar bo‘yicha, O‘zbekiston Respublikasining 2020 yil 5-oktabrdagi “Raqamli O‘zbekiston — 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF6079-sonli farmoni, “Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PQ4699-sonli qarori, “ Raqamli iqtisodiyot va “Elektron hukumat” tizimi infratuzilmalarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ4321 sonli qarorilarida keltirilgan bir qator vazifalar mamlakatimiz iqtisodiyoti uchun ushbu maqolada amalga oshirilgan tahlillar naqadar dolzarbligini ko‘rsatadi.

Davlat raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish bilan bog‘liq masalalarni diqqat bilan o‘rganishi kerak. Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishda xorijiy tajribani tahlil qilish va joriy etishning ahamiyati ko‘plab o‘quv qo‘llanmalarida muhokama qilinadi. Bir qancha olimlar raqamli iqtisodiyotda mintaqaning inson resurslari va ilmiy va ta’lim salohiyatini rivojlantirish konsepsiyalarini o‘rgangan, ularga Volkova, Galynchik, Qurbonov, Okrepilov, Yakutin. va boshqalarni kiritishimiz mumkin.

Taqdim etilgan dastlabki tadqiqot texnologiyasi bibliometrik tahlilni o‘z ichiga oladi; iqtisodiy hodisalar va omillar o‘rtasidagi sabab-oqibat munosabatlarini tahlil qilish; guruhlash va reyting baholash usullaridan foydalangan holda mamlakatimizda raqamli iqtisodiyotning rivojlanish ko‘rsatkichlari tahlil qilingan. Raqamlashtirish jarayoni bugungi kunda dunyoning barcha mamlakatlariga ta’sir ko‘rsatmoqda. Bundan tashqari, har bir davlat raqamli rivojlanishning ustuvor yo‘nalishlarini mustaqil ravishda belgilaydi. Ayni paytda 15 dan ortiq davlat raqamlashtirish milliy dasturlarini amalga oshirmoqda. Milliy iqtisodiyotni raqamlashtirish bo‘yicha yetakchi davlatlar Xitoy, Singapur, Yangi Zelandiya, Janubiy Koreya va Daniya hisoblanadi. Xitoy o‘zining “Internet plus” dasturida raqamli sanoatni an’anaviy tarmoqlar bilan integratsiya qilmoqda, Kanada Torontoda “AKT hub” ini yaratdi, Singapur “Aqlli iqtisodiyot”ni shakllantiradi, uning boshqaruvchisi AKT hisoblanadi, Janubiy Koreya “Kreativ iqtisodiyot” dasturida inson kapitalini, tadbirkorlikni rivojlantirish va AKT yutuqlarini tarqatish, Daniya esa davlat sektorini raqamlashtirishga e’tibor qaratmoqda. O‘zbekiston iqtisodiyoti so‘nggi o‘n yillikda amalga oshirilgan tub isloxotlar natijasida

yopiq iqtisodiyotni to‘xtatdi va asta-sekin jahon iqtisodiyotining bir qismiga aylanmoqda. Global iqtisodiy jarayonlarda jamiyat rivojlanishining asosiy xususiyatlaridan biri raqamli texnologiyalarni inson hayotiga joriy etishdir. Bu axborot texnologiyalari va telekommunikatsiyalar sohasidagi yutuqlar bilan bog‘liq bo‘lib Iqtisodiyotning dastavval innovatsion, keyin raqamli rivojlanishi bir qancha investitsiyalar, AKT uskunalari bilan jihozlanganlik, internet tarmog‘ining mavjudligi, dasturiy ta’minot bilan ta’minlanganlik , hodimlar malakasi kabi omillarga bog‘liq bo‘ladi.

Raqamli iqtisodiyotni tashkil qilishning o‘ziga xos jihatlari uning zamonaviy texnologiyalar va innovatsiyalarga asoslangan bo‘lib, an’anaviy iqtisodiy tizimlardan sezilarli farq qilishidadir. Ushbu jihatlar quyidagi asosiy omillar bilan ajralib turadi:

1. Texnologiyalarga asoslangan iqtisodiy faoliyat: Raqamli iqtisodiyotda iqtisodiy faoliyat axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga asoslanadi. Bu texnologiyalar biznes jarayonlaridan tortib, davlat xizmatlarigacha raqamli muhitda amalga oshiriladi.

2. Ma’lumotlarning ustunligi: Raqamli iqtisodiyotning asosiy xom ashyosi ma’lumotlardir. Kompaniyalar va davlat idoralari katta hajmdagi ma’lumotlarni tahlil qilish orqali aniq va tezkor qarorlar qabul qilish imkoniga ega bo‘ladi.

3. Elektron tijorat va moliyaviy texnologiyalar: Raqamli iqtisodiyotda savdo-sotiq elektron platformalar orqali amalga oshiriladi. Elektron tijorat nafaqat ichki, balki xalqaro miqyosda ham oson va samarali iqtisodiy aloqalarni rivojlantiradi.

4. Ishlab chiqarishning avtomatlashuvi va raqamli transformatsiya: Sanoat sohasida raqamli texnologiyalarni qo‘llash ishlab chiqarishni avtomatlashtirish, xarajatlarni kamaytirish va mahsulot sifati ustidan doimiy nazoratni ta’minlaydi.

5. Innovatsion va kreativ iqtisodiyot: Raqamli iqtisodiyot yaratuvchanlik va innovatsiyaga katta e’tibor qaratadi. Dasturiy ta’minotlar, mobil ilovalar, texnologik startaplar va boshqa raqamli mahsulotlar innovatsion yondashuvni talab qiladi va iqtisodiyotning yangi segmentlarini shakllantiradi.

6. Xalqaro raqamli integratsiya: Raqamli iqtisodiyot global bozorlarning ochiqligini talab qiladi. Milliy iqtisodiyotlarning raqamli transformatsiyasi xalqaro miqyosda o‘zaro hamkorlik va raqobatni oshiradi.

7. Huquqiy va xavfsizlik masalalari: Raqamli iqtisodiyotda kiberxavfsizlik va shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish masalalari muhim o‘rinni egallaydi.

1-jadval

O‘zbekistonda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yo‘nalishlari

№	Yo‘nalish	Mazmuni
1	Elektron hukumat tizimini rivojlantirish	Davlat boshqaruv jarayonlarini raqamlashtirish, davlat xizmatlarini onlayn shaklga o‘tkazish, shaffoflikni oshirish, elektron hujjat aylanishi va masofaviy xizmatlarni kengaytirish.
2	Elektron to‘lovlar va fintech xizmatlari rivoji	Uzcard, Humo, Payme, Click va boshqa platformalar orqali elektron to‘lovlarni kengaytirish, mobil bankingni rivojlantirish, naqd pulsiz iqtisodiy tizimni shakllantirish.
3	Davlat xizmatlari markazlari va my.gov.uz tizimi	Davlat xizmatlarini yagona platformada ko‘rsatish, byurokratik to‘siqlarni kamaytirish, ruxsatnomalar va hujjatlarni elektron shaklda rasmiylashtirish.
4	Ta’lim tizimini raqamlashtirish va IT kadrlar tayyorlash	Onlayn ta’lim platformalarini kengaytirish, IT maktablari va trening markazlari tashkil etish, AKT bo‘yicha malakali mutaxassislar tayyorlash.
5	Sog‘liqni saqlash tizimini raqamlashtirish	Elektron tibbiy kartalar, telemeditsina xizmatlari, tibbiyot muassasalarida axborot tizimlarini joriy etish va ma’lumotlar bazasini integratsiyalash.

6	IT infratuzilmani rivojlantirish	Optik tolali internet tarmoqlarini kengaytirish, 5G tarmog‘ini joriy etish, ma’lumotlar markazlarini modernizatsiya qilish va texnologik infratuzilmani yaxshilash.
7	IT Park va startap ekotizimini qo‘llab-quvvatlash	Startap loyihalari, texnoparklar, inkubatorlar va akseleratorlarni rivojlantirish, yoshlar innovasiyalarini qo‘llab-quvvatlash, raqamli biznesni rag‘batlantirish.
8	Kiberxavfsizlik tizimini kuchaytirish	Axborot tizimlarining himoyasini ta’minlash, davlat va biznes sektori uchun kiberxavfsizlik standartlarini joriy etish, ma’lumotlarni himoya qilish mexanizmlarini kuchaytirish.

O‘zbekistonning raqamli iqtisodiyoti mamlakatning strategik rivojlanish yo‘nalishlaridan biri sifatida shakllanib bormoqda. Raqamli transformatsiya jarayoni iqtisodiy samaradorlikni oshirish, davlat boshqaruvini modernizatsiya qilish, raqobatbardoshlikni kuchaytirish va aholiga ko‘rsatilayotgan xizmatlar sifatini yaxshilash imkonini bermoqda. Elektron hukumat tizimi va “my.gov.uz” portali orqali davlat xizmatlari masofadan turib amalga oshirilmoqda, bu esa byurokratik to‘siqlarni kamaytiradi va xizmat ko‘rsatish samaradorligini oshiradi. iqtisodiyotning innovatsion salohiyatini kuchaytiradi.

Biroq raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish jarayonida kadrlar yetishmasligi, hududlar o‘rtasida raqamli tengsizlik, texnologik infratuzilmani modernizatsiya qilish ehtiyoji va axborot xavfsizligi masalalari dolzarb bo‘lib qolmoqda. Shu bois, raqamli iqtisodiyotning samarali rivoji uchun quyidagi takliflar ishlab chiqilgan:

1. Elektron hukumat tizimini yanada rivojlantirish: davlat xizmatlarini yagona interaktiv platformada to‘liq integratsiyalash, elektron hujjat aylanishini kengaytirish va fuqarolar hamda tadbirkorlar uchun masofaviy xizmatlarni yanada qulaylashtirish.
2. Ta’lim tizimini raqamlashtirish va kadrlar tayyorlash: IT mutaxassislar tayyorlash, onlayn ta’lim platformalarini takomillashtirish va AKT savodxonligini maktab va oliy ta’lim tizimida oshirish.
3. Sog‘liqni saqlash tizimini raqamlashtirish: elektron tibbiy kartalar va telemeditsina xizmatlarini barcha hududlarda joriy etish, tibbiyot ma’lumotlar bazasini markazlashtirish va integratsiyalash.
4. IT infratuzilmani rivojlantirish: optik tolali internet tarmoqlari, 5G tarmog‘i, ma’lumotlar markazlari va texnologik infratuzilmani modernizatsiya qilish.
5. Raqamli tengsizlikni kamaytirish: hududlararo raqamli infratuzilma farqlarini bartaraf etish va aholining barcha qatlamlari uchun raqamli xizmatlarga kirishni ta’minlash.

Ushbu takliflar amalga oshirilishi natijasida O‘zbekistonning raqamli iqtisodiyoti barqaror rivojlana boshlaydi, innovatsion salohiyat kuchayadi va mamlakatning global iqtisodiy maydondagi pozitsiyasi mustahkamlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Derkho, MA, Gritsenko, SA, Vilver, DS, Sereda, TI va Fomina, NV (2019). Qalqonsimon bez gormonining metabolik holati va turli xil zotlarning o‘rnini bosuvchi giltlar shakllanishida iqtisodiy foydali xususiyatlari. *Periodico Tche Quimica, 16* (31), 472-483.
2. Glotko, AV, Polyakova, AG, Kuznetsova, MY, Kovalenko, KE, Shichiyakh, RA va Melnik, MV (2020). Tarmoqli raqamlashtirishni davlat tomonidan tartibga solishning asosiy tendentsiyalari. *Tadbirkorlik va barqarorlik masalalari* , 7(3), 2181-2195. http://doi:10.9770/ jesi.2020.7.3(48)
3. Qurbonov T.K. (2018). Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish va yangi texnologik yo‘nalish iqtisodiyoti dasturi. *Zamonaviy jamiyat rivojlanishining dolzarb masalalari* , 126-132.
4. Lincaru, C., Pirciog, S., Grigorescu, A., Tudose, G. (2018). Davlat boshqaruvi bandligida past-past (LL) yuqori inson kapitali klasterlari - raqamli infratuzilma davlat investitsiyalari ustuvorligi uchun bashoratchi - Ruminiya misoli. , *Tadbirkorlik va barqarorlik masalalari,* 6(2), 729-753. http://doi.org/10.9770/jesi.2018.6.2(18)

5. O‘zbekiston Respublikasining 2020 yil 5-oktabrdagi “Raqamli O‘zbekiston — 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6079-sonli Farmoni. www.lex.uz

UDK: 005.4:664

OZIQ-OVQAT SANOATI KORXONALARI FAOLIYATINI BOSHQARUV JARAYONLARIGA METODOLOGIK YONDASHUVLAR

МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ К ПРОЦЕССАМ УПРАВЛЕНИЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬЮ ПРЕДПРИЯТИЙ ПИЩЕВОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ

METHODOLOGICAL APPROACHES TO THE MANAGEMENT PROCESSES OF FOOD INDUSTRY ENTERPRISES

Turg‘unov Muxriddin Mo‘ydinjon o‘g‘li
Farg‘ona davlat universiteti Buxgalteriya hisobi va moliya kafedrasi dotsenti (PhD)

Annotatsiya

Ushbu maqolada oziq-ovqat sanoati korxonalarining boshqaruv jarayonlarini samarali tashkil etish va optimallashtirishda qo‘llaniladigan metodologik yondashuvlar tahlil qilinadi. Tadqiqot doirasida korxonalarda strategik va operatsion boshqaruvning mohiyati, resurslarni rejalashtirish va taqsimlash, ishlab chiqarish jarayonlarini monitoring qilish va sifatni boshqarish tizimlari o‘rganilgan. Shuningdek, maqolada zamonaviy boshqaruv usullari, jumladan, tizimli yondashuv, sifatni boshqarish, iqtisodiy-moliyaviy ko‘rsatkichlarga asoslangan boshqaruv metodlari ham ko‘rib chiqilgan. Tadqiqot natijalari oziq-ovqat sanoati korxonalarining samaradorligini oshirish, raqobatbardoshligini kuchaytirish va innovatsion boshqaruv mexanizmlarini joriy etish bo‘yicha amaliy tavsiyalarni ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: boshqarish mexanizmi, ta’sir etuvchi omillar, islohotlar, oziq-ovqat sanoati, eksport, import, oziq-ovqat mahsulotlari eksporti.

В данной статье анализируются методологические подходы к управлению деятельностью предприятий пищевой промышленности с целью повышения их эффективности и оптимизации управленческих процессов. В рамках исследования рассмотрены стратегическое и операционное управление, планирование и распределение ресурсов, мониторинг производственных процессов и системы управления качеством. Также в статье рассматриваются современные методы управления, включая системный подход, управление качеством и управление на основе экономико-финансовых показателей. Результаты исследования способствуют разработке практических рекомендаций по повышению эффективности, конкурентоспособности и внедрению инновационных управленческих механизмов на предприятиях пищевой промышленности.

Ключевые слова. механизм управления, влияющие факторы, реформы, пищевая промышленност, экспорт, импорт, экспорт продуктов питания.

This article analyzes methodological approaches to managing the activities of food industry enterprises with the aim of improving efficiency and optimizing management processes. The study examines strategic and operational management, resource planning and allocation, production process monitoring, and quality management systems. The article also considers modern management methods, including a systematic approach, quality management, and management based on economic and financial indicators. The results of the study contribute to developing practical recommendations

for enhancing efficiency, competitiveness, and implementing innovative management mechanisms in food industry enterprises.

Keywords. control mechanism, influencing factors, reforms, food industry, exports, imports, food exports.

Oziq-ovqat sanoati har bir mamlakat iqtisodiyotining asosiy sohalaridan biri bo‘lib, aholining oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash, milliy iqtisodiy barqarorlik va eksport salohiyatini oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Shu sababli, ushbu sohada faoliyat yurituvchi korxonalarning boshqaruv jarayonlari samarali, tizimli va innovatsion yondashuvlar asosida tashkil etilishi zarur.

Boshqaruv jarayonlari nafaqat korxonaning kundalik operatsiyalarini muvofiqlashtirish, resurslarni optimal taqsimlash va ishlab chiqarish samaradorligini oshirish bilan bog‘liq, balki uzoq muddatli strategik rivojlanish va raqobatbardoshlikni ta’minlash uchun ham muhim ahamiyatga ega. Zamonaviy korxonalarda boshqaruv tizimlari ishlab chiqarish, moliya, marketing, sifat nazorati va kadrlar boshqaruvi kabi sohalarni birlashtirib, korxona faoliyatini integratsiyalashgan shaklda boshqarishga imkon yaratadi.

Oziq-ovqat sanoati mamlakatimizda ishlab chiqarilgan mahsulotlar bilan to‘ldirishning ob’ektiv zarurati oziq-ovqat sanoati korxonalarining samarali ishlashini nazarda tutadi, chunki oxir-oqibat nafaqat aholining turmush darajasi, balki umuman iqtisodiyotning rivojlanishiga ham bog‘liq. Shu bois, oziq-ovqat sanoati korxonalarini yetuk bozor munosabatlari sharoitida va ichki oziq-ovqat bozorida raqobatning kuchayishi sharoitida, nafaqat an’anaviy resurslardan, balki, birinchi navbatda, texnologik va tashkiliy asosda foydalanishga asoslangan yangi boshqaruv tizimi zarur. Bu vazifa nazariy va amaliy xarakterdagi bir qator yangi muammolarni hal qilish uchun asos xisoblanadi.

Ushbu amalga oshirilayotgan tadqiqotimiz doirasida oziq-ovqat sanoati faoliyatini takomillashtirish bo‘yicha mahalliy olimlarimizning tadqiqotlari o‘rganib chiqildi.

Jumladan N.M. Ziyavitdinovaning tadqiqotlarida oziq-ovqat sanoati korxonalarida bozor strategiyasini shakllantirishda, ularni rivojlantirish yo‘nalishlarini ishlab chiqishda va tarmoq boshqaruvining tashkiliy tuzilishi takomillashtirilgan[2]. Shuningdek, I.Yu. Umarov tomonidan olib borilgan tadqiqotda oziq-ovqat sanoati iqtisodiy salohiyatini baholash bo‘yicha uslubiy yondashuv ishlab chiqilgan hamda tadqiq qilingan mintaqa oziq-ovqat sanoati korxonalarining moliyaviy iqtisodiy salohiyati baholash ishlari amalga oshirilgan. Mazkur tadqiqot ishida yuqoridagi ishlardan farqli o‘laroq oziq-ovqat sanoati korxonalari faoliyati boshqaruv mexanizmini takomillashtirish xususida so‘z yuritildi.

Oziq-ovqat sanoati korxonalari faoliyatini boshqaruv jarayonlariga meyoriy-huquqiy, kompleks hamda holatga mos yondashuvni qo‘llash muhim ahamiyat kasb etadi. Bu yondashuvlarning har biri o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib, iqtisodiyotning rivojlanishida samarali deb topilgan (1-jadval).

Muayyan usulni qo‘llashning o‘ziga xos xususiyatlari ko‘p jihatdan oziq-ovqat sanoati korxonalari boshqaruvining hududiy va tarmoq xususiyatlariga bog‘liq. Shu bilan bir qatorda, sanoatning zamonaviy rivojlanish tendensiyalaridan kelib chiqib, oziq-ovqat sanoati korxonalarini taraqqiy ettirish jarayonida turli yondashuvlarni tahlil qilishda tizimli va integratsiyalashgan uslublardan foydalanish yuqori samaradorlikka erishish imkonini yaratadi.

1-jadval

Oziq-ovqat sanoati korxonasini rivojlantirishga turli xil yondashuvlar [1]

Yondashuv	Tavsifi
Tizimli	Oziq-ovqat sanoati korxonasi faoliyatini rivojlanishining barcha omillarini har tomonlama hisobga olishga qaratilgan va oziq-ovqat sanoat korxonasini tashqi muhit bilan faol aloqada bo‘lgan murakkab iqtisodiy tizim sifatida ko‘rib chiqishga imkon beradi.
Evolyutsion	Oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish bozor talablariga moslashgan holda rivojlanishi kerak.

Funksional	Oziq-ovqat sanoati korxonalarini boshqarish samaradorligini oshirish manbalari va ichki resurslarni aniqlash va ulardan foydalanishga imkon beradi.
Marketing	Oziq-ovqat sanoatidagi korxonalar o‘z faoliyatida - ya’ni mahsulot ishlab chiqarish, rejalashtirish, narx belgilash yoki innovatsiya kabi har qanday boshqaruv qarorlarini qabul qilishda - doimo iste’molchining ehtiyoj va xohishlarini asosiy omil sifatida e’tiborga olishi kerak.
Normativ	Korxonani resurs bilan ta’minlashni sezilarli darajada yaxshilash va shu asosda ishlab chiqarish-xo‘jalik faoliyati natijalarining sifatini oshirishga imkon beradi.
Kompleks	Texnik, ekologik, iqtisodiy, tashkiliy, ijtimoiy, psixologik, zarurat tug‘ilganda esa boshqa jihatlarni va ularning o‘zaro bog‘liqligini hisobga oladi.
Integratsion	Alohida boshqaruv tizimlari, hayotiy tsikllar bosqichlari, boshqaruv darajalari va subyektlari o‘rtasidagi o‘zaro aloqani o‘rganishga va kuchaytirishga yo‘naltirilgan.
Dinamik	Tashkiliy obyektlarning o‘zgarishini retrospektiv tahlil qilish va rivojlanishini bashorat qilish imkonini beradi. (Retrospektiv tahlil - bu biror tashkiliy obyektning o‘tgan davrlardagi faoliyatini chuqur tahlil qilish)
Jarayon va vaziyatli	Boshqaruvning asosiy va yordamchi usullarini takomillashtirishni ta’minlaydi. Turli boshqaruv usullarining mosligi ma’lum bir vaqtda yuzaga kelgan vaziyat bilan belgilanadi.

Korxonalarning o‘ziha xos xususiyatlari xilma-xilligini inobatga olgan holda, innovatsion jarayonlarni shakllantirishga doir yondashuvlarni ham chuqur va tanqidiy o‘rganish lozim.

“Korxonani boshqarish tuzilmasi o‘zaro bog‘langan turli elementlarning tartiblashtirilgan majmuidir. Mazkur elementlar o‘rtasida barqaror aloqalar mavjud bo‘lib, ular zamirida tashkiliy tuzilma yaxlit tizim sifatida rivojlanishi va amal qilishi mumkin” [2].

Oziq-ovqat sanoati korxonalarining faoliyatida boshqaruv tuzilmasi muhim ahamiyat kasb etadi va uning tarkibiy qismlari turli yo‘nalishlar bo‘yicha shakllanadi. Bunday tuzilma korxonaning strategik maqsadlari, mavjud resurslari hamda amalga oshirilayotgan faoliyat turlariga mos ravishda farqlanishi mumkin. Oziq-ovqat sanoati subyektlarida qo‘llaniladigan boshqaruv tuzilmalari esa bir nechta asosiy shakllarda namoyon bo‘ladi:

Ierarxik tuzilma: odatda, oziq-ovqat sanoati korxonalari an’anaviy ierarxik boshqaruv tizimiga ega bo‘lib, unda yuqori boshqaruvdan pastki darajadagi xodimlargacha bir necha darajalar mavjud. Har bir daraja o‘zining vakolat va javobgarliklariga ega bo‘lib, qarorlar yuqoridan pastga qarab qabul qilinadi.

Bo‘limlararo koordinatsiya: boshqaruv tuzilmasi mahsulot ishlab chiqarish, marketing, moliya, kadrlar boshqaruvi hamda ta’minot zanjiri kabi turli bo‘limlar faoliyatini o‘zaro muvofiqlashtirishni nazarda tutadi. Ushbu bo‘limlar o‘rtasidagi samarali koordinatsiya ishlab chiqarish jarayonining uzluksizligini va sifatni ta’minlash uchun muhimdir.

Funksional tuzilma: odatda korxonalarda funksional boshqaruv tuzilmasi qo‘llaniladi, bu har bir bo‘limning o‘z faoliyat sohasiga ixtisoslashganligini anglatadi. Masalan, ishlab chiqarish bo‘limi ishlab chiqarishni boshqarish bilan shug‘ullanadi, marketing bo‘limi esa mahsulotni bozorda targ‘ib qilish va sotish bilan shug‘ullanadi.

Moslashuvchanlik: bozordagi ehtiyoj va talablar doimiy ravishda o‘zgarib borishini inobatga olgan holda, oziq-ovqat sanoati korxonalarining boshqaruv tizimida moslashuvchanlikni saqlash va yangilanayotgan sharoitlarga tezkor javob bera olish qobiliyatini shakllantirish muhim ahamiyatga ega. Bu yangi mahsulotlar ishlab chiqarish, yangi bozorlar ochish yoki raqobatga moslashish uchun tuzilmani tezda o‘zgartirish imkonini beradi.

Sifat nazorati: oziq-ovqat sanoati korxonalari uchun sifat nazorati bo‘limi juda muhimdir. Sifatni ta’minlash va xavfsizlik standartlariga rioya qilish korxonaning muvaffaqiyati uchun asosiy omillardandir.

Innovatsion faoliyat: yangi turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish hamda ularni bozorda muvaffaqiyatli joylashtirish jarayonlarini samarali tashkil etishda innovatsion boshqaruv yondashuvlariga ustuvor e’tibor qaratish zarur hisoblanadi. Bu bozor tendensiyalarini kuzatish va mijozlar talablarini ko‘ra bilish orqali amalga oshiriladi. (1-rasm).

Tashkiliy tuzilma doirasida boshqaruv jarayoni ro‘y beradi va uning ishtirokchilari o‘rtasida muayyan funksiyalar hamda vazifalar o‘zaro taqsimlanadi. Shu nuqtayi nazardan olib qaralsa, tashkiliy tuzilma umumiy boshqaruv bilan bog‘liq faoliyatni o‘zaro taqsimlash va muvofiqlashtirish (koordinatsiyalash) demakdir.



1-rasm. Korxonaning boshqaruv tuzilmasi va uning elementlari [3]

Mazkur jarayon davomida tashkiliy maqsadlarga erishishga yo‘naltirilgan boshqaruv faoliyati amalga oshiriladi. Boshqaruv tuzilmasi tarkiban qismlarga ajratilgan tashkiliy faoliyat maqsadlari va xatti-harakatlarini o‘zaro muvofiqlashtiruvchi aloqalarni birday qamrab oladi.

Oziq-ovqat sanoati korxonalari mamlakatning iqtisodiy barqarorligini ta’minlash, aholining oziq-ovqat xavfsizligini kafolatlash va eksport salohiyatini oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Shu bois, ushbu korxonalarning boshqaruv jarayonlarini samarali tashkil etish va optimallashtirish dolzarb vazifa hisoblanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, metodologik yondashuvlarni qo‘llash orqali korxona faoliyatining strategik va operatsion jihatlarini integratsiyalash, resurslarni oqilona taqsimlash, ishlab chiqarish jarayonlarini monitoring qilish va sifatni boshqarish tizimlarini samarali tatbiq etish mumkin.

Maqolada tizimli yondashuv, sifatni boshqarish metodlari, iqtisodiy-moliyaviy ko‘rsatkichlarga asoslangan boshqaruv usullari kabi zamonaviy metodologik yondashuvlar o‘rganildi. Ular nafaqat ishlab chiqarish jarayonlarining samaradorligini oshiradi, balki korxonaning raqobatbardoshligini kuchaytiradi, innovatsion faoliyatni rag‘batlantiradi va strategik rejalashtirish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Biroq amaliyotda ba’zi muammolar mavjud: kadrlar salohiyatining yetarli emasligi, boshqaruv jarayonlarida raqamli va innovatsion yechimlarning sekin tatbiq etilishi, ishlab chiqarish va sifat nazorati tizimlarining ba’zi hollarda integratsiyalashmaganligi. Shu sababli, oziq-ovqat sanoati korxonalarida boshqaruv jarayonlarini takomillashtirish uchun metodologik yondashuvlarni tizimli tatbiq etish, kadrlar tayyorlashni rivojlantirish va innovatsion boshqaruv tizimlarini joriy etish muhimdir.

Natijada, metodologik yondashuvlar asosida boshqaruv jarayonlarini optimallashtirish oziq-ovqat sanoati korxonalarining samaradorligini oshirish, ishlab chiqarish sifatini yaxshilash, raqobatbardoshligini kuchaytirish va iqtisodiy barqarorlikni ta’minlash imkonini beradi. Ushbu yondashuvlar korxonalarning uzoq muddatli rivojlanishini ta’minlash va global bozorlarda raqobatbardoshligini oshirish uchun ilmiy va amaliy jihatdan asos bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Зиявитдинова Н.М. Кластерный подход в стратегии инновационного развития агропромышленного комплекса региона//Интернаука: электрон. научн. журн. 2019. №23 (105).
2. Друкер Питер Ф. Задачи менеджмента в XXИ веке: пер. с англ. – М.: Вилямс, 2002. 128 с.
2. Katerina Kutran. Organizational and Economic Arrangements of Economic Systems Management. Revista ESPACIOS. ISSN 0798 1015 Vol. 38 (Nº 46) Year 2017. Page 41-51.
3. Керашев А.А., Байбекова Р.А. Организатсионно-экономические аспекты создания и эффективного функсионирования вертикално-интегрированных формирований в АПК // Вестник Адыгейского гос. ун-та, 2007. №1. С. 54 – 60.
4. Кулман А. А. Экономические механизмы//. М.: Прогресс; Универс., 1993.92
5. Полухин А.А. Организатсионно-экономический механизм модернизатсии селского хозяйства России/ А.А. Полухин// Аграрная Россия. – 2012.-№5с.23-29.
6. Saidova D.N., Rustamova I.B., Tursunov Sh.A. «Agrar siyosat va oziq-ovqat xavfsizligi». –T.: O‘quv qo‘llanma. «O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Asosiy kutubxonasi» bosmaxonasi nashriyoti, 2016. 12.

UDK: 338.45

TO‘QIMACHILIK SANOATI KORXONALARIDA INVESTITSIYA JARAYONLARINI BOSHQARISH

УПРАВЛЕНИЕ ИНВЕСТИЦИОННЫМИ ПРОЦЕССАМИ НА ПРЕДПРИЯТИЯХ ТЕКСТИЛЬНОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ

MANAGEMENT OF INVESTMENT PROCESSES IN ENTERPRISES OF THE TEXTILE INDUSTRY

Maxsudov Sherzod Solijonovich
Farg‘ona davlat universiteti Buxgalteriya hisobi va moliya kafedrasi dotsenti (PhD)

Annotatsiya

Maqolada paxta va kalava ip narxlar, yuqori texnologiyali ishlab chiqarishni rivojlantirish, qiymat zanjirining to‘laqonli shakllantirish, sanoatni modernizatsiya qilish, ichki iste’mol salohiyatining ortishi, o‘sish tendensiyasi, investitsiyalarni yo‘naltirish, samaradorligini aniqlash, qo‘shilgan qiymat darajasi yuqori bo‘lgan mahsulotlar, eksportni diversifikatsiya qilish, investitsion faollikni tartibga solish, loyihalarning hayotiylik davri, korxonaning investitsiya portfelini boshqarish, qisqa muddatda investitsiya qo‘yilmalarini boshqarish, investitsiya loyihalarini monitoring qilish, investitsiyalarni rejalashtirish va tashkil etish, zamonaviy boshqaruv usullarni joriy etish, investitsiyani boshqarish samaradorligini oshirish, korxonalarini tashkiliy-texnikaviy darajasini maqsadli loyihalari.

Kalit so‘zlar: to‘qimachilik sanoati, investitsiyalar miqdori, boshqaruv mexanizmlari, innovatsion texnologiyalar, investitsiya portfeli, risk tahlili, investitsiya jarayonlari

В статье рассматриваются вопросы ценообразования на хлопок и пряжу, развития высокотехнологичного производства, полноценного формирования цепочки создания стоимости, модернизации промышленности, увеличения внутреннего потребительского потенциала, тенденции роста, направления инвестиций, определения эффективности, продукции с высоким уровнем добавленной стоимости, диверсификации экспорта, регулирования инвестиционной активности, срока жизнеспособности проектов, управления инвестиционным портфелем предприятия, управление инвестициями в краткосрочной

перспективе, мониторинг инвестиционных проектов, планирование и организация инвестиций, внедрение современных методов управления, повышение эффективности управления инвестициями, целевых проектов организационно-технического уровня предприятий.

Ключевые слова: текстильная промышленность, объем инвестиций, механизмы управления, инновационные технологии, инвестиционный портфель, анализ рисков, инвестиционные процессы

The article discusses the issues of cotton and yarn pricing, the development of high-tech production, the full-fledged formation of a value chain, industrial modernization, increasing domestic consumer potential, growth trends, investment directions, determining efficiency, products with a high level of added value, export diversification, regulation of investment activity, the viability of projects, management of the investment portfolio of the enterprise, Investment management in the short term, monitoring of investment projects, planning and organization of investments, introduction of modern management methods, improvement of investment management efficiency, targeted projects of organizational and technical level of enterprises.

Keywords: textile industry, investment volume, management mechanisms, innovative technologies, investment portfolio, risk analysis, investment processes

Jahon iqtisodiyotida vujudga kelgan globallashuv jarayonlarida to‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish markazi Yevropa va AQShdan rivojlanayotgan Janubiy-Sharqiy, Markaziy Osiyo va Janubiy Amerikaga ko‘chdi [1]. Bu esa so‘ngi 10-15 yil davomida to‘qimachilik sanoati rivojlanishida sezilarli o‘zgarishlarga olib kelmoqda. Shu bilan birga, so‘ngi ikki yilda, ya’ni 2021-2022 yillarda jahon bozorlarida paxta va kalava ip narxlari keskin oshdi [2]. Natijada jahon to‘qimachilik bozor konyunkturasida keskin o‘zgarishlar yuz berdi. An’anaviy to‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqaruvchi davlatlarda paxta va ip kalavaga ehtiyoj oshib ketdi. Bugungi kunda jahon bozorlarida fan-texnika sig‘imi yuqori mahsulotlarga ehtiyojning yanada ortib borishi, yuqori texnologiyali ishlab chiqarishni rivojlantirish sharoitida iqtisodiyot tarmoqlariga yuqori texnologiyalar yetkazib beruvchi to‘qimachilik sanoati tarmog‘ini yanada rivojlantirish va bunda sohaga jalab etilayotgan investitsiyalar samaradorligini oshirishga zaruriyati kuchaytirib bormoqda.

Jahon amaliyotida investitsion jarayonlarini rivojlantirishda bir qator muammolarning ilmiy yechimini ta’minlash yuzasidan maqsadli ilmiy izlanishlar tashkil qilingan bo‘lib, jumladan investitsiya faoliyatini yanada samarali rivojlantirish masalalariga majmuaviy yondashish, aloqa korxonalarining investitsion jozibadorligi va moliyaviy barqarorligini ta’minlash, yangi xizmat turlarini joriy etish, sof foydaning jalb qilinayotgan investitsiyalar miqdori va xarajatlarga bog‘liqligini e’tiborga olgan holda mavjud uslubiy yondashuvlarni takomillashtirish, to‘qimachilik sanoatida investitsion faoliyatni boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Mamlakatimizda to‘qimachilik sanoati korxonalarida, jumladan, sohada investitsion faoliyatni optimallashtirish va ularda boshqaruv jarayonlarini takomillashtirish, tarmoqda qo‘shilgan qiymat zanjirining to‘laqonli shakllantirish orqali soha korxonalarining iqtisodiy salohiyatini oshirish, shu orqali bandlikni ta’minlash, aholining to‘qimachilik sanoati mahsulotlariga bo‘lgan ehtiyojini qondirish hamda turmush farovonligini oshirishga katta e’tibor berilmoqda.

To‘qimachilik sanoati korxonalarini investitsion faoliyatini boshqarish masalalari xorijlik olimlar F.Teylor, P.Druker, M.Porter, I.Gordon, M.Ueyts, D.Volf, M.Enrayt va boshqalarning ilmiy tadqiqotlarida o‘z aksini topgan.

Ushbu sohada MDH olimlaridan G.B.Kleyner, A.A.Itigina, E.I.Krilov, A.N.Dirdonova, V.V.Gluxov, L.F.Xomutova, M.I.Xaydarzoda, P.A.Muxsinova va boshqalar ilmiy izlanishlar olib borganlar.

O‘zbekistonda Sh.N.Zaynutdinov, M.A.Maxkamova, B.A.Abdullayev, G.D.Xasanova, T.Z.Toshpulatov, I.I.Soliyev, O.E.Ernazarov kabi olimlar izlanishlarida iqtisodiyotni innovatsion-investitsion rivojlanish yo‘liga o‘tkazish, jumladan, sanoat korxonalarining innovatsion hamda

investitsion faoliyatini boshqarishda to‘qimachilik korxonalar faoliyatini samarali tashkil etish va undagi boshqaruv mexanizmlarini o‘rganish, o‘zgarishlarning sohani rivojlantirishdagi ahamiyatini belgilash muhim ahamiyat kasb etganligi sababli ushbu yo‘nalishda ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish zaruriyatini yuzaga keltiradi.

Bugungi kunda iqtisodiyotning barqaror o‘sishini ta’minlash investitsiya faoliyatini samarali boshqarish muhim axamiyat kasb etadi. Investitsiya jarayonlari iqtisodiy tizimning asosiy xarakatlantiruvchi kuchlaridan biri bo‘lib, ular orqali yangi ishlab chiqarish quvvatlari yaratiladi, innovatsion texnologiyalar joriy etiladi va raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish imkoniyati kengayadi. Shu bois, investitsiya faoliyatini boshqarish masalasi ham davlat, ham xo‘jalik subyektlari, xam tarmoq darajasida ilmiy yondashuvni talab etadi.

Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlariga ko‘ra, 2025 yil yanvar –sentabr oylarida iqtisodiyot va ijtimoiy sohani rivojlantirish uchun barcha moliyalashtirish manbalari hisobidan 443.6 trln so‘m asosiy kapitalga investitsiyalar o‘zlashtirilgan. Bu ko‘rsatkich 2024 yilning mos davriga nisbatan 15.2 foizga, so‘ng 5 yilda 2.8 barobar ko‘paygan.

Mazkur davrda o‘zlashtirilgan xorijiy investitsiya va kreditlar miqdori 34.5 mlrd dollarni tashkil etadi.

Xorijiy investitsiya va kreditlarning soha kesimidagi ulushi quyidagicha:

Ishlab chiqarish sanoati-32.9%, Elektr, gaz bilan ta’minlash-18.4%, Tog‘-kon sanoati-12.2%, Qishloq xo‘jaligi-9.1%, Suv bilan ta’minlash va kanalizatsiya-1.8%, Qurilish-6.1%, Tashish va saqlash-5.3%, Axborot va aloqa-0.9%, Sog‘liqni saqlash-1.7%, Boshqa faoliyat turlari 11.6%

1-jadval

Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi (yillik) [3]

mlrd.so‘m

№	Nomi	2020 yil	2021 yil	2022 yil	2023 yil	2024 yil
1.	Sanoat mahsuloti	368740,2	456056,1	553265	658991,7	880198,5
2.	To‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish	36713,9	52372,3	62850,7	71509,8	89489
3.	Kiyim ishlab chiqarish	10402,4	13592,8	17264,8	23087,8	31906,8
4.	Teri va unga tegishli maxsulotlar ishlab chiqarish	1616,9	2083,9	2220,6	2795,7	4137,1

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, 2020-2024 yillar davomida O‘zbekiston sanoat mahsulotlari ishlab chtqarish hajmi barqaror o‘sib borgan, 2020 yilda 368.7 trln so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, 2024 yilga kelib, 880,2 trln so‘mga yetgan. Bu - 4 yilda deyarli 2,4 barobar o‘sishni anglatadi.

Bu o‘sish mamlakatda sanoatni modernizatsiya qilish, qo‘shilgan qiymatli maxsulot ishlab chiqarishni kengaytirish va ishlab chiqarish quvvatlarini oshirish bo‘yicha amalga oshirilgan davlat dasturlari samarasini qo‘rsatadi.

To‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish 2020 yilda 36,7 trln so‘mdan 2024 yilda 89,5 trln so‘mgacha oshgan. Bu 2,4 barobar o‘sishni ko‘rsatadi. Shu bilan birga, umumiy sanoat mahsulotlari hajmidagi ulushi taxminan 10% atrofida saqlanib qolgan. Bu sohadagi barqaror o‘sish O‘zbekistonning eksport salohiyati yuqori bo‘lgan strategik tarmoqlardan biri sifatida to‘qimachilik sanoatini shakllantirishdagi muhim ahamiyatga ega. To‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish 2020 yilda 36,7 trln so‘mdan 2024 yilda 89,5 trln so‘mgacha oshgan. Bu 2,4 barobar o‘sishni ko‘rsatadi. Bu natijalar sanoat tarmoqlarida klasterlashgan tizimining joriy etilishi va xorijiy investitsiyalarni jalb qilish orqali ishlab chiqarish zanjirini chuqurlashtirish bilan bog‘liq.

Kiyim ishlab chiqarish hajmi 2020 yilda 10,4 trln so‘mdan 2024 yilda 31,9 trln so‘mgacha o‘sgan. Bu 3 barobar o‘sishni anglatadi. Bu o‘sish aholining ichki iste’mol salohiyatining ortishi, ichki bozorda milliy brendlarning ko‘payishi va eksport uchun tayyor mahsulot ishlab chiqarishga yo‘naltirilgan islohotlar bilan izohlanadi. Ilmiy nuqtai nazardan, bu sohada qo‘shilgan qiymat darajasi

yuqori bo‘lgan mahsulotlar ishlab chiqarish hisobiga tarmoq diversiftkatsiyasi kuchayganini ko‘satadi.

Teri mahsulotlari ishlab chiqarishhajmi 2020 yilda 1,6 trln so‘mdan 2024 yilda 4,1 trln so‘mgacha oshgan, ya’ni 2,5 barobar o‘sgan. Bu tarmoqdagi o‘sish sur’ati yuqori bo‘lsada, uning sanoatdagi ulushi hali past (1% atrofida). Bu sohada ilmiy asoslangan ishlab chiqarish texnologiyalarini joriy etish, xomashyoni chuqur qayta ishlash va eksportni diversifikatsiya qilish zarurligi saqlanib qolmoqda.

2020-2024 yillarda sanoat tarmoqlari umumiy o‘sish tendensiyasini namoyon etgan bu mamlakatning industrial rivojlvnish strategiyasi samaradorligini tasdiqlaydi.

To‘qimachilik va kiyim ishlab chiqarish sohalaridagi o‘sish sur’atlari yuqori bo‘lib, ular iqtisodiyotning klaster asosida rivojlanishi, innovatsiyalarni joriy etish va xorijiy sarmoyalar hisobiga amalga oshganini ko‘rsatadi.

Ilmiy jihatdan, ushbu ma’mulotlar sanoat tarmoqlari strukturasida qayta ishlash va eksportga yo‘naltirilgan tarmoqlar ulushi ortib borayotganini anglatadi. Sanoatni rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari sifatida texnologik yangilanish maxalliylashtirish darajasini oshirish va innovatsion klaster modelllarini keng joriy etish tavsiya etiladi.



1-rasm Investitsiya faoliyatini boshqarish jarayonlari [4].

Alohida xo‘jalik subyektlari nuqtai nazaridan investitsiyalarni boshqarish. Korxonalar miqyosida investitsiyalarni boshqarish asosan quyidagi yo‘nalishlarni o‘z ichiga oladi:Investitsiya portfelini boshqarish- korxona kapitalini diversifikatsiya qilish, xaratlarni kamaytirish va maksimal foyda olishga qaratilgan strategiyadir. Bu jarayonda investitsiya portfeli tarkibi bozor sharoit, moliyaviy barqarorlik va risk tahlili asosida shakllantiriladi.

Investitsiya loyihalarini monitoring qilish va sifatini baholash- investitsiya faoliyati samaradorligini ta’minlash uchun doimiy nazorat va tahlil muhim ahamiyatga ega. Monitoring jarayoni loyihaning amalga oshirish bosqichlarida yuzaga keladigan tavakkalchiliklarni aniqlash va kamaytirish imkonini beradi.

Qisqa muddatli investitsiya qo‘yilmalarini boshqarish-bu moliyaviy likvidlikni ta’minlash va tez aylanma aktivlardan foydalanish orqali korxonaning pul oqimlari barqarorlashtirishni nazarda tutadi.

Davlat nuqtai nazardan investitsiya jarayonlarini boshqarish.

Davlatning investitsiya siyosatini amalga oshirishdagi roli strategik ahamiyatga ega bo‘lib, u quyidagi yo‘nalishlarda namayon bo‘ladi:

Investitsion faollikni tartibga solish-davlat tomonidan qabul qilinadigan iqtisodiy va huquqiy mexanizmlar orqali milliy iqtisodiyotda investitsiya muhitini yaxshilash choralari qo‘riladi.

Rag‘batlantirish tizimini takomillashtish va nazorat qilish-soliq imtiyozlari, subsidiyalar va kreditlar orqali investorlar faoliyatini qo‘llab-quvvatlash hamda ularning samaradorligini baholash

muhim vazifadir. Qonunchilik bazasini takomillashtirish-investitsiya faoliyatini huquqiy jihatdan kafolatlash va xorijiy sarmoyadorlar uchun qulay shart-sharoit yaratish orqali investitsion muhitni barqaror saqlash ta’minlanadi.

Tarmoq nuqtai nazardan investitsion loyihalarni boshqarish. Tarmoq darajasidagi investitsiya boshqaruv iqtisodiyotning muayyan sohalaridagi samaradorlikni oshirishga qaratilgan bo‘lib, u quyidagi vazifalarni qamrab oladi: Investitsiyalarni rejalashtirish va tashkil etish-tarmoq strategiyasiga mos ravishda loyihalarni belgilash, resurslarni taqsimlash va ularni amalga oshirishning mexanizmini ishlab chiqarishni nazarda tutadi. Investitsiyalarni yo‘naltirish va ustuvor yo‘nalishlarni belgilash-tarmoqdagi ishlab chiqarish salohiyatini oshirish uchun asosiy resurslarni yuqori texnologik yo‘nalishlarga jamlash orqali innovatsion rivojlanishni ta’minlaydi. Zamonaviy boshqaruv usullarni joriy etish-investitsiya loyihalarini amalga oshirishda “Project management”, “Risk management” va “Cost-benefit analysis” kabi xalqaro standartlarni qo‘llash ularning samaradorligini oshiradi. Investitsiya natijalarini baxolash va samaradorlikni aniqlash-loyihalarning iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik ta’sirini kompleks baholash orqali investitsiya siyosatining umumiy natijaviyligini ko‘rsatadi. Loyihalarning xayotiylik davrini taxlil qilish-loyiha boshlang‘ich bosqichidan uning amalga oshirish va foydalanish davrigacha bo‘lgan jarayonni ilmiy asosda boshqarishni ta’minlaydi.

Investitsiya faoliyatini samarali boshqarish-iqtisodiy rivojlanishning asosiy omili hisoblanadi. Uning tuzilmaviy va tizimli yondashuvi davlat siyosati, tarmoq strategiyasi va korxonalarning ichki menejmenti o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni ta’minlaydi. Shuningdek, raqobatbardosh iqtisodiyot qurishda investitsiya boshqaruvini ilmiy asosda tashkil etish- milliy iqtisodiy xavfsizlikni mustahkamlashda muhim axamiyat kasb etadi.

Investitsiyani boshqarish samaradorligini oshirishda iqtisodiyot subyektlarida investitsiya jozibadorligini ta’minlash muhim ahamiyat kasb etadi. Shu boisdan, mamlakat, hudud, tarmoq va korxonalarning investitsiya jozibadorligi tushunchasi investitsiya jalb etish bo‘yicha boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun obyektiv maqsadga yo‘naltirilgan iqtisodiy omillar hamda rag‘batlar yig‘indisidan iboratdir. To‘qimachilik sanoati strategik rivojida investitsiyalarni boshqarish samaradorligini oshirishda tarmoq korxonalari tashkiliy-texnikaviy darajasini maqsadli loyihalarni amalga oshirish orqali yaxshilash muhim ahamiyat kasb etadi. To‘qimachilik sanoatining tashkiliy-texnikaviy darajasini oshirishda bugungi kunda ishlab turgan, ammo o‘rnatilgan texnika va texnologiyasi bugungi kun talablariga javob bermaydigan bir qator korxonalarni texnikaviy qayta qurollantirish, ularga yangi texnika-texnologiyalarni joriy etish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 16.01.2025 yildagi “To‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatida qayta ishlash zanjirini rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-6-son Farmoni.
2. Zaynuddinov Sh.N., Rasulov N.M. Innovatsion menedjment (darslik).-T.:»Innovatsion rivojlanish nashriyot-matba uyi», 2020. -B.540.;
3. O‘zbekiston Respublikasi statistika qo‘mitasi Farg‘ona viloyati statistika boshqarmasi ma’lumotlar
4. Maxsudov Sh.S. To‘qimachilik sanoati korxonalarida investitsion muhit jozibadorligini boshqarishning zamonaviy tendensiyalari Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari, №12/1 (3)-2023. –Toshkent, 2023. –B.495-500.

UDK: 614.2:338.24

BOZOR IQTISODIYOTI SHAROITIDA SOG‘LIQNI SAQLASH TIZIMIDA XARAJATLAR BOSHQARUVINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO‘LLARI

ПУТИ ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ УПРАВЛЕНИЯ РАСХОДАМИ В СИСТЕМЕ ЗДРАВООХРАНЕНИЯ В УСЛОВИЯХ РЫНОЧНОЙ ЭКОНОМИКИ

WAYS TO IMPROVE THE EFFICIENCY OF EXPENDITURE MANAGEMENT IN THE HEALTHCARE SYSTEM UNDER MARKET ECONOMY CONDITIONS

Raximova Maftuna Axmadjon qizi
Farg‘ona davlat universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya

Bozor iqtisodiyoti sharoitida sog‘liqni saqlash tizimida xarajatlarni oqilona boshqarish masalasi jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy barqarorligini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur maqolada sog‘liqni saqlash muassasalarida moliyaviy resurslardan samarali foydalanish, xarajatlarni optimallashtirish hamda ularning iqtisodiy samaradorligini oshirish yo‘llari tahlil qilinadi. Shuningdek, sog‘liqni saqlash sohasida byudjet mablag‘larini taqsimlashning zamonaviy mexanizmlari, xususiy sektor ishtiroki va innovatsion moliyalashtirish manbalarining roli yoritilgan. Tadqiqot natijalari asosida sog‘liqni saqlash tizimi xarajatlarining boshqaruvini takomillashtirishga doir amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: sog‘liqni saqlash tizimi, xarajatlar boshqaruvi, iqtisodiy samaradorlik, bozor iqtisodiyoti, moliyaviy resurslar, optimallashtirish, innovatsion yondashuvlar.

В условиях рыночной экономики рациональное управление расходами в системе здравоохранения имеет важное значение для обеспечения социально-экономической стабильности общества. В данной статье анализируются пути повышения эффективности использования финансовых ресурсов, оптимизации расходов и улучшения экономической результативности деятельности медицинских учреждений. Также рассматриваются современные механизмы распределения бюджетных средств, роль частного сектора и инновационных источников финансирования. На основе проведённого исследования разработаны практические рекомендации по совершенствованию управления расходами в системе здравоохранения.

Ключевые слова: система здравоохранения, управление расходами, экономическая эффективность, рыночная экономика, финансовые ресурсы, оптимизация, инновационные подходы.

In the context of a market economy, the rational management of expenditures in the healthcare system plays a crucial role in ensuring the socio-economic stability of society. This article analyzes ways to improve the efficiency of financial resource utilization, optimize expenditures, and enhance the economic performance of healthcare institutions. The study also examines modern mechanisms of budget allocation, the role of the private sector, and innovative sources of financing. Based on the research results, practical recommendations have been developed to improve expenditure management within the healthcare system.

Keywords: healthcare system, expenditure management, economic efficiency, market economy, financial resources, optimization, innovative approaches.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida sog‘liqni saqlash tizimining samarali faoliyat yuritishi mamlakat ijtimoiy siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Aholining salomatligi darajasi nafaqat tibbiy xizmatlar sifati bilan, balki ushbu tizimda mavjud moliyaviy, moddiy va mehnat resurslaridan

qay darajada oqilona foydalanilayotgani bilan ham bevosita bog‘liqdir. Shu sababli sog‘liqni saqlash tashkilotlarida xarajatlarni boshqarish va ularning samaradorligini oshirish masalalari hozirgi davrda alohida dolzarblik kasb etmoqda.

Sog‘liqni saqlash tizimida xarajatlarning o‘sishi, aholining tibbiy xizmatlarga bo‘lgan talabining ortishi hamda resurslar cheklanganligi sharoitida iqtisodiy mexanizmlarni takomillashtirish zarurati yuzaga kelmoqda. Bu esa moliyaviy barqarorlikni ta’minlash, resurslardan maqsadli foydalanish va xizmatlar sifatini oshirish bilan chambarchas bog‘liqdir.

So‘nggi yillarda O‘zbekiston Respublikasida sog‘liqni saqlash tizimini isloh qilish, byudjet mablag‘larini oqilona taqsimlash, davlat-xususiy sheriklik asosida tibbiyot muassasalarini modernizatsiya qilish bo‘yicha qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Biroq amaliyotda xarajatlarni rejalashtirish va nazorat qilish tizimi yetarli darajada mukammal emasligi, resurslardan foydalanishning past samaradorligi hamon muhim muammolardan biri bo‘lib qolmoqda.

Sog‘liqni saqlash sohasida xarajatlarni boshqarish samaradorligini oshirish masalalari dunyo miqyosida ko‘plab ilmiy izlanishlarning markazida turadi. Xorijiy tadqiqotchilar tomonidan olib borilgan ilmiy ishlarda bu yo‘nalishning nazariy, tashkiliy va amaliy jihatlari atroflicha tahlil qilingan. Jumladan, S. Tomson, R. Osborn, R. Busse, shuningdek, Y.A. Shumpeter va B.A. Lundvall kabi olimlarning tadqiqotlarida sog‘liqni saqlash tizimini boshqarishning mohiyati, xarajatlarning shakllanish omillari hamda resurslardan foydalanish samaradorligini ta’minlash mexanizmlari keng yoritilgan. Ularning ilmiy qarashlari sog‘liqni saqlash iqtisodiyotida boshqaruvni takomillashtirishning nazariy asoslarini yaratishda muhim o‘rin tutadi.

O‘zbekistonlik olimlar ham ushbu yo‘nalishda qator tadqiqotlar olib borishgan. Xususan, S.S. G‘ulomov, N.X. Jumayev, D.A. Raxmonov, M.M. Tashxodjayev va B.K. G‘oyibnazarovlarning ilmiy ishlari sog‘liqni saqlash tizimini rivojlantirish, soha boshqaruvi samaradorligini oshirish hamda xarajatlarni boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish masalalariga bag‘ishlangan bo‘lib, ular milliy amaliyot uchun muhim nazariy asos vazifasini o‘taydi.

Sog‘liqni saqlash sohasida xarajatlar samaradorligini boshqarish murakkab va ko‘p omilli jarayon bo‘lib, u iqtisodiy salohiyatning barcha tarkibiy elementlarini, tashqi muhit omillarini hamda ularning o‘zaro ta’sir samaradorligini o‘z ichiga oladi. Bunday boshqaruvni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun ilmiy asoslangan kompleks yondashuv zarur bo‘lib, u induksiya va deduksiya tamoyillariga tayangan holda tizimlilikni ta’minlaydi. Ushbu yondashuv sog‘liqni saqlash tizimidagi muammolarni aniqlash, ularning sabab-oqibat bog‘liqligini ochib berish va samarali yechimlarni ishlab chiqishda muhim ahamiyatga ega.

Tadqiqot jarayonida ilmiy izlanishlarning ishonchliligini ta’minlash maqsadida tizimli tahlil, induktiv va deduktiv tahlil, taqqoslash hamda omillar tahlili kabi metodologik usullardan kompleks tarzda foydalanildi. Bu esa sog‘liqni saqlash tizimida xarajatlar boshqaruvining nazariy asoslarini chuqur o‘rganish va amaliy jihatdan samarali takliflar ishlab chiqish imkonini berdi.

So‘nggi yillarda O‘zbekiston sog‘liqni saqlash tizimi moliyaviy barqarorlik va resurslardan foydalanish samaradorligi nuqtayi nazaridan sezilarli o‘zgarishlarni boshdan kechirmoqda. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti ma’lumotlariga ko‘ra, 2023-yilda mamlakatning sog‘liqni saqlash sohasiga yo‘naltirilgan umumiy xarajatlari yalpi ichki mahsulotning qariyb 7,7 foizini tashkil etgan. Ushbu ko‘rsatkich Markaziy Osiyo mamlakatlari orasida nisbatan yuqori bo‘lishiga qaramay, mavjud moliyaviy resurslarning oqilona taqsimlanishi va ularning maqsadli ishlatilishi masalasi hanuz dolzarbligini saqlab qolmoqda.

Aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan sog‘liqni saqlash xarajatlari 2023-yil yakunlariga ko‘ra taxminan 157 AQSH dollarini tashkil etgan. Biroq, xalqaro xarid qobiliyati pariteti bo‘yicha qayta hisoblanganda bu ko‘rsatkich 673 AQSH dollariga teng bo‘lib, sog‘liqni saqlash tizimiga yo‘naltirilayotgan mablag‘larning real iqtisodiy qiymati ancha yuqori ekanini anglatadi. Mazkur tendensiya O‘zbekiston sog‘liqni saqlash tizimida moliyalashtirish hajmining bosqichma-bosqich ortib borayotganini, biroq bu mablag‘lardan foydalanish samaradorligini oshirish zaruriyatining dolzarb ekanini ko‘rsatadi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida sog‘liqni saqlash tizimini samarali boshqarish, ayniqsa, xarajatlar tuzilmasini optimallashtirish masalasi muhim strategik yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Sog‘liqni

saqlash tizimi o‘z mohiyatiga ko‘ra, davlat, xususiy sektor va fuqarolik jamiyati institutlarining o‘zaro iqtisodiy hamkorligiga tayanadi. Shu bois, tizimning barqarorligi va samaradorligi asosan moliyaviy resurslardan oqilona foydalanish hamda xarajatlarni to‘g‘ri boshqarishga bog‘liqdir.

Sog‘liqni saqlash sohasida xarajatlarni boshqarish nazariyasi iqtisodiyotning “alokativ samaradorlik” (allocation efficiency) va “ishlab chiqarish samaradorligi” (productive efficiency) tamoyillariga asoslanadi. Bunda asosiy maqsad mavjud resurslar doirasida sog‘liq natijalarini maksimal darajada yaxshilash, ya’ni tibbiy xizmatlardan olinadigan ijtimoiy foydani oshirishdir. Sog‘liqni saqlashda xarajatlarni kamaytirish emas, balki ularni optimal taqsimlash, natijadorlikni oshirish va resurslardan samarali foydalanish boshqaruvning ustuvor yo‘nalishi sifatida qaraladi.

Xalqaro tajribalar shuni ko‘rsatadiki, sog‘liqni saqlash sohasida xarajatlarni boshqarishning muvaffaqiyati ko‘p jihatdan tizimli yondashuvga bog‘liq. R. Busse, S.Thomson, R.Osborn kabi tadqiqotchilar o‘z ishlarida xarajatlarni boshqarish mexanizmlarini samarali yo‘lga qo‘yish uchun quyidagi omillar muhimligini ta’kidlaydilar: tibbiyot xizmatlarini iqtisodiy baholash, resurslarning qayta taqsimlanishi, raqamli boshqaruv tizimlarining joriy etilishi va sog‘liqni saqlash bozorida raqobat muhitining rivojlanishi. Ushbu yondashuvlar xarajatlar tuzilmasini optimallashtirish, byudjet mablag‘laridan foydalanish samaradorligini oshirish va xizmatlar sifatini yaxshilashga xizmat qiladi.

Shuningdek, Y.Shumpeter va B.Lundvall kabi olimlarning innovatsion iqtisodiyot nazariyalarida keltirilishicha, sog‘liqni saqlash tizimida innovatsion texnologiyalarni joriy etish, raqamli boshqaruv mexanizmlaridan foydalanish va inson kapitaliga sarmoya kiritish xarajatlar samaradorligini oshirishning eng muhim omillaridan biridir. Chunki innovatsion boshqaruv yondashuvlari sog‘liqni saqlash xizmatlarini arzon, tezkor va sifatli ko‘rsatishga imkon beradi.

1-jadval

Sog‘liqni saqlash tizimida xarajatlar boshqaruvining samaradorligini oshirish yo‘nalishlari

Yo‘nalish	Maqsad	Asosiy vositalar / mexanizmlar	Kutilayotgan natija
Byudjet mablag‘larini samarali taqsimlash	Davlat resurslaridan maksimal ijtimoiy foyda olish	Byudjet prognozlari, xarajat markazlarini aniqlash, moliyaviy nazorat tizimi	Mablag‘larning maqsadli ishlatilishi, samaradorlikning oshishi
Tibbiy sug‘urta tizimini rivojlantirish	Davlat byudjeti yukini kamaytirish, aholiga xizmat ko‘rsatishni barqaror ta’minlash	Sug‘urta fondlari, xususiy sug‘urta kompaniyalari, fuqarolik ishtiroki	Moliyaviy manbalarni diversifikatsiya qilish, xizmatlar sifati va qamrovi oshadi
Xususiy sektor ishtirokini kengaytirish	Sog‘liqni saqlash sohasida raqobat va innovatsiyalarni rag‘batlantirish	Davlat-xususiy sheriklik (PPP), investitsiya loyihalari, privatizatsiya	Tibbiyot muassasalarining samaradorligi oshadi, xizmatlar sifatli va tezkor bo‘ladi
Innovatsion texnologiyalarni joriy etish	Xizmatlar samaradorligini va xarajatlarni optimallashtirish	Elektron sog‘liqni saqlash tizimlari (EHR), raqamli monitoring, telemeditsina	Resurslardan foydalanish samaradorligi oshadi, xarajatlar nazorat qilinadi
Moliyaviy monitoring va tahlil	Xarajatlarni nazorat qilish, moliyaviy intizomni ta’minlash	Moliyaviy audit, xarajat tahlili, indikatsion monitoring	Xarajatlarning o‘z vaqtida va maqsadli ishlatilishi, samaradorlikni oshirish

Sog‘liqni saqlash tizimida xarajatlar boshqaruvining samaradorligini oshirish nazariyasi resurslardan oqilona foydalanish, iqtisodiy natijadorlikni oshirish, boshqaruv jarayonlarini avtomatlashtirish va xizmatlar sifatini yaxshilash tamoyillariga tayanadi. Ushbu yondashuv sog‘liqni saqlash tizimini moliyaviy barqaror, iqtisodiy jihatdan samarali va raqobatbardosh soha sifatida shakllantirishga xizmat qiladi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida sog‘liqni saqlash tizimida xarajatlar boshqaruvini samarali tashkil etishning asosiy yo‘nalishlarini tizimli tarzda ko‘rsatadi. Unda har bir yo‘nalishning maqsadi, ularni amalga oshirishda qo‘llaniladigan mexanizmlar hamda kutilayotgan natijalar bayon etilgan. Bu jadval tadqiqotning amaliy qismida tahlil qilinadigan asosiy elementlarni bir joyda jamlashga xizmat qiladi.

Jadval orqali ko‘rinib turibdiki, sog‘liqni saqlash sohasida xarajatlarni boshqarish nafaqat mablag‘larni kamaytirish yoki nazorat qilish bilan cheklanmaydi, balki u resurslardan oqilona foydalanish, moliyaviy samaradorlikni oshirish va aholiga ko‘rsatilayotgan tibbiy xizmat sifatini yaxshilash kabi keng qamrovli vazifalarni o‘z ichiga oladi.

Shuningdek, jadvalda keltirilgan yo‘nalishlar xalqaro tajriba va ilg‘or boshqaruv amaliyotlariga tayangan holda ishlab chiqilgan bo‘lib, ular O‘zbekiston sog‘liqni saqlash tizimida moliyaviy resurslarni samarali taqsimlash, byudjet mablag‘larini natijadorlik asosida ishlatish, xususiy sektor va innovatsion texnologiyalarni jalb qilish orqali tizim samaradorligini oshirishga qaratilgan.

Yuqoridagi jadval bozor iqtisodiyoti sharoitida sog‘liqni saqlash tizimida xarajatlar boshqaruvining samaradorligini oshirishga qaratilgan asosiy yo‘nalishlarni, ularning maqsadlarini, qo‘llaniladigan mexanizmlarni va kutilayotgan natijalarni tizimli ko‘rsatadi.

1. Byudjet mablag‘larini samarali taqsimlash – ushbu yo‘nalish davlat resurslaridan maksimal foyda olishga qaratilgan. Xarajat markazlarini aniqlash va byudjet prognozlari asosida mablag‘larni rejalashtirish, shuningdek, moliyaviy nazorat tizimining joriy etilishi orqali mablag‘larning maqsadli ishlatilishi va samaradorligi oshiriladi.

2. Tibbiy sug‘urta tizimini rivojlantirish – davlat byudjeti yukini kamaytirish va aholiga barqaror xizmat ko‘rsatishni ta’minlashga qaratilgan. Bu sug‘urta fondlari, xususiy sug‘urta kompaniyalari va fuqarolik ishtirokini jalb qilish orqali amalga oshiriladi. Natijada moliyaviy manbalarni diversifikatsiya qilish, xizmatlar sifati va qamrovi oshadi.

3. Xususiy sektor ishtirokini kengaytirish – sog‘liqni saqlash sohasida raqobat va innovatsiyalarni rag‘batlantirishni maqsad qiladi. Davlat-xususiy sheriklik, investitsiya loyihalari va muassasalarni privatizatsiya qilish orqali tibbiyot muassasalarining samaradorligi oshadi va xizmatlar sifatli va tezkor bo‘ladi.

4. Innovatsion texnologiyalarni joriy etish – bu yo‘nalish resurslardan samarali foydalanish va xarajatlarni optimallashtirishga qaratilgan. Elektron sog‘liqni saqlash tizimlari (EHR), raqamli monitoring va telemeditsina xizmatlari orqali xarajatlar nazorat qilinadi va xizmatlar tezkor hamda sifatli bo‘ladi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida sog‘liqni saqlash tizimida xarajatlarni boshqarish samaradorligini oshirish muhim ijtimoiy-iqtisodiy vazifa hisoblanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, samarali boshqaruv faqat xarajatlarni kamaytirish bilan cheklanmaydi, balki mavjud resurslardan optimal foydalanish, moliyaviy intizomni ta’minlash, tibbiy xizmatlar sifatini oshirish va aholi salomatligi darajasini yaxshilashga qaratilgan bo‘lishi lozim.

Xorijiy va milliy tajribalar asosida aniqlangan asosiy yo‘nalishlar quyidagilardan iborat: byudjet mablag‘larini samarali taqsimlash, tibbiy sug‘urta tizimini rivojlantirish, xususiy sektor va innovatsion texnologiyalarni jalb qilish, moliyaviy monitoring va boshqaruv tizimini takomillashtirish hamda kadrlar salohiyatini oshirish. Ushbu yo‘nalishlar birgalikda sog‘liqni saqlash tizimida xarajatlar samaradorligini oshirishga xizmat qiladi va tizimning barqarorligini ta’minlaydi.

O‘zbekiston kontekstida tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, soha moliyaviy resurslarining ortib borayotgan hajmi bilan birga, ularni maqsadli va samarali ishlatish muhim ahamiyatga ega. Shu bois, moliyaviy boshqaruvning zamonaviy mexanizmlari, strategik rejalashtirish va innovatsion yondashuvlarni joriy etish orqali sog‘liqni saqlash tizimi yanada samarali, raqobatbardosh va barqaror shaklda rivojlantirilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Busse, R., & Riesberg, A. (2004). Health care systems in transition: Germany. WHO Regional Office for Europe on behalf of the European Observatory on Health Systems and Policies.
2. Osborn, R., Squires, D., Doty, M. M., et al. (2014). International survey of older adults finds shortcomings in access, coordination, and patient-centered care. Health Affairs, 33(12), 2247–2255. doi:10.1377/hlthaff.2014.0947.
3. Шумпетер Й.А. История экономичеcкого анализа. / Й.А. Шумпетер; Пер. с англ. под ред. В.С.Автономова. СПб.: Экон. шк.: С.-Петерб. гос. ун-т экономики и финансов; М. : Высш. шк. экономики, 2001. - 1664 с.;
4. Lundvall, B.A. National Systems of Innovation: Towards a Theory of Innovation and Interactive Learning / B.A. Lundvall. London: Pinter Publishers, 2002;
5. Гулямов С.С., Жумаев Н.Х., Рахмонов Д.А., Ташходжаев М.М. Ижтимоий соҳада инвестицияларнинг самарадорлиги. Монография. –Т: IQTISODIYOT, 2019. – 216-217 б.
6. Коломин Е.В. Историчеcкая миссия страхования.//Финансы. –М.: 2013. -№12. –С. 28-31.
7. Гулямов С.С., Жумаев Н.Х., Рахмонов Д.А., Ташходжаев М.М. Ижтимоий соҳада инвестицияларнинг самарадорлиги. Монография. –Т: IQTISODIYOT, 2019. – 229 б.

UDK: 336.3

DAVLAT MOLIYASINI SAMARALI BOSHQARISHDA DAVLAT KREDITINING ROLI

РОЛЬ ГОСУДАРСТВЕННОГО КРЕДИТА В ЭФФЕКТИВНОМ УПРАВЛЕНИИ ГОСУДАРСТВЕННЫМИ ФИНАНСАМИ

THE ROLE OF PUBLIC CREDIT IN EFFICIENT PUBLIC FINANCE MANAGEMENT

Raxmanov Sherzod Ibragimovich,
O‘zMU, katta o‘qituvchi
Xamidov Otabek Bakidjanovich,
O‘zJOKU, o‘qituvchi
Hasanov Farhod Omonqulovich,
ToshFarmi, o‘qituvchi (assistent)
E**lmuradov Dilshod Turdievich,**
ToshFarmi, o‘qituvchi (assistent)

Annotatsiya

Ushbu maqolada Davlat moliyasini samarali boshqarishda davlat kreditining roli, mohiyati, zarurligi va ahamiyati taxlil qilingan va so‘ngi yillardagi moliyaviy boshqaruv bo‘yicha statistik ma’lumotlar keltirilgan. Davlat moliyasini samarali boshqarish, rivojlantirish bo‘yicha prezident, hisob palatasi va moliya vazirligining farmon, qaror va takliflari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Davlat moliyasi, davlat krediti, moliyaviy menejment, statistik ma’lumotlar, boshqaruv

В данной статье анализируется роль, природа, необходимость и значение государственного кредита в эффективном управлении государственными финансами, а также приводятся статистические данные по финансовому менеджменту за последние годы. Освещены указы, решения и предложения Президента, Счетной палаты и Министерства финансов по эффективному управлению и развитию государственных финансов.

Ключевые слова: Государственные финансы, государственный кредит, финансовый менеджмент, статистика, менеджмент

This article analyzes the role, nature, necessity and importance of state credit in the effective management of public finances, and provides statistical information on financial management in recent years. Decrees, decisions and proposals of the President, the Chamber of Accounts and the Ministry of Finance on the effective management and development of state finances are highlighted.

Keywords: Public finance, public credit, financial management, statistics, management

“O‘zbekistonda iqtisodiy islohotlar natijasida korxonalarda tarkibiy o‘zgarishlar amalga oshirilmoqda va ular faoliyatiga zamonaviy boshqaruv usullari joriy etilmoqda. Biroq, zamonaviy sharoitda innovatsion g‘oyalar va texnologik ishlanmalardan foydalanish, boshqaruv samaradorligini oshirish va investitsiyalardan samarali foydalanish asosida korxonalarda zamonaviy boshqaruv mexanizmlarining ishlashini ta’minlash darajasi pastligicha qolmoqda. Shuning uchun O‘zbekistonning 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi rivojlanish strategiyasida “milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o‘sish sur’atlarini ta’minlash” kabi ustuvor vazifalar belgilangan, ushbu vazifani amalga oshirish korxonalarni boshqarishda zamonaviy boshqaruv usullaridan foydalanish samaradorligini oshirishni talab qiladi”[1].

“2024 yilda davlat qarzi 39,7 milliard dollar yoki YaIMning 35,5 foizini tashkil qilishi kutilmoqda. Kelgusi yilda bu ko‘rsatkich 13,3 foizga o‘sib, 45 milliard dollarni yoki YaIMning 36,4 foizini tashkil etadi. 2027 yilga borib davlat qarzi darajasi 55,9 milliard dollarga yetishi mumkin, biroq bu ko‘rsatkichning YaIMga (36,7 foiz) nisbatini hisobga olsak, o‘sish ahamiyatsiz bo‘ladi”[2].

O‘zbekiston Respublikasida jamiyat taraqqiyotining barcha jabhalarida, eng avvalo iqtisodiy sohada islohotlarni yanada chuqurlashtirish va erkinlashtirish borasida aniq dastur ishlab chiqilgan. Bu dasturni joriy etishdan ko‘zlangan asosiy maqsad O‘zbekistonning demokratik va bozor islohotlarini amalga oshirish, jahon hamjamiyatiga keng integratsiyalashuvi va barqaror olg‘a borishi uchun mustahkam zamin yaratishdir.

Mazkur tadqiqot mavzusi doirasida iqtisodchi olimlar, mutaxassislarning xalqaro va milliy amaliyotda davlat moliyasini samarali boshqarishning iqtisodiy mazmuni to‘g‘risidagi turli fikrlari o‘rganildi. Albatta, ba’zi hollarda bildirilgan fikrlar moliyaviy boshqaruvning mohiyatini tushuntirishdan tashqari, ushbu konsepsiyaga yondashuvi bilan ham farq qilishini ko‘rishimiz mumkin. Buning asosiy sababi va olimlarning fikrlarini o‘rganishdan oldin, moliyaviy boshqaruv haqida xalqaro yondashuvlar va uning turli jihatlari haqida to‘xtalib o‘tilgan.

Hozirgi vaqtda mahalliy iqtisodiy fanlarda “davlat kredit” toifasini aniqlashda uchta yondashuv. Birinchi yondashuv davlat kreditini faqat davlat qarzlari nuqtai nazaridan ko‘rib chiqishni taklif qiladi. Ushbu yondashuv tarafdorlaridan biri M.V. Karaseva. Uning nuqtai nazariga ko‘ra, davlat krediti “moliyaviy huquq normalari to‘plami bo‘lgan mustaqil moliyaviy huquq instituti” deb tushunilishi kerak[3].

Ikkinchi yondashuv “davlat krediti” toifasining ikki tomonlama xususiyatini ochib beradi. Ushbu yondashuvning eng ko‘zga ko‘ringan vakillaridan biri A. I. Xudyakov ta'kidlaganidek, “kredit faoliyati deb ataladigan jarayon davomida davlat qarz oluvchi, lekin ayni paytda kreditor sifatida harakat qilishi mumkin”. Shuning uchun “davlat krediti” atamasi davlat qarzi (bu holda davlat) kabi iqtisodiy hodisalarni qamrab olishi kerak qarz oluvchi sifatida ishlaydi) va davlat krediti (bu holda davlat qarz beruvchi sifatida ishlaydi).

Uchinchi yondashuv “davlat krediti”tushunchasini kengaytiradi. Yu.A. Kroxina moliya va kreditga bag‘ishlangan darsligida ta'kidlaganidek, “davlat krediti” tushunchasi doirasida va uning sub'ektlari nafaqat qarz oluvchi va kreditor sifatida, balki uchinchi shaxslarning majburiyatlarini bajaradigan kafil sifatida ham ko‘rib chiqilishi kerak [4].

Yuqoridagi yondashuvlarning asosiy qoidalarini tahlil qilish “davlat krediti” toifasining quyidagi ta'rifini shakllantirishga imkon berdi, shuning uchun davlat krediti bu davlat o‘rtasidagi iqtisodiy munosabatlar majmui, bir tomondan uning hokimiyat va boshqaruv organlari, shuningdek, mamlakat ichida ham, undan tashqarida ham jismoniy va yuridik shaxslar, bunda davlat asosan davlat

sifatida harakat qiladi. qarz oluvchi, qarz beruvchi yoki kafil. Ushbu ta'rif kengaytiradi “davlat krediti” toifasining institutsional asoslari ushbu atamaning iqtisodiy mazmuniga ko‘proq mos keladi.

So‘nggi yillarda ilmiy doiralarda davlat mablag‘larini qarz olish milliy iqtisodiyotga qanday ta'sir qilishi bilan bog‘liq masala ayniqsa keskin muhokama qilinmoqda. Hozirgi vaqtda aniqlangan muammo bo‘yicha mutaxassislarning fikrlarida birlik yo‘q.Iqtisodchilarning bir qismi har xil deb qat'iy ishonadi davlat qarz olish zarur ko‘rib chiqish juda salbiy hodisa sifatida va shuning uchun ular budjet xarajatlarini uzoq muddatli moliyalashtirishdan butunlay voz kechishga chaqiradilar.Olimlarning yana bir qismi, aksincha, davlat kreditidan budjet taqchilligini moliyalashtirish manbai sifatida foydalanishni yoqlaydi. Ma'lumki, hech bir davlat qarz oluvchi vazifasini bajarib, xarajatlarni qoplash uchun asossiz ravishda qo‘shimcha mablag‘larni jalb qilmaydi. Tabiiyki, davlat turli sabablarga ko‘ra budjet mablag‘lari yetarli bo‘lmaganda qarz olishga murojaat qiladi.

Bizning fikrimizcha, davlat kreditidan budjet taqchilligini moliyalashtirish manbai sifatida foydalanishni mutlaqo ijobiy yoki mutlaqo salbiy baholash mumkin emas, chunki uni amalda qo‘llash ham ijobiy, ham salbiy iqtisodiy oqibatlarga olib keladi. Ijobiy, bizning fikrimizcha, quyidagilarni o‘z ichiga oladi: vaqt o‘tishi bilan soliq yukini teng taqsimlash; budjet daromadlarini emissiyasiz to‘ldirish; inflyatsiya darajasini cheklash; ijtimoiy ehtiyojlarni qondirish; iqtisodiy aylanmada hisob-kitoblarning holatini yaxshilash mamlakat iqtisodiyotini beqarorlashtirish.

Davlat kreditidan foydalanishning salbiy oqibatlariga, bizning fikrimizcha, quyidagilarni kiritish kerak: davlat tomonidan jalb qilingan mablag‘lar qo‘shimcha daromad keltirmaydidaromad; davlat krediti byudjet daromadlarining “narxini” oshiradikeyinchalik foizlar yoki chegirmalarni to‘lash orqali davlatlar; muhim hajmi qarz olish kamaytiradi umumiy mamlakatning investitsiya fonlari; davlat krediti investitsiya imkoniyatlarini kamaytiradi iqtisodiyotning Real sektorini rivojlantirishga.

E'tibor bering, davlatning iqtisodiy rivojlanishi uchun davlat qarzlarining maqsadlari ham muhimdir. Shunday qilib, agar davlat muhim, tez to‘lanadigan loyihalarni moliyalashtirish uchun mablag‘ jalb qilsa, bu milliy iqtisodiyotning rivojlanishini tezlashtirishga yordam beradi. Shunga qaramay, ba'zi davlatlar ko‘pincha

harbiy xarajatlar, davlat boshqaruvi va boshqalar kabi samarasiz xarajatlarni qoplash uchun moliyaviy mablag‘larni jalb qiladilar[5].

Qarz olish yalpi milliy mahsulotdan to‘g‘ridan-to‘g‘ri chegirma bo‘ladi,uni to‘lash qo‘shimcha soliqlar va soliq yukining oshishi bilan amalga oshiriladi”. Davlat krediti” toifasini moliyaviy munosabatlarni tashkil etishning maxsus shakli sifatida ko‘rib chiqish “davlat qarzi” kabi tushunchaning mazmunini o‘rganish zarurligini belgilaydi.

Davlat qarzi kengaytirilgan qarz uchun pul mablag‘larini jalb qilish shakllaridan biri sifatida davlat kreditlaridan foydalanish bilan bog‘liq holda yuzaga keladi ko‘payishvaqoniqishijtimoiy ehtiyojlar. Davlat qarzi davlat byudjeti hisobidan davlat tomonidan to‘lanadi va ikki shaklda amalga oshiriladi: ichki va tashqi. Ichki davlat qarzi deganda davlatning o‘z fuqarolari yoki davlat qimmatli qog‘ozlari egalari bo‘lgan kompaniyalar oldidagi moliyaviy majburiyatlari tushuniladi. Shunga ko‘ra, xorijiy jismoniy va yuridik shaxslar oldida yuzaga keladigan moliyaviy majburiyatlar odatda davlat tashqi qarzi deb atalad[6]. Shu bilan birga, ko‘rsatkichning past darajasi har doim ham milliy iqtisodiyotning barqarorligini anglatmaydi. Bir qator davlatlar chet eldan moliyaviy mablag‘larni jalb qilmaydilar, chunki chet ellik kreditorlar ushbu davlatlarga o‘zlarining moliyaviy tizimining beqarorligi va iqtisodiy rivojlanish potentsialining pastligi sababli kreditlar va kreditlar berishni xohlamaydilar, bu esa investitsiyalarning haddan tashqari yuqori xavfini keltirib chiqaradi.Boshqa tomondan, ba'zi davlatlarning tashqi qarzlarining yuqori qiymati nafaqat ularning iqtisodiyotining barqarorligi va unga sarmoya kiritish xavfining pastligidan, balki davlatlarning kuchli qaramligidan ham dalolat beradi.

1-rasm 2023-yil 1-yanvardan 2024-yil 1-yanvargacha bo‘lgan davrda iqtisodiyotga kredit qoyilmalarining qoldig‘i hamda ularning tarkibi haqida ma’lumot beradi. Bu yerda 1 yil davomida milliy valyutadagi kreditlar va chet el valyutasidagi kreditlar qoyilmalarining o‘sib borish dinamikasi

keltirilgan. Bu jadvaldan ma’lumki milliy valyutadagi qiyilmalar xorijiy valyutaga nisbatan ko‘proq qoyilgan.



1-rasm. Iqtisodiyotga kredit qo‘yilmalari qoldig‘i va ularning tarkibi (trln. so‘m)

Shunday qilib, yuqorida aytib o‘tilganlarni hisobga olgan holda, shuni ta'kidlash kerakki, davlat krediti mamlakat iqtisodiyotiga foydali ta'sir ko‘rsatishi mumkin, bu esa jamoatchilikni qondirish imkoniyatini beradi.

Davlat moliyasida davlat kreditining ahamiyatini oshirib bo‘lmaydi. U iqtisodiyotning barqaror ishlashida, barqarorlik, likvidlik va hukumat uchun ishonchli moliyalashtirish manbasini ta'minlashda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Ushbu xulosa turli istiqbollarni hisobga olgan holda va har tomonlama tahlilni ta'minlaydigan davlat kreditining ahamiyati va uning davlat moliyasiga ta'sirini chuqurroq o‘rganadi.

Barqarorlik va xavfsizlik: g‘aznachilik veksellari va obligatsiyalari kabi Davlat hujjatlari bozorda mavjud bo‘lgan eng xavfsiz investitsiyalardan biri hisoblanadi. Ushbu barqarorlik hukumatning kreditga layoqatliligi bilan bog‘liq bo‘lib, bu asosiy qarz va foizlarni to‘lashni kafolatlaydi. Mahalliy va xorijiy investorlar, ayniqsa, iqtisodiy noaniqlik davrida, davlat kreditini past xavfli variant deb bilishadi. Ushbu barqarorlik davlat xazinasiga mablag‘larning barqaror oqimini ta'minlaydi va moliyaviy majburiyatlarini bajarishga imkon beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yahti:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.01.2022-yildagi “2022 —2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sonli Farmoni.
2. ttps://www.gazeta.uz/uz/2024/11/04/gov-debt/#:~:text=2025%20йилда%20Ўзбекистон%20давлат%20қарзи%2039%2C7%20миллиардда н%2045,қарзи%202025%20йилда%2045%20миллиард%20долларгача%20ошиши%20мумкин.
3. Karaseva M. V. moliyaviy huquq: spo uchun darslik / M. V. Karaseva [va boshqalar.]; OTV. tahririda M. V. Karaseva. 5-nashr., qayta ko‘rib chiqilgan va qo‘shilgan. – M.: Yurayt nashriyoti, 2017. 388 s.
4. Kroxina, yu. A. Rossiya budjet huquqi: bakalavriat va magistratura uchun darslik / A. Kroxina. 5-nashr., qayta ko‘rib chiqilgan va qo‘shilgan. – M.: Yurayt nashriyoti, 2018. 328.
5. Xudyakov A. I. moliyaviy huquq uchun darslik / A. I. Xudyakov [va boshqalar];OTV. tahririda-E. M. Ashmarin. 3-nashr., qayta ko‘rib chiqilgan va qo‘shilgan. – M.:Yurayt nashriyoti, 2018. 361 sahifa.
6. Qo‘ng‘uryakova, E. N. Moliya va kredit. Ma'ruzalar kursi: monogr. / E. N. Qo‘ng‘uryakova, M. S. Sinyavina. - M.: Dashkov , 2018 yil. - 260 c.

УДК: 339.9

СОТРУДНИЧЕСТВО УЗБЕКИСТАНА И КИТАЯ- ВАЖНЫЙ ФАКТОР ОБЕСПЕЧЕНИЯ ДОСТИЖЕНИЮ ЦЕЛЕЙ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ

O‘ZBEKISTON VA XITOY O‘RTASIDAGI HAMKORLIK BARQAROR RIVOJLANISH MAQSADLARIGA ERISHISHNI TA’MINLASHDA MUHIM OMIL BO‘LIB BO‘LADI

COOPERATION BETWEEN UZBEKISTAN AND CHINA IS AN IMPORTANT FACTOR IN ENSURE THE ACHIEVEMENT OF THE SUSTAINABLE DEVELOPMENT GOALS

Хабибулло Ахмедов, доцент кафедры “Экономика”
Ташкентского государственного экономического университета

Аннотация

В статье рассматривается сотрудничество Узбекистана и Китайской Народной Республики – как важный фактор обеспечения достижению Целей устойчивого развития.

Ключевые слова: Узбекистан, Китай, внешняя политика; политические, торгово-экономические, транспортно-коммуникационные связи; дипломатические отношения; Великий шелковый путь; взаимовыгодное сотрудничество; инвестиция; торговые партнеры; товарооборот.

Мақолада Ўзбекистон ва Хитой Халқ Республикаси ўртасидаги ҳамкорлик – Барқарор ривожланиш мақсадларига эришишни таъминлашнинг муҳим омили сифатида кўриб чиқилади.

Калит сўзлар: Ўбекистон, Хитой, ташқи сиёсат; сиёсий, савдо-иқтисодий, транспорт-коммуникация алоқалари; дипломатик муносабатлар; Буюк Ипак ё'ли; ўзаро манфаатли ҳамкорлик; инвестиция; савдо шериклари; савдо айланмаси.

The article examines cooperation between Uzbekistan and the People's Republic of China as an important factor in ensuring the achievement of the Sustainable Development Goals.

Keywords: Uzbekistan, China, foreign policy; political, trade and economic, transport and communication ties; diplomatic relations; the Great Silk Road; mutually beneficial cooperation; investments; trading partners; trade turnover.

Начало современному этапу узбекско-китайского сотрудничества было положено 2 января 1992 года, когда после обретения независимости Узбекистан установил дипломатические отношения с КНР в качестве полноправного члена международного сообщества [1]. Китай и Узбекистан непрерывно укрепляют политическое взаимодоверие, поддерживают усилия друг друга по защите суверенитета, независимости и территориальной целостности, развивают двусторонние отношения на основе равенства и взаимного уважения.

Китай одним из первых признал независимость Узбекистана и установил с ним дипломатические отношения. С тех пор китайско-узбекские отношения достойно переживают изменения международной конъюнктуры, демонстрируют положительную динамику развития и пополняются новым содержанием в соответствии с требованием времени.

В 1994 году был подписан документ, имеющий очень большое значение, «Протокол об основных принципах взаимоотношений и о развитии взаимовыгодного сотрудничества между Республикой Узбекистан и Китайской Народной Республикой». В 2004 году была подписана Совместная декларация о партнерских отношениях, дальнейшем развитии и укреплении дружбы и сотрудничества между Узбекистаном и Китаем

Две страны также укрепляют тесные связи в рамках ООН, Шанхайской организации сотрудничества, формата «Центральная Азия – Китай» и других многосторонних структур,

защищают общие интересы и вносят позитивный вклад в достижение безопасности и прогресса во всем мире. Здесь необходимо также отметить, что Узбекистан и Китай стояли у истоков создания ШОС, всегда оказывали взаимную поддержку в реализации инициатив и предложений, выдвинутых друг другом.

Важную роль в современном развитии двусторонних отношений между Узбекистаном и Китаем играет установившийся доверительный и дружеский диалог между лидерами двух стран. За последние семь лет Президент Узбекистана Шавкат Мирзиеев и Председатель КНР Си Цзиньпин неоднократно встречались на многосторонних саммитах, состоялись взаимные государственные, официальные и рабочие визиты глав двух государств, проведен ряд телефонных разговоров.

Мощный импульс развитию двусторонних отношений придали государственный визит Председателя КНР Си Цзиньпина в Узбекистан в сентябре 2022 года, а также государственные визиты в Китай Президента Шавката Мирзиеева в мае 2017-го и 2024 года.

Одним из основных направлений внешней политики Республики Узбекистан является дальнейшее развитие политических, торгово-экономических, инвестиционных, транспортно-коммуникационных и культурно-гуманитарных связей с Китайской Народной Республикой.

В настоящее время китайско-узбекские отношения находятся на новой отправной точке истории. Перед нами открываются широкие горизонты сотрудничества. Китайская сторона готова вместе с узбекскими партнерами реализовать в полном объеме достигнутые нашими лидерами договоренности, наращивать взаимодействие по широкому спектру вопросов, укреплять традиционную дружбу и достигать еще больших успехов на благо народов двух стран.

«Китай и Узбекистан — древние страны с великой цивилизацией. Великий Шёлковый путь свидетельствует о дружественных контактах наших народов на протяжении более 2000 лет. Чжан Цянь династии Сихань, Сюан Цзан династии Тан и Чэнь Чэн династии Мин в своё время добрались до Узбекистана и посетили Ташкент, Самарканд, Навои и другие известные города, оставив следы исторических связей. Выходец из Бухары Сеид Аджаль Шамсуддин в династии Юань был назначен губернатором китайской провинции Юньнань. Уроженец Самарканда У Жу принимал участие в строительстве обсерватории в Китае в городе Нанкин в середине 14 века. Народы наших стран и по сей день хранят добрую память о них — первопроходцах и посланниках китайско-узбекской дружбы» [2].

Необходимо вспомнить, Президент Республики Узбекистан Шавкат Мирзиёев в преддверии государственного визита в Китай 23−25 января 2024 года опубликовал в газете «Жэньминь жибао» авторскую статью, посвящённую перспективам отношений Узбекистана и КНР.

Узбекистан — крупная держава в сердце Центральной Азии. За 34 год с момента провозглашения независимости в стране достигнуты великие результаты в деле государственного развития и национального возрождения. Следует особо констатировать, что под руководством Президента Шавката Мирзиёева узбекский народ начал великий поход к строительству нового Узбекистана. Реформы и развитие в различных областях вышли на высокоскоростную траекторию. Страна приобрела совершенно новый облик, созданы достойные условия жизни, существенно укрепилась позиция на международной арене. Как дружественный сосед и всесторонний стратегический партнёр, мы искренне рады вашим успехам [3].

Президент Республики Узбекистан Шавкат Мирзиёев в своей статье [4] подчеркнул, что каждый раз, посещая Китай, «искренне восхищается масштабами происходящих здесь реформ и достигнутых успехов, созидательной силой, трудолюбием и талантом китайского народа, который уверенно идёт по пути модернизации к воплощению своей многовековой мечты».

Необходимо отметить, что за последнее десятилетие Китайская Народная Республика превратилась в мощную мировую державу, добилась грандиозного научно-технологического и инновационного прогресса, создала уникальную экосистему развития экономики и бизнеса.

Страна обрела совершенно новый облик, неуклонно растёт благосостояние народа, формируется прочная интеллектуальная основа для дальнейшего развития КНР.

Об этом свидетельствует статистические данные. ВВП Китая в 2024 году составил 134,9 трлн юаней ($18,4 трлн), увеличившись на 5% по сравнению с предыдущим годом. По итогам 2022 года ВВП Китая вырос на 3 % в годовом исчислении и достиг 121,02 трлн юаней (17,95 трлн долл. США), что составило 18,5 % от мирового ВВП [5].

Китай имеет первую или вторую по величине экономику в мире, в зависимости от того, смотрите ли вы на ППС или ВВП соответственно. Промышленное производство и экспорт готовой продукции являются основными движущими силами экономики. Однако, возможно, это существенно, страна не так развита, как другие страны из первой десятки. Китай уже несколько лет подряд является крупнейшим инвестором Узбекистана и занимает второе место среди его торговых партнеров.

«Узбекистан как дружественный сосед и всесторонний стратегический партнёр Китая искренне рад этим успехам. Развитие многоплановых отношений с Китаем было и остаётся одним из главных приоритетов внешней политики Узбекистана» [6], — написал Шавкат Мирзиёев.

Да, действительно Узбекистан и Китай объединяют общее стремление к обеспечению региональной и международной безопасности, приверженность центральной роли ООН и многостороннему сотрудничеству в преодолении глобальных вызовов, достижению Целей устойчивого развития.

Узбекистан и Китай твёрдо поддерживает друг друга в вопросах, затрагивающих коренные интересы наших стран, такие как государственный суверенитет, территориальная целостность, соблюдение принципов добрососедства, уважение выбора собственного пути развития и ультурно-цивилизационной идентичности. Многогранное сотрудничество Узбекистана и Китая — яркий пример дружбы и взаимной поддержки на международной арене. Узбекистан активно участвует в разных программах в рамках реализации инициативы Китая “Один пояс, один путь”, ставшей глобальной консолидирующей силой.

По этому поводу Президент Республики Узбекистан Шавкат Мирзиёев отметил что «За 10 лет эта грандиозная идея возрождения Великого шёлкового пути обрела сторонников во всех уголках планеты, объединив две трети стран мира. Сегодня из притягательной концепции она превращается в практическую реальность. Отказавшись от разделительных линий на основе цивилизационных, экономических и культурных различий, она открыла совершенно новую формулу укрепления межгосударственного диалога и сотрудничества, позволяющую максимально сплотить усилия человечества ради всеобщего процветания» [6].

Тщательно ознакомившись со статьей Президента Республики Узбекистана Шавката Мирзиёева в газете «Жэньминь жибао» еще раз убеждаемся, что для нас предпринимателей открываются широкие возможности. Глубокоуважаемый Президент подчеркнул важность «разработки новой долгосрочной повестки и перспективных программ реализации ключевых задач многопланового сотрудничества на десятилетия вперёд». Он перечислил эти задачи:

1. Укрепление глобального межцивилизационного диалога. «Ничто не должно помешать его развитию, созданию необходимых условий для укрепления мира и стабильности, поиску взаимоприемлемых компромиссов по самым острым вопросам».

2. Вывод отношений «на качественно новый и более высокий уровень». «Сложность и динамика, происходящих сегодня в мире процессов требуют регулярного обмена мнениями и тесного взаимодействия по всему спектру узбекско-китайского сотрудничества. Наши страны объединяет стремление к обеспечению стабильности и безопасности в регионе Центральной Азии и в целом на пространстве ШОС, в том числе к устранению негативных последствий сложившейся обстановки в Афганистане».

3. Сохранение и наращивание темпов всестороннего торгово-экономического взаимодействия в условиях усиления новых вызовов устойчивому развитию, связанных с обострением энергетического, продовольственного и экологического кризисов.

«В ближайшее время планируется утвердить долгосрочную Программу по реализации крупных инфраструктурных проектов с участием китайских партнёров в отраслях водного, электроэнергетического, автодорожного и железнодорожного хозяйства в Узбекистане».

4. Развитие транспортно-логистической инфраструктуры внешнеэкономической деятельности двух стран в рамках инициативы Китая «Один пояс, один путь».

«Развитие системы многовариантных мультимодальных маршрутов транспортировки грузов и пассажиров между Китаем и Центральной Азией с выходом на мировой рынок, создание новых терминалов, строительство высокотехнологичных производственно-складских объектов и комплексной инфраструктуры придорожного сервиса, цифровизация логистики станут важным вкладом в развитие внутриконтинентальных связей по историческому Великому шёлковому пути».

5. Огромное значение в укреплении узбекско-китайской дружбы имеет народная дипломатия. «Нами сформированы прочные институциональные основы развития культурно-гуманитарного обмена, сотрудничества в области образования, здравоохранения, спорта, туризма и археологии. Это стало общим богатством, нерушимым фундаментом взаимопонимания наших народов».

Исторические корни отношений между двумя государствами уходят вглубь веков и сегодня являются мощной основой для развития плодотворного взаимовыгодного партнерства на современном этапе. Легендарный Шелковый путь, который соединял регионы и способствовал взаимообогащению и культурному обмену, в наши дни обрел новое значение и продолжает служить экономическим и культурно-гуманитарным мостом между странами и народами вдоль своего маршрута.

В статье Си Цзиньпина «Вместе создать прекрасное будущее китайско-узбекских отношений» подчеркнуто мысль о том, что: «Две страны являются доверительными друзьями. С 2016 года мы с Президентом Ш. М. Мирзиеевым поддерживаем тесные контакты путём проведения встреч, телефонных бесед и обмена переписками. У нас налажены добрые рабочие связи и глубокая личная дружба. Наши государства в духе всестороннего стратегического партнёрства поддерживают друг друга в вопросах, затрагивающих ключевые интересы, помогают друг другу в продвижении национальных стратегий развития, перенимают друг у друга опыт расширения реформ и открытости, привнося позитивную энергию в развитие региона.

… две страны всегда помогают друг другу как родные братья. Китай и Узбекистан объединены кровными интересами и общим будущим. Наши страны тесно взаимодействуют как на двусторонней основе, так и в рамках ШОС и других многосторонних площадок, совместно выступают против вмешательства извне, борются с тремя силами зла, транснациональной организованной преступностью и наркотрафиком, наращивают обмен информацией оперативного характера, расширяют масштаб подготовки кадров во имя общей безопасности. С момента вспышки коронавирусной инфекции две страны в духе солидарности и взаимной помощи активизируют противоэпидемическое сотрудничество. В Узбекистане налажено совместное производство китайских вакцин, которые стали самыми востребованными в борьбе с пандемией, совместно созданный лекарственный препарат был разрешён к клиническому применению и стал надежным заслоном жизни и здоровья людей.

… путь к цели не будет далёк, было бы стремление в сердце. Мы готовы с узбекской стороной продолжать добрую традицию, складывавшуюся со дня установления дипотношений, и в новом историческом контексте вместе двигаться вперёд на широком пути национального развития и возрождения во имя формирования сообщества единой судьбы Китая и Узбекистана» [7].

Да по мнению Президента Республики Узбекистан Шавката Мирзиёева «Эффективное международное взаимодействие делает мир более устойчивым, предсказуемым и процветающим. Это – наиболее реальный, доступный и близкий путь к решению общих проблем современности и всеобщий полис страхования от грядущих вызовов и шоков» [8].

Необходимо и вспомнить выступления в ходе Московского Саммита ШОС 10 ноября 2020 г., председатель КНР Си Цзиньпин подчеркнул, что «Цивилизации не различаются на хорошую и плохую, а наоборот, отличаются многообразием. Мы должны продвигать межцивилизационное взаимодополнение, углублять добрососедство и дружбу государств-членов, укреплять общественную основу долгосрочного развития ШОС».

1. Новые возможности в отношениях Узбекистана и Китая с усилением расширение экономического сотрудничества (торговля, инвестиции, кредиты), развитие связей (прямые рейсы), а также в рамках «зеленых инициатив», культурного обмена и высокотехнологичных проектов.

2. Экономическое партнерство включает крупные китайские инвестиции в современные предприятия, растущий экспорт узбекских товаров (особенно природного газа) в Китай и увеличение объемов кредитования. Китай является вторым по величине импортером в Узбекистане. По состоянию на 2024 год благодаря опережающим китайским инвестициям в стране было создано около 600 участников китайско-узбекских предприятий.

3. Экономические показатели красноречиво свидетельствуют о масштабах достигнутого прогресса. Товарооборот между странами достиг отметки в $12,5 млрд по итогам 2024 года, что стало возможным благодаря установлению режима наибольшего благоприятствования во взаимной торговле. Инвестиционное сотрудничество демонстрирует ещё более впечатляющую динамику: общий объём освоенных китайских инвестиций в 2017-2024 годах составил $17,6 млрд, при этом только за 2023 год было освоено $4,3 млрд, что означает рост на 95%[9].

4. Институциональные реформы получили мощный импульс с принятием в 2023 году новой редакции Конституции Республики Узбекистан, в которой впервые была закреплена государственная обязанность по охране окружающей среды и обеспечению экологической безопасности. Эта норма стала отправной точкой для комплексного обновления нормативно-правовой базы и стратегического планирования в области устойчивого развития.

5. Символическое значение имеет тот факт, что 2025 год в Узбекистане был объявлен Годом защиты окружающей среды и «зелёной» экономики, что призвано обеспечить системный подход к решению вопросов адаптации к изменениям климата и мобилизовать усилия всего общества.

6. По мере реализации амбициозных планов обеих стран – достижения Китаем углеродной нейтральности к 2060 году и увеличения Узбекистаном доли ВИЭ до 54% к 2030 году – наше сотрудничество будет только углубляться и расширяться. Создание совместных исследовательских центров, обмен студентами и специалистами, развитие «зелёного» финансирования и цифровых технологий мониторинга создают прочную основу для долгосрочного партнёрства.

7. В конечном счёте, сотрудничество Узбекистана и КНР – как важный фактор обеспечения достижению Целей устойчивого развития – формирует новую парадигму международных отношений, основанную на взаимной выгоде, технологических инновациях и общей ответственности за будущее планеты.

Список исползованной литературы:

1. https://kknews.uz/179695.html
2. Вместе создать прекрасное будущее китайско-узбекских отношений — статья Си Цзиньпина. //https://www.gazeta.uz/ru/2022/09/13/article/
3. https://www.gazeta.uz/ru/2024/01/22/president/
4. https://www.gazeta.uz/ru/2024/01/22/president/
5. Данные Мирового банка.
6. Газета «Жэньминь жибао» от 23−25 января 2024 года.
7. https://www.gazeta.uz/ru/2022/09/13/article/
O‘zbekiston Respublikasida ham so‘nggi yillarda makroiqtisodiy barqarorlikni saqlash, budjet intizomini mustahkamlash va moliyaviy tizimni barqarorlashtirish yo‘lida qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, Markaziy bank tomonidan inflyatsion targetlash siyosatining joriy etilishi, fiskal intizomni kuchaytirish va davlat qarzining barqaror darajada saqlanishi iqtisodiy tizimning izchil rivojlanishiga xizmat qilmoqda.

Moliyaviy barqarorlashtirish chora-tadbirlari iqtisodiyotni inqirozlardan himoya qilish, uzoq muddatli o‘sish sur’atlarini saqlash hamda jamiyat farovonligini oshirishga qaratilgan. Shu sababli, iqtisodiy siyosatning har bir yo‘nalishi — ishlab chiqarish, sarmoya, bandlik, pul muomalasi va budjet jarayonlari — o‘zaro uyg‘unlikda olib borilishi talab etiladi [1].

Barqaror iqtisodiy rivojlanishning kafolati sifatida moliyaviy siyosatning izchil va shaffof yuritilishi ham muhimdir. Chunki moliyaviy tizimdagi nomutanosibliklar, soliq bazasining torligi, ortiqcha davlat xarajatlari yoki bank tizimidagi muammolar iqtisodiy muvozanatni buzadi va inflyatsiya bosimini kuchaytiradi [2]. Shu bois, iqtisodiyotni barqarorlashtirishda davlatning nazorat funksiyasi, bozor institutlarining samarali ishlashi hamda fiskal intizomning mustahkamligi hal qiluvchi omil hisoblanadi [3].

Moliyaviy-iqtisodiy rivojlanishning barqarorlashtiruvchi mexanizmlari masalasi iqtisodiy nazariyada ham, amaliy siyosatda ham muhim o‘rin egallaydi. Bu borada ko‘plab iqtisodchilar va olimlar o‘z ilmiy qarashlarini ilgari surganlar.

Masalan, J. M. Keyns o‘zining “The General Theory of Employment, Interest and Money” asarida davlatning iqtisodiy barqarorlikni ta’minlashdagi faol rolini asoslab bergan. Unga ko‘ra, iqtisodiy tizimdagi tebranishlarni kamaytirish uchun fiskal siyosat vositalaridan, xususan, davlat xarajatlari va soliqlarni tartibga solish mexanizmidan foydalanish zarur [4].

M. Fridman esa pul-kredit siyosatini asosiy barqarorlashtiruvchi vosita sifatida e’tirof etgan. Uning monetar nazariyasi bo‘yicha, iqtisodiy o‘sishning izchil bo‘lishi uchun pul massasi miqdorini ehtiyotkorlik bilan boshqarish kerak [5]

J. Schumpeter iqtisodiy tizimdagi barqarorlik va rivojlanishni “innovatsion tsikllar” orqali izohlagan. Unga ko‘ra, moliyaviy sektor innovatsiyalarni moliyalashtirish orqali iqtisodiyotning yangilanishini va shu orqali barqaror rivojlanishini ta’minlaydi [6].

O‘zbekistonlik iqtisodchi olimlardan A. Vahobov o‘z tadqiqotlarida iqtisodiy tizimni barqarorlashtirishda moliya tizimining islohoti, soliq siyosati va investitsion muhitni yaxshilashning o‘rni haqida to‘xtalib o‘tgan [7].

Shuningdek, B. X. Xolmo‘minovning ilmiy ishlarida moliyaviy sektorni diversifikatsiya qilish va barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlashda davlat siyosatining ahamiyati chuqur tahlil qilingan [8].

Tadqiqotda mantiqiy tahlil, tizimli yondashuv, statistik ma’lumotlarni solishtirish va empirik kuzatish usullaridan foydalanildi. Mantiqiy tahlil usuli orqali moliyaviy barqarorlikning nazariy asoslari o‘rganildi, tizimli yondashuv yordamida iqtisodiy jarayonlarning o‘zaro bog‘liqligi tahlil qilindi. Empirik kuzatish usuli asosida esa so‘nggi yillarda O‘zbekiston iqtisodiyotida moliyaviy barqarorlikni ta’minlash bo‘yicha amalga oshirilayotgan islohotlarning natijalari tahlil etildi.

Moliyaviy-iqtisodiy rivojlanishdagi barqarorlashtiruvchi vazifalarni amalga oshirishda davlatning fiskal va monetar siyosati muhim rol o‘ynaydi. Iqtisodiy barqarorlikning asosiy omillari sifatida YAIMning o‘sish sur’atlari, inflyatsiya darajasi, budjet defitsiti hamda tashqi qarz

ko‘rsatkichlari tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari O‘zbekiston iqtisodiyotida so‘nggi yillarda ushbu ko‘rsatkichlarning nisbatan barqaror holatda shakllanayotganini ko‘rsatadi.

1-jadval

O‘zbekiston Respublikasining asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari (2020–2024-yillar) [9]

Yil	YAIM o‘sish sur’ati (%)	Inflyatsiya darajasi (%)	Davlat budjeti defitsiti (%YAIMda)	Tashqi qarz (mlrd. AQSh dollari)
2020	1.6	11.1	3.7	21.1
2021	7.4	10.0	4.2	23.3
2022	5.7	12.3	3.5	25.8
2023	6.0	9.2	2.9	27.3
2024	6.4	8.5	2.6	28.1

Yuqoridagi ma’lumotlardan ko‘rinib turibdiki, 2020-yilda pandemiya ta’siri tufayli iqtisodiy o‘sish sekinlashgan, ammo keyingi yillarda YAIMning o‘sish sur’atlari izchil tiklangan. Inflyatsiya darajasi 2022-yilda eng yuqori darajaga chiqqan bo‘lsa-da, 2023–2024-yillarda u pasaygan. Bu holat pul-kredit siyosatining bosqichma-bosqich qat’iylashtirilishi natijasidir. Davlat budjeti defitsiti kamayganligi fiskal barqarorlik kuchayganini bildiradi.

Moliyaviy barqarorlikni ta’minlashda asosiy e’tibor fiskal siyosatning izchilligi, budjet daromadlari va xarajatlarining muvozanatiga, shuningdek, davlat investitsiyalarining samaradorligiga qaratiladi. Mamlakat iqtisodiyoti uchun soliqlar bazasini kengaytirish, davlat xarajatlarini optimallashtirish va investitsion loyihalarning natijadorligini oshirish muhim ahamiyatga ega. [10] P. Samuelson o‘z tadqiqotlarida iqtisodiy tizimning barqaror ishlashi uchun davlatning “aralash iqtisodiyot” tamoyillarini qo‘llashi zarurligini ta’kidlagan [11]. J. Stiglitz esa moliya sektorining shaffofligi va budjet boshqaruvining samaradorligi iqtisodiy o‘sish va barqarorlikning tayanchi ekanini qayd etadi [12]

2-jadval

O‘zbekiston Respublikasida budjet daromadlari va xarajatlari dinamikasi (2020–2024-yillar) [13]

Yil	Budjet daromadlari (trln so‘m)	Budjet xarajatlari (trln so‘m)	Budjet defitsiti (trln so‘m)	Soliq tushumlarining YAIMdagi ulushi (%)
2020	147.5	160.9	13.4	22.1
2021	179.2	193.0	13.8	23.4
2022	211.6	229.3	17.7	24
2023	244.7	257.1	12.4	25.2
2024	273.9	286.0	12.1	25.7

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, 2020–2024-yillar davomida davlat budjeti daromadlari yildan-yilga ortib bormoqda. Bu fiskal siyosatning samarali yuritilayotganini, soliq bazasining kengayganini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, xarajatlar hajmi ham oshib borgan, bu esa iqtisodiyotning ijtimoiy va infratuzilmaviy loyihalariga yo‘naltirilganini anglatadi.

Budjet defitsiti 2020–2022-yillarda biroz yuqori bo‘lgan bo‘lsa-da, 2023–2024-yillarda kamaygan. Bu fiskal intizom mustahkamlanayotganidan dalolat beradi. Soliq tushumlarining YAIMdagi ulushi 22 foizdan 25,7 foizga ko‘tarilgan, bu esa soliqqa tortish tizimining takomillashganini bildiradi.

Mazkur holat J. Stiglitzning “iqtisodiy barqarorlik davlat sektorining shaffofligi va soliqqa tortish tizimining adolatliligiga bevosita bog‘liq” degan fikrini amalda tasdiqlaydi [14]

O‘zbekiston budjet siyosati so‘nggi yillarda bosqichma-bosqich barqarorlashtiruvchi yo‘nalishda olib borilmoqda. Budjet daromadlarining oshishi, xarajatlarning optimallashtirilishi va defitsitning kamayishi fiskal siyosatning izchil amalga oshirilayotganidan dalolat beradi.

Moliyaviy barqarorlikni yanada kuchaytirish uchun:

- soliq ma’murchiligini raqamlashtirish,

- davlat qarz boshqaruvini takomillashtirish,
- budjet xarajatlarining samaradorligini oshirish zarur.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekiston iqtisodiyoti so‘nggi yillarda jahon moliyaviy bozorlaridagi o‘zgarishlarga nisbatan nisbatan bardoshli bo‘lib bormoqda. Bunga davlat tomonidan ishlab chiqilgan makroiqtisodiy siyosatning uzviy muvofiqlashtirilganligi, inflyatsiyani jilovlashga qaratilgan pul-kredit siyosati, shuningdek, iqtisodiy tarmoqlarni diversifikatsiya qilishga yo‘naltirilgan strukturaviy islohotlar asosiy omil bo‘lib xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, iqtisodiyotning real sektori, bank-moliya tizimi, soliq va budjet siyosatining uyg‘un ishlashi iqtisodiy barqarorlikning mustahkam poydevorini yaratmoqda.

Ammo tahlillar natijasida ayrim muammolar ham aniqlandi. Jumladan, ayrim sohalarda investitsion oqimlar yetarli darajada samarali yo‘naltirilmagan, moliyaviy nazorat mexanizmlarining raqamli transformatsiyasi sekin bormoqda, hamda xususiy sektorning moliyaviy imkoniyatlaridan to‘liq foydalanilmayapti. Shu sababli, iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash uchun quyidagi takliflar ishlab chiqilishi maqsadga muvofiq:

1. Makroiqtisodiy siyosatni muvofiqlashtirishni chuqurlashtirish. Pul-kredit, soliq va fiskal siyosatlar o‘rtasida to‘liq integratsiyani ta’minlash orqali inflyatsiya, budjet taqchilligi va valyuta kursining muvozanatini barqaror ushlab turish lozim. Bu iqtisodiy tizimga tashqi bosimlar ta’sirini kamaytiradi va iqtisodiy ishonchni oshiradi.

2. Moliya tizimini diversifikatsiya qilish. Bank sektori bilan bir qatorda sug‘urta, lizing, investitsiya fondlari, venchur kapital kabi noan’anaviy moliyalashtirish manbalarini kengaytirish zarur. Bu tadbirkorlik faoliyatini rag‘batlantiradi va yangi ish o‘rinlarini yaratadi.

3. Raqamli moliya infratuzilmasini rivojlantirish. Davlat moliyasi, soliq to‘lovlari, budjet xarajatlari va kredit tizimlarini to‘liq raqamlashtirish orqali shaffoflikni oshirish, korrupsiya xavfini kamaytirish va moliyaviy oqimlar ustidan real vaqt rejimida monitoring olib borish imkonini beradi.

4. Moliyaviy barqarorlik monitoring tizimini joriy etish. Har chorakda iqtisodiyotning asosiy sektorlarida barqarorlik indikatorlarini (inflyatsiya, kredit hajmi, davlat qarzi, to‘lov balansi) baholab boruvchi yagona elektron monitoring tizimini yaratish zarur.

5. Xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikni kuchaytirish. Jahon banki, XVJ, Osiyo taraqqiyot banki kabi tashkilotlar bilan barqaror rivojlanish, ekologik moliyalashtirish va yashil iqtisodiyot yo‘nalishida qo‘shma loyihalarni kengaytirish iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlaydi.

6. Budjet intizomini mustahkamlash. Davlat xarajatlarini samarali rejalashtirish, samarasiz loyihalarni moliyalashtirmaslik, hamda davlat qarzini nazorat ostida ushlab turish orqali fiskal barqarorlikni saqlash lozim.

7. Inson kapitaliga investitsiyalarni oshirish. Ta’lim, sog‘liqni saqlash va ilm-fan sohalariga yo‘naltirilgan mablag‘lar iqtisodiyotning innovatsion salohiyatini oshiradi. Inson kapitali kuchli bo‘lmagan mamlakatda iqtisodiy barqarorlik uzoq davom etmaydi.

8. Xususiy sektorni qo‘llab-quvvatlash. Kreditlar, soliq imtiyozlari, startaplarni moliyalashtirish tizimini soddalashtirish orqali biznes muhitini yaxshilash zarur. Xususiy sektor iqtisodiyotning tabiiy barqarorlashtiruvchi kuchi sifatida harakat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati:

1.Krugman P., Obstfeld M. International Economics: Theory and Policy. – Pearson Education, 2021.
2.O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Pul-kredit siyosati sharhi, 2024-yil IV chorak
3.Karimov I.A. O‘zbekiston iqtisodiy islohotlari yo‘lida. – Toshkent: O‘zbekiston, 2015.
4.Schumpeter, J. A. The Theory of Economic Development. Harvard University Press, 1934.
5.Vahobov, A. O‘zbekiston moliya tizimining barqaror rivojlanish omillari. Toshkent: Iqtisodiyot nashriyoti, 2019.
6.Xolmo‘minov, B. X. Makroiqtisodiy barqarorlik va moliyaviy siyosat. Toshkent, 2021.
7.Keynes, J. M. The General Theory of Employment, Interest and Money. London: Macmillan, 1936
8.Friedman, M. A Monetary History of the United States. Princeton University Press, 1963.
9.Vahobov, A. O‘zbekiston moliya tizimining barqaror rivojlanish omillari. Toshkent: Iqtisodiyot nashriyoti, 2019.

UDK: 336.52

ICHKI AUDITNING YANGI BOSQICHI: OLIY TA’LIM TIZIMIDA SAMARADORLIK, RAQAMLI TRANSFORMATSIYA VA XALQARO STANDARTLARGA MOSLASHUV

НОВЫЙ ЭТАП ВНУТРЕННЕГО АУДИТА: ЭФФЕКТИВНОСТЬ, ЦИФРОВАЯ ТРАНСФОРМАТSIЯ И АДАПТАТSIЯ К МЕЖДУНАРОДНЫМ СТАНДАРТАМ В СИСТЕМЕ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ

A NEW PHASE OF INTERNAL AUDIT: EFFICIENCY, DIGITAL TRANSFORMATION, AND ADJUSTMENT TO INTERNATIONAL STANDARDS IN THE HIGHER EDUCATION SYSTEM

Turabov Bahodir To‘htamishovich
Moliya va kredit kafedrasi professori v.b, iqtisodiyot fanlari doktori

Annotatsiya

Mazkur maqolada Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tizimida ichki audit faoliyatini takomillashtirish, uni raqamlashtirish hamda xalqaro standartlarga moslashtirish masalalari ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilinadi. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 16-iyuldagi 446-son qarori asosida ichki nazorat tizimini tubdan isloh qilish zaruriyatini asoslab beriladi.

Kalit so‘zlar: ichki audit, raqamli transformatsiya, AuditKPI.uz, Talaba Pay, 446-son qaror, xalqaro standartlar, Oliy ta’lim, mustaqillik, shaffoflik, boshqaruv islohotlari.

В данной статье теоретически и практически исследуются вопросы совершенствования деятельности внутреннего аудита в системе Министерства высшего образования, науки и инноватsiй, её цифровизатsii и приведения в соответствие с международными стандартами. На основе Постановления Кабинета Министров Республики Узбекистан №446 от 16 июля 2025 года обоснована необходимость глубокого реформирования системы внутреннего контроля.

Ключевые слова: внутренний аудит, цифровая трансформатsiя, AuditKPI.uz, Talaba Pay, Постановление №446, международные стандарты, высшее образование, независимость, прозрачность, управленческие реформы.

This article provides a theoretical and practical analysis of improving internal audit activities within the system of the Ministry of Higher Education, Science, and Innovation, focusing on digitalization and alignment with international standards. Based on Resolution No. 446 of the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan dated July 16, 2025, the study substantiates the necessity of fundamentally reforming the internal control system.

Key words: internal audit, digital transformation, AuditKPI.uz, Talaba Pay, Resolution No. 446, international standards, higher education, independence, transparency, governance reforms.

So‘nggi yillarda O‘zbekiston Respublikasida oliy ta’lim tizimini modernizatsiya qilish, boshqaruv jarayonlarini samarali tashkil etish hamda moliyaviy intizomni mustahkamlash bo‘yicha keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Ushbu jarayonlarda ichki audit tizimi — davlat tashkilotlari, xususan, oliy ta’lim muassasalarining barqaror, shaffof va samarali faoliyat yuritishini ta’minlovchi eng muhim boshqaruv instrumentlaridan biri sifatida e’tirof etilmoqda. Ichki audit tizimining zamonaviy mexanizmlarini joriy etish nafaqat moliyaviy nazoratni takomillashtiradi, balki strategik boshqaruv, innovatsiyalarni moliyalashtirish va inson kapitalini rivojlantirishda ham muhim rol o‘ynaydi.

2025-yil 16-iyulda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 446-son qarori [1] bilan mamlakatda ichki nazorat tizimini tubdan isloh qilish, audit faoliyatini

takomillashtirish hamda ichki audit xizmatlari faoliyatini samarali tashkil etish mexanizmlari belgilab berildi. Mazkur qaror ichki audit sohasida yangi bosqichni boshlab berdi — ya’ni, raqamli boshqaruv, masofaviy monitoring, inson omilini kamaytirish va xalqaro standartlarga moslashuv tamoyillarini asosiy yo‘nalish sifatida belgiladi. Shu bilan birga, qaror vazirlik va idoralar faoliyatida ichki nazoratning mustaqilligini, xolisligini va natijadorligini ta’minlashga qaratilgan amaliy chora-tadbirlarni o‘z ichiga oladi.

Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tizimida ichki audit sohasida mavjud muammolar, ularning sabablari va ularni bartaraf etish yo‘llarini aniqlash bugungi kunda dolzarb masalaga aylangan. Xususan, me’yoriy-huquqiy hujjatlar o‘rtasida takroriylik, raqamlashtirishning sustligi, xodimlar faoliyatining past samaradorligi va mustaqillikning yetarli emasligi kabi omillar tizim samaradorligiga to‘sqinlik qilmoqda. Shuningdek, ichki audit xizmati faoliyatida xalqaro standartlar va ilg‘or xorijiy tajribalarning yetarlicha o‘rganilmaganligi tizimni modernizatsiya qilish jarayonini sekinlashtirmoqda.

Bugungi global tendensiyalar shuni ko‘rsatadiki, ichki audit raqamli transformatsiyasiz samarali bo‘la olmaydi. Xususan, Buyuk Britaniyaning CHEIA — Council of Higher Education Internal Auditors (United Kingdom) [2], AQShning University of California Internal Audit Portal [3], shuningdek, KPMG, Deloitte, PwC va EY kabi xalqaro auditorlik kompaniyalari amaliyotlari oliy ta’lim sohasida auditning sifat ko‘rsatkichlarini tubdan o‘zgartirishga asos buladi. Ushbu tajribalarning mohiyati – audit jarayonlarini avtomatlashtirish, natijadorlikni baholashda inson omilini kamaytirish, shaffoflik va javobgarlikni oshirishdan iboratdir.

Shu nuqtayi nazardan, O‘zbekiston oliy ta’lim tizimida ham “AuditKPI.uz” raqamli platformasini yaratish, namunali ichki audit xizmatini yo‘lga qo‘yish, xalqaro tajribani milliy amaliyotga integratsiya qilish va ichki auditni strategik boshqaruv vositasiga aylantirish muhim zarurat sifatida yuzaga chiqmoqda. Ushbu maqolada aynan ichki audit sohasida mavjud muammolarni tizimli tahlil qilish, ularning yechimlari hamda Vazirlar Mahkamasining 446-son qarori bilan belgilangan islohotlar asosida yangi raqamli va xalqaro standartlarga mos modelni shakllantirish masalalari ko‘rib chiqiladi.

Natijada, maqola Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi misolida ichki audit tizimining yangi bosqichini ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan asoslab berish, shu orqali ichki nazoratning barqarorligi, shaffofligi va samaradorligini oshirishga qaratilgan takliflarni ishlab chiqishni maqsad qilib qo‘yadi.

Mazkur tadqiqotning metodologik asosini tizimli, tahliliy va qiyosiy yondashuvlar tashkil etadi. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 16-iyuldagi 446-son qarorida belgilangan ichki nazorat tizimini takomillashtirish tamoyillari, Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining amaldagi ichki audit faoliyati hamda xalqaro ilg‘or tajribalar tadqiqotning asosiy nazariy bazasini shakllantirdi.

Tadqiqot davomida quyidagi metodologik yondashuvlardan foydalanildi:

1. Tizimli tahlil yondashuvi:

Bu yondashuv orqali Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tizimidagi ichki audit faoliyatining huquqiy, tashkiliy, moliyaviy va axborot jihatlari o‘zaro bog‘liqlikda o‘rganildi. Audit jarayonida kuzatilayotgan muammolar — masalan, me’yoriy hujjatlar o‘rtasidagi takroriylik, raqamlashtirishning sustligi, hamda xodimlar faoliyatining past samaradorligi — tizimning umumiy samaradorligiga ta’sir etuvchi kompleks omillar sifatida baholandi.

2. Qiyosiy (komparativ) tahlil usuli:

Tadqiqot doirasida ichki auditning xorijiy amaliyotlari — Buyuk Britaniyaning CHEIA — Council of Higher Education Internal Auditors (United Kingdom), AQShning University of California Internal Audit Portal, hamda xalqaro auditorlik kompaniyalari — KPMG [4], Deloitte [5], PwC, EYning faoliyat tamoyillari tahlil qilindi. Ularning samaradorlik, mustaqillik, raqamli monitoring va xodimlar malakasini oshirishga oid mexanizmlari O‘zbekiston tajribasi bilan solishtirildi. Bu orqali milliy tizimda joriy etilishi mumkin bo‘lgan ilg‘or modellar aniqlanib, “AuditKPI.uz” platformasini ishlab chiqish zarurati ilmiy asoslandi.

3. Normativ-huquqiy tahlil:

Ushbu usul orqali ichki audit sohasiga taalluqli mavjud qonunchilik hujjatlari, normativ hujjatlar, buyruqlar va 446-son qarorda belgilangan talablar o‘rganildi. Qarorda keltirilgan ichki audit xizmati faoliyt samaradorligini oshirish talablari, masofaviy nazorat, inson omilini kamaytirish hamda raqamli transformatsiyani chuqurlashtirish bo‘yicha bandlar vazirlik amaliyotiga integratsiya qilish nuqtayi nazaridan tahlil qilindi. Natijada, hujjatlar bazasidagi bo‘shliqlar va takroriyliklarni aniqlash uchun inventarizatsiya usuli taklif qilindi.

4. Ekspert-tahliliy yondashuv:

Ichki audit xizmati xodimlari, moliya bo‘limlari mutaxassislari va oliy ta’lim tizimi rahbarlari o‘rtasida o‘tkazilgan suhbatlar, intervyular va amaliy kuzatuvlar asosida sifat jihatdan tahliliy ma’lumotlar to‘plandi. Ularning fikr-mulohazalari asosida audit jarayonlaridagi real muammolar, inson omiliga bog‘liq xatolar, hamda hisobotlarning avtomatlashtirilmaganligi kabi masalalar aniqlanib, ularga nisbatan yechim takliflari ishlab chiqildi.

Shunday qilib, tanlangan metodologiya ichki auditning mavjud muammolarini tizimli aniqlash, ularni xalqaro amaliyot asosida tahlil qilish hamda raqamli texnologiyalar orqali yechimlarni shakllantirishga xizmat qiladi. Mazkur yondashuvlar asosida keyingi bo‘limda tadqiqot natijalari va muhokamasi batafsil tahlil qilinadi.

O‘tkazilgan tahlillar natijasida ijro organlarida ichki audit faoliyatining hozirgi holati va islohotlarga ehtiyoj yuqori darajada ekanligi aniqlandi. 2025-yil 16-iyuldagi 446-sonli Vazirlar Mahkamasi qarori [6] ichki nazorat tizimini tubdan isloh qilishga, xususan, raqamli boshqaruvni joriy etish, inson omilini kamaytirish va ichki auditni mustaqil boshqaruv vositasiga aylantirishga qaratilgan. Ushbu qarorning ijrosi doirasida quyidagi natijalar shakllanadi:

1. Normativ-huquqiy tizimdagi nomuvofiqliklar, ziddiyatlar va ularni bartaraf etish yo‘nalishlari

O‘rganishlar natijasida vazirlik tizim tashkilotlari faoliyatiga oid me’yoriy-huquqiy hujjatlar o‘rtasida takroriylik va tafovutlar mavjudligi, ayrim bandlarning amaliyotda turlicha talqin qilinishi moliyaviy xatoliklarga sabab bo‘layotgani aniqlanadi.

Shu bois, moliyaviy hujjatlarni to‘liq inventarizatsiya qilish, mavjud huquqiy bo‘shliqlarni bartaraf etish va ayrim normativlarni yangi tahrirda qabul qilish zaruriyati paydo bo‘ldi. Bu yondashuv 446-son qarorining 3-bandida keltirilgan “normativ-huquqiy muhitni optimallashtirish va ichki nazoratni yagona yondashuv asosida tashkil etish” talablari bilan to‘liq uyg‘un keladi.

2. Raqamlashtirish va “AuditKPI.uz” platformasining konseptual modeli

Ichki audit xizmatlarining elektron tizimda faoliyat yuritmasligi, hisobotlarning qo‘lda tayyorlanishi hamda ma’lumotlar almashinuvida uzilishlar mavjudligi aniqlangan.Bu muammoni bartaraf etish maqsadida “AuditKPI.uz” raqamli platformasini ishlab chiqish konsepsiyasi taklif etildi. Platforma orqali:

-audit topshiriqlarini berish,

-ijro natijalarini kuzatish,

-xodimlar faoliyatini reyting asosida avtomatik baholash,

-joriy hisobotlarni elektron tarzda tayyorlash imkoniyatlari yaratiladi.

Bu tizim Buyuk Britaniyaning CHEIA va AQSH ning UC Audit Portal tizimlariga o‘xshash bo‘lib, 446-son qarorida belgilangan raqamli audit modelini amaliyotda joriy etish uchun asos bo‘la oladi.

3. Ichki audit xizmatlari mustaqilligining oshirilishi

Tahlil natijalariga ko‘ra, OTMlarda ichki audit xodimlari faoliyatida mustaqillik yetarli emas, bu esa audit natijalarining obyektivligini pasaytiradi. 446-son qarorining 5-bandida “ichki audit xizmatlari faoliyatining mustaqilligini ta’minlash va ularni to‘g‘ridan-to‘g‘ri yuqori nazorat organlariga bo‘ysundirish” vazifasi belgilangan. Mazkur talab asosida Oliy ta’lim tizimida ichki audit xizmatlari tashkiliy jihatdan mustaqil bo‘lgan, lekin metodologik jihatdan yagona markazga bo‘ysunuvchi modelni joriy etish taklif etildi. Natijada ichki auditning xolisligi va ishonchliligi oshadi, moliyaviy qonunbuzarliklarning oldini olish mexanizmlari kuchayadi.

4. Samaradorlik va muvofiqlik auditining joriy etilishi

Amaldagi nazorat tadbirlari faqat mablag‘larning to‘g‘ri sarflanishini o‘rganish bilan chegaralanayotgani aniqlandi. Shu sababli, strategik maqsadlar, davlat topshiriqlari va islohotlar ijrosining haqiqiy natijadorligini o‘lchovchi “samaradorlik va muvofiqlik auditi”ni joriy etish zarur deb topildi. Bu yondashuv orqali audit xulosalari nafaqat moliyaviy intizomni, balki boshqaruv samaradorligini ham baholaydi. 446-son qarorida belgilangan “faoliyat natijadorligini baholovchi audit tizimini joriy etish” vazifasi bilan bevosita mos keladi.

5. Xalqaro tajribalarni milliy amaliyotga tatbiq etish

Ichki audit sohasida xalqaro amaliyotlarning yetarli o‘rganilmaganligi, xodimlarning xalqaro sertifikatlarga ega emasligi aniqlangan. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, KPMG, Deloitte, PwC [7] , EY [8] kabi “katta to‘rtlik” kompaniyalarning ichki audit standartlarini o‘rganish, ularni INTOSAI va boshqa xalqaro moliyaviy institutlar talablarini milliy tizimga moslashtirish maqsadga muvofiqdir. Natijada, xalqaro sertifikatga ega auditorlar soni ortadi, audit jarayonlari esa globallashgan sifat mezonlariga moslashadi.

6. “Namunali ichki audit” loyihasining joriy etilishi

446-son qarorida belgilanganidek, ichki nazorat tizimini kuchaytirish uchun namunali ichki audit xizmatini tashkil etish taklif etildi. Tadqiqot doirasida bu loyiha Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi [9] bazasida tajriba-sinov tariqasida joriy etilishi, uning natijalari esa boshqa vazirliklarga tatbiq qilinishi taklif qilindi. Bu orqali ichki auditda masofaviy nazorat, elektron bazalar orqali monitoring, inson omilini kamaytirish mexanizmlari keng qo‘llaniladi.

7. Ilmiy va innovatsion loyihalarni moliyaviy nazorat qilishning yangi mexanizmlari

Ilmiy va innovatsion loyihalar bo‘yicha ajratilayotgan mablag‘larning sarflanishida ayrim xatoliklar aniqlangan. Shu bois, ilmiy ishlanmalarni tahlil qilish va nazorat qilishda bozor mexanizmlarini joriy etish, loyihalarning natijadorligini muddat tugashini kutmasdan baholash tizimi ishlab chiqildi. Bu mexanizm innovatsion mablag‘larning maqsadli va samarali ishlatilishini ta’minlaydi, bu esa 446-son qarorida keltirilgan moliyaviy intizom va shaffoflikni kuchaytirish tamoyiliga mos keladi.

Umuman olganda, o‘tkazilgan tahlillar natijasida Oliy ta’lim tizimida ichki audit faoliyatini tubdan yangilashga doir kompleks konsept ishlab chiqildi. Ushbu konsept quyidagi strategik natijalarga erishishni ta’minlaydi:

-Ichki auditning raqamlashtirilgan, avtomatlashtirilgan boshqaruv modeli yaratiladi;

-Ichki audit xodimlarining mustaqilligi va professional javobgarligi kuchayadi;

-Audit natijalariga asoslangan qaror qabul qilish madaniyati shakllanadi;

-OTMlarda moliyaviy shaffoflik va resurslardan oqilona foydalanish darajasi oshadi;

-Tizimda xalqaro standartlarga mos ichki nazorat muhiti barpo etiladi.

O‘zbekiston Respublikasida oliy ta’lim tizimida ichki auditni rivojlantirish bugungi kunda davlat boshqaruvi samaradorligini oshirish, moliyaviy intizomni mustahkamlash va raqamli iqtisodiyotga o‘tish jarayonining ajralmas qismiga aylangan. Tadqiqot davomida aniqlangan muammolar va ishlab chiqilgan takliflar Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 16-iyuldagi 446-son qarorida belgilangan islohot yo‘nalishlari bilan uzviy uyg‘unlikda bo‘lib, ichki audit tizimini yangi sifat bosqichiga olib chiqish imkonini bermoqda.

Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tizimidagi ichki audit faoliyatini takomillashtirish uchta asosiy yo‘nalishda amalga oshirilishi zarur:

1. Raqamli transformatsiya va avtomatlashtirish

Ichki auditni raqamlashtirish samaradorlikni oshirishning eng muhim omilidir. Shu munosabat bilan quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

-“auditkpi.uz” raqamli platformasini ishga tushirish va uni barcha oliy ta’lim muassasalariga integratsiya qilish;

-audit topshiriqlari, hisobotlar va xodimlar reytingini avtomatik shaklda yuritish tizimini yo‘lga qo‘yish;

-barcha audit jarayonlarini yagona elektron axborot bazasi orqali markazlashtirish;

-audit natijalarini real vaqt rejimida monitoring qilish imkonini beruvchi analitik panel (dashboard) yaratish.

Bu orqali ichki auditda inson omili keskin kamayadi, ma’lumotlar ishonchliligi oshadi va nazorat jarayonlari tezkorlashadi.

2. Mustaqillik va samaradorlikni kuchaytirish

Ichki audit xizmati faoliyatining mustaqilligi — tizim ishonchliligining garovidir. Shu asosda quyidagi tavsiyalar ilgari suriladi:

-ichki audit xizmatlarini vazirlikning moliya va boshqaruv bo‘linmalaridan tashkiliy jihatdan ajratish;

-ichki audit xodimlarining faoliyatini bevosita oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining audit boshqarmasiga hisobot beruvchi shaklda tashkil etish;

-auditorlar faoliyatini xolis, reyting asosida baholovchi indikator tizimini joriy etish;

-samaradorlik va muvofiqlik auditini amaliyotga kiritish orqali audit natijalarini moliyaviy intizomdan tashqari, boshqaruv samaradorligi nuqtayi nazaridan ham tahlil qilish.

Bu yondashuvlar ichki auditni faqat tekshiruv emas, balki rivojlanish, rejalashtirish va qaror qabul qilishning strategik vositasiga aylantiradi.

3. Xalqaro standartlarga moslashuv va kadrlar salohiyatini oshirish

Ichki auditning barqaror rivoji uchun xalqaro tajribani milliy amaliyot bilan uyg‘unlashtirish zarur. Shu bois:

-ichki audit faoliyatini IIA (Institute of Internal Auditors), INTOSAI va ISO 19011 standartlariga moslashtirish;

-ichki audit xodimlari uchun xalqaro sertifikatlashtirish dasturlarini (CIA [10], CISA [11], ACCA [12] va h.k.) joriy etish;

-“Katta to‘rtlik” auditorlik kompaniyalari (KPMG, Deloitte, PwC, EY) bilan hamkorlikda o‘quv va tajriba almashish dasturlarini yo‘lga qo‘yish;

-ichki audit metodologiyasini xorijiy oliy ta’lim tizimlari (Buyuk Britaniya, AQSh, Janubiy Koreya, Singapur) tajribalari asosida modernizatsiya qilish.

Bu chora-tadbirlar ichki auditni xalqaro miqyosda tan olingan professional yo‘nalishga aylantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 16-iyuldagi “2025–2027-yillarda respublika va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarida ichki nazorat tizimini yanada takomillashtirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 446-son qarori.
2. CHEIA - Council of Higher Education Internal Auditors (United Kingdom) CHEIA : Council for Higher Education Internal Auditors
3. UC Audit Portal – University of California Internal Audit System (USA). Internal Audit | OFFICE OF THE CHANCELLOR
4. KPMG - Klynveld Peat Marwick Goerdeler. KPMG in Uzbekistan - KPMG Uzbekistan
5. Deloitte - Deloitte Touche Tohmatsu Limited. Deloitte Global | Together makes progress
6. PwC – PricewaterhouseCoopers. PwC Uzbekistan
7. EY - Ernst & Young Global Limited. EY - Global | Shape the future with confidence
8. O'zbekiston Respublikasi, Oliy ta'lim fan va innovatsiyalar vazirligi. O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi
9. CIA – Certified Internal Auditors / The Institute of Internal Auditors (IIA), USA. Certified Internal Auditor | Global Internal Audit Certification | The IIA
10. CISA - Certified Information Systems Auditor / ISACA (Information Systems Audit and Control Association), USA. CISA Certification | Certified Information Systems Auditor | ISACA
11. ACCA - Association of Chartered Certified Accountants / ACCA Global (London, United Kingdom). Home | ACCA Global

УДК: 334.012.8

ИНВЕСТИЦИОННО-ИННОВАЦИОННОЕ РАЗВИТИЕ НЕФТЕГАЗОВОЙ ОТРАСЛИ УЗБЕКИСТАНА

O‘ZBEKISTON NEFT-GAZ TARMOG‘INING INVESTITSION-INNOVATSION RIVOJLANISHI

INVESTMENT AND INNOVATION DEVELOPMENT OF UZBEKISTAN’S OIL AND GAS INDUSTRY

Хакимов Х. студент ТГТУ гр 5-22 МТ, кафедра «Экономика и менеджмент предприятия»

Аннотация

В данной работе рассматриваются актуальные вопросы инвестиционно-инновационного развития нефтегазовой отрасли Узбекистана. Особое внимание уделено анализу современного состояния отрасли, привлекаемых иностранных инвестиций, а также внедрению инновационных технологий в процессы добычи, переработки и транспортировки углеводородов. Раскрываются основные направления государственной политики, направленные на модернизацию производственных мощностей, повышение эффективности использования природных ресурсов и создание благоприятного инвестиционного климата.

Ключивые слова: инвестиции, инновации, нефтегазовая отрасль, экономическое развитие, модернизация, технологическое обновление, устойчивый рост, энергетическая политика, промышленность, эффективность производства, иностранные инвестиции, инновационные проекты.

Ushbu ishda O‘zbekiston neft-gaz tarmog‘ining investitsion-innovatsion rivojlanishiga oid dolzarb masalalar ko‘rib chiqiladi. Ayniqsa, tarmoqning hozirgi holatini tahlil qilish, jalb etilayotgan xorijiy investitsiyalar hamda uglevodorodlarni qazib olish, qayta ishlash va tashish jarayonlariga innovatsion texnologiyalarni joriy etishga alohida e’tibor qaratilgan. Davlat siyosatining ishlab chiqarish quvvatlarini modernizatsiya qilish, tabiiy resurslardan samarali foydalanish va qulay investitsiya muhitini yaratishga qaratilgan asosiy yo‘nalishlari yoritib beriladi.

Kalit so‘zlar: investitsiyalar, innovatsiyalar, neft-gaz tarmog‘i, iqtisodiy rivojlanish, modernizatsiya, texnologik yangilanish, barqaror o‘sish, energetika siyosati, sanoat, ishlab chiqarish samaradorligi, xorijiy investitsiyalar, innovatsion loyihalar

This paper examines the pressing issues of investment and innovation development in Uzbekistan’s oil and gas industry. Special attention is given to analyzing the current state of the sector, attracting foreign investments, and introducing innovative technologies into the processes of extraction, processing, and transportation of hydrocarbons. The main directions of state policy aimed at modernizing production capacities, ensuring the efficient use of natural resources, and creating a favorable investment climate are also highlighted.

Keywords: investments, innovations, oil and gas industry, economic development, modernization, technological renewal, sustainable growth, energy policy, industry, production efficiency, foreign investments, innovative projects

Инновационные процессы, выступающие как новый этап глобального экономического и технологического прогресса, стремительно трансформируют мировую экономику. В этих условиях нефтегазовая отрасль нуждается в активном внедрении современных инновационных технологий и оценке их экономической результативности. Рост спроса на

нефтегазовую продукцию сопровождается необходимостью рационального использования имеющихся ресурсов и одновременным повышением конкурентоспособности производства за счет инновационных решений.

Несмотря на стремительное развитие нефтегазового сектора, в экономике наблюдается непрерывный процесс технологического обновления и внедрения новых инновационных решений, которые распространяются на различные отрасли промышленности. Одновременно усиливается эффект морального устаревания технического оборудования и производственных систем. В таких условиях задача освоения и эффективного применения современных инновационных технологий становится сложным и многоэтапным процессом, требующим значительных организационных, технологических и кадровых усилий.

К крупным объектам Акционерного общества на сегодняшний день относятся Бухарский нефтеперерабатывающий завод, Ходжиабадское подземное хранилище газа, Шуртанский газохимический комплекс, ДКС «Шуртан», ГНКС «Кокдумалак», а также Ферганский нефтеперерабатывающий завод. Около 54 % территории Республики Узбекистан считается перспективной с точки зрения нефтегазодобычи. В настоящее время в пяти нефтегазоносных регионах страны — Устюртском, Бухаро-Хивинском, Хисарском, Сурхандарьинском и Ферганском — выявлено 235 месторождений углеводородного сырья, включая 201 месторождение свободного газа, 124 нефтяных и 159 газоконденсатных. Более 100 из них находятся на стадии промышленной разработки, 79 — на этапе подготовки к разработке, а 60 — на стадии геологической разведки. Кроме того, на завершающей стадии реализации находятся проекты по освоению 56 объектов на 73 месторождениях нефти и газа, из них 38 — в Ферганской области, 6 — в Сурхандарьинской области и 12 — в Бухаро-Хивинском нефтегазоносном регионе[2].

За последние 20 лет при общем увеличении мировых объёмов добычи природного газа на 8 % добыча газа отечественными предприятиями сократилась на 29 %. В период 2008–2018 годов подтверждённые запасы природного газа уменьшились на 4 %. За последние пять лет средний коэффициент замещения запасов составлял около 70 %, что свидетельствует о недостаточной восполняемости ресурсной базы. В 2017–2018 годах, вследствие ограниченности финансовых ресурсов и дефицита материально-технических средств, фактический прирост добычи газа составил лишь 42 % от прогнозируемого уровня, что подчёркивает необходимость ускоренного внедрения современных технологий, повышения инвестиционной привлекательности сектора и модернизации производственных мощностей[1].

Рациональное и эффективное использование нефтегазовых ресурсов страны является важной частью национальной инвестиционной стратегии. Такой подход помогает находить новые пути повышения производительности через внедрение современных технологий, а также через лучшее использование имеющихся ресурсов, что делает отрасль более устойчивой и конкурентоспособной.

Важными достижениями в этот период стали увеличение объема поставок природного газа населению на 2,2 млрд м^3 (с 9,4 млрд м^3 в 2017 до 11,6 млрд м^3 в 2022 году), а также значительный рост объема поставок природного газа в отрасли экономики (с 26,1 млрд м^3 до 31,0 млрд м^3). Пропускные мощности газотранспортной системы были существенно расширены благодаря строительству новых магистральных газопроводов (608,6 км за последние 5 лет). Однако объемы экспорта природного газа снизились более чем на 64% в следствии перенаправления ресурсов на удовлетворение растущего внутреннего спроса. Также происходило увеличение импорта нефти (на $130 млн) и газа (на $281 млн)[2].

В рамках реализации инвестиционной программы в 2022 году объём иностранных инвестиций составил 3,6 млрд долларов США, из которых 2,4 млрд долларов приходятся на прямые иностранные инвестиции. В топливно-энергетическом комплексе было создано 1 084 новых рабочих места, включая 352 — в нефтегазовом секторе и 732 — в электроэнергетике. За шесть лет доля отрасли в структуре валового внутреннего продукта страны увеличилась с

2,9 % до 3,0 %, что свидетельствует о постепенном укреплении её экономической значимости и инвестиционной привлекательности[3].



Рисунок 1. Динамика добычи и подтверждённых запасов природного газа с 2000 по 2025 годы.

В рамках Стратегии Нового Узбекистана на 2022-2026 гг. предусмотрены дополнительные меры для развития нефтегазовой промышленности, включая либерализацию рынка энергетических ресурсов и природного газа, привлечение частных инвестиций и введение социальных норм потребления для защиты уязвимых слоев населения. Планируется развитие химической и газо-химической отраслей с увеличением уровня переработки природного газа с 8% до 20% и объема производства химической продукции до $2 млрд.[3].

В целом, анализ динамики нефти и газовой отрасли за 6 лет показывают положительные тенденции роста производства, инвестиций, занятости, и расширение производственных мощностей. Однако еще имеется потенциал для дальнейшего улучшения эффективности использования инвестиций. Это может быть достигнуто через совершенствование технологий. На данном этапе важнейшую роль занимает инвестиционная политика страны.

Рациональное и эффективное использование нефтегазовых ресурсов страны является важной частью национальной инвестиционной стратегии. Такой подход помогает находить новые пути повышения производительности через внедрение современных технологий, а также через оптимизации использования имеющихся ресурсов, что делает отрасль более устойчивой и конкурентоспособной. Эффективное управление нефтегазовыми ресурсами, поддерживаемое инвестициями и внедрением инновационных технологий, способствует росту производительности, укреплению экономической стабильности и повышению конкурентоспособности страны на мировом рынке. Официальные статистические данные, свидетельствует о явных диспропорциях

В структуре отечественного инвестиционного потенциала не в пользу ее инновационных составляющих. Инвестиции в нематериальные активы (патенты, изобретения, ноу-хау) вместе с затратами на научно-исследовательские, опытно конструкторские и технологические работы не составляют и 1% всех инвестиций в нефинансовые активы.

Рассмотрев факторов, отражающую структуру инвестиционного потенциала по содержательным компонентам и основные механизмы их существования применительно к разным уровням хозяйственной системы. Разделение инвестиционного потенциала на внешний и внутренний, как видно, имеет относительный характер.

Возможности привлечения организациями и предприятиями долгосрочных банковских кредитов, бюджетных ресурсов, сбережений населения формируют внешние источники для предприятий и организаций, но внутренние для страны или региона.

Результаты исследования Особое значение приобретает повышение уровня экономического обоснования инвестиционных проектов на основе стандартов, заложенных в современные общепринятые в мире методики, а также выбор критериев отбора этих проектов с учетом приоритетных задач развития отраслей. Для повышения уровня проработанности программ важно вовлечение в эту деятельность банков.

Перспективно также составление так называемого инвестиционного паспорта предприятий, содержащего информацию, необходимую для потенциальных инвесторов. Кроме этого, для оценки инвестиционного потенциала отрасли и его развития необходимо определить условия и факторы, влияющие на инвестиционные процессы в отрасли. В данном аспекте также существует ряд подходов. Рациональное использование каждого ресурса в промышленных предприятиях, финансового, материально-ресурсного, инновационного и человеческого потенциалов предприятий являются основным моментом.

Список использованной литературы:

1. Мирзиёев Ш.М. Решительно продолжая путь национального развития, поднимем его на новый этап. – Т.: Узбекистан, 2017.
2. https://minenergy.uz/ru/lists/view/29
3. Указ Президента Республики Узбекистан от 28 января 2022 года № УП-60 «О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы».
4. Тиллаева Б.Р. Методика эконометрического анализа факторов, влияющих на инвестиционный потенциал химических предприятий. Молодёжная наука, Международная научно-практическая конференция, г.Пенза. 2020г. октября. с 91-93.
5. Тиллаева Б.Р. Моделирование и выбор оптимального сценария стратегии инвестиционного развития химической промышленности. Ўзбекистонда илмий-амалий тадқиқотлар мавзусидаги конференция материаллари, Т., Tadqiqot.uz. 2021 й. №21, 7-9 б.
6. Allayeva G.J., Tillayeva B.R. Analysis of investment potential in the development of industrial enterprises//International scientific journal «Theoretical & Applied Science», Philadelphia, USA. Issue 12,volume 104, published December 6, 2021.pp.169-175.

УДК: 338.1

АҲОЛИНИ ИЖТИМОИЙ ҲИМОЯ ҚИЛИШНИ МОЛИЯЛАШТИРИШНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ ЙЎНАЛИШЛАРИ

НАПРАВЛЕНИЯ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ФИНАНСИРОВАНИЯ СОЦИАЛЬНОЙ ЗАЩИТЫ НАСЕЛЕНИЯ

DIRECTIONS FOR IMPROVING THE FINANCING OF SOCIAL PROTECTION OF THE POPULATION

Мамадиёрова Мукаддас Зиядуллаевна
ISFT мустақил изланувчиси

Аннотация

Мақолада аҳолини ижтимоий ҳимоя қилишнинг ва камбағаллик даражасини назарий асослари ўрганилган. Мамлакатда аҳолини ижтимоий ҳимоя қилишни молиялаштириш тизими ва давлат бюджетидан ажратилаётган маблағлар йўналишлари таҳлил қилинган.

Калит сўзлар: аҳолини ижтимоий ҳимоя қилиш, ижтимоий ҳимоя реестри, камбағаллик, молиялаштириш, ижтимоий суғурта

В статье рассматриваются теоретические основы социальной защиты населения и уровень бедности. Проанализирована система финансирования социальной защиты населения в стране и направления использования средств государственного бюджета.

Ключевые слова: социальная защита населения, регистр социальной защиты, бедность, финансирование, социальное страхование.

The article examines the theoretical foundations of social protection of the population and the level of poverty. The financing system of social protection of the population in the country and the directions of funds allocated from the state budget were analyzed.

Key words: social protection of the population, social protection register, poverty, financing, social insurance

Мамлакатимизда аҳолини ижтимоий ҳимоя қилишни молиялаштириш тизимини такомиллаштириш, соҳага қўшимча ресурсларни жалб қилиш борасида самарали ишлар ташкил қилинди. Ижтимоий ҳимоя дастурлари қамровини кенгайтириш ва оилаларни оғир ҳаётий ҳолатлардан олиб чиқишга қаратилган қўшимча иқтисодий механизмларни жорий этиш бўйича ҳам изчил ислоҳотлар амалга оширилмоқда.

Яқин хорижлик иқтисодчи олимлар Б.В. Ракитский, В.К. Сенчаков, В.И. Щербаков, Н.А. Горелов, Е.В. Тишин кабилар томонидан амалга оширилган илмий тадқиқотларда аҳолини ижтимоий ҳимоя қилиш иқтисодий категориясининг кенг ва тор маънодаги таърифлари ишлаб чиқилган бўлиб, улар ҳам ўз тадқиқотларида аҳолини ижтимоий ҳимоя қилишнинг мазмунини тушунтиришда ёлланма ишчиларни ижтимоий рисклардан ҳимоялашга эътиборни қаратганлиги билан характерланади. Хусусан, иқтисодчи олим В.К. Сенчаков томонидан амалга оширилган тадқиқотларда бир иқтисодий тизимдан иккинчи иқтисодий тизимга ўтиш шароитида вужудга келган иқтисодий танглик шароитида давлат томонидан жамиятдаги минимал ижтимоий стандартларнинг ўрнатилиши аҳолини ижтимоий ҳимоялашнинг йўналишлари ва миқдорий кўрсаткичларини белгилашда муҳим аҳамият касб этиши исботланган. Шунингдек, давлат ўз фуқароларининг ижтимоий ҳуқуқ ва эркинликларини кафолатлаши лозимлиги кўрсатилган[1].



Изоҳ: 2025 йил 1 ярим йиллик

1-расм. Камбағаллик даражаси[4]

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 25 июлдаги «Ўзбекистон Республикаси аҳолисини ижтимоий ҳимоя қилиш стратегиясини тасдиқлаш тўғрисида»ги фармони айни соҳадаги вазифаларни қатъий белгилаб берди. Мазкур фармон билан Ижтимоий ҳимоя стратегияси, мақсадли кўрсаткичлар ва йўл харитаси ҳам тасдиқланган. Стратегияда кексалик, ногиронлик, боқувчисини йўқотганлик пенсиялари, ҳомиладорлик ва туғиш бўйича нафақа ҳамда вақтинчалик меҳнатга лаёқатсизлик ижтимоий нафақалари белгиланган.

Бундан ташқари, ишдан бўшатиш (ишсизлик) нафақаси, дафн этиш нафақаси, ишлаб чиқаришдаги бахтсиз ҳодиса ёки касб касаллиги туфайли ногиронлик ва боқувчисини йўқотганлик пенсиялари ҳам киради.

2022 йилда Президент фармони билан Ижтимоий суғурта жамғармасини ташкил этиш ва ушбу жамғармадан, пенсиялардан ташқари, ижтимоий нафақаларни тўлаш учун йўли очилди. Амалдаги қонунчилик таҳлили шуни кўрсатадики, мавжуд қонуний ҳужжатлар асосида ижтимоий таъминотнинг янги механизмларини жорий этиш мумкин.

Фармонга мувофиқ, Иқтисодиёт ва молия вазирлигининг таркибий бўлинмаси сифатида юридик шахс мақомисиз фаолият юритувчи Суғурта жамғармаси ташкил этилди. Дастлабки босқичда – 2023-2025 йиллар Жамғарма ҳомиладорлик ва туғиш бўйича нафақа бошқариш учун масъул эди. Кейинги босқичларда 2026-2027 йилларда Жамғарма зиммасига ижтимоий суғурта тизимининг бошқа нафақаларини тақдим этиш вазифаси юкланади.

Мамлакатда аҳолини ижтимоий ҳимоя қилиш тизимини молиялаштириш бўйича Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2025 йил 1 апрелдаги “Аҳолини ижтимоий ҳимоя қилиш тизимини молиялаштириш тартиб-таомилларини такомиллаштириш тўғрисида”ги ПФ-17-сонли Фармони қабул қилинди. Ушбу Фармонга асосан қуйидагилар белгиланди:

— “Ижтимоий дафтарлар” жамғармалари орқали кўрсатиладиган ижтимоий ёрдамлар Камбағал оилалар реестрига киритилган оилаларга, уй-жой шароитларини яхшилаш ва соғлиқни сақлаш бўйича ижтимоий ёрдамлар эса – ойлик даромади оила аъзоларининг ҳар бирига минимал истеъмол харажатлари миқдорининг 2 бараваридан кўп бўлмаган оилаларга ҳам тақдим этилади. Бунда маданий-маърифий, таълим, спорт ва туризм тадбирларини ташкил этиш ва ўтказишга “Аёллар дафтари” ва “Ёшлар дафтари” жамғармалари тушумларининг 25 фоизидан кўп бўлмаган қисмини йўналтиришга рухсат берилади;

— “Ижтимоий дафтарлар” жамғармалари орқали ижтимоий ёрдамлар қуйидаги тартибда кўрсатилади:

оилаларни камбағалликдан чиқариш бўйича индивидуал режада камбағал оилаларнинг ёшлари ва хотин-қизларига муайян ижтимоий ёрдамларнинг белгиланиши ушбу тоифадаги шахслардан қўшимча мурожаат талаб этмаган ҳолда “Ижтимоий дафтарлар” жамғармалари ҳисобидан ижтимоий ёрдамлар кўрсатилишига асос бўлади;

“Ижтимоий дафтарлар” жамғармалари ҳисобидан ижтимоий ёрдам кўрсатишни сўраб мурожаат қилган шахсларнинг ижтимоий ҳолатини аниқлаш “Ягона миллий ижтимоий ҳимоя” ахборот тизими орқали, оиланинг молиявий ҳолатини эса – идоралараро ахборот алмашинуви орқали автоматик равишда баҳолаш (скоринг) натижаларига мувофиқ амалга оширилади.

Шунингдек, камбағал оилалар реестрига киритилган оилалар учун “Ижтимоий дафтарлар” жамғармалари орқали қўллаб-қувватлашнинг қуйидаги янги инструментлари жорий этилади:

— камида 3 нафар хотин-қизлар, ёшлар ва аҳолининг бошқа эҳтиёжманд тоифаларининг бандлиги ҳамда ижтимоий фаоллигини таъминлашга қаратилган ижтимоий лойиҳаларни молиялаштириш учун тегишинча “Аёллар дафтари”, “Ёшлар дафтари” ва “Саховат ва кўмак” жамғармалари ҳисобидан БҲМнинг 60 бараваригача грантлар ажратиш;

— “Ёшлар дафтари” жамғармаси ҳисобидан:

- ногиронлиги бўлган ёшларга параспорт тўгаракларига қатнашиши учун йўл ҳақи харажатларини ҳар ойда БҲМнинг 1 бараваригача миқдорда қоплаб бериш;

- 6 ой давомида мунтазам равишда спорт ва санъат тўгаракларига қатнашаётган ёшлар учун қиймати БҲМининг 10 бараваридан ошмайдиган махсус спорт форма, инвентарь, мусиқа ва чолғу асбобларини харид қилиш;

— ёнғин, сув тошқини, зилзила ва бошқа техноген ҳодисалар оқибатида зарар кўрган оилаларга уй-жойларини тиклаш ва таъмирлаш харажатларини қоплаш учун “Саховат ва кўмак” жамғармаси орқали БҲМнинг 150 бараваригача бўлган миқдорда ёрдам кўрсатиш.

Ҳукуматимиз мамлакат ривожланишидаги устувор мақсадларидан бири бўлган ижтимоий суғурта тўғрисидаги қонун лойиҳасини ишлаб чиқиш масаласига ҳам алоҳида эътибор қаратмоқда. Лойиҳа доирасида ишчи гуруҳ ижтимоий суғурта тизимини жорий этиш имкониятлари ва тўсиқларини таҳлил қилиш учун маълумотлар йиғиш мақсадида иш берувчиларнинг ижтимоий суғурта механизмлари ва тартиб-қоидаларига бўлган муносабати ҳамда уларнинг таъсири ҳақида маълумот олиш учун сўровнома ўтказди.

Таҳлилларга кўра, бугунги кунда жаҳон амалиётида аҳолини ижтимоий ҳимоя қилишнинг қуйидаги шакллари мавжуд[2]:

- мамлакатларда қонуний асосда белгиланган (ёки ўрнатилган) муайян ижтимоий кафолатларни қабул қилинаётган ижтимоий дастурлар ва стандартлар асосида таъминлаш;

- фуқароларнинг даромадлари ва харажатларини мажбурий тартибга солиш шаклини ўрнатиш;

- аҳолини ижтимоий суғурталаш;

- ижтимоий фаровонлик;

- ижтимоий хизматлар кўрсатиш;

- ижтимоий дастурларни ишлаб чиқиш.



2-расм. Аҳолини ижтимоий ҳимоя қилишни молиялаштириш шакллари[3]

Таҳлилларга кўра, аҳолини ижтимоий ҳимоя қилиш бўйича давлат дастурларини тактик ва стратегик чора-тадбирларга ажратиш мумкин бўлади. Тактик аҳолини ижтимоий ҳимоя қилиш дастурлари жорий ҳолатдаги мавжуд ёки турли кутилмаган форс-мажор ҳолатлар сабабли жамиятда вужудга келган ижтимоий танглик ҳолатини бартараф этишга қаратилган бўлиши лозим бўлади. Аҳолини ижтимоий ҳимоя қилишнинг жаҳон амалиёти таҳлилига кўра, тактик дастурлар одатда бюджетдан ташқари мақсадли фондлар, ижтимоий суғурта фондлари, ҳомийлар ва халқаро ижтимоий ташкилотлар маблағлари орқали молиялаштирилади.

Шунингдек, аҳолини ижтимоий ҳимоя қилишнинг стратегик дастурлари узоқ муддатли даврда мамлакатда аҳоли турмуш фаровонлигини ошириш, уларга етарли даражадаги яшаш шарт-шароитларини таъминлаш, ижтимоий хизматлар кўрсатишнинг сон ва сифат кўрсаткичларини такомиллаштириш билан боғлиқ дастурларни қамраб олади.

Аввалги йиллар каби ижтимоий харажатларнинг аксарият қисмини таълим харажатлари (45,6%) ташкил этмоқда. 2026 йилда таълимга 100,3 трлн сўм ажратилиши режалаштирилган бўлиб, 2025 йилда кутилаётган харажатларга нисбатан 8,1 трлн сўмга кўпроқни ташкил этади[4].

Аҳолини муҳтож қатламини қўллаб қувватлашга 2026 йилда қуйидаги йўналишларда давлат бюджетидан маблағ ажратиш режалаштирилган[4]:

- “Камбағал оилалар реестри”га киритилган оилалар фарзандларини қабул қилган оилавий нодавлат МТТга ушбу болалар таъминоти учун ота-оналар тўловининг 40 фоизи бюджетдан қоплаб берилади;
- Умумтаълим мактабларида “Камбағал оилалар реестри”га киритилган оилалар фарзандлари учун мактабдан ташқари таълим ва спорт тўгараклари ташкил этиш учун маблағлар ажратилиб борилади;
- Ҳудудларда аҳоли турмуш шарт-шароитини яхшилаш, тадбиркорликни ривожлантириш, камбағалликни қисқартириш мақсадида кейинги йилларда “Камбағалликдан фаровонлик сари” дастури доирасида Давлат бюджетидан маблағлар ажратиш ишлари давом эттирилади.

Аҳолини ижтимоий ҳимоя қилишнинг жаҳон амалиёти таҳлилига кўра, бугунги кунда аксарият мамлакатларда аҳолини ижтимоий ҳимоя қилишнинг фаол шаклига устуворлик қаратилади. Бу турдаги аҳолини ижтимоий ҳимоя қилиш орқали давлат ижтимоий суғурта хизматлари орқали суғурта бадалларини тўлаб борган ижтимоий рисклардан суғурталанган мамлакат фуқароларини бозор иқтисодиёти шароитида кутилаётган турли ижтимоий рисклардан самарали ҳимоя қила олади. Нофаол ижтимоий ҳимоя дастурлари эса жамиятнинг ижтимоий жиҳатдан муҳтож бўлган турли ижтимоий гуруҳлари, жумладан, камбағаллар, ногиронлар, боқувчисини йўқотган ва шу каби бошқа аъзолари учун амал қилади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Сенчаков В.К. Социальная защищенность в переходный период к рыночной экономике // Тезис доклада к Междунар. конф. 2-23 сентября 1993 г. ЮНЕСКО – Мировой Банк. Экономическая академия. Министерство экономики РФ. Россия. М., 1993. 31 с.
2. Нечуйкина Е.В. Социальная защита: понятие, категории, терминология // Известия РГПУ им А.И. Герцена. СПБ., 2008. № 49. С. 145
3. “Ijtimoiy siyosat”. O’quv qo’llanma i.f.d., prof. A.V. Vaxabovning umumiy tahriri ostida – Toshkent.: “Universitet”, 2019. 242 bet. маълумотлари асосида тузилган
4. “Фуқаролар учун бюджет: 2026 лойиҳа” ахборот нашри БМТ Тараққиёт Дастури (БМТТД) ва Ўзбекистон Республикаси Иқтисодиёт ва молия вазирлигининг “Ўзбекистонда барқарор ривожланишни молиялаш-тириш” қўшма лойиҳасини амалга ошириш дастури доирасида тайёрланди.

УДК: 336.63

ТЕОРЕТИЧЕСКО-МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ РАЗВИТИЯ «ЗЕЛЕНОЙ ЭКОНОМИКИ» НА ОСНОВЕ ФИНАНСИРОВАНИЯ ИНВЕСТИЦИОННЫХ ПРОЕКТОВ ПОСРЕДСТВОМ СЕКЬЮРИТИЗАЦИИ АКТИВОВ

AKTIVLARNI SEKYURITIZATSIYA QILISH ORQALI INVESTITSIYA LOYIHALARINI MOLIYALASHTIRISHGA ASOSLANGAN “YASHIL IQTISODIYOT”NI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY VA USLUBIY ASOSLARI

THEORETICAL AND METHODOLOGICAL FOUNDATIONS FOR THE DEVELOPMENT OF A “GREEN ECONOMY” BASED ON FINANCING INVESTMENT PROJECTS THROUGH ASSET SECURITIZATION

Акимниязов Тимур Базарбаевич
Национальный Университет Узбекистана им.М.Улугбека,
Ст.преподаватель кафедры “Финансы и кредит” Экономического факультета

Аннотация

В статье рассматриваются теоретическо-методологические основы и механизм финансирования инвестиционных проектов посредством секьюритизации финансовых активов, роли инвестиций в «зеленую экономику» Узбекистана и ее устойчивому развитию на основе Стратегии – 2030, а также уделяется внимание ключевым вызовам, препятствующие привлечению и эффективному использованию «зеленых инвестиций», включая ограниченные институциональные рамки, зависимость от традиционных источников.

Ключевые слова: «зеленая экономика», секьюритизация финансовых активов, инвестиционный проект, «зеленые инвестиции», механизм финансирования.

Maqolada moliyaviy aktivlarni sekyuritizatsiya qilish orqali investitsiya loyihalarini moliyalashtirishning nazariy va uslubiy asoslari va mexanizmi, O‘zbekistonning “Yashil iqtisodiyoti”ga investitsiyalarning o‘rni va uni 2030-yilga mo‘ljallangan Strategiyaga asoslangan holda barqaror rivojlantirish ko‘rib chiqiladi, shuningdek, “yashil investitsiyalar”ni jalb qilish va samarali foydalanishga to‘sqinlik qilayotgan asosiy muammolarga e’tibor qaratiladi.

Kalit so‘zlar: “yashil iqtisodiyot”, moliyaviy aktivlarni sekyuritizatsiya qilish, investitsiya loyihasi, “yashil investitsiyalar”, moliyalashtirish mexanizmi.

The article examines the theoretical and methodological foundations and mechanism for financing investment projects through the securitization of financial assets, the role of investments in the "green economy" of Uzbekistan and its sustainable development based on the Strategy - 2030, and also pays attention to the key challenges that hinder the attraction and effective use of "green investments", including limited institutional frameworks, dependence on traditional energy sources.

Keywords: "green economy", securitization of financial assets, investment project, "green investments", financing mechanism.

Современные глобальные вызовы, такие как климатические изменения и истощение природных ресурсов, подчеркивают необходимость перехода к “зеленой экономике”, особенно в развивающихся странах. “Зеленые инвестиции”, направленные на развитие возобновляемых источников энергии (ВИЭ), повышение энергоэффективности и снижение выбросов парниковых газов, становятся ключевым инструментом достижения устойчивого развития. В этом контексте, Республика Узбекистан, на основе Стратегии «Узбекистан - 2030», ставит целью увеличение доли ВИЭ до 40% в энергобалансе и сокращение углеродного следа к 2030 году. Однако реализация этих планов сталкивается с рядом препятствий, включая

ограниченные финансовые ресурсы, институциональные барьеры и региональные экологические проблемы, характерные для стран Центральной Азии.

Мировая практика показывает, что успех зеленых инициатив зависит от интеграции национальных стратегий с глобальными климатическими обязательствами, такими как Парижское соглашение. В то же время, исследования подчеркивают, что развивающиеся экономики часто сталкиваются с нехваткой капитала и технологий для эффективного перехода к зеленому росту.

Целью данной статьи является анализ роли “зеленых инвестиций” как фактора устойчивого развития Узбекистана в рамках Стратегии - 2030 с учетом глобальных, национальных и региональных вызовов, а также особенностей развития экономики.

Предпосылки развития «зеленой экономики» и типов её финансирования

В последние годы экономическая и финансовая стабильность подвергается многочисленным вызовам, требующим непрерывного мониторинга, переосмысления и преодоления. Среди них выделяются, во-первых, нарушения в окружающей среде под воздействием хозяйственной деятельности человека, что требует соответствующих затратных мероприятий по восстановлению природного баланса; во-вторых, новые возможности, связанные с переводом хозяйства на экологически чистые технологии, и необходимые для этого инвестиции.

Такой двойной подход ведёт, с одной стороны, к возрастанию затрат общества на поддержание окружающей среды в приемлемом для продолжения жизни состоянии, а с другой – к форсированию экономического роста под воздействием новых инвестиционных перспектив, открывающихся в связи с вложениями в чистые технологии.

Ещё одним важным аспектом изучения «зелёной» экономики является вопрос финансовых активов, относящихся к решению экологических проблем.

Финансовые активы находятся в постоянном движении и не только существуют в виде особых бюджетов и транзакций, но и включены в другие виды ликвидных фондов, а также сопровождают разнообразную хозяйственную активность. Их временные потоки географически распределены и протекают в определённой последовательности. Финансовые активы, в основном, аккумулированы в хорошо изученных и освоенных бюджетах (государственных, корпоративных, семейных), а также финансовые активы рассредоточены и сопровождают основную часть человеческой активности.

Таблица - 1

Финансирования зеленой экономики в Узбекистане

№	Год	Источник финансирования	Сумма	Назначение
1	2023	Германия (GIZ)	€9 млн	Поддержка частного сектора в «зелёной» индустриализации.
2	2023	Всемирный банк	$7,5 млн	Выплата за сокращение выбросов CO_2 на 500 тыс. тонн.
3	2024	Германия (GIZ)	€3 млн	Дополнительный грант на развитие «зелёной» индустриализации.
4	2024	АБИИ	$250 млн	Поддержка устойчивого роста и сокращение выбросов парниковых газов.
5	2024	МФК	$240 млн	Развитие «зелёной» энергетики.
6	2024	GGGI и партнёры	$1 млрд	Привлечение зелёного финансирования, включая выпуск зелёных облигаций

Примечания: GGGI -Глобальный институт зелёного роста.
АБИИ -Азиатский банк инфраструктурных инвестиций.
МФК -Международная финансовая корпорация

Финансирование «зелёного» роста, или «зелёное» финансирование, заключается в использовании целого комплекса финансовых источников. Они могут быть как

традиционными, так и новыми. Основным условием их функционирования является консолидация средств в виде территориального фонда (странового, регионального, муниципального и т.д.), направляемого для реализации проектов «зелёного» роста.

Таким образом, «зеленые» финансы имеют свою специфику, которая сводится к обслуживанию особых сфер производств, инвестиций и специфических потребностей государства, хозяйства и населения.

Здесь, по моему мнению, целесообразно уделить внимание такому типу финансирования как секьюритизация.

Теоретико-методологические основы секьюритизации

Под секьюритизацией в широком смысле понимается замещение традиционных типов кредитования операциями на мировом рынке ценных бумаг.

В частности, Х.Бэр в своей монографии «Секьюритизация активов» выделяет три фазы изменений в отношениях «кредитор-заемщик»:

- Первая фаза - банки делают функции по получению процентной маржи;
- Вторая фаза характеризуется вступлением инвесторов и заемщиков в прямые отношения друг с другом, а роль банков сводится к сопровождению сделок (инвестиционные банки зарабатывать комиссию);
- Для третьей фазы характерно окончательное исключение банков из процесса движения капитала, при этом даже инвестиционные банки, еще присутствовавшие во второй фазе, могут потерять спрос на свои услуги [1].

На наш взгляд, говорить о полном исключении банков из процесса перераспределения финансовых ресурсов – преждевременно. Для большого количества инвесторов банковский вклад все еще остается инструментом с пониженным риском. Кроме того, большое количество частных инвесторов (домохозяйств) не обладают достаточным уровнем знаний для осуществления эффективных инвестиций и времени на должное исследование рынка, поэтому банк остается для них идеальным механизмом сбережений, а главное, более привычным и прозрачным, чем сложные инструменты современного рынка ценных бумаг и, в частности, ОЦБ.

Говоря о секьюритизации в узком смысле, имеют в виду конкретный тип сделок, существующий в рамках вышеописанной тенденции, а именно, процесс привлечения новой ликвидности посредством выпуска ценных бумаг, обеспеченных некоторым пулом финансовых активов. Под секьюритизацией далее мы будем понимать только секьюритизацию в узком смысле.

Единого мнения по поводу определения секьюритизации в научном сообществе нет, что, в свою очередь, влечет достаточно негативные последствия для развития института секьюритизации в целом. Ведь четкое определение секьюритизации позволит ограничить попытки связать данный класс сделок исключительно с мошенническими целями: так, например К. Кеттеринг утверждает, что сделки секьюритизации, структурированные в «классической манере», не имеют какой-либо другой цели и эффекта, кроме как обход нормативов, касающихся банкротства [2].

В настоящее время в научной и бизнес-литературе встречается множество определений понятия секьюритизации, что лишний раз подчеркивает всю сложность описываемого явления.

Достаточно распространены определения, фокусирующиеся наформальных признаках сделок секьюритизации. Одними из распространенныхопределений такого типа являются:

Секьюритизация – создание и выпуск торгуемых ценных бумаг, которые обеспечены доходами, генерируемыми активами, долгами, доходами от гражданских объектов и пр.

Еще одним типом являются определения, предлагаемые профессиональными участниками рынка ценных бумаг и, в частности, инвестиционными банками. Так, инвестиционный банк Морган Стенли (Morgan Stanley) на своем официальном сайте приводит следующее определение секьюритизации:*рынка капиталов.*

Исходя из вышеизложенного, можно констатировать, что во многих странах формируются различные фонды развития территорий с использованием бюджетных ассигнований, но при этом финансирование на основе секьюритизации активов могло бы значительно сократить бюджетные и внебюджетные средства.

Другими факторами, стимулирующими развитие «зелёного» финансирования, являются:

- формирование новой позиций ориентированной на новые концепции социально-экономической политики, включая «зелёные» технологии, «зелёный» маркетинг;

- развитие новых форм межтерриториального взаимодействия с учётом особенностей производственного потенциала и биосырьевых ресурсов;

- разработка и реализация приоритетных проектов, имеющих экологическое значение (например, модернизация транспортной системы; создание системы комплексной переработки твёрдых бытовых и промышленных отходов; разработка и реализация новой градостроительной политики и др.);

- совершенствование нормативно-правовой базы, регулирующей качество и безопасность товаров и услуг, применение ресурсосберегающих технологий, реализацию природоохранных мероприятий и т.д.

Вместе с тем, предлагаются следующие мероприятия:

1) Укрепление институциональной базы на основе разработки налоговых льгот и субсидии для зеленых проектов, а также ускорить гармонизацию законодательства с международными стандартами (например, Парижское соглашение), чтобы повысить привлекательность для иностранных инвесторов.

2) Стимулирование частных инвестиций путём создания “зеленых” облигаций и инвестиционных фондов, как это успешно реализовано, например, в Китае, который может мобилизовать частный капитал и снизить зависимость от средств государственного бюджета.

Список использованной литературы:

1. Источник Х.П. Бэр «Секьюритизация активов», М: Волтерс Клувер, 2006 г.
2. Kettering, Kenneth C., Securitization and Its Discontents: The Dynamics of Financial Product Development. Cardozo Law Review, Vol. 29, p. 1553, 2008; NYLS Legal Studies Research Paper No. 07/08-7
3. Деньги. Кредит. Банки: учеб. 2-е изд., перераб. и доп. / под ред. В. В. Иванова, Б. И. Соколова. М.: Проспект. 2008. 848 с.
4. *Иванов В. В., Канаев А. В., Соколов Б. И., Топровер И. В.* Теории кредита. СПб.: Изд. СПб. ун-та. 2007. 410 с.
5. *Казаков А.* История секьюритизации // Рынок ценных бумаг. 2003. № 19. С. 62–65.
6. *Миллер Р. Л., Ван-Хуз Д. Д.* Современные деньги и банковское дело: учебник. 3-е изд. / пер. с англ. М.: ИНФРА-М. 2000. 856 с.
7. *Мишкин Ф. С.* Экономическая теория денег, банковского дела и финансовых рынков: учеб. пособие для вузов / пер. с англ. / под ред. М. Е. Дорошенко. М.: Аспект Пресс. 1999.820 с.
8. *Разумова И. А.* Ипотечное кредитование: учеб. пособие. 2-е изд. СПб.: Питер, 2009. 304 с.
9. *Фалькнер С. А.* Бумажные деньги Французской революции (1789–1797). М.: Редакционно-издательский отдел ВСНХ. 1919. 328 с.
10. *Цешковский А.* Кредит и оборотные его средства / пер. с франц. / под ред. К. В. Трубникова. СПб.: Тип. брат. Пантелеевых. 1893. 273 с.
11. *Akerlof G. A.* The Market for «Lemons»: Quality Uncertainty and the Market Mechanism // The Quarterly Journal of Economics. 1970. Vol. 84. № 3.

UDK: 338.1

INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISH ORQALI INNOVATSION IQTISODIYOTNI BARPO ETISHDA XORIJ TAJRIBALAR

ИНОСТРАННЫЙ ОПЫТ В СОЗДАНИИ ИННОВАЦИОННОЙ ЭКОНОМИКИ ПОСРЕДСТВОМ РАЗВИТИЯ ЧЕЛОВЕЧЕСКОГО КАПИТАЛА

FOREIGN EXPERIENCES IN BUILDING AN INNOVATIVE ECONOMY THROUGH HUMAN CAPITAL DEVELOPMENT

Eshmirzayev Faruddin Ilxomjonovich
O‘zbekiston Milliy Universiteti tayanch doktoanti

Annotatsiya

Mazkur maqolada innovatsion rivojlanishni ta’minlashda asosiy omil bo‘lgan inson kapitalini rivojlantirish borasidagi xorijiy tajriba tahlil qilinadi. Xalqaro amaliyot, davlat siyosatlari va qiyosiy tahlil asosida rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda qo‘llanilgan samarali yondashuvlar – ta’lim sifatini oshirish, ishchi kuchi malakasini yuksaltirish, raqamli savodxonlikni rivojlantirish hamda ilmiy-tadqiqot salohiyatini kuchaytirish masalalari o‘rganiladi. Shuningdek, ushbu tajribani O‘zbekiston sharoitiga moslashtirish imkoniyatlari va institutsional islohotlar yo‘nalishlari ko‘rib chiqiladi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, xorijiy ilg‘or tajribalarni milliy amaliyotga tatbiq etish inson kapitalini mustahkamlash va barqaror innovatsion rivojlanishni jadallashtirish uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so‘zlar: Inson kapitali, innovatsion rivojlanish, xorijiy tajriba, bilimlar iqtisodiyoti, ta’lim sifati, raqamli savodxonlik, ilmiy salohiyat, mehnat bozori, raqobatbardoshlik, iqtisodiy modernizatsiya, O‘zbekiston.

В данной статье рассматривается зарубежный опыт развития человеческого капитала как ключевого фактора обеспечения инновационного роста. На основе международных кейс-стади, политических стратегий и сравнительного анализа выявлены эффективные подходы, применяемые в развитых и развивающихся странах для повышения качества образования, профессиональных навыков рабочей силы, цифровой грамотности и исследовательского потенциала. Особое внимание уделяется возможностям адаптации данного опыта к условиям Узбекистана, включая институциональные реформы и совершенствование национальной политики. Результаты исследования показывают, что использование лучших мировых практик является необходимым условием для укрепления человеческого капитала и ускорения устойчивого инновационного развития.

Ключевые слова: Человеческий капитал, инновационное развитие, зарубежный опыт, экономика знаний, качество образования, цифровая грамотность, исследовательский потенциал, рынок труда, конкурентоспособность, экономическая модернизация, Узбекистан.

This article examines the foreign experience of human capital development as a key factor in ensuring innovative growth. Drawing upon international case studies, policy frameworks, and comparative analysis, the study highlights effective strategies implemented in developed and emerging economies to enhance education quality, workforce skills, digital literacy, and research capacity. Special attention is paid to the adaptation of these practices to the context of Uzbekistan, identifying opportunities for policy transfer and institutional reforms. The findings suggest that integrating best practices from global experience is essential for strengthening human capital and accelerating sustainable innovative development.

Key words: Human capital, innovative development, international experience, knowledge economy, education quality, digital literacy, research capacity, labor market, competitiveness, economic modernization, Uzbekistan.

Zamonaviy globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida innovatsion rivojlanish har bir davlatning barqaror taraqqiyotini ta’minlovchi eng muhim omillardan biriga aylanmoqda. Ushbu jarayonda inson kapitali – ya’ni bilim, ko‘nikma, malaka va intellektual salohiyat majmui – iqtisodiy o‘sishning asosiy drayveri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Jahon tajribasi shuni ko‘rsatadiki, ilg‘or mamlakatlar innovatsion iqtisodiyot barpo etishda, avvalo, inson kapitalini rivojlantirishga ustuvor ahamiyat qaratadi. Xususan, ta’lim sifati va mazmunini modernizatsiya qilish, mehnat bozoriga mos kadrlar tayyorlash, raqamli kompetensiyalarni rivojlantirish hamda ilmiy-tadqiqot salohiyatini kuchaytirish orqali ulkan yutuqlarga erishilmoqda.

Shu nuqtayi nazardan, xorijiy mamlakatlar tajribasini o‘rganish va ularni O‘zbekiston sharoitiga moslashtirish inson kapitalini samarali rivojlantirishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi — xorijiy tajribalar asosida innovatsion rivojlanishda inson kapitalining o‘rnini tahlil qilish va milliy taraqqiyot uchun tegishli xulosalar ishlab chiqishdan iboratdir.

O‘zbekistonda innovatsion rivojlanish jarayonida inson kapitalining roli ilmiy va amaliy jihatdan dolzarb mavzu hisoblanadi. Shu sababli, Ubaydullaeva va Abduraxmonov[1] kabi ilmiy xodimlar turli jihatlarni o‘rganishga alohida e’tibor qaratgan. O‘zbekiston iqtisodiy fanida "inson kapitali" tushunchasiga oid ilmiy izlanishlar bilan shug‘ullangan mahalliy olimlar Ubaydullaeva R.A., Abdurahmonov Q.X., Abduraxmonova G.Q. O‘lmasov A., Vahobov A, Bozorova S.A tomonidan olib borilgan tadqiqotlar asosida ushbu kategoriya bo‘yicha turli yondashuvlar shakllanganini kuzatish mumkin. So‘nggi yillarda Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi "O‘zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari" ilmiy markazi xodimi Sh.G. Akramova tomonidan inson kapitalining milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishiga ta’siri masalalari batafsil tahlil qilindi [2].

Inson kapitali konsepsiyasining dastlabki ildizlari va uning rivojlanishi XVII–XIX asrlarda, jahon iqtisodiyoti fanining mashhur klassiklari tomonidan shakllantirilgan. Bu davrda V. Petti[3], A. Smit[4], D. Rikardo[5], J. Mak-Kuloh, Y. Tyunen, I. Fisher[6], U. Farr, T. Uitshtayn, kabi yirik olimlar tomonidan taqdim etilgan nazariyalar va fikrlar inson kapitali tushunchasining rivojlanishida katta rol o'ynagan. Inson kapitali tushunchasi milliy boylik va kapitalni kengroq talqin qilish bilan bog'liq bo'lib, bu qarashlar XX asr boshlarida amerikalik iqtisodchi I. Fisher tomonidan ilgari surilgan edi[6].

Inson kapitali nazariyasining mustaqil ilmiy yo‘nalish sifatida shakllanishi XX asrning 50-60 yillarida Chikago maktabi olimlari tomonidan boshlangan bo‘lsa-da, uning nazariy asoslari Shults[7], Becker[8], Blaug[9], kabi olimlarning tadqiqotlarida kengayib, rivojlandi. Bundan tashqari, Agiyon[10] endogen iqtisodiy o‘sish nazariyasini taqdim etishi, inson kapitali va innovatsiyalar o‘rtasidagi bog‘liqlikni yoritishda muhim ahamiyatga ega.

Zamonaviy davrda AQSh, Buyuk Britaniya, Kanada, Fransiya, Germaniya, Yaponiya Singapur va Janubiy Koreya kabi rivojlangan davlatlarda taraqqiyotning asosiy omillaridan biri inson kapitalini rivojlantirishga yo‘naltirilgan strategik investitsiyalardir. Bu jarayon inson salohiyatini yuksaltirish, oliy ta’lim sifatini oshirish hamda malakali va raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash bo‘yicha kompleks tashabbuslarni o‘z ichiga oladi[11].

Jahon miqyosidagi rivojlanish jarayonlari va tendensiyalarining transformatsiyasi milliy iqtisodiyot doirasida oliy ta’lim tizimlari oldida yangi murakkabliklarni keltirib chiqarmoqda. Buning asosiy sababi shundaki, oliy ta’lim tizimi uy xo‘jaliklari va mehnat bozori o‘rtasida muhim bog‘lovchi bo‘lib xizmat qiladi.

Jahon banki ekspertlariga ko‘ra, 2018–2024-yillar orasida malakali ishchi kuchining 22% ga o‘sishi asosan rivojlanayotgan davlatlar hissasiga to‘g‘ri kelgan[13]. Endilikda ta’lim mazmuni va texnologiyalarining jadal raqamlashtirilishi butun dunyoda yuqori malakali kadrlar sonining keskin o‘sishiga olib kelishi mumkin.

1-jadval

Jahon mamlakatlari bo‘yicha aholi tarkibida oliy ma’lumotlilar ulushi tahlili va prognozi, (2050-yilgacha, mln kishi) [12]

Davlatlar nomi/yillar	1970	1990	2010	2024	2050
Rossiya	8,44	18,19	27,59	30,6	34,79
Xitoy	5,19	20,27	65,61	89,79	154,42
Kanada	1,65	5,58	10	13,11	16,4
Fransiya	2,25	5,67	12,13	17,69	26,49
Hindiston	5,31	20,45	62,48	98,43	230,84
AQSH	15,83	36,76	60,65	74,54	123,88
Germaniya	2	10,42	14,48	17,35	20,11

1-jadval ma’lumotlariga ko’ra, 1970-yilda dunyo bo‘yicha oliy ma’lumotga ega aholining soni atigi 40,67 million kishini tashkil etgan bo‘lsa, 2024-yilga kelib bu ko‘rsatkich 341,51 million nafarga yetib, deyarli 10 barobarga o‘sdi. Jahon banki prognozlariga ko‘ra, bu raqam 2050-yilga borib 606,9 millionga yetadi va 2024-yilga nisbatan ikki barobar oshadi. Asosiy oliy ma’lumotli kadrlar esa asosan Hindiston, Xitoy va AQShda tayyorlanmoqda.

2-jadval

Jahonning rivojlangan va MDH mamlakatlarining global innovatsion indeksi, (2022-yil)[14]

Mamlakatlar	Reytingi	Johondagi o‘rni
Shveytsariya	*67.6*	*1*
AQSH	*63.5*	*2*
Buyuk britaniya	*62.4*	*4*
Germaniya	*58.8*	*8*
Fransiya	*56.0*	*11*
Rossiya	*33.3*	*51*
Belorussiya	*26.8*	*80*
Qozog‘iston	*26.7*	*81*
O‘zbekiston	*26.2*	*82*
Qirg‘iziston	*20.2*	*106*
Tojikiston	*18.3*	*111*

O‘zbekiston Respublikasida 2022–2026-yillar uchun belgilangan innovatsion rivojlanish strategiyasi iqtisodiyotning barcha tarmoqlariga zamonaviy texnologiyalar va innovatsiyalarni keng joriy etish, inson kapitalini yangi bosqichga olib chiqish hamda ilm-fan va innovatsion salohiyatni kuchaytirishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ygan. Ushbu strategiyaning asosiy yo‘nalishi – 2026-yilga borib O‘zbekistonni Global innovatsion indeksda dunyoning eng ilg‘or 50 mamlakati qatoriga olib chiqishdir.

So‘nggi reytinglarga ko‘ra, Shveytsariya innovatsion taraqqiyotda yetakchilik qilib, 1-o‘rinni egallagan bo‘lsa, undan keyingi o‘rinlarda Janubiy Koreya (6), Xitoy (11), Rossiya (47), Belarus (77), Armaniston (80), Qozog‘iston (83), Ozarbayjon (93), Qirg‘iziston (94) va Tojikiston (104) joy olgan.

Bu ko‘rsatkichlar mamlakatlar miqyosida inson kapitalining rivojlanish sur’atlari va innovatsion salohiyati darajasini aks ettiradi.Shu tarzda, O‘zbekiston o‘z oldiga nafaqat texnologiyalarni joriy etish, balki bilimli, innovatsion fikrlovchi avlodni shakllantirish orqali raqobatbardosh bilimlar iqtisodiyotini yaratish kabi strategik maqsadlarni qo‘ygan.

Dunyo mamlakatlari tajribasida inson kapitalini innovatsion rivojlanish yo‘nalishiga yo‘naltirishga qaratilgan samarali mexanizmlar tizimi shakllanib ulgurgan. Har bir mexanizm mamlakatning iqtisodiy salohiyati, ijtimoiy tuzilmasi va texnologik taraqqiyotiga qarab farqlansa-da, ularning barchasini yagona maqsad birlashtiradi — ya’ni, inson salohiyatidan maksimal darajada samarali foydalanish orqali zamonaviy, innovatsiyaga asoslangan iqtisodiyotni barpo etish.

O‘zbekistonda inson kapitalini rivojlantirish orqali innovatsion iqtisodiyot sari muhim qadamlar tashlanmoqda. Biroq bu jarayonni yanada jadallashtirish uchun xalqaro tajriba asosida barqaror strategiyalar ishlab chiqilishi va ilm-fan, texnologiya, ta’lim, sog‘liqni saqlash, startaplar va innovatsion infratuzilma kabi yo‘nalishlarga tizimli yondashuvni kuchaytirish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Abduvoxidov, A., & Kamilova, S. (2023). INSON KAPITALINING RAQAMLI RIVOJLANISHINI BAHOLASH. Iqtisodiy Taraqqiyot Va Tahlil, 1(2), 5–14. Retrieved from https://e-itt.uz/index.php/eitt/article/view/39
2. Акрамова Ш.Г. (2019) Ўзбекистонда инновацион иқтисодиёт шаклланиши шароитида инсон капиталини ривожлантириш. Иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. – Тошкент.
3. Петти В. Экономические и статистические работы. М., 1940.
4. Смит А. Исследование о природе и причинах богатства народов. М.: Соцэкгиз, 1956.
5. Петти в., Смит А., Рикардо Д. Антология экономической классики. Издательство: Эконов, Ключ, 1993.
6. Fisher 1. The Nature o f Capital and Income. New York, London, 1927.
7. Schultz Theadore (1961) W.investment In Human Capital // The American Economic Review, Vol.51(1), pp.1-17.
8. Becker, Gary. (1962) Investment In Human Capital. A. Theoretical Analysis // Journal of Political Economy, Vol. 70 (5, Part 2, Supplyment). Pp.9-49
9. Blaug M. (1976) The empirical status of human capital theory: A slightly jaundiced survey/ Journel of ecomic literature, September 1, 14(3): pp.827-55
10. Aghion P., Meghir C. (2004). Growth, distance to frontier and consumption of human capital. The Institure for Fiscal Studies, WP04/31, 1—50.
11. Xudoyberdieva G. (2023) Ta'lim tizimida inson resurslarini boshqarishning o'ziga xos jihatlari // SAI. №Special Issue 13. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/talim-tizimida-insonresurslarini-bosh-arishning-ziga-hos-zhi-atlari.
12. Muallif tomonidan https://ourworldindata.org/ sayt ma’lumotlar asosida tuzilgan.
13. Building Knowledge Economies https://documents.worldbank.org/en/publication/documents-reports/documentdetail/918571468183891451/building-knowledge-economies-advanced-strategies-for-development
14. Muallif tomonidan https://gtmarket.ru/ratings/global-innovation-index sayt ma’lumotlar asosida tuzilgan.

UDK: 336.76

MOLIYAVIY BOZORLARUNING MOLIYAVIY RESURSLARDAN SAMARALI FOYDALANISHNI TA’MINLASHDAGI AHAMIYATI

ФИНАНСОВЫЕ РЫНКИ И ИХ ЗНАЧЕНИЕ ДЛЯ ОБЕСПЕЧЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОГО ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ФИНАНСОВЫХ РЕСУРСОВ

FINANCIAL MARKETS AND THEIR IMPORTANCE IN ENSURING THE EFFICIENT USE OF FINANCIAL RESOURCES

Rejapov Xayrillo Xikmatillayevich
O‘zbekiston Milliy universiteti,
Moliya kredit kafedrasi mudiri, i.f.d., prof.

Annotatsiya

Ushbu maqolada Moliyaviy bozor va uning moliyaviy resurslardan samarali foydalanishni ta’minlashdagi ahamiyati ko‘rib chiqilgan. Moliyaviy bozor, moliyaviy resurslarni samarali foydalanish va iqtisodiy faoliyatini rivojlantirishda katta ahamiyatga ega hisoblanadi. Moliyaviy bozorlar orqali kapital, ishchi kuch, innovatsiyalarni jalb qilishi mumkinligi ko‘rib chiqilgan. Xulosa va takliflar ishlab chiqildi.

Kalit so‘zlar. Moliya bozori, resurslar, pul mablag‘lari, qimmatli qog‘ozlar bozori.

В данной статье рассматривается финансовый рынок и его значение в обеспечении эффективного использования финансовых ресурсов. Финансовый рынок имеет большое значение в эффективном использовании финансовых ресурсов и развитии экономической деятельности. Сформулированы выводы и предложения.

Ключевые слова. Финансовый рынок, ресурсы, фонды, рынок ценных бумаг.

This article examines the Financial Market and its importance in ensuring the effective use of financial resources. The financial market is of great importance in the effective use of financial resources and the development of economic activity. The possibility of attracting capital, labor force, innovations through financial markets was considered. Conclusions and proposals were developed.

Key words. Financial market, resources, funds, securities market.

So‘nggi yillarda O‘zbekiston moliya bozorida qator muhim o‘zgarishlar ro‘y berdi. Xususan, 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasiga muvofiq, fond bozori aylanmasini joriy etish orqali iqtisodiyotda moliyaviy resurslarni 200 million AQSh dollaridan 7 milliard dollargacha oshirish, davlat ulushi bo‘lgan tijorat banklarida transformatsiya jarayonini yakunlash, 2026 yil oxiriga qadar bank

tizimi aktivlarida xususiy sektor ulushini 60 foizga yetkazish ko‘zda tutilmoqda. Bunda tijorat banklarida transformatsiyani jadallashtirish, subsidiyali kreditlashdan voz kechish, banklarning moliyaviy vositachi sifatidagi rolini oshirish orqali davlat ulushiga ega tijorat banklarini faol ravishda zamonaviy institutlarga aylantirish ko‘zda tutilgan.

Moliyaviy bozor, moliyaviy resurslarni o‘z ichiga olgan va ularni samarali foydalanishni ta’minlaydigan tizimdir. Bu bozor, moliyaviy institutlar, banklar, korporatsiyalar, investorlar va mijozlar orasidagi moliyaviy operatsiyalarni o‘z ichiga oladi. Moliyaviy bozorlar, moliyaviy resurslarni to‘plash, saqlash, o‘zaro almashish va investitsiyalarni boshqarish imkoniyatlarini taqdim etadi. Ushbu bozorlar, moliyaviy iste’molchilarning moliyaviy maqsadlari va talablari bilan bog‘liq ravishda faoliyat yuritishga imkon beradi. Moliyaviy bozorlar, moliyaviy resurslarni samarali foydalanishni ta’minlashda ahamiyatli rol o‘ynayadi. Ular, moliyaviy iste’molchilarga moliyaviy resurslarni o‘zaro almashish, investitsiyalarni boshqarish va moliyaviy maqsadlarni erkinlashtirish imkoniyatlarini beradi. Bu esa, iqtisodiy rivojlanish va moliyaviy iste’molchilarning talablarini qondirishga yordam beradi.

B.Sattarov, “Moliya bozori - bu monetizatsiyalashgan real investitsion bazisga ekvivalent moliyaviy instrumentlar bilan bog‘liq tashkillashgan iqtisodiy - xuquqiy mexanizm bilan ta’minlangan munosabatlarni maqsadli amalga oshiruvchi, iqtisodiyot sub’ektlari uchun zaruriy bozor sharoitlarini yaratib beruvchi majmua sifatida namoyon bo‘luvchi tizim”[1] deb ta’kidlagan.

A.V. Vahobov, T.S. Malikov o‘zining “Moliya” kitobida “Moliya bozori - moliyaviy vositalardan foydalangan holda moliyaviy bitimlarni amalga oshirish sohasi”[2] dir deb ta’riflagan. Frederik Mishkinnig fikricha “Moliya bozori - ortiqcha mablag‘larga ega odamlardagi pul mablag‘larini pul mablag‘lari yetishmayotganlarga o‘tkazib berishga xizmat qiluvchi bozor”[3] deb ta’riflagan.

Moliya bozori bozor iqtisodiyoti sharoitida moliyaviy resurslarning sub’ektlari o‘rtasida taqsimlanishida katta ahamiyat kasb etadi. Moliyaviy resurslarni tarmoqlar o‘rtasida samarali taqsimlash, vaqtinchalik bo‘sh turgan moliyaviy resurslarni harakatga keltirish orqali iqtisodiy o‘sishni va investitsion faollikni ta’minlash bugungi kunda muhim ahamiyatga ega. Moliya bozori oldi sotdi ob’ekti pul yoki pulga tenglashtirilgan qog‘oz bilan bog‘liq bo‘lgan bozor. Bu bozorda moliya mablag‘larini vaqtincha haq to‘lab ishlatish yoki ularni sotib olish yuzasidan munosabatlar olib boriladi, shuningdek, pul mablag‘larini jamg‘arganlardan qarzga oluvchilarga o‘tishi ta’minlanadi. Ortiqcha mablag‘larga ega bo‘lgan xo‘jalik sub’ektlari o‘z moliyaviy resurslarini mablag‘larga muhtoj sub’ektlarga taklif qiladi. Moliya bozori banklarda, fond birjasida va auksionlarda o‘tkaziladi. Moliyaviy bitimlar xarakteriga qarab, moliyaviy bozorni turkumlashning bir necha usullari mavjud. Qaytarish tamoyili bo‘yicha moliya bozori 2 ga ajraladi: qarz majburiyatlari, iste’molni ko‘ndiradigan pul va kapital, mulk bozori. Qarz majburiyatlari bozorida pul vaqtincha qarz sifatida bozorga chiqadi va olingan pul shaxsiy iste’mol uchun ishlatiladi. Kapital bozorida qo‘yilgan puldan daromad olish huquqi sotiladi va sotib olinadi. Bu bozorda mablag‘lar kapital sifatida ishga solinib, foyda keltiradi. Shuni hisobga olgan holda kapital bozorini 2 bo‘g‘inga ajratish mumkin: ssuda kapitali bozori va qimmatli qog‘ozlar bozori. Ssuda kapitali bozori pul shaklidagi kapitalning foiz to‘lash sharti bilan qarzga berilishidir. Bu bozorda qisqa muddatli majburiyatlar muomalada bo‘ladi. Bular,

asosan, davlat va banklarning majburiyatlari hisoblanadi. Qimmatli qog‘ozlarning birlamchi va ikkilamchi bozorlarida aksiya, obligatsiya, veksel va boshqa oldi-sotdi qilinadi. Xo‘jalik hayotining baynalmilallashuvi natijasida jahon moliya bozori paydo bo‘ldi. Moliya resurslari iqtisodiy sub’ekt ixtiyorida, uning tasarrufida bo‘lgan jami pul mablag‘lari, moliyaviy aktivlari majmui.

Moliya resurslari moliya va moliya tizimining moddiy asosi, moliya siyosatini utkazishning asosiy vositasi. Moliya resurslari yalpi ichki mahsulot va milliy daromadni taqsimlash va qayta taqsimlash jarayonida yaratiladi. Moliya resurslari manbai, birinchi navbatda mamlakat iktisodiyotining faoliyati, asosan, mahsulotlar va xizmatlarni ishlab chiqarish va sotish bilan bog‘lik, bo‘lgan pul daromadlaridir. Moliya resurslari, odatda davlat byudjetlarida, shuningdek, byudjetdan tashqari fondlarda, davlat mulkidan keladigan daromadlarda, qarzlarda to‘planadi. Hozirgi davlatlar Moliya resurslarini yaratishning asosiy usuli tarzida soliklardan tashkil topadigan soliqtizimini qo‘llaydi. Davlat Moliya resurslari davlat tashkil etadigan va o‘z vazifalarini bajarish uchun tasarruf qiladigan pul mablag‘laridir. Firma yoki korxona Moliya resurslari yalpi pul tushumi, bankdan olgan krediti, uz mulkini sotishdan kelgan tushum, o‘z aksiyalarini sotishdan kelgan mablag‘ hisobidan shakllantiriladi. Xonadon moliya resurslari ish haqi, pensiya, ijara haqi, bank bergan foiz va tadbirkorlik keltirgan foydadan tashkil topadi. Xonadondagi moliya resurslari asosan, iste’mol va jamg‘arish uchun ajratiladi. Moliya bozorini, umuman olganda, quyidagicha ta’riflash mumkin Moliya bozori bu monetizatsiyalashgan real investitsion bazisga ekvivalent moliyaviy instrumentlar bilan bog‘liq tashkillashgan iqtisodiy huquqiy mexanizm bilan ta’minlangan munosabatlarni maqsadli amalga oshiruvchi, iqtisodiyot sub’ektlari uchun zaruriy bozor sharoitlarini yaratib beruvchi majmua sifatida namoyon bo‘luvchi tizim. Moliya bozori pul kapitalining harakatlanishi bilan bog‘liq iqtisodiy munosabatlar va institutlar majmuidir. Moliya bozori moliyaviy vositalardan foydalangan holda moliyaviy bitimlarni amalga oshirish sohasi. Moliya bozori ortiqcha mablag‘larga ega odamlardagi pul mablag‘larini pul mablag‘lari yetishmayotganlarga o‘tkazib berishga xizmat qiluvchi bozor.

Moliyaviy resurslarni jalb qilishda foydalanuvchi usullarni asoslashda nazariy va amaliy yondashuvlarni tahlil qilish mahalliy, milliy va jaxon kapital bozorlariga nisbatan quyidagi xulosalarni chiqarish imkonini berdi:

- Birinchi navbatda, moliyaviy resurslarni jalb qilish usullari moliyaviy menejmentning maqsadlariga mos ravishda farqlanadi;
- Ikkinchidan, moliyaviy resurslari jalb qilish usullari kapital bozorining segmentlari va turlari bo‘yicha o‘z xususiyatlariga ega;
- Uchinchidan, moliyaviy resurslari jalb qilish usullari moliyaviy vositalar asosida aniqlanadi;
- To‘rtinchidan, moliyaviy resurslari jalb qilish usullari quyidagi parametrlar moliyaviy resurslarni jalb qilish maqsadlari, hajmi va shartlari, kompaniyaning tashkiliy va iqtisodiy xususiyatlariga bog‘liq[4].

Moliyaviy resurslarni jalb qilish jarayonida foydalaniluvchi moliyaviy instrumentlarning o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda iqtisodiyotning korporativ sektorida kapital bozori segmentlarining o‘zaro munosabatlari shakllanadi.

O‘z navbatida, segmentlar o‘zaro ta’sirining xususiyatlari va darajasini tahlil qilish qimmatli qog‘ozlar bozori va kredit bozorining kuchli, o‘rta, zaif uch turdagi o‘zaro bog‘liqligini aniqlash va tavsiflash imkonini beradi. MDH mamlakatlari qimmatli qog‘ozlar bozori savdo aylanmalarining YalMga solishtirib ko‘radigan bo‘lsak O‘zbekistonda 1,2%, Qog‘og‘istonda 1,5%, Qirg‘izistonda 1,1%, Rossiyada 5,4% dan iborat ckanligining guvohi bo‘lishimiz mumkin. Qimmatli qog‘ozlar bozori savdo aylanmalarining ishtirokchilari sifatida MDH mamlakatlarida, xususan O‘zbekistonda ham asosan banklar hisoblanadi. Masalan mamlakatimiz fond birjasida 2019 yilda qimmatli qog‘ozlar bozori savdo aylanmalari jami 438,8 mlrd so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, shuning qariyib 319,5 mlrd so‘mi yoki 72,8 foizi tijorat banklari hissasiga to‘g‘ri kelgan. 2022 yilda igtisodiyotning 10 ta turli xil soha aksiyadorlik jamiyatlarining qimmatli qog ozlari bilan birja savdolari amalga oshirildi. Eng ko‘p bitimlar bank va sanoat sektorlari emitentlarining qimmatli qog‘ozlari bilan amalga oshirildi. Bank sektori emitentlarining qimmatli qog‘ozlari bilan 26042 ta bitim tuzildi, bu birja bitimlari umumiy sonining 32,26 foizini tashkil etdi[5].

Moliya bozori har qanday mamlakatning umumiy bozorini tarkibiy, ammo, asosiy va alohida qismidir. Bunda moliya bozori real iqtisodiyot va tovar bozorining ustqurmasi sifatida namoyon bo‘lishi bilan birga tovar bozori va iqtisodiyotni moliyaviy ta’minlaydi va muvofiqlashtiradi, umuman iqtisodiyotning ob’ektiv holatini ifodalaydi va rivojlanishini belgilaydi.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, rivojlangan xorijiy mamlakatlarda moliya bozori orqali, bir tomondan davlat korxona va tashkilotlar, aholi o‘zlari uchun zarur bo‘lgan mablag‘ni jalb qilsalar, ikkinchi tomondan korxona, tashkilot va aholi o‘zlarining vaqtincha bo‘sh turgan pul mablag‘larini qimmatbaho qog‘ozlar sotib olishga yo‘naltirib foyda ko‘radilar. Moliya bozorining investitsion faolligini oshirish, nafaqat, aktivlar qiymati va savdo hajmlarining o‘sishi bilan birga olib borilishi kerak, balki qimmatli qog‘ozlar bozorining barcha ishtirokchilari faoliyati ta’minlanishi zarur.

Moliyaviy bozorlar va ularning samarali ishlov berishidagi moliyaviy resurslar, iqtisodiyotning mustaqil va barqaror rivojlanishini ta’minlash uchun katta ahamiyatga ega. Davlatlar, tadbirkorlar va jamiyat o‘rtasidagi ishtirokni kuchaytirish, moliyaviy bozorlar va ularning samarali ishlov berishini ta’minlash, yangi imkoniyatlar yaratish va boshqa iqtisodiyot tizimlarga o‘xshash yutuqlarga erishish uchun samarali strategiyalarni rivojlantirishlari lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Sattarov B. Moliya darslik Toshkent. Moliya inst.-2005 y. 132-bet.
2. Vahobov A.V., Malikov T.S. Moliya. Darslik. Moliya instituti. - Toshkent: “Noshir”, 2012. 712-bet.
3. Frederick S. Mishkin, Kent Matthews and Massimo Giuliodori. The economics of money, banking and financial markets. UK. Pearson, 2013. P.3.; Frederic S. Mishkin, Stanley G.Eakins. Financial markets and institutions. USA. Prentice Hall, 2012. P.2.

4. Allayarov, S. (2018). Theoretical Study of Optimal Fiscal and Monetary Policies for Stimulating Economic Growth. Research Journal of Finance and Accounting, 9(8), 206-212.
5. https://www.stat.uz

УДК: 330.1

ЭКОНОМИЧЕСКАЯ ТЕОРИЯ В СИСТЕМЕ ЭКОНОМИЧЕСКОГО ОБРАЗОВАНИЯ: СОВРЕМЕННЫЕ ВЫЗОВЫ И НАПРАВЛЕНИЯ РАЗВИТИЯ

ИҚТИСОДИЁТ НАЗАРИЯСИ ИҚТИСОДИЙ ТАЪЛИМ ТИЗИМИДА: ЗАМОНАВИЙ МУАММОЛАР ВА РИВОЖЛАНИШ ЙЎНАЛИШЛАРИ

ECONOMIC THEORY IN THE SYSTEM OF ECONOMIC EDUCATION: MODERN CHALLENGES AND DIRECTIONS OF DEVELOPMENT

Юлдашев Шухрат Ганиевич д.э.н., профессор кафедры Экономическая теория, Национального университета Узбекистана имени Мирзо Улугбека

Аннотация

В статье рассматриваются изменения условий функционирования мировой экономики и их значение для развития экономической теории в условиях трансформации институциональных механизмов. Обосновывается необходимость актуализации дисциплины «Экономическая теория» в системе экономического образования с учётом возрастания роли государства и изменения механизмов экономического развития. Показана методологическая значимость интеграции национального контекста в базовый курс экономической теории на примере Республики Узбекистан. Определены основные направления обновления дисциплины, ориентированные на формирование аналитического и адаптивного экономического мышления.

Ключевые слова: экономическая теория, экономическое образование, институциональные трансформации, мировая экономика, роль государства, гибридные институты, устойчивость и адаптация, национальный контекст.

Ushbu maqolada jahon iqtisodiyotida yuz berayotgan o‘zgarishlar va institutsional mexanizmlar transformatsiyasini iqtisodiy nazariyani rivojlanishiga bo‘lgan ta'siri ko‘rib chiqiladi. Unda davlat rolini ortib borishi va iqtisodiy rivojlanish mexanizmlarining o‘zgarishi sharoitida iqtisodiy ta'lim tizimida «Iqtisodiyot nazariyasi» fanini yangilash va takomillashtirish zarurati asoslab berilgan. O‘zbekiston Respublikasi misolida «Iqtisodiyot nazariyasi» fanining bazaviy kursiga milliy kontekstni integratsiya qilishning metodologik jihatlari asoslab berilgan. Analitik va moslashuvchan iqtisodiy tafakkurni shakllantirishga yo‘naltirilgan holda fanni yangilashning asosiy yo‘nalishlari belgilangan.

Kalit so‘zlar: iqtisodiy nazariya, iqtisodiy ta'lim, institutsional transformatsiyalar, jahon iqtisodiyoti, davlatning roli, gibrid institutlar, barqarorlik va moslashuvchanlik, milliy kontekst.

This article examines changing conditions in the global economy and their significance for the development of economic theory amidst the transformation of institutional mechanisms. It substantiates the need to update the discipline "Economic Theory" in the economic education system, taking into account the growing role of the state and changing mechanisms of economic development. The methodological significance of integrating the national context into the basic course of economic theory is demonstrated using the example of the Republic of Uzbekistan. Key areas for updating the discipline, aimed at developing analytical and adaptive economic thinking, are identified.

Keywords: economic theory, economic education, institutional transformations, global economy, role of the state, hybrid institutions, sustainability and adaptation, national context.

Экономическая теория традиционно занимает центральное место в системе экономического образования, формируя у студентов базовые представления о механизмах функционирования экономики, закономерностях развития рынков, роли государства и институтов. Именно эта дисциплина задаёт методологические ориентиры для изучения прикладных экономических наук и во многом определяет характер экономического мышления будущих специалистов, исследователей и управленцев.

В то же время в последние годы всё более отчётливо проявляется разрыв между содержанием классических курсов экономической теории и реальными процессами, происходящими в мировой и национальных экономиках. Глобальная экономическая система вступила в фазу глубоких структурных и институциональных изменений, сопровождающихся усилением роли государства, ростом неопределённости, нарушением устойчивых экономических связей и трансформацией традиционных механизмов регулирования. Эти процессы оказывают прямое влияние не только на экономическую практику, но и на требования к теоретическому осмыслению хозяйственного развития [1, 3, 4].

В условиях, когда экономическая политика всё чаще ориентируется не только на достижение эффективности, но и на обеспечение устойчивости, адаптивности и социальной стабильности, возникает объективная необходимость актуализации содержания экономической теории как учебной дисциплины. Речь идёт не об отказе от фундаментальных положений классической и неоклассической экономической науки, а о расширении и углублении теоретического инструментария с учётом современных институциональных реалий [5].

Особую значимость данная проблема приобретает для стран с формирующимися и переходными экономиками, включая Республику Узбекистан. Здесь экономическая теория должна не только выполнять образовательную функцию, но и служить интеллектуальной основой для анализа национальных моделей развития, оценки роли государства и выработки долгосрочных стратегий социально-экономического роста [6, 7].

В статье предлагается концептуальный подход к осмыслению роли и содержания экономической теории в системе экономического образования.

